O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

# “AKTYORLIK MAHORATI” fanidan

## O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Bilim sohasi: 100 000-Gumanitar soha**

**Ta’lim sohasi: 150 000-San’at**

**Ta’lim yo‘nalishi: 5150300- Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha)**

TOSHKENT – 2014

**«Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati» kafedrasi**
**«AKTYORLIK MAHORATI» (турлари бўйича)**
**fanidan**
**O‘QUV -USLUBIY MAJMUA**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “**AKTYORLIK MAHORATI**” fani bo‘yicha yaratilgan bo‘lib, unda mazkur fanning namunaviy, ishchi dasturlari, amaliy mashg‘ulotlarning mavzulari, fan bo‘yicha testlar, glossariy, baholash mezonlari, mavzular bo‘yicha texnologik xaritalar, ta’lim texnologiyalari, ma’ruza matnlari, hamda majmuaga ta’lluqli barcha materiallarning elektron shakllari jamlangan.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua 5150300- Aktyorlik san’ati(turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

**Tuzuvchilar:**
Maxmudova X. A. - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsenti.

Axmedova Z. A. - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi dotsenti

Dadamirzayev O.R. - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi katta o’qituvchisi

Qobilov H.N. - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi o’qituvchisi

Qalandarov U.N. - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi o’qituvchisi

**Taqrizchilar:**
Abbasov SH. S. - Xalq artisti, professor, Davlat mukofoti sovrindori.

Umarov V. M. - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbek teatr IICHB direktori

O‘quv-uslubiy majmua O‘zDSMI Badiiy O‘quv-uslubiy kengashining 2013__ yil __ ___________dagi ___- sonli qarori bilan tavsiya etilgan

**O‘QUV- USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI**


**1. O‘quv dasturi** **4 bet**

**2. Ishchi dasturi** **15 bet**

**3. Ta’lim texnologiyasi** **19 bet**

**6. Nazorat uchun savollar (J.N., O.N.,Y.N.)** **47 bet**

**4. Masalalar, mashqlar to‘plami** **61 bet**

**5.Testlar** **86 bet**

**8. Glossariy** **112 bet**

**9. Adabiyotlar ro‘yxati** **126 bet**

**10. Ma’ruza matni** **135 bet**

**11. Kurs ishlari** **251 bet**

**12. Baholash mezonlari** **254 bet**

**13. Normativ hujjatlar** **260 bet**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olindi<br><br>№ ___________________<br><br>201__yil «____» ________ | O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 201__yil «_____»_________dagi _______ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan |

# AKTYORLIK MAHORATI

## FANINING

## O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 - Gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 150 000 - San’at

Ta’lim yo‘nalishi: 5150300 - Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha),
5111000- Kasb talimi ( yo`nalishlar bo‘yicha)
5150400- Rejissyorlik (turlari bo‘yicha)

**TOSHKENT – 201_**

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi yo’nalihslari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201_ yil «____» ___________ dagi ______ -sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Axmedova Z.A. - O‘zDSMI, “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi mudiri.

Dadamirzayev O.R. - O‘zDSMI, “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Ashurova M.X. - O‘zDSMI ,“Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi dosenti.

Abdullayev D.D. - O‘zDSMI, “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi mudiri.

**Taqrizchilar:**

Abbasov SH.S. - O‘zbekiston xalq artisti**,** Davlat mukofoti sovrindori, professor.

Azizov T.T - O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, O‘zbek Milliy Akademik drama teatri aktyori va rejissyori, professor.

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti O‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan ( 201_ yil _________ dagi «____» - sonli bayonnoma).

## Kirish

Mazkur dasturda bo‘lajak aktyorlarni tayyorlash va ularni tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar aks ettirilgan. Professional tarbiya, K.S.Stanislavskiy, uning izdoshlari; YE. Vaxtangov, V. Meyerxold, M. Chexov hamda SH.Abbasov, M.Abdullayeva, X. Maxmudova, J.Maxmudov, V.Iogelsen, S.Obrazsov, SH.Yusupov, M.Ashurovalar tomonidan ishlab chiqilgan o‘qitish uslubiyatiga tayanadi.

Ushbu dasturda o‘quv fanining maqsadi, vazifalari ko‘rsatilgan. Shu bilan birga “Aktyorlik mahorati”ning maqsadi bilim, malaka va ko‘niklalarga talablar, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ko‘rgazmalilik va o‘qitishda zamonaviy vositalarni qo‘llash, dars jarayonida talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari masalalari yoritilgan. Talabalarning mustaqil ta’lim olishini boshqarish, ta’lim jarayonida interfaol metodlarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

## Fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi - o‘qitish jarayoni nazariy bilimlarni amaliy jihatdan o‘zlashtirish hamda aktyor shaxsni tarbiyalash kabi unsurlarni bir-biri bilan uzviy bog‘liklikda olib borishni shakllantirish.

Faning asosiy vazifasi - o‘quv jarayonining birinchi bosqichida sahnada tabiiy holatni yaratish; oddiylikdan asta-sekin murakkablikga o‘tish; muallif tomonidan berilgan shart-sharoitda yashash; ertak, tarixiy, fojeaviy, komediya, vodevil kabi turli janrlarga murojaat qilinish; aktyorni timsol qiyofasida qayta gavdalanishi; ham ichki, ham tashqi holat va xususiyatlarini yarata olishlik; bir yoki ikki diplom spektakli tayyorlash va katta sahnada ko‘rsatish; barcha o‘zlashtirgan ijro usullarini namoyish etish.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

Aktyorlik mahorati fanini o‘rganish jarayonida bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim:

- ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va strategiyasi; g‘oyaviy va chuqur mazmunli repertuar tanlash;
- badiiy obraz yaratishda tashqi va ichki harakat yaxlitligini ta’minlash;

- obrazning yetakchi xatti-harakatini aniqlash va unga amal qilish;

- obrazning ikkinchi planni aniqlash; obrazning oliy maqsadini aniqlash va maqsadga muvofiq xatti-harakat qilish;

- rol ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish; xarakter yaratish va uning ifodaviy vositalarini topish; obrazni badiiy yaxlit xolatga olib kelish haqida.

- shaxsning ma’naviy-ahloqiy sifatlarini faol shakllantirib keyingi amaliy faoliyatida ta’lim jarayonini pedagogik texnologiya tamoyillariga mos ravishda maqsadga muvofiq tashkil etish va amalga oshirish;

- pyesani sahnaviy talqinini tahlil qilish;

- voqeaning atmosferasini aniqlash; berilgan shart–sharoitni o‘zlashtirish;

- voqeaning tempo–ritmni aniqlash; rolning intilishni (istiqbolini) aniqlash;

- obrazning harakatidagi o‘zgarishini aniqlash; obrazning nutq partiturasi ustida ishlash;

- janr talablari kelib chiqib matn ustida ishlash; janr talablaridan kelib chiqib xarakter yaratish; badiiy yaxlit obraz yaratish;

- o‘qitish va bilimni diagnostika hamda nazorat qilishning turli vositalari va usullaridan samarali foydalanish, o‘zining talablari va ta’lim standartlarining yangi talablariga mos ravishda mustaqil yangi metodik usullarni bilishi;

- badiiy adabiyotlar bilan samarali ishlash;

- dastur asosida o‘quv materiallarini didaktik tuzish; sahnada she’rlar, masallar, badiiy asarlardan parchalar o‘qish; asar mavzusi va g‘oyasini ijroda ochish;

- sahnada o‘zini obraz qiyofasida tutish; psixologik kechinmali obrazlar yaratish;

- kulguli fe’l – atvorli obrazlar yaratish; partnyor bilan muloqatga kirishish; sahnada muxit xaqiqatini yaratish; shart – sharoitga mos tabiiy harakat qilish; asar g‘oyasini tomoshabinga yetkazish; tomoshabin bilan muloqotdan so‘ng o‘z ijrosini tahlil qila bilish; har safar o‘ziga xos obraz yaratishni bilish, ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

**Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi**

Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar aktyorlik mahoratidan yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim Aktyorlik mahorati “Sahna nutqi”, “Sahna harakati”, “Rejissyorlik mahorati”, “Qo‘g‘irchoq yasash texnalogiyasi”, “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”, “Qo‘g‘irchoq teatri tarixi”, “Raqs”, “Ritmika”, “Vokal” va boshqa fanlarni o‘rganishda asos bo‘lib hizmat qiladi.

**Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning aktyorlik mahorati fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot– pedagogik

texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, plakatlardan foydalaniladi.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

**Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma’ruza) fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.
Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, teatr san’atida bo‘layotgan o‘zgarishlar, qo‘g‘irchoq teatridagi ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘ngti yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

**Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**
**Aktyorlik mahorati asoslari**

Teatr san’atining o‘ziga xosligi. Teatr san’ati – sintez san’at. Diqqat - ijodning asosiy omili. Diqqat turlari va uning bosqichlari. Tasavvur va fantaziyani rivojlantirish mashqlarining o‘rni. Sahnaviy xatti-harakat ahamiyati. Qabul (idrok) qilish va kuzatuvchanlik. Sur’at va maromning aktyor ijodidagi o‘rni. Hissiyot va marom haqidagi tushunchalar. Sezish va xis qilish xotirasi. Tasavvurdagi buyumlar bilan xatti-harakat.

**Aktyor tarbiyasining asosiy tamoyillari**

Badiiy saviyani o‘stirish. Estetik tarbiya va intizom. Rol ustida ishlash. Ijodiy siqiqlik va aktyor ijodida fikr jamlash ahamiyati. Plastik harakatning asosiy qonuni. Ichki va tashqi erkinlik. Mushaklar erkinligi va sahnaviy diqqat. Voqelikni oqlash. Sahnada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tasodiflar va ularni oqlash. Pyesa va rolning xatti-harakat tahlili. Parchani etyud asosida ishlash usuli. Xatti-harakat asoslari. “Agarda?” berilgan shart-sharoit. Bo‘laklar va vazifalar. Rolni analiz qilishda katta va kichik bo‘laklarning ahamiyati. Elementar-psixologik vazifalar ahamiyati. Sahnaviy munosabat. Oliy maqsad. Yetakchi xatti-harakat. Sahnaviy voqealar tizimi. Yetakchi xatti-harakat

**Obraz ustida ishlash uslubiyatlari**

Kechinma san’at va “Beixtiyoriy ijod”. K.S.Stanislavskiy sistemasini yaratilishi. Usul va tizim. Rol ustida ishlash. Rol xayotining tashqi tomoni.

Janr va ijro uslubiyat. Voqealar tizimi, shart-sharoitlar, xatti-harakat, yetakchi xatti-harakat. V.Shekspirning “Romeo va Djuletta” pyesasi asosida tahlil. Spektakl ustida ishlash jarayoni. Rolning oliy maqsadi. Artist rolining yetakchi xatti-harakati. So‘z ustida ishlash jarayoni. Spektaklning muxiti (Atmosfera). Muhit va ijro. Obyektiv muxit va subyektiv xis – tuyg‘u

- Muxit va mazmun. Muxit burchi. Xatti-harakat. Psixofizik jarayon va uning bosqichlari. Aktyorni obraz ustida ishlashi. Ruhiy xatti- harakat. Aktyor ijodida sodda jismoniy harakatlarning ahamiyati. Aktyorning professional etikasi. Aktyorlik mahorati ta’limoti. Stanislavskiy sistemasining 5-ta tamoyili haqida. Spektakl jarayonida xatti-harakat. Jismoniy harakat va biomexanika usuli. Spektakl jarayonida improvizatsiya (badiyxa). Moslama. Matn moxiyatini aniqlash. Tabiiy ijod orqali berilgan siymo-timsol (obraz).

## Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha mashg‘ulotlar asosan, amaliy tarzda o‘tiladi. Amaliy mashg‘ulot olib borilar ekan, bu jarayonda insonning butun ruhiy va jismoniy a’zolari faol bo‘lishligi muhimdir. Mashqlar barcha hissiy va sezgi a’zolarining charxlanishiga xizmat qilishi kerak. Talaba tomonidan sahna sharoitida atrof-muhitni qabul qilish, ko‘rish, sezish, eshitish, his qilish kabi unsurlarni yangitdan o‘zlashtiriladi va nazariy bilimlarni mashq, etyud, parcha, spektakl ustida ishlash jarayonida amaliy mustahkamlanadi.

## Amaliy mashg‘ulotlar uchun taxminiy tavsiya etiladigan mavzular
## Aktyorlik mahorati asoslari

- Diqqat mashqlari.
- Mushaklar erkinligi-mashqlar.
- Sahnaviy ishonch –mashqlar.
- Tasavvur va fantaziyani rivojlantirish mashqlar.
- Sahnaviy xatti harakat-mashqlar.
- Qabul (idrok) qilish va kuzatuvchanlik-mashqlar.
- Sur’at va marom –mashqlar.
- Hissiyot va marom-mashqlar.
- Sezish va xis qilish xotirasi-mashqlar.
- Tasavvurdagi buyumlar bilan xatti harakat-mashqlar.

## Rol ustida ishlash tamoiylari
## Aktyor tarbiyasining asosiy tamoyillari

- Rol ustida ishlash.
- Ijodiy siqiqlik va aktyor ijodida fikr jamlash bo‘yicha amaliy ish.
- Plastik harakatlar bo‘yicha amaliy ishlar.
- Ichki va tashqi erkinlik.
- Mushaklar erkinligi va sahnaviy diqqat.
- Voqelikni oqlash.
- Sahnada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tasodiflar va ularni oqlash.
- Pyesa va rolning xatti-harakat tahlili.
- Parchani etyud asosida ishlash usuli.
- Xatti harakat.
- “Agarda?” berilgan shart sharoit.
- Bo‘laklar va vazifalar.
- Rolni analiz qilishda katta va kichik bo‘laklarning ahamiyati.
- Elementar- psixologik vazifalar.
- Sahnaviy munosabat .
- Oliy maqsad.
- Yetakchi xatti-harakat.
- Sahnaviy voqealar tizimi.
- Yetakchi xatti-harakat.

## Obraz ustida ishlash uslubiyatlari

- Obraz ustida ishlash.
- Obraz xayotining tashqi tomoni.
- Janr va ijro uslubiyat.
- Voqealar tizimi, shart-sharoitlar, xatti-harakat, yetakchi xatti-harakat .
- V.Shekspirning “Romeo va Djuletta” pyesasi asosida tahlil.
- Spektakl ustida ishlash jarayoni.
- Rolning oliy maqsadi.
- Artist rolining yetakchi xatti-harakati.
- So‘z ustida ishlash jarayoni.
- Spektaklning muxiti (Atmosfera).
- Muxit va ijro.
- Obyektiv muxit va subyektiv xis – tuyg‘u.
- Muxit va mazmun. Muxit burchi.
- Xatti-harakat.
- Aktyorning obraz ustida ishlashi.
- Ruhiy hatti- harakat.
- Aktyor ijodida sodda jismoniy harakatlarning ahamiyati.
- Spektakl jarayonida xatti-harakat.
- Jismoniy harakat va biomexanika.
- Spektakl jarayonida improvizatsiya (badiiyxa).

- Moslama.
- Matn moxiyatini aniqlash .
- Tabiiy ijod orqali berilgan siymo-timsol(obraz).

## Yakka ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Yakka ishlarda talaba-aktyorlar 4 yillik o‘qish davomida, ya’ni 8 semestr mobaynida aktyorlik maxorati faninini o‘zlashtiradilar. Aktyorlik mahorati bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malaka xosil qiladilar

Yakka ishlarining bu qismlarida quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
- Aktyorlik mahorati asoslari. Mashqlar.
- Etyud ustida ishlash.
- Adabiy parcha ustida ishlash.
- Klassik asarlardan parchalar ustida ishlash.
- Diplom proyektlari ustida ishlash.
- Diplom spektaklda timsol yaratish.
- Yaxlit dramatik asar ustida ishlash.
- Katta sahnada spektakl ustida ish.

## Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabaning o‘z ustida va rol ustida mustaqil ravishda ishlashiga alohida e’tibor qaratish tavsiya etiladi. «Ko‘chirmachilik», «havaskorlik» darajasidagi ijroga qarshi kurash olib borish lozim. Har bir berilgan rol talabadan chuqur bilim va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Tanlangan mavzular talaba tomonidan mustaqil tahlil etilib, ishlanadi. Buning uchun o‘z mulohazalarini, hayotiy tajribasini, kuzatuvchanligini, albatta, boyitib borishi kerak.

Katta sahnada spektakl topshirilgandan so‘ng, ish nihoyasiga yetdi deb hisoblab bo‘lmaydi. Har bir spektakldan so‘ng u muhokama etiladi va ijrochilar tomonidan rol charxlanib boradi.

Talabalar oxirgi kurslarda bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun qo‘shimcha ravishda kino, TV, professional teatrlarda yetakchi va epizodik rollarni ijro etishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon talabaning kasb mahoratini oshirishda yordam beradi. Aktyorlik mahorati bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni rejissyor sifatida ijrochilarga sindirishga xarakat qiladi.

“Aktyorlik mahorati” fani bo‘yicha mustaqil ishlarda asosan amaliy mashg‘ulotlar, ya’ni mashqlar, etyudlar, adabiy asar va pyesalardan olingan parchalar, diplom spektaklda turli xarakterga ega bo‘lgan rollar ustida ishlanadi.

Aktyorlik mahorati bo‘yicha diplom spektakl ustida ishlash jarayonida mustaqil ish quyidagi tartib bo‘yicha olib boriladi:

- Uyda yaxlit dramatik asar taxlili bajarib keladi.
- Muallif tomonidan berilgan shart-sharoit doiralarini xatti-xarakatlar orqali o‘zlashtiriradi
- Ichki monolog, ruhiy va jismoniy harakatlar tizimini topadi
- Qaxramonning munosabatlari, xatti–harakati, qarama-qarshiliklarini aniqlaydi.
- Pyesaning matni ustida ishlaydi.

- Uslub, janr, davrni o‘zlashtiradi.
- Avtor so‘zining tub ma’nosiga yetib borib, ta’sirchanligi ustida ishlaydi.
- Obraz ustida mustaqil ishlaydi.

Diplom spektakl professional talablardan kelib chiqib, katta sahnada ishlashni nazarda tutgan va unda aktyorning ifodaviy vositalarni katta sahna qonun-qoidalariga bo‘ysindirish bo‘yicha ish olib boriladi va mustaqil ishlanganda quyidagi talablarga rioya etishlik talab qilinadi.

- Plastik, nutq, ichki hissiyotlar ifodaviyligi
- Berilgan maydon va makon kompozitsiyasini his qilish
- Janr,uslub, spektakl va qaxramonning maromi (tempo-ritm)
- Spektakl davomida uzliksiz xatti-harakatga erishish
- Spektaklda sahnaviy muhit va rol ijrosi
- Timsoliy (obrazli) fikrlash, timsolning ildizini (zerno obraza) topish.

Kurs va diplom ishlari yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan adabiy va dramatik asarlar asosida olib borilishi tavsiya etiladi. Spektakllar umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy boyligini tarannum etuvchi, umumbashariy muammolarni aks ettiruvchi mavzularga bag‘ishlanishi kerak.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

### Asosiy adabiyotlar

1. Zoxidova N. Toshxo‘ja Xo‘jayev. – T., 1998.
2. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. - T., 2005.
3. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. - T., 2006.
4. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura asoslari. - T., 2008.
5. Mahmudova H. Aktyorlik mahorati. – T.: O‘zDSI, 2008.
6. To‘laxo‘jayeva M.T. O‘zbek drama teatrining rejissurasi. – T., 1995.
7. Usmonov R. Rejissura. - T., 1997.
8. Yusupova M.R. Istoriya professionalnoy rejissuri Uzbekistana.- .: O‘zDSI, 2004.
9. M.Abdullayeva Aktyorlik maxorati asoslari – Toshkent T.: O‘zDSI. 2010 y.
10. O.Salimov Kasbim Rejissyor. Toshkent T.: O‘zDSI . 2009 y.
11. Ashurova M. H. Qo‘g‘irchoq teatrida sahnaviy obraz yaratishning asosiy yo‘nalishlari. –T., 2006.
12. Ashurova M.H. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori bo‘limi talabalarida qo‘g‘irchoqning badiiy ifodalash hususiyatini tarbiyalash. –T., 2006.
13. Ashurova M.H. Qo‘g‘irchoq teatri san’ati aktyorlik maktabi. –T., 2007.
14. Istiqlol va milliy teatr. To‘plam. –T., 2002.
15. Shukurov O‘. Milliy teatrimiz namoyondalari. –T., 2002.
16. Qoraboyev U. Ommaviy badiiy tadbirlar. –T., 1991.
17. Usmonov R. Rejissura. - T., 1997.
18. Yusupova M.R. Istoriya professionalnoy rejissuri Uzbekistana.-T.: O‘zDSI

19.M.Abdullayeva  Aktyorlik maxorati asoslari – Toshkent T.: O‘zDSI 2010 y.
20.O.Salimov    Kasbim Rejissyor.  Toshkent T.: O‘zDSI . 2009 y.

## Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Jalilova F.  Grim. - T., 2008.
2. Qurbonova SH.  T.Azizovning rejissyorlik faoliyati. - T., 2004.
3. Mahmudov J.  O‘zbekiston teatrlari.  - T ., 1997.
4. Rahmonov M.R., To‘laxo‘jayeva M.T., Muxtorov I.A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. -  T., 2003.
5. Rizayev O.   Nabi Rahimov. - T.,1997.
6. Rizayev SH.  Jadid dramaturgiyasi. - T., 1998.
7. Yusupova M.R.  Uprajneniya po aktyorskomu treningu. - T., 2005.
8. K.S.Stanislavskiy – Aktyor o‘z ustida ishlashi –T.Xo‘jayev tarjimasi
9. K.S.Stanislavskiy –  San’atdagi xayotim –J.Obidov tarjimasi

## Internet va ZiyoNET saytlari

1. www.senat. gov.uz
2. www.parliament.gov.uz
3. www.gov.uz
4. www.uza.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.infocom.uz
7. www.uzreport.com
8. www.jahonnews.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olindi**:** | “TASDIQLAYMAN” |
| | O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor |
| №___________________ | ______ __________________ |
| 2014 yil “____” _______ | “____” _______ 2014 yil |

# AKTYORLIK MAHORATI

# FANINING

# ISHCHI O`QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 | - Gumanitar |
| Ta’lim sohasi: | 150 000 | - San’at |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5150300 | - Aktyolik san’ati (turlari bo‘yicha) |

**Toshkent-2014**

Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Maxmudova X. A. **–** O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsenti;

Axmedova Z. A. **-** O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi dotsenti.

**Taqrizchilar:**

Abbasov SH.S. **–** Xalq artisti**,** professor. Davlat mukofoti sovrindori. "Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati" kafedrasi professori;

Umarov V. M. – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbek Milliy Akademik drama teatri bosh rejissyori.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasining 201_yil “___” ________dagi “___” - son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: ____________ Z.Axmedova**

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Teatr san’ati”fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2013 yil __ _______dagi ___ - sonli bayonnoma).

**Fakultet kengashi raisi:____________ Shodiyev X.H.**

**Kelishildi: O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i**

**______________ O‘rozov A.**

## 1. Kirish

San’at va adabiyotning jamiyatdagi muhim o‘rni va hususiyatlarini inobatga olgan xolda, Respublikamiz raxbariyati san’at soxasida yosh mutaxassislarni tarbiyalashni yanada takomillashtirish yuzasidan so‘ngi yillarda ko‘plab muhim qarorlar qabul qildi.

Milliy teatr maktabi bu borada qo‘lga kiritgan yutuqlarini avaylab- asrab ularga ijodiy yondoshgan holda, kelajakda teatr san’atini yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarishga qodir mutaxassislarni tarbiyalab chiqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Mazkur dasturda bo‘lajak aktyorlarni yetishtirib chiqarish va ularni tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar aks etdirilgan.

Oliy ta’lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy va xayotiy muammolarni mustaqil hal qilaoladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta’lim jarayonini zamonaviy o‘quv va metodik majmualar bilan ta’minlash muhim axamiyatga ega.

Fanning nazariy va metodologik asosi ulug‘ san’atkor ustozlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘qitish uslubiyatiga tayanadi.

Shuningdek bu uslubiyat, o‘zbek xalqinig bir qator yetuk aktyorlari: A.Xidoyatov,SH. Burxonov, S.Eshonto‘rayeva, N.Raximov Q.Xo‘jayev, SH.Mag‘zumova hamda bugungi kunda samarali ijod qilayotgan: T.Azizov, Y.Abdullayeva, T.Yusupova kabi san’atkorlar tajribasiga tayanadi. Mazkur dasturni tayyorlash chog‘ida Toshkent teatr va rassomchilik institutida uzoq yillar faoliyat ko‘rsatgan o‘qituvchilar T.Isroilov, N.Aliyeva , L.Xodjayeva, R.Sayfuddinov, M.A.Rubenshteyn, V.Radun, O.M.Chernova, X.M.Kojevnikov, kabi ustozlarning o‘qituvchilik tajribalalarini ham e’tiborga olingan.

Garchand “Aktyorlik mahorati” darslari asosan “ustoz-shogird” tizimiga tayansada, talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko‘rishlari, rol ustida mustaqil ishlashi uchun, badiiy adabiyotlar o‘qish bilan birgalikda mashhur rejissyor va aktyorlarning ijodiy tajribasiga tayanib, ular haqidagi kitoblardan muntazam ravishda foydalanib borishlari zarur. Xozirgi kunda zamon talablaridan kelib chiqib, kino, televideniye, radio, ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar keng rivojlanib, to‘laqonli ijodiy faoliyat ko‘rsataoladigan san’atkor aktyorlarga talab ortib bormoqda.Mazkur talablardan kelib chiqqan holda, keng qamrovli ijodiy faoliyat yurita oladigan aktyorlarni tarbiyalash dolzarb muammolardan hisoblanadi.

### Fanning maqsad va vazifalari.

Aktyorlik mahorati fanining asosiy maqsadi aktyorlik kasbiga layoqati bor yoshlarni yuksak mahoratli,zamonaviy va mumtoz dramatik asarlarda turli harakterga ega qahramonlar timsolini sahnada yarata olish solihiyatiga ega san’atkor kadrlarni tarbiyalashdan iborat.Buning uchun talabada mavjud ammo hali ochilmagan iste’dod qirralarini ochish, ovoz, plastik harakatlar, tomoshabinga ta’sir o‘tkazish usullaridan sahnada foydalanaolish qobiliyatini o‘stirish kabi vazifalarni belgilaydi.

### Fanni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar.

Aktyorlik mahorati fanini o‘zlashtirish uchun, asosiy e’tibor amaliy mashg‘ulotlar orqali mahoratning unsurlarini mukammal egallashga qaratiladi. Fan 1-2-3-4-5-6-7-8 semestrlarda o‘rganiladi. Talabadan san’atning barcha turlari haqida, ularning tarixi, rivojlanish bosqichlari, dramaturgiya va adabiyot borasida tasavvurga ega bo‘lishi; ijtimoiy gumanitar fanlar to‘g‘risida nazariy bilimlarga ega bo‘lishi,kasbiy ko‘nikmalarni egallashi ko‘zda tutiladi. O‘quv jarayoning dastlabki kunlaridanoq, talabalarda mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash, izlanish

layoqatini o‘stirish uchun maxsus mashqlar ishlab chiqiladi va ular bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boriladi.

**Fan bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga quyiladigan talablar**

**Bakalavr:**

- teatr va kino sohasida ijodiy izlanishlar va yutuqlar;
- aktyorlik san’ati sohasida maktab va yo‘nalishlar;
- professioanl teatrdagi ijodiy va ishlab chiqarish jarayoni;
- dramatik teatr rejissurasi;
- aktyor ijodiyoti psixologiyasi;
- aktyor va rejissyor kasbining jamiyatdagi ***o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;***
  - dramatik asarning xatti – xarakat taxlilini;
  - aktyorlik ta’limning professional tizimini;
  - ijodda o‘z tabiatini jarayonga singdira olishi;
  - spektakl ustida ish jarayonida etyud uslubiyatini;
  - ijod jarayonida sahna makon va ma’romini;
  - o‘z ijodida klassik va zamonaviy dramaturgiyadan foydalanish;
  - rol ustida ishlash jarayonida badiiy va xujjatli manbaalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
  - rol ustida ishlash jarayonida ichki va tashqi xarakter yaratish;
  - so‘z xarakati va so‘z ta’sirchanligiga erishish;
  - kostyum va grimdan foyidalanish;
  - katta sahnada tabiiy xarakat qilib ijod qilish;
  - turli janr va uslublarda rol ijro etish;
  - rol ustida mustaqil ravishda ishlash;
  - spektakl va kinoda obraz yaratish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;***

Aktyorlarni o‘qitish jarayoni bir yoki ikki diplom spektakli tayyorlab katta sahnada ko‘rsatish bilan yakunlanadi. Bu jarayonda talaba barcha o‘zlashtirgan ijro usullarini namoyish etish kerak.

O‘qitish jarayonida sahnada hayotiylik va «jonli» teatr yaratishga alohida e’tibor berilishi lozim.

Shakl va janrdan qat’iy nazar, sahnada rol ustida mustaqil ishlash uslubini chuqur egallagan, berilgan timsol qiyofasiga kira olish qobiliyatiga ega aktyordan «jonli» harakat qilish talab etiladi.

Dastur 4 yilga mo‘ljallangan. **O‘**quv dastur davlat standartlariga asoslangan holda quyidagi soatlardan kelib chiqib tuzilgan:

**Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Fan bakalavriatning 1-8 semestrlarda o‘qitiladi. Dramatik teatr va kino aktyorligi bo‘limlarda quyidagi ilmiy- amaliy fanlar bilan yaqin aloqa o‘rganiladi: Jaxon va o‘zbek adabiyoti, Jaxon va o‘zbek teatri tarixi, Jaxon va o‘zbek musiqa tarixi, Tasviriy san’at tarixi, Jahon madaniyati tarixi, Kino, televideniye va radio san’ati, Sahna nutqi, Grim, Rejissura

asoslari, Saxna texnikasi va texnologiyasi, Raqs, Saxna xarakati, Saxna jangi, Kinoda aktyorlik mahorati va boshqalar.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Mazkur fanni o‘rganish jarayonida: ma’ruza va amaliy, yakka tartibdagi mashg‘ulotlarida faol bo‘lish texnologiyalari, muammoli o‘qish, ijodiy psixofizik mashqlar orqali “o‘yin” texnologiyalaridan foydalaniladi. Ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya, yakka tartibdagi “Ustoz - shogird” tizimdan ko‘llanilishi nazarda tutilgan.

## 1-KURSLAR

| | | |
|---|---|---|
| *Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi* | ***O‘quv predmeti*** | *O‘kuv mashg‘uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni* |
| | **Dramatik teatrda rejissura** | №--- soat |
| *Sana:* | ***O‘quv guruhi –*** <br> ***Talabalar soni –*** | *O‘qituvchi:* |
| Mavzuning nomi: | Aktyorlik maxorati | |
| Ma’ruza rejasi: | Mashq va etyudlar ustida ishlash jarayoni. | |
| Asosiy adabiyotlar atama va tushunchalar | Diqqat doiralari, tasavvur va fantaziya, sifat va marom, mantiq va izchillik,, o‘zaro munosabat, ta’sir o‘tkazish, jismoniy erkinlik, ichki monolog, oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat., voqealar tizimi, moslashish.. | |
| Adabiyotlar ruyxati | Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965. <br> Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965. <br> J. Maxmudov. Aktyorlik mahorati. O‘zDSI, 2006. <br> M. Abdullayeva. Aktyorlik mahorati. <br> Zaxava B. Mastersvo aktyora i rejissera. M.:1973. <br> Yusupova. M.«Uprajneniya po aktyorskomu treningu».–T.: O‘zDSI, | |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi | 1. Talaba-aktyorning organikasini uyg‘otish <br> 2. Teatr san’atining barcha jabhalaridan xabardor bo‘lgan ijodkor shaxs - kadrni tayyorlash, amaliy va nazariy tomondan aktyorlik va rejissura san’atidan boxabar bo‘lish, ssenografiya, muzika sohasida davrning ilg‘or g‘oyalarini ilg‘ab olish, spektakl orqali badiiy g‘oyani ro‘yobga chiqarish. | |
| O‘qituvchi oldidagi vazifalar | Talablarni etyudlar ustida ishlash jarayoniga tayyorlash. <br> Sistemani unsur va atamalarini amaliyotda qo‘llash. <br> Aktyorlik maxorati maktablarini talabaga singdirish. | |

| | |
|---|---|
| O'quv faoliyatining natijalari | Talablarni etyudlar ustida ishlash a jarayonida to'g'ri xatti-harakat qila olishi..<br>Talabalar sistemani unsur va atamalarini o'zlashtirib, amaliyotda to'laqonli qo'llashlari.<br>Talabalar aktyorlik maxorati maktablarini to'liq egallashi. |
| O'qitish metodlari va texnikalari | Ma'ruza, mashqlar texnikasi, Akliy xujum, yakka tartibda ishlash, Ustoz shogird tizimida ishlash. |
| **O'qitish vositalari** | Ma'ruza matnlari audio-video vositalardan slayd, proyektor, kompyuter, internet materiallari, Aktyorlik maxorati bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish, spektakllardan video materiallar. |
| **O'qitish sharoiti** | Aktyorlik maxorati faniga moslashtirilgan sahnali ustaxona va o'quv teatr. |
| O'quv mashg'uloti uchun zarur bulgan bilim va malakalar | Mashqlar va etyudlar ustida ishlash haqida ilmiy va badiiy adabiyotlardan o'qish, etyudlarni sahnada amaliy ishlash. va tahlil qilish; qishgi va yozgi reyting ko'riklarda dastur talabi bo'yicha reyting ko'rigi topshirish |

| **O'qitish bosqichlari** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchi** |
| Tayyorlov bosqichi<br>(40 daqiqa) | Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi.<br>Mashg'ulotni o'tkazish shakli bilan tanishtiradi.<br>Baholash mezonlarini va adabiyotlar ruyxatini e'lon qiladi.<br>Asosiy adabiyotlar tayanch iboralarni o'qib, yozdiradi, amaliy sahnada mashqlar orqali ishlanadi.<br>Har bir talabaga (tarqatma material sifatida) ma'ruza matnini tarqatadi. | Eshitadilar amaliyotda bajaradilar.<br>Eshitadilar, yozadilar, sahnada amaliy xatti-harakatlar orqali bajaradi. |
| II. Asosiy adabiyotlar bosqich<br>(... daqiqa) | 2.1. Gippiusning "Xis tuyg'ular uchun ijodiy mashqlar" yordamida talabalarni faolashtiradi.<br>2.1.1. Etyudlar taxlili va uning sahnada ijrosi deganda nimalarga e'tibor bermoq kerak?<br>2.2. Fikrlarni umumlashtirib, Etyudlar taxlili va uning sahnada ijrosi tushunchasini yoritadi.<br>2.3. Tarqatilgan ma'ruza matnlariga diqqat-larini jalb qiladi. Amaliy mashqlar texnikasi yordamida matn mazmuni bilan tanishishni taklif kiladi.<br>2.4. Amaliy mashqlar texnikasi qoidasini tushuntiradi.<br>2.5. Bajarilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi.<br>2.6. Kompyuter, internet, proyektor, tasviriy san'at asarlari va tegishli adabiyotlar yordamida rejissura hamda aktyorlik san'atining mohiyati, | Sahnada etyud va mashqlar bajaradilar.<br>Eshitadilar, sahnada xatti-harakatlar orqali berilgan vazifani bajaradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | vazifalari, turlari, ko‘rinishlari va tahlil qilish usullari haqida tushuntirib beradi.<br>2.7. Aktyorlik san’atining omillarini yoritib beradi.<br>2.8. Aktyorlik san’atining haqida tushuncha beradi.<br>2.9. Mashqlar orqali aniqlangan, talabalarni qiziqtiruvchi savollarga chuqurroq to‘xtalib o‘tiladi.<br>2.10. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi.<br>1-gurux: Aktyorlik maxoratida partnyorlararo munosabat.<br>2-gurux: Sukut saqlash doirasida ichki tekst.<br>3-gurux: Podtekstlar orqali partnyorga ta’sir o‘tkazish.<br>4-gurux: Muhit o‘zgarishi bilan, aktyor kayfiyati o‘zgarishi.<br>2.11. Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash. | Eshitadilar, taxlil jarayonida faol qatnashadilar.<br><br>Kichik guruhlarda berilgan vazifalarni bajaradilar, kundalikga yozib, har bir guruxdan bittadan vakil chikib o‘z ishlarini amaliy,xatti-harakatlar orqali bajaradilar. Guruhlar bir-birining ishlarini tahlil qiladilar. |
| III. Yakuniy bosqich<br>( daqiqa) | Mashqlardan etyudlar tug‘ilishi, va taxlil.<br>Xatti-harakatda mantiq izchillik tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.<br>Ko‘rilgan amaliy ishlar bo‘yicha kursda taxlil ishlari.<br>Uyga vazifa beradi. | Xatti-harakatlar, vazifalar bajarilgandan so‘ng, taxlil ishlari.<br>Eshitadilar, yozib oladilar. |

**2-KURSLAR**

| *Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi* | ***O‘quv predmeti*** | *O‘kuv mashg‘uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni* |
|---|---|---|
| | **Aktyorlik mahorati** | № soat |
| *Sana:* | ***O‘quv guruhi –***<br>***Talabalar soni –*** | *O‘qituvchi:* |
| Mavzuning nomi: | Adabiy asarga o‘tish jarayoni.<br>Klassik asarlardan parchalar ustida ishlash. | |
| Ma’ruza rejasi: | Adabiy asar tanlash. Etyutdan parchaga o‘tish jarayoni. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoit doiralarni xatti-xarakatlar orqali o‘zlashtirish. Avtor so‘zini o‘zlashtirish, tub ma’nosiga yetib borish. Jonli va ta’sirchan ijro . Parchaning yaxlit asar g‘oyasiga bo‘ysindirish. | |

| | |
|---|---|
| Asosiy atama va tushunchalar | Diqqat doiralari, mantiq va izchillik,, o'zaro munosabat, ta'sir o'tkazish, jismoniy erkinlik, ichki monolog, oliy maqsad, yetakchi xatti xarakat., voqealar tizimi, moslashish.mizanssena, podtekst, xatti xarakat, tempo ritm, shleyf, natijani o'ynash, Xarakter, fe'l atvor,saxnaviy muxit, ikkinchi plan, yetakchi xatti xarakat, berilgan shart sharoit,voqealar tizimi, botiniy sezgi,xayoliy ichki ko'rish,badiiyxa va boshqalar. |
| Adabiyotlar ruyxati | Stanislavskiy K. S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>Stanislavskiy K. S. San'atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>J. Maxmudov. Aktyorlik mahorati. O'zDSI, 2006.<br>M. Abdullayeva. Aktyorlik mahorati.<br>Yusupova M. R. «Uprajneniya po aktyorskomu treningu».T., 2005 y.<br>6.V.Sundukova, Z.Axmedova –Stanislavskiy sistemasining atama va unsurlari – T.. -2012y. |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi | Talaba-aktyorning ichki layoqatini ochish. |
| O'qituvchi oldidagi vazifalar | Talablarni dramaturgiya ustida ishlash jarayoniga tayyorlash.<br>Sistemaning unsur va atamalarini amaliyotda qo'llash.<br>Aktyorlik maxorati maktablarini talabaga singdirish.<br>Talabalar bilan avtor bergan shart sharoitda xatti xarakat qilishini o'rgatish. |
| O'quv faoliyatining natijalari | Talablarni nasriy asarlar va dramaturgiya ustida ishlash jarayonida to'g'ri xatti xarakat qila olishi..<br>Talabalar sistemani unsur va atamalarini o'zlashtirib, amaliyotda to'laqonli qo'llashlari.<br>Talabalar aktyorlik maxorati maktablarini egallashi.<br>Talabalar bilan avtor bergan shart sharoitda xatti xarakat qilishni o'zlashtirishi. |
| O'qitish metodlari va texnikalari | Saxnada faol xatti-xarakatlar bilan mavzuni o'zlashtirish, ma'ruza, mashqlar texnikasi, Akliy xujum, yakka tartibda ishlash, Ustoz shogird tizimida ishlash. |
| **O'qitish vositalari** | O'quv saxnasi maydonidan foydalanish, ma'ruza matnlari, slayd, proyektor, kompyuter, internet materiallari, Aktyorlik maxorati bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish, spektakllardan video materiallar ko'rsatish.. |
| **O'qitish sharoiti** | Aktyorlik maxorati faniga moslashtirilgan saxnali ustaxona va o'quv teatr. |
| O'quv mashg'uloti uchun zarur bulgan bilim va malakalar | Dramaturgiya asosida ishlash, Aktyorlik maxorati maktabi haqida o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlardan o'qish, asarlarni saxnada amaliy ishlash. va tahlil qilish;, o'quv teatrda diplom spektakl ustida ishlash |

| **O'qitish bosqichlari** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchi** |

| | | |
|---|---|---|
| I. Tayyorlov bosqichi (45 daqiqa) | Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi, amaliyotda qo‘llaydi.<br>Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli bilan tanishtiradi.<br>Baholash mezonlarini va adabiyotlar ruyxatini e’lon qiladi.<br>Asosiy tayanch iboralarni O‘qib, yozdiradi, saxnada amaliy, mashqlar orqali ishlanadi.<br>Har bir talabaga ma’ruza matnini tarqatadi. | Eshitadilar amaliyotda bajaradilar.<br>Eshitadilar, yozadilar, saxnada amaliy xatti xarakatlar orqali bajaradilar. |
| IV. Asosiy bosqich (60 daqiqa) | 2.1. Gippiusning “Xis tuyg‘ular uchun ijodiy mashqlar” yordamida talabalarni faolashtiradi.<br>2.1.1. Badiiy adabiyotlar va dramaturgik asar taxlili, xamda rol ustida ishlash deganda nimalarga e’tibor bermoq kerak?<br>2.2. Fikrlarni umumlashtirib, Dramaturgik asar taxlili rol ustida ishlash tushunchasini yoritadi.<br>2.3. Tarqatilgan ma’ruza matnlariga diqqatlarini jalb qiladi. Amaliy mashqlar texnikasi yordamida matn mazmuni bilan tanishishni taklif kiladi.<br>2.4. Amaliy mashqlar texnikasi qoidasini tushuntiradi.<br>2.5. Bajarilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi.<br>2.6. Aktyorlik maxorati maktablariga tegishli mashqlar, kompyuter, internet, proyektor va tegishli adabiyotlar yordamida aktyorlik san’atining mohiyati, vazifalari, turlari, ko‘rinishlari va tahlil qilish usullari haqida tushuntirib beradi.<br>2.7.Aktyorlik san’atining omillarini yoritib beradi.<br>2.8. Aktyorlik san’ati haqida tushuncha beradi.<br>2.9. Mashqlar orqali aniqlangan, talabalarni qiziqtiruvchi savollarga chuqurroq to‘xtalib o‘tiladi.<br>2.10. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi.<br>1-gurux: Aktyorlik maxoratida partnyorlararo munosabat.<br>2-gurux: Sukut saqlash doirasida ichki tekst.<br>3-gurux: Podtekstlar orqali partnyorga ta’sir o‘tkazish.<br>4-gurux: Muxit o‘zgarishi bilan, aktyor kayfiyati o‘zgarishi.<br>2.11. Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash. | Saxnada tanlangan asar taxlili bo‘yicha etyud va mashqlar bajaradilar.<br>Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali berilgan vazifani bajaradilar.<br>Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali vazifani bajaradilar, taxlil jarayonida faol qatnashadilar.<br>Kichik guruhlarda berilgan vazifalarni bajaradilar, kundalikga yozib, har bir guruxdan bittadan vakil chikib o‘z ishlarini amaliy,xatti xarakatlar orqali bajaradilar. Guruhlar bir-birining ishlarini tahlil qiladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| III. Yakuniy bosqich ( 60 daqiqa) | Mashqlardan etyudlar tug‘ilishi, va taxlil.<br>Xatti xarakatda mantiq izchillik tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.<br>Ko‘rilgan amaliy ishlar bo‘yicha kursda taxlil ishlari.<br>Uyga vazifa beradi. | Xatti xarakatlar, vazifalar bajarilgandan so‘ng, taxlil ishlari.<br>Eshitadilar, yozib oladilar. |

**3-KURSLAR**

| *Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi* | ***O‘quv predmeti*** | *O‘kuv mashg‘uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni* |
|---|---|---|
| | **Aktyorlik mahorati** | № soat |
| *Sana:* | ***O‘quv guruhi –***<br>***Talabalar soni –*** | *O‘qituvchi:* |
| Mavzuning nomi: | Diplom proyektlari ustida ishlash | |
| Ma’ruza rejasi: | Diplom spektakl da timsol yaratish | |
| Asosiy atama va tushunchalar | Diqqat doiralari, mantiq va izchillik,, o‘zaro munosabat, ta’sir o‘tkazish, jismoniy erkinlik, ichki monolog, oliy maqsad, yetakchi xatti xarakat., voqealar tizimi, moslashish.mizanssena, podtekst, xatti xarakat, tempo ritm, shleyf, natijani o‘ynash, Xarakter, fe’l atvor,saxnaviy muxit, ikkinchi plan, yetakchi xatti xarakat, berilgan shart sharoit,voqealar tizimi, botiniy sezgi,xayoliy ichki ko‘rish,badiiyxa va boshqalar. | |
| Adabiyotlar ruyxati | . Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>. J. Mahmudov. Aktyorlik mahorati. O‘zDSI, 2006.<br>. M. Abdullayeva. Aktyorlik mahorati.<br>. Yusupova M. R. «Uprajneniya po aktyorskomu treningu».T., 2005 y.<br>6.V.Sundukova, Z.Axmedova –Stanislavskiy sistemasining atama va unsurlari – T.. -2012y. | |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi | Talaba-aktyorning ichki layoqatini ochish. | |
| O‘qituvchi oldidagi vazifalar | Talablarni diplom spetakl jarayoniga tayyorlash.<br>Sistemaning unsur va atamalarini amaliyotda qo‘llash.<br>Aktyorlik maxorati maktablarini talabaga singdirish.<br>Talabalar bilan birinchi diplom spektakl saxnalashtirish. | |
| O‘quv faoliyatining natijalari | Talablarni diplom spetakl jarayonida to‘g‘ri xatti xarakat qila olishi..<br>Talabalar sistemani unsur va atamalarini o‘zlashtirib, amaliyotda to‘laqonli qo‘llashlari.<br>Talabalar aktyorlik maxorati maktablarini egallashi.<br>Talabalar bilan birinchi diplom spektakl saxnalashtirish ; | |
| O‘qitish metodlari va texnikalari | Saxnada faol xatti-xarakatlar bilan mavzuni o‘zlashtirish, ma’ruza, mashqlar texnikasi, Akliy xujum, yakka tartibda ishlash, Ustoz shogird tizimida ishlash. | |

| | |
|---|---|
| **O‘qitish vositalari** | O‘quv saxnasi maydonidan foydalanish, ma’ruza matnlari, slayd, proyektor, kompyuter, internet materiallari, Aktyorlik maxorati bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish, spektakllardan video materiallar ko‘rsatish.. |
| **O‘qitish sharoiti** | Aktyorlik maxorati faniga moslashtirilgan saxnali ustaxona va o‘quv teatr. |
| O‘quv mashg‘uloti uchun zarur bulgan bilim va malakalar | Dramaturgiya asosida ishlash, Aktyorlik maxorati maktabi haqida o‘quv, ilmiy va badiiy adabiyotlardan o‘qish, asarlarni saxnada amaliy ishlash. va tahlil qilish;, o‘quv teatrda diplom spektakl ustida ishlash |

| **O‘qitish bosqichlari** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta’lim beruvchi** | **Ta’lim oluvchi** |
| . Tayyorlov bosqichi (45 daqiqa) | Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi, amaliyotda qo‘llaydi.<br>Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli bilan tanishtiradi.<br>Baholash mezonlarini va adabiyotlar ruyxatini e’lon qiladi.<br>Asosiy tayanch iboralarni O‘qib, yozdiradi, saxnada amaliy, mashqlar orqali ishlanadi.<br>Har bir talabaga ma’ruza matnini tarqatadi. | Eshitadilar amaliyotda bajaradilar.<br><br>Eshitadilar, yozadilar, saxnada amaliy xatti xarakatlar orqali bajaradilar. |
| VI. Asosiy bosqich (60 daqiqa) | 2.1. Gippiusning “Xis tuyg‘ular uchun ijodiy mashqlar” yordamida talabalarni faolashtiradi.<br>2.1.1. Dramaturgik asar taxlili rol ustida ishlash deganda nimalarga e’tibor bermoq kerak?<br>2.2. Fikrlarni umumlashtirib, Dramaturgik asar taxlili rol ustida ishlash tushunchasini yoritadi.<br>2.3. Tarqatilgan ma’ruza matnlariga diqqatlarini jalb qiladi. Amaliy mashqlar texnikasi yordamida matn mazmuni bilan tanishishni taklif kiladi.<br>2.4. Amaliy mashqlar texnikasi qoidasini tushuntiradi.<br>2.5. Bajarilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi.<br>2.6. Aktyorlik maxorati maktablariga tegishli mashqlar, kompyuter, internet, proyektor va tegishli adabiyotlar yordamida aktyorlik san’atining mohiyati, vazifalari, turlari, ko‘rinishlari va tahlil qilish usullari haqida tushuntirib beradi.<br>2.7.Aktyorlik san’atining omillarini yoritib beradi.<br>2.8. Aktyorlik san’atining migratsiyasi haqida tushuncha beradi.<br>2.9. Mashqlar orqali aniqlangan, talabalarni qiziqtiruvchi savollarga chuqurroq to‘xtalib o‘tiladi. | Saxnada tanlangan asar taxlili bo‘yicha etyud va mashqlar bajaradilar.<br><br>Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali berilgan vazifani bajaradilar.<br><br>Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali vazifani bajaradilar, taxlil jarayonida faol qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.10. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi.<br>1-gurux: Aktyorlik maxoratida partnyorlararo munosabat.<br>2-gurux: Sukut saqlash doirasida ichki tekst.<br>3-gurux: Podtekstlar orqali partnyorga ta’sir o‘tkazish.<br>4-gurux: Muxit o‘zgarishi bilan, aktyor kayfiyati o‘zgarishi.<br>2.11. Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash. | Kichik guruhlarda berilgan vazifalarni bajaradilar, kundalikga yozib, har bir guruxdan bittadan vakil chikib o‘z ishlarini amaliy,xatti xarakatlar orqali bajaradilar. Guruhlar bir-birining ishlarini tahlil qiladilar. |
| III. Yakuniy bosqich ( 60 daqiqa) | Mashqlardan etyudlar tug‘ilishi, va taxlil.<br>Xatti xarakatda mantiq izchillik tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.<br>Ko‘rilgan amaliy ishlar bo‘yicha kursda taxlil ishlari.<br>Uyga vazifa beradi. | Xatti xarakatlar, vazifalar bajarilgandan so‘ng, taxlil ishlari.<br>Eshitadilar, yozib oladilar. |

**4-KURSLAR**

| *Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi* | ***O‘quv predmeti*** | *O‘kuv mashg‘uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni* |
|---|---|---|
| | **Aktyorlik mahorati** | № – soat |
| *Sana:* | ***O‘quv guruhi –***<br>***Talabalar soni –*** | *O‘qituvchi:* |
| Mavzuning nomi: | **Diplom spektakli ustida ishlash.** | |
| Ma’ruza rejasi: | Obraz ustida ishlash.<br>Spektaklni saxnalashtirish. | |
| Asosiy atama va tushunchalar | Timsol, tempo-ritm, janr, tub mano, dekoratsiya, chiroq, liboslar, grim, badiiy yaxlitlik, oxang, diqqat doiralari, mantiq va izchillik,, o‘zaro munosabat, ta’sir o‘tkazish, jismoniy erkinlik, ichki monolog, oliy maqsad, yetakchi xatti xarakat., voqealar tizimi, moslashish.mizanssena, podtekst, xatti xarakat, tempo ritm, shleyf, natijani o‘ynash, xarakter, fe’l atvor,saxnaviy muxit, ikkinchi plan, berilgan shart sharoit,voqealar tizimi, botiniy sezgi,xayoliy ichki ko‘rish,badiiyxa va boshqalar. | |
| Adabiyotlar ruyxati | . Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>. J. Maxmudov. Aktyorlik mahorati. O‘zDSI, 2006.<br>. M. Abdullayeva. Aktyorlik mahorati.<br>. Zaxava B. Mastersvo aktyora i rejissera. M.:1973.<br>. Yusupova. M.«Uprajneniya po aktyorskomu treningu».–T.: O‘zDSI, | |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi | Talaba aktyorlarni professional saxnaga tayyorlash. | |

| | |
|---|---|
| O'qituvchi oldidagi vazifalar | Plastika, nutq, ichki hissiyotlar ifodaviyligini,<br>Berilgan maydon va makon kompozitsiyasini his qilishni,<br>Janr,uslub, spektakl va qaxramonning maromi (tempo-ritm)ini.<br>Spektakl davomida uzliksiz xatti –harakatga erishishni.<br>Timsoliy (obrazli) fikrlash, timsolning ildizini (zerno obraza) topishni.<br>Talabalar bilan navbatdagi diplom spektakl saxnalashtirishni,<br>Obraz ustida ishlashni o'rgatish. |
| O'quv faoliyatining natijalari | Professional teatrda jonli ijro bilan obraz yaratishi |
| O'qitish metodlari va texnikalari | Saxnada faol xatti-xarakatlar bilan mavzuni o'zlashtirish, ma'ruza, mashqlar texnikasi, Akliy xujum, yakka tartibda ishlash, Ustoz shogird tizimida ishlash. |
| O'qitish vositalari | O'quv saxnasi maydonidan foydalanish, ma'ruza matnlari, slayd, proyektor, kompyuter, internet materiallari, Aktyorlik maxorati bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish, spektakllardan video materiallar ko'rsatish.. |
| O'qitish sharoiti | Informatsion texnologiyalarni kullashga moslashtirilgan ustaxona, o'quv teatr saxnasi. |
| O'quv mashg'uloti uchun zarur bulgan bilim va malakalar | Dramaturgiya asosida ishlash, Aktyorlik maxorati maktabi haqida o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlardan o'qish, asarlarni saxnada amaliy ishlash. va tahlil qilish;, o'quv teatrda diplom spektakl saxnalashtirish |

| **O'qitish bosqichlari** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchi** |
| II. Tayyorlov bosqichi (45 daqiqa) | Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi.<br>Mashg'ulotni o'tkazish shakli bilan tanishtiradi.<br>Baholash mezonlarini va adabiyotlar ruyxatini e'lon qiladi.<br>Asosiy tayanch iboralarni o'qib, yozdiradi va ularni ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishlarini so'raydi.<br>Har bir talabaga (tarqatma material sifatida) ma'ruza matnini tarqatadi. | Eshitadilar amaliyotda bajaradilar.<br><br>Eshitadilar, yozadilar, saxnada amaliy xatti xarakatlar orqali bajaradilar. |
| **№** | **Ko‘rsatkichlar** | **J.N** | **1** | 2 | **3** | 4 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **maks** | | | | |
| 1 | Talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli va ijodiy ishlar ko‘rigi, muxokama, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish. | 40 | 10 | 10 | 10 | 10 |
| **Jami JN ballari** | | 40 | 10 | 10 | 10 | 10 |

- **yakuniy nazorat (YAN) -** semestr yakunida “Aktyorlik maxorati” fani bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli bilan o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat asosan kafedra professor-o‘qituvchilaridan tashkil etilgan komissiyaning nazorati ostida ijodiy ko‘riklar asosida amalga oshiriladi

| **№** | **Ko‘rsatkichlar** | **YAN ballari** | |
|---|---|---|---|
| | | **maks** | |
| 1 | Aktyorlik maxorati fanidan yakuniy ijodiy ishlar ko‘rigi. | 30 | 0-30 |
| **Jami** | | **30** | **0-30** |

**Fanni o‘qitish jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Aktyorlarni o‘qitish jarayoni bir yoki ikki diplom spektakli tayyorlab katta sahnada ko‘rsatish bilan yakunlanadi. Bu jarayonda talaba barcha o‘zlashtirgan ijro usullarini namoyish etish kerak.

O‘qitish jarayonida sahnada hayotiylik va «jonli» teatr yaratishga alohida e’tibor berilishi lozim.

Shakl va janrdan qat’iy nazar, sahnada rol ustida mustaqil ishlash uslubini chuqur egallagan, berilgan timsol qiyofasiga kira olish qobiliyatiga ega aktyordan «jonli» harakat qilish talab etiladi.

Birinchi kursda mashqlardan etyudga o‘tish jarayoni ko‘zda tutilgan. Etyud - hayoti lavha sifatida mashqlardan ham tug‘ilishi mumkin. Masalan, berilgan shart – sharoitda harakat bajarish mashqi albatta, o‘z - o‘zidan maqsad va moslamalar topishga undaydi.

Oddiy mashqlar vazifasi murakkablashib boradi. Talabalar tomonidan maqsad, shart – sharoit, hatti –xarakat, asosiy voqea (keynchalik so‘z, partnyor bilan o‘zaro munosabatlar) ishlab chiqiladi va bu jarayon birinchi kursning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanadi.

1–kursning ikkinchi yarmida etyudlar ustida ish davom etadi. Bu jarayonda shart-sharoit, voqealar, maqsad, vazifalar murakkablashib boradi va etyudning psixologik yuki ortadi.

Ikkinchi kursda aktyorlik mahorati unsurlarini adabiy parchalar va dramaturgiya orqali amaliy o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan.

Chunonchi: xatti –xarakat, o‘zaro munosabat, avtor bergan shart-sharoitdan kelib chiqadigan harakat, murakkabrok ruhiy holatlar yaratish va shu holatda harakat qilish,sahnadagi hamroh bilan bilan keskinroq sharoitlardagi harakatlar. «Men yaratgan sharoitda harakat qilyapman» qabilidagi etyudlardan «Men muallif tomonidan rolga berilgan shart – sharoitda harakat qilayapman» degan ta’lim bosqichiga o‘tiladi.

Uchinchi kurs diplom oldi yaxlit spektakl ustida ishlashlikni nazarda tutadi. Sahnalashtirish uchun olingan asarda, voqealar kechadigan davr sinchkovlik bilan o‘rganiladi, asarni chuqur taxlil etish orqali talabadan o‘zi yaratajak timsolni xar tomonlama o‘rganish talab qilinadi. Timsol ustida ishlash jarayonida rolning butun pyesa davomidagi uzliksiz xatti-xarakati belgilanadi.

2-yarim yillikda timsol qiyofasiga kirish jarayoniga ichki va tashqi hislat va xususiyatlarni aniqlash,berilgan rolgagina hos bo‘lgan ta’sir vositalarini topish kabi unsurlar yordam beradi.

To‘rtinchi kursda ikkinchi diplom spektakl ustida ish olib borish bilan birgalikda,talabalarning aktyorlik maxorati,timsol yaratish borasida ijodiy izlanishlar davom ettiriladi.

Janr nuqtai nazardan,ikkinchi spektakl birinchisidan farq qilishi kerak. Chunki xar bir janr va uslub aktyorning saxnaviy xayoti, qaxramonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, muxit, sezgi va xissiyotlar tabiatiga boshqa-boshqa yondashuvni talab qiladi.

To‘rtinchi kursning ikkinchi yarimida, o‘qishning oxirgi bosqichida talaba aktyorning barcha ta’sir vositalari badiiy va ijodiy yondashuviga xizmat qilishi kerak. Aktyorning yakkayu-yolg‘iz quroli uning qobiliyati va saloxiyati ekanligini talaba anglab yetmog‘i lozim.

«Aktyorlik mahorati »maktabi asosiy unsurlarini amaliy o‘zlashtirish bilan birgalikda muntazam ravishda nazariy jixatdan to‘ldirib borishlik davom etadi.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

***1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari***


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni. 1998 yil 26 mart. Teatr jurnali. № 1 – 2, 1999.


2. ***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari***


1. Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. –2002 yil 20 fevral // Xalq so‘zi. - 2002, 15 mart.

2. O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1995.-20 oktabr // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.-1995.

3. O‘zbekiton badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1997. -23 yanvar // Xabarnoma.

4. O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1998.-26 mart // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -1998.

5. Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2001 yil 21 sentabr // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001. -№.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyat teatrining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi.

### *3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari*

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Iroda va iymon – e’tiqodimiz sinovi.. –T.: O‘zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Milliy teatrimiz – iftixorimiz // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: O‘zbekiston, 2002.
5. Karimov I. A. Asarlar. 1-15 jild. – T.: O‘zbekiston, 1996 - 2002.
6. Karimov I. A. Ma’naviyat yuksalish yo‘lida. – T.: Ma’naviyat, 2004.
7. Karimov I.A. O‘zbek xalq hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-j. – T.: O‘zbekiston, 2005.
8. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.

### *4. Darsliklar*

1. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
2. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
3. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. - T.: 2005.
4. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura – T.: 2008.

### *5. O‘quv qo‘llanmalar*

1. Zoxidova N. Toshxo‘ja Xo‘jayev. –T.:1998.
2. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. –T.: 2006.
3. To‘laxo‘jayeva M.T. O‘zbek drama teatrining rejissurasi. –T.: 1995.
4. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.
5. Yusupova M. R. Istoriya professionalnoy rejissuri Uzbekistana. –T.: O‘zDSI, 2004.
6. Jalilova F. Grim. –T.: 2008.
7. Qurbonova SH. T.Azizovning rejissyorlik faoliyati. –T.: 2004.
8. Mahmudov J. O‘zbekiston teatrlari. – T.: 1997.
9. Mahmudov J. San’at fidoiylari. -T
10. Rahmonov M. R. To‘laxo‘jayeva M.T.S Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003.
11. Rizayev O. Nabi Rahimov. – T.: 1997.
12. Rizayev SH. Jadid dramaturgiyasi. – T.: 1998.
13. Yusupova M.R. Uprajneniya po aktyorskomu treningu. – T.: 2005.

### *6. Ilmiy monografiyalar va maqolalar*

1. San’at ta’limi yilnomasi. 1-4 jild. –T.: O‘zDSI.
2. T. Azizov. Kimlar tufayli. –T.: Nasaf, 2009.

3. O. Salimov. Mening rejissyorlik

***7. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari***

1. O'zbekiston madaniyati va san'atida zamonaviy qahramon obrazini yaratish muammolari va yechimlari.-T.: O'zDSI, 2012.

***8. Gazeta va jurnallar***

1. "Teatr" jurnallari. 1-12 son. –T.: 1999-2012.

***9. Internet saytlar***

1. www.senat. gov.uz
2. www.parliament.gov.uz
3. www.gov.uz
4. www.uza.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.infocom.uz
7. www.uzreport.com
8. www.jahonnews.uz
9. www.eco.uz

***10. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o'quv qo'llanmalari***

1. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
2. Stanislavskiy K. S. San'atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
3. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. - T.: 2005.
4. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura – T.: 2008.
5. Zoxidova N. Toshxo'ja Xo'jayev. –T.:1998.
6. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. –T.: 2006.
7. To'laxo'jayeva M.T. O'zbek drama teatrining rejissurasi. –T.: 1995.
8. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.
9. Yusupova M. R. Istoriya professionalnoy rejissuri Uzbekistana. –T.: O'zDSI, 2004.
10. Jalilova F. Grim. –T.: 2008.
11. Qurbonova SH. T.Azizovning rejissyorlik faoliyati. –T.: 2004.
12. Mahmudov J. O'zbekiston teatrlari. – T.: 1997.
13. Mahmudov J. San'at fidoiylari. -T
14. Rahmonov M. R. To'laxo'jayeva M.T.S Muxtorov I. A. O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003.
15. V.Sundukova, Z.Axmedova –Stanislavskiy sistemasining atama va unsurlari – T.. - 2012y.
16. M.Abdullayeva – Aktyorlik maxorati maktablari -T.: 2009.

## “AKTYORLIK MAHORATI” FANINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

| *Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi* | ***O‘quv predmeti*** | *O‘kuv mashg‘uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni* |
|---|---|---|
| | **Aktyorlik mahorati** | № – soat |
| *Sana:* | ***O‘quv guruhi –***<br><br>***Talabalar soni –*** | *O‘qituvchi:*<br>. |
| Mavzuning nomi: | **Diplom spektakli ustida ishlash.** | |
| Ma’ruza rejasi: | 4. Obraz ustida ishlash.<br>5. Spektaklni saxnalashtirish. | |
| Asosiy atama va tushunchalar | Timsol, tempo-ritm, janr, tub mano, dekoratsiya, chiroq, liboslar, grim, badiiy yaxlitlik, oxang, diqqat doiralari, mantiq va izchillik,, o‘zaro munosabat, ta’sir o‘tkazish, jismoniy erkinlik, ichki monolog, oliy maqsad, yetakchi xatti xarakat., voqealar tizimi, moslashish.mizanssena, podtekst, xatti xarakat, tempo ritm, shleyf, natijani o‘ynash, xarakter, fe’l atvor,saxnaviy muxit, ikkinchi plan, berilgan shart sharoit,voqealar tizimi, botiniy sezgi,xayoliy ichki ko‘rish,badiiyxa va boshqalar. | |
| Adabiyotlar ruyxati | 22. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>23. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.<br>24. J. Maxmudov. Aktyorlik mahorati. O‘zDSI, 2006.<br>25. M. Abdullayeva. Aktyorlik mahorati.<br>26. Zaxava B. Mastersvo aktyora i rejissera. M.:1973.<br>27. Yusupova. M.«Uprajneniya po aktyorskomu treningu».–T.: O‘zDSI, | |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi | Talaba aktyorlarni professional saxnaga tayyorlash. | |

| | |
|---|---|
| O‘qituvchi oldidagi vazifalar | • Plastika, nutq, ichki hissiyotlar ifodaviyligini,<br>• Berilgan maydon va makon kompozitsiyasini his qilishni,<br>• Janr,uslub, spektakl va qaxramonning maromi (tempo-ritm)ini.<br>• Spektakl davomida uzliksiz xatti –harakatga erishishni.<br>• Timsoliy (obrazli) fikrlash, timsolning ildizini (zerno obraza) topishni.<br>• Talabalar bilan navbatdagi diplom spektakl saxnalashtirishni,<br>• Obraz ustida ishlashni o‘rgatish. |
| O‘quv faoliyatining natijalari | • Professional teatrda jonli ijro bilan obraz yaratishi |
| O‘qitish metodlari va texnikalari | Saxnada faol xatti-xarakatlar bilan mavzuni o‘zlashtirish, ma’ruza, mashqlar texnikasi, Akliy xujum, yakka tartibda ishlash, Ustoz shogird tizimida ishlash. |
| O‘qitish vositalari | O‘quv saxnasi maydonidan foydalanish, ma’ruza matnlari, slayd, proyektor, kompyuter, internet materiallari, Aktyorlik maxorati bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish, spektakllardan video materiallar ko‘rsatish.. |
| O‘qitish sharoiti | Informatsion texnologiyalarni kullashga moslashtirilgan ustaxona, o‘quv teatr saxnasi. |
| O‘quv mashg‘uloti uchun zarur bulgan bilim va malakalar | Dramaturgiya asosida ishlash, Aktyorlik maxorati maktabi haqida o‘quv, ilmiy va badiiy adabiyotlardan o‘qish, asarlarni saxnada amaliy ishlash. va tahlil qilish;, o‘quv teatrda diplom spektakl saxnalashtirish |

## AKTYORLIK SAN’ATI MAVZUSIDAGI AXBOROTLI MA’RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

| **O‘qitish bosqichlari** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta’lim beruvchi** | **Ta’lim oluvchi** |
| IX. Tayyorlov bosqichi (45 daqiqa) | 9.1 Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi.<br>9.2 Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli bilan tanishtiradi.<br>9.3 Baholash mezonlarini va adabiyotlar ruyxatini e’lon qiladi. | Eshitadilar amaliyotda bajaradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 9.4 Asosiy tayanch iboralarni o‘qib, yozdiradi va ularni ma’lum ketma-ketlikda joylashtirishlarini so‘raydi.<br>9.5 Har bir talabaga (tarqatma material sifatida) ma’ruza matnini tarqatadi. | Eshitadilar, yozadilar, saxnada amaliy xatti xarakatlar orqali bajaradilar. |
| X. Asosiy bosqich (60 daqiqa) | 2.1. Ma’ruzadan so‘ng Gippiusning “Xis tuyg‘ular uchun ijodiy mashqlar”i, M.Chexovning ijodiy mashqlari yordamida talabalarni faolashtiradi.<br>2.1.1. Dramaturgik asar taxlili rol ustida ishlash deganda nimalarga e’tibor bermoq kerak?<br>2.2. Fikrlarni umumlashtirib, Dramaturgik asar taxlili, obraz ustida ishlash tushunchasini yoritadi.<br>2.3. Tarqatilgan ma’ruza matnlariga diqqatlarini jalb qiladi. Amaliy mashqlar texnikasi yordamida matn mazmuni bilan tanishishni taklif kiladi.<br>2.4. Amaliy mashqlar texnikasi qoidasini tushuntiradi.<br>2.5. Bajarilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi.<br>2.6. Aktyorlik maxorati maktablariga tegishli mashqlar, kompyuter, internet, proyektor va tegishli adabiyotlar yordamida aktyorlik san’atining mohiyati, vazifalari, turlari, ko‘rinishlari va tahlil qilish usullari haqida tushuntirib beradi.<br>2.7.Aktyorlik san’atining omillarini yoritib beradi.<br>2.8. Aktyorlik san’atining migratsiyasi haqida tushuncha beradi.<br>2.9. Mashqlar orqali aniqlangan, talabalarni qiziqtiruvchi savollarga chuqurroq to‘xtalib o‘tiladi.<br>2.10. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi.<br>1-gurux: Aktyorlik maxoratida partnyorlararo munosabat. | Saxnada tanlangan asar taxlili bo‘yicha bo‘laklarga bo‘lib ishlanadi.<br><br>Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali berilgan vazifani bajaradilar.<br><br>Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali vazifani bajaradilar, taxlil jarayonida faol qatnashadilar.<br><br>Kichik guruhlarda berilgan vazifalarni bajaradilar, kundalikga yozib, har bir guruxdan bittadan vakil chikib o‘z ishlarini amaliy,xatti xarakatlar orqali bajaradilar. Guruhlar bir-birining |

| | | |
|---|---|---|
| | 2-gurux: Sukut saqlash doirasida ichki tekst.<br>3-gurux: Podtekstlar orqali partnyorga ta'sir o'tkazish.<br>4-gurux: Muxit o'zgarishi bilan, aktyor kayfiyati o'zgarishi.<br>2.11. Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash | ishlarini tahlil qiladilar. |
| III. Yakuniy bosqich (60 daqiqa) | 5.1. Bo'laklarni yaxlit saxnalarga aylantirish va taxlil.<br>5.2. Xatti xarakatda mantiq izchillik tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish.<br>5.3. Ko'rilgan amaliy ishlar bo'yicha kursda taxlil ishlari.<br>5.4. Uyga vazifa beradi. | Xatti xarakatlar, vazifalar bajarilgandan so'ng, taxlil ishlari. eshitadilar, yozib oladilar. |

## MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

Asosiy qism va amaliy mashg'ulotlarda ko'rsatilgan barcha mavzu bo'yicha talabalar albatta mustaqil ravishda ish olib borishlari taqozo etiladi. Chunonchi:

1. Ma'ruzalarda berilgan mavzularni qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilib mustaqil ravishda o'zlashtirish.

2. Amaliy mashg'ulotlarda (guruhli, yakka darslarda) o'tilgan mavzularni mustaqil tarzda o'zlashtirish.

3. Kurs ishlari, bitiruv malakaviy ish ustida ishlash jarayonida nazariy va amaliy topshiriqlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish.

4. Obraz ustida mustaqil ishlash.

5. O'qish davomida malakaviy amaliyotdan tashqari o'z ustida mustaqil ishlash ( spektakl va filmlar ko'rish va taxlil qilish, muzeylarga borish, kuzatuvlar va x.k.), kundalik tutish.

Bundan tashqari san'at asarlarini, jumladan aktyorlik san'atining sirlarini bilishga intilish va mustaqil tahlil qilish kundalik odatga aylanishi zarur. Tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo'shimcha manbalardan mustaqil foydalanib, o'z bilimini boyitib borishi shart.

1. Rejissura, aktyorlik mahorati va sahnalashtirishga oid materiallar bilan tanishib borish
2. Teatr va maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish va tahlil

3. Audio va video materiallar
4. Dramatik manbalar to‘plash
5. Matnlar ustida ishlash
6. Ijrochilik ko‘nikmasini mustahkamlash
7. Ssenariy yozish
8. Inssenirovka qilish
9. Internet tarmog‘idan muntazam foydalanish

## Mustaqil ishlar mazmuni

Yuqorida sanab o‘tgan ijodiy ishlardan tashqari talabalar mustaqil ravishda “ijodiy kunlar“ o‘tqazadilar. Ijodiy ishlar dasturida pantomima, akrobatik o‘yinlar, masallar, sherlar, monolog, hikoya va etyudlar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari mashhur yozuvchi, shoir, dramaturg, aktyor, rejissyorlar xayotiga bag‘ishlangan adabiy badiiy kechalar tayorlanadi. Ma’lum sanalarga bag‘ishlangan tematik kechalar tayyorlanib namoyish etiladi. Talabalar institut miqyosida o‘tqaziladigan tadbirlarning badiiy qismida o‘z san’atlari bilan qatnashadilar.

To‘rtinchi kurs diplom spektakl ustida ishlashlikni nazarda tutadi. Sahnalashtirish uchun olingan asarda, voqealar kechadigan davr sinchkovlik bilan mustaqil o‘rganiladi, asarni chuqur taxlil etish orqali talabadan o‘zi yaratajak timsolni xar tomonlama o‘rganish talab qilinadi. Timsol ustida ishlash jarayonida rolning butun pesa davomidagi uzliksiz xatti-xarakati belgilanadi.

2-yarim yillikda timsol qiyofasiga kirish jarayoniga ichki va tashqi hislat va xususiyatlarni aniqlash,berilgan rolgagina hos bo‘lgan ta’sir vositalarini topish kabi unsurlar yordam beradi.

Mashqlar ustida mustaqil ravishda uzluksiz ishlanib dasrda ko‘rsatiladi va muxokama etiladi., repertuar tanlash, asar tahlili va obraz ustida ishlash, o‘z qobiliyatining barcha qirralarini ochib, “mustaqil ishlar” ko‘rigida ko‘rsatishni nazarda tutadi. Mustaqil ishlar reyting baholariga ta’sir o‘tkazadi.

Talaba darsda berilgan nazariy, amaliy ko‘rsatmalarni, albatta, mustaqil ish orqali (auditoriyada, uyda) mustahkamlashi shart

Talaba o‘qituvchilar tomonidan berilgan nazariy bilimni va tavsiyalarni amaliyotda mustaqil o‘zlashtirishi lozim. Professional teatr, kino va televideniyeda rol ijro etish, obraz yaratish uslubiyatlardan to‘g‘ri foydalanish uchun yanada chuqurroq bilim va tajriba orttirishi lozim.

## 5.TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

***1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari***

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni. 1998 yil 26 mart. Teatr jurnali. № 1 – 2, 1999.

4. ***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari***

1. Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. –2002 yil 20 fevral // Xalq so‘zi. - 2002, 15 mart.
**2.** O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1995.-20 oktabr // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.-1995.
**3.** O‘zbekiton badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1997. -23 yanvar // Xabarnoma.
**4.** O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1998.-26 mart // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -1998.
**5.** Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2001 yil 21 sentabr // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001. -№.
**6.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyat teatrining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi.

***3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari***

9. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbekiston, 1994.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
11. Karimov I.A. Iroda va iymon – e’tiqodimiz sinovi.. –T.: O‘zbekiston, 1999.
12. Karimov I.A. Milliy teatrimiz – iftixorimiz // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: O‘zbekiston, 2002.
13. Karimov I. A. Asarlar. 1-15 jild. – T.: O‘zbekiston, 1996 - 2002.
14. Karimov I. A. Ma’naviyat yuksalish yo‘lida. – T.: Ma’naviyat, 2004.
15. Karimov I.A. O‘zbek xalq hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-j. – T.: O‘zbekiston, 2005.
16. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.

***4. Darsliklar***

5. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
6. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
7. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. - T.: 2005.
8. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura – T.: 2008.
9. Zaxava B. Masterstvo aktyora i rejissera M.:1973
10. Yusupova. M.«Uprajneniya po aktyorskomu treningu».–T.: O‘zDSI, 2005.
11. V.Sundukova, Z.Axmedova –Stanislavskiy sistemasining atama va unsurlari – T.. -2012y.

***5. O‘quv qo‘llanmalar***

14. Zoxidova N. Toshxo‘ja Xo‘jayev. –T.:1998.
15. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. –T.: 2006.
16. To‘laxo‘jayeva M.T. O‘zbek drama teatrining rejissurasi. –T.: 1995.
17. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.
18. Yusupova M. R. Istoriya professionalnoy rejissuri Uzbekistana. –T.: O‘zDSI, 2004.
19. Jalilova F. Grim. –T.: 2008.
20. Qurbonova SH. T.Azizovning rejissyorlik faoliyati. –T.: 2004.
21. Mahmudov J. O‘zbekiston teatrlari. – T.: 1997.
22. Maxmudov J. San’at fidoiylari. -T
23. Rahmonov M. R. To‘laxo‘jayeva M.T.S Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003.
24. Rizayev O. Nabi Rahimov. – T.: 1997.
25. Rizayev SH. Jadid dramaturgiyasi. – T.: 1998.
26. Yusupova M.R. Uprajneniya po aktyorskomu treningu. – T.: 2005.

***6. Ilmiy monografiyalar va maqolalar***

4. San’at ta’limi yilnomasi. 1-4 jild. –T.: O‘zDSI.
5. T. Azizov. Kimlar tufayli. –T.: Nasaf, 2009.
6. O. Salimov. Kasbim rejissyor

***7. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma’ruza to‘plamlari***

2. O‘zbekiston madaniyati va san’atida zamonaviy qahramon obrazini yaratish muammolari va yechimlari.-T.: O‘zDSI, 2012.

***8. Gazeta va jurnallar***

2. “Teatr” jurnallari. 1-12 son. –T.: 1999-2012.

***9. Internet saytlari***

10. www.senat. gov.uz
11. www.parliament.gov.uz
12. www.gov.uz
13. www.uza.uz
14. www.ziyonet.uz
15. www.infocom.uz

16. www.uzreport.com
17. www.jahonnews.uz
*18.* www.eco.uz

***10. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari***

17. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
18. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
19. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. - T.: 2005.
20. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura – T.: 2008.
21. Zoxidova N. Toshxo‘ja Xo‘jayev. –T.:1998.
22. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. –T.: 2006.
23. To‘laxo‘jayeva M.T. O‘zbek drama teatrining rejissurasi. –T.: 1995.
24. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.
25. Yusupova M. R. Istoriya professionalnoy rejissuri Uzbekistana. –T.: O‘zDSI, 2004.
26. Jalilova F. Grim. –T.: 2008.
27. Qurbonova SH. T.Azizovning rejissyorlik faoliyati. –T.: 2004.
28. Mahmudov J. O‘zbekiston teatrlari. – T.: 1997.
29. Maxmudov J. San’at fidoiylari. -T
**30.** Rahmonov M. R. To‘laxo‘jayeva M.T.S Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003.

## AKTYORLIK MAXORATIDAN MASHQLAR

## IJODIY PSIXO – FIZIK MASHQLAR

O‘qituvchi, birinchi navbatda har bir talabaning ijodiy – shaxsiy xususiyatlari bilan tanishishi kerak. Aktyorlik maxorati pedagogining vazifasi talabaning imkoniyatini hisobga olib, uning qobiliyatini ochishi lozim. Talaba esa aktyorlik ijodining muhim shart – sharoitlari orqali o‘z ustida ishlashi, o‘zini jamoada his qilishi, o‘zaro ijodiy bog‘liqlikni sezishi, teatr san’atida inson va jamoaning o‘zaro bog‘liqligi, ta’siri bilan tanishishi kerak.

Shuning uchun biz (mashq), ishchanlik yaratuvchi ko‘nikmalari bilan bog‘liq tashkilotchilik va ijodiy mashqlardan boshlaymiz. Ushbu muhim vazifalarni hal qilish uchun albatta yolg‘iz mashqlarning o‘zi yetarli emas. Ijodiy jamoa, o‘kituvchining oqilona tarbiyaviy ishi bilan yaraladi, mashqlar esa unga faqat yordam beradi. Ammo boshqa mashqlar ham aktyorlik san’atini o‘rgatib qo‘ya olmaydi, ular faqatgina aktyorlik «quroli»ning zarur bo‘lgan psixotexnik moyilligiga yordam beradi, xolos.

Ularning mahorati va texnik ahamiyati xam shunda. Aktyorda ilg‘or dunyoqarashni, to‘xtovsiz harakatda bo‘lishni va oliy maqsad haqidagi ta’limotga ega bo‘lishlikni tarbiyalash muhimdir. Bu mashqlar orqali sensorlik mahoratni mukammallashtiriladi, aktyorning Asosiy adabiyotlar texnik fazilatini, rivojlangan ijodiy tasavvurini mustahkamlanadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, sensorlik ko‘nikmalar va mahoratni rivojlantirish va mukammallashtirish ustidagi ish to‘qima shart – sharoitdagi harakatlanishning asta – sekin o‘zlashtirilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Mana shular trening bo‘limlardagi har bitta mashqni metodik yo‘lda ishlab chiqilishini talab qiladi, shu bilan birga teatr san’ati pedagogikasidagi ko‘plab mashqlarni qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo qiladi.

Har bir mashq mavzusi doirasida ishlaganda talabalarga mashq syujetini o‘zgartirish bilan birga, turli usullar orqali mazmunini xam tushuntirib borish lozim. Bu esa, o‘z o‘rnida mashg‘ulotning aniq shart – sharoitlariga va pedagogning ijodiy intuitsiyasiga [1] bog‘liq.

Teatr san’ati maktabini o‘rganuvchi talabalar eng avvalo sahnada ijro etishni o‘rgatib bo‘lmasligi, o‘rganish esa mumkinligini teatr san’ati dargoxi aniq qoliplarga ega bo‘lgan g‘isht tayyorlovchi zavod emas. Rollarni ijro etish uchun tavsiyalar yo‘q. Sizlar yaxshi aktyor bo‘lib yetishasizlarmi, yo‘qmi biz buni bilmaymiz. Agar yurakdan o‘rganish uchun xoxishingiz zo‘r bo‘lsa, maqsadga erishasiz albatta. San’atda barcha sharoitga xos yurish – turish qoidalari yo‘q, va shaxzoda Gamlet rolini qanday ijro etishning majburiy ko‘nikmalari bo‘lishi ham mumkin emas. Albatta, bugun bundan 50 yil avvalgidek emas, yana 50 yildan so‘ng xam hamma narsa o‘zgaradi, bugungiday bo‘lmaydi. Chunki, bundan yarim asr ilgari, hamda bugun va yana yarim asrdan keyin, aktyor Asosiy adabiyotlar savolni, ya’ni – NIMA UCHUN u BUGUN GAMLETni o‘ynayapti, degan savolni hal etadi. Nima uchunligini hal qilgach, kimni va nimani o‘ynaydi, qandayligini izlaydi, o‘ylaydi va topadi.

Teatr san’ati doimo «nima», «nima uchun» va «qanday» degan abadiy savollar qidiruvida.

Sahnaviy sezgi va his-tuyg‘u ko‘nikmalarini amaliy o‘zlashtirish.

**1 – mashq**

Ijodiy yarim doira

Ishchi holat ko‘nikmalarini tarbiyalash ishlarini birinchi mashg‘ulotlardan boshlash kerak. Talabalar birinchi marotaba ustaxonaga kirishadi. Ular uchun yetarli o‘rindiqlar mavjud bo‘lishi kerak. O‘qituvchi talabalar bilan «Salom – alik»dan so‘ng murojaat qiladi.

---

[2] Интуиция - ғайриихтиёрий ҳис, зийраклик.

- O‘tiringlar.

Talabalar duch kelgan joyga o‘tirib oladilar.

- Xo‘sh. Hammangiz meni ko‘rayapsizmi?
- Hamma bir – birini ko‘rayaptimi?
- Yo‘q, men hammani ko‘rmayapman.

Talabalar javob beradilar.

O‘qituvchi maqsadni tushuntiradi:

- Biz mashg‘ulotga tayyor bo‘lishimiz va mashg‘ulot uchun ish holatini yaratishimiz kerak.

-Diqqat bilan eshiting. O‘rindiqlarni shunday joylashtiringki, men hammangizni ko‘ray. Siz ham bir– biringizni ko‘radigan bo‘lib o‘tiring.

-O‘rindiqlar oralig‘i teng bo‘lsin!

-O‘rindiqlarni sahnaga yarim doira shaklida joylashtiring!

Talabalar o‘rindiqlarni murabbiy aytganidek joylashtiradi.

Talabalar ishni tugatgach, o‘qituvchi yarim doira joylashuvini ko‘zdan kechiradi. Barcha talabalarni yarim doiraga joylashtiradi va talabalar ishtirokini ta’minlaydi.

Shunday qilib izlanishlar jamoani to‘g‘ri yechimga olib keladi! Har bir talaba «men hammani ko‘ryapman, hamma meni» prinsipiga amal qiladi.

Talabalar birinchi qadamlaridanoq ijodiy maydonchada sodir bo‘layotgan xarakatlarning yakunlanishiga va maqsadga muvofiq bo‘lishiga o‘rganishlari kerak.

**2 – mashq**

## Harakatga tayyorgarlik xolati.

- Turinglar!

Barcha talabalar bir vaqtda turishi uchun, gavda doimo harakatga tayyor xolatda bo‘lishi kerak. Yelka, qomat, oyoqlar erkin bo‘lishi zarur. Buning uchun qaddi - qomatni raso tutish lozim bo‘ladi. Gavda va oyoqlarni shunday holatini topish kerakki ozgina kuch bilan bir lahzada turish mumkin bo‘lsin. O‘zingizni boshqarishni o‘rganing. Diqqatni shunday jamlash kerakki, gavdaning harakatga tayyorligi ta’minlansin. Bu yarim doirada eshitish, ko‘rish, faol harakat qilishni ta’minlaydi. Buni ijodiy harakatga tayyorgarlik xolati deb ataymiz.

-Qomatingiz qotgan holda o‘tirmang! Ko‘kraklarni oldinga chiqarmang, lekin yelkalar ham bukr xolatda bo‘lmasin. Yelkalar keng, bo‘sh, erkin, qo‘llar

tizzalarda. Oyoqlar chalkashtirilmagan, stul ostiga yashirmang. O‘tirish qulaymi? Bemalolmi? Turing!

**3 – mashq**

Kimlar uchish qobiliyatiga ega?

Ayrim talabalarning diqqat darajasi qay xolatda ekanligini aniqlash uchun mashg‘ulotlarning birida bolalar o‘yini o‘ynaladi.

- Endi kimlar uchish qobiliyatiga egaligini aniqlaymiz. Men sizlardan so‘rayman, sizlar esa javob berasizlar. Orada to‘xtab qolish bo‘lmasin! Agar, men biron – bir parrandalarga mansub qushning nomini aytsam, (masalan tovuq) qo‘llaringizni ko‘tarib, birgalashib «Uchadi» - deb javob beringlar. Agarda «Cho‘chqa» - deb so‘rasam, - gapirmang va qo‘lingizni ko‘tarmang. Tushunarlimi?

Tayyormisizlar? Diqqat, boshladik.

- Burgut.
- Uchadi.
- Chumchuq.
- Uchadi
- Boy o‘g‘li.
- Uchadi.
- Ilon!

Hamma jim… va hokazo.

Mashq davom ettiriladi.

**4 – mashq**

## O‘tishlar

Ishchi xolatni ta’minlovchi mashqlarga o‘tamiz.

- Yarim doira shaklida joylashib o‘tirgan kursdoshlaringizni diqqat bilan kuzating. Ularning sochi rangiga e’tibor bering. Endi joyni shunday almashtiringki, o‘ng tomondan soch ranglarining ochidan to‘qiga qarab, ketma – ket joylashing. Shovqinsiz, muhokamaning xojati yo‘q.

Har bir talaba o‘tirgan joyida, gapirmasdan, qayerga o‘tishi kerakligini mo‘ljallashi kerak. O‘qituvchining qarsagidan keyin hamma talabalar bir vaqtda joylarini almashtiradilar.

Endi familiyalar bo‘yicha o‘tirasiz. Familiyalar alifbo bo‘yicha joylashsin.

Diqqat! Qarsak!

- Endi ismlarni alifbo bo‘yicha joylashtiring.
- Bo‘ylaringiz tizimi bo‘yicha joylashing. Shovqinsiz, aniq, chaqqon. Ortiqcha harakatsiz va maqsadga muvofiq.!

**5 – mashq**

O‘rindiqlar bilan mashq qilish jarayoni

Aynan avvalgi mashq qaytariladi.

-Endi boshqa joyga o‘z o‘rindig‘ingiz bilan o‘tasiz. Joy almashtirishda o‘rindiqni shartli holatda ushlamoq kerak: old tamonda, yon tomonda, yuqorida. Avvaliga vaqt chegaralanmaydi. So‘ng vaqt birligi bilan bajaramiz.

- Men o‘ngacha sanayman. Harakatlarni shunday taqsimlab olinglarki, berilgan vaqtda shovqinsiz joylashish mumkin bo‘lsin. Bir sanog‘ida turasiz va o‘tishni boshlaysiz. O‘n soni aytilganda yangi joyga o‘tirasiz.

O‘rindiqlar bir – biriga urilmasin! Ustaxonada bironta tovush eshitilmasin! Tasavvur qiling, ko‘rinishlar orasidagi qisqa vaqt ichida, sahnadagi dekoratsiyalarning joyini o‘zgartiryapsiz. Qorong‘ulik, parda ochiq, tomoshabinlar bironta shovqinni eshitmasliklari kerak.

**6 – mashq**

Ijodiy maydoncha

Bu yakka mashq uchun bitta talabani «sahna»da qoldiramiz. Qolganlar (berilgan sanoqda) o‘z o‘rindig‘i bilan «tomoshabinlar zaliga», ya’ni o‘qituvchi yonidan joy oladi.

- Buni shovqinsiz hamjixatlik bilan bajarish mumkinmi? Harakat qilib ko‘ringlar! Natijada yarim doira ikkiga bo‘linadi. «Men hammani ko‘ryapman, hamma meni» - tamoyiliga rioya qilinadi. Shu mashqni «besh» vaqt birligida bajaramiz.

- «Yigirma sakkiz» - vaqt sanog‘iga!

Maydonchadagi ijodiy yarim doira, ikkiga bo‘linib, tomosha zaliga bo‘linganlar ijodiy yarim doira bo‘lib tushadi. Talabalar mashg‘ulotda ikkita maydonga bo‘linib, o‘rindiqlar bilan ishlashga o‘rganadilar.

**7 – mashq**

**Doira (aylana)**

Endigi mashqimiz doira bo‘ylab joylashish. O‘rindiqlar yordamida ish xolati ko‘nikmalarini tarbiyalash bilan birga, joyni almashtirish mashqini bajaramiz. Talabalar yarim doira xolatida o‘tiradilar. O‘n yoki besh sanog‘i bo‘yicha, o‘rindiqlar bilan shunday joylashish kerakki, ustaxonada mumkin qadar, keng doira yaralishi lozim. Aniqrog‘i harakatlaringizni vaqt bo‘yicha taqsimlang. Oxirgi sanoq birligida o‘tirish kerak. O‘rindiqlar orasidagi masofalar hamma joyda bir xilmi? Yana qaytadan – yarim doiraga. Qaytadan – keng doiraga.

– Yoningizdagi qo‘shniga e’tibor bering! O‘z o‘rindig‘ingizni qo‘yganda qo‘shningizga halaqit bermang! Uning harakatlarini kuzating, u bilan bir vaqtda harakat qiling! O‘n yoki besh sanog‘i bo‘yicha katta doirani kichikka aylantiramiz. O‘rta doirani yaralishini ham mashq qilib ko‘ramiz. O‘rindiqlar joylashuvini ixtiyoriy tartibda o‘zgartiramiz:

- Besh sanog‘ida katta doira! Kichik doira yasashni esa, o‘n sanog‘ida bajaramiz! Katta doira yasashni yigirma uch sanog‘ida! O‘rta doirani uch sanog‘ida! Har bir mashqni shovqinsiz, aniq bajaramiz. Yuqoridagi talablar bilan mashqlar yakunlanadi.

**8 – mashq**

Shakllarni joylashtirish.

Xuddi shu tarzda, aniq sanoq vaqt birligida yarim doira, uchburchak, to‘g‘ri burchak, oval, to‘rtburchak, sakkiz burchak singari turli. xil shakllar yasash ishi mashq qilinadi

Barcha shakllarni paydo qilishda harakatlarni (vaqt bo‘yicha) aniq taqsimotiga ega bo‘lishni o‘zlashtirmoq lozim. Son birligi bo‘yicha oval (o‘n, besh, sakkiz) to‘rtburchakka aylanadi, to‘rtburchak – uchburchakka va hokazo.

**9 – mashq**

Tramvay.

Talabalar yarim doira shaklida joylashgan.

O‘n sanoq vaqt birligida yarim doira xolatini ikki qator o‘rindiqli ko‘rinishga aylantirish kerak. Bir – biriga yuzma – yuz o‘tirishi uchun talabalarni xuddi eski tramvay o‘rindiqlarida o‘tirganday joylashtiramiz.

-Boshladik! Qarshingizda o‘tirgan o‘rtoqlaringizni eslab qoling. Qarshingizdagi qo‘shni -partnyoringizni ham eslab qoling. Endi diqqat! «Yetti» sanog‘ini eshitishingiz bilan qarshingizda o‘tirgan partnyoringiz bilan tezda joy almashing. Kim bilan joy almashishni oldindan kelishib oling… Ikki! Uch! Besh! To‘rt! Besh! Olti! Sakkiz! «Yetti!»…

- Hamma joy almashtirishga ulgurdimi? Barakalla! Endi yoningizdagi talabani kuzating va eslab qoling. Buni 2 – shakl bo‘yicha joylashish deb nomlaymiz. Uch sanog‘ida avvalgi joyingizga qayting. Bir! Ikki! Uch! Men birdan yigirmagacha sanagunimcha, shoshilmasdan 2 -shakl bo‘yicha joylashing. Bir!.. Ikki!.. Uch!.. To‘xtang. Siz yarim yo‘lga yetdingizmi? Erta! Sekinroq yurish kerak edi. Orqaga qayting. Qaytadan boshlaymiz.

- …Yigirma!

O‘tirdik. Ikki sanog‘ida avvalgi joyingizga qayting. Bir! Ikki! Yetti sonini eshitishingiz bilan qarshingizdagi joylardan birini egallang. Bu safar oldindan kelishib olmasdan. Bir! Ikki! Yetti! Buni 3 – shakl bo‘yicha joylashish o‘rni deb ataymiz. Endi o‘n sanog‘i bo‘yicha 2 – inchi shakl bo‘yicha joylashishni takrorlang.

**10 – mashq**

Soat

Diqqatni jamlash mashqida 13 nafar ishtirokchi band bo‘lib, 12 nafar «soat raqamlari» va bir kishi nazoratchi vazifasini o‘taydi. Soat ko‘rsatgichlarini ham aniqlab oling. Keng doira bo‘ylab turib olinglar, birdan o‘n ikkigacha chapdan o‘ngga raqamlar tartibi bo‘yicha sanab chiqinglar. Nazoratchi - o‘rtada.

- Agarda umumiy doirani soat deb olsak, har biringiz bu katta soatning raqamlari bo‘lganingizda, bunday soatda vaqtni qanday belgilash mumkin? Hozir soat 11 raqamini ko‘rsatayapti. 11 raqamli talaba qarsak chaladi, so‘ngra 12 raqamli talaba «bam – mm» deb kuylaydi. Shu paytda soat ko‘rsatkichlari ham xuddi shunday joylashgan bo‘lishi kerak: biri o‘n birda, boshqasi o‘n ikkida. Birinchi bo‘lib katta (strelka) ko‘rsatkich o‘z joyini egallaydi.

O‘n ikkidan o‘ttiz besh daqiqa o‘tdi. Katta soat ko‘rsatkichining xolati qanday bo‘ladi? Bir. Qarsak chaling. Kichik ko‘rsatgich qaysi raqamda bo‘lishi kerak? Yettida. Yetti marotaba, «bam – mm» deb kuylang. Nazoratchi, vaqtni o‘zingiz e’lon qiling, raqam egalari esa – soat vaqtini o‘zingiz belgilang.

**11 – mashq**

Aylanma o‘yin

O‘rindiqlarni olib, keng doira shaklida joylashing. O‘rindiqlarni oldinga uzatilgan qo‘llarda ushlab, doira bo‘ylab yuring! Shoshilmasdan! Tezroq! Yana tezroq! Sekinroq! Umuman sekin – uch daqiqada bir qadam tashlang. Tezroq!.. Yana! Yana!.. To‘xtang!

Mashg‘ulotni asosan ikki xil ko‘rinishda olib borishni kelishib olamiz. Birinchi shartda xarakat qanchalik bajarilmasin, o‘rindiq bilan bir – biringizga tegib ketmaslikka harakat qiling. Ikkinchi shart: mening «to‘xta» degan buyrug‘imda, qo‘lingizdagi taburetkani tez qo‘yib, menga yuzma – yuz o‘tirib olasiz. Boshladik! Tezroq!

**12 – mashq**

Qarsaklar

Talabalar o‘rta doira shaklida o‘tirishibdi. Berilgan ritmda soat millari harakati bo‘ylab birin-ketin qarsak chaladilar. So‘ngra o‘qituvchi buyruq beradi.

Bu buyruq domla qarsagi. Ana shunday domlaning bergan buyrug‘i, qarsak chalish mashqini teskari tomonga o‘zgartiradi. Qarsak chalish ikkita ishtirokchining o‘rtasida berilishi kerak. Muximi qarsak chaluvchi o‘ng yoki chap tomondagi ishtirokchining mo‘ljalini aniq olishini ko‘zda tutib amalga oshiradi. Qarsaklar teskari yo‘nalishda, soat milariga qarshi yonalishida chalinishi kerak. Muhimi, mana shu o‘tish xolatida ritmdan chiqib ketmaslik kerak.

Bu o‘yin o‘zlashtirilgach, mashq murakkablashadi. Talabalar birin – ketin o‘qituvchi qarsagiga javob berish bilan birga, qarsak kuchini o‘stirib, ritmni xam o‘zgartiradilar. Talaba qarsagining ohangi o‘qituvchi tomonidan berilgan ritm o‘zgarishiga mos kelishi kerak.

– Tasavvur qiling, sizdan bir narsani so‘rayapman, siz esa javob berayapsiz. Men qanday qilib savol berayotgan bo‘lsam, siz ham xuddi shu ohangda va savolning zarb kuchi qanday bo‘lsa, aynan shunday javob beringlar.

- Endi esa bahslashamiz! Men qarsakni qanchalik sekin chalsam, siz qattiq zarb bilan javob qaytaring. Zarba qanchalik qattiq bo‘lsa, siz ohista zarb bering. Agar men bahsdan chekinsam – siz bostirib keling. Mabodo zarbni kuchaytirsam – siz zarbani sekinlashtirib chekining.

Qani boshladik…

**13 – mashq**

Ikkitali qarsak

Agarda doirada 15 nafardan ko‘proq ishtirokchi bo‘lsa, qarsak chalish mashqi murakkablashtiriladi. Doiraning ichida ikkita boshlovchi bo‘ladi. Birinchi boshlovchi katta qo‘ng‘iroqning zarbalaridek sekin, vazmin qarsak chaladi! Qarsak chalish uchun, qo‘llarni shoshilmasdan ko‘taring. Zarba! Pauza. Zarbaga javob beruvchi talaba, pauza paytida javob qarsagi uchun, xuddi shu ritmda qo‘llarini ko‘taradi. Talabaning zarbasi. Pauza. Boshlovchining zarbasi. Pauza. Sizlarning javob qarsaklaringiz, soat millari yo‘nalishida, aylana shaklida harakat qilishi kerak. Demak, bir ishtirokchi zarbidan keyin- pauza, so‘ng boshlovchi zarbasi va nihoyat chap tomondagi qo‘shningiz qarsak chaladi. Boshladik!

- Boshlovchi, sekin-astalik bilan umumiy ritmni o‘zgartiring, goh sekinlashtiring, goh o‘z xolatiga qaytaring. To‘xtang! Endi ikkinchi boshlovchining zarbalarini mashq qilamiz. Tezroq, tez – tez va unchalik kuchli bo‘lmagan holda chapak chaling. Boshlovchining zarbiga javob, soat millariga teskari yo‘nalishda, doira bo‘ylab yurishi kerak. Boshladik!

– To‘xtang! Endi ikkala boshlovchi baravar ishlaydi, sizlar unisiga ham bunisiga ham javob berasiz. Boshladik!

Bu mashqdan so‘ng boshlovchilarni yangi guruhlar bilan murakkablashtirish mumkin. Bunda javob qarsaklari yo‘nalishi o‘zgaradi. Soat millari bo‘ylab yurganlar, endi soat millariga qarshi yo‘nalishda harakat qiladi, o‘ngdan chapga

yurganlar, chapdan o‘ngga qarab yuradi. Bunday mashq aniq bajarilsa, diqqat ish holati, partnyorni xis qilish va bir ritmdan boshqasiga ixtiyoriy o‘tish ko‘nikmasi yaxshi o‘zlashtirilgan deyish mumkin.

**14 – mashq**

Koptok

Darsga bir necha tennis koptoklarini olib kelish kerak. Talabalar katta doira holatida o‘tirishadi.

– Mana sizga bitta koptok. Ritmni eshitgan holda partnyorga uzating. Agar metronom[1] bo‘lmasa, taburetkani chertib, ritm bering. Avval – sekin.

- Qo‘l harakatlari berilgan ritmga mos holda harakat qilsin. Zarba!

– Siz koptokni otasiz va qo‘llaringizni sekin tushirasiz. Koptokni ilib oldingiz. Zarb vaqtini his qilib, koptokni otish uchun qo‘llaringizni sekin ko‘tarasiz. Zarba!

– Koptokni uzatasiz.

– Ritm borgan sari tezlashadi. O‘z harakatlaringizni unga moslashtiring. Qo‘l soatining chiqillashi kabi, ritm ham aniq bo‘lib boradi.

- Har ikkinchi zarbga koptokni uzating. Qo‘llaringizni tushiring va aynan shu ritmda uzatish uchun yana qo‘llarni ko‘taring.

– Endi esa, har bir zarb harakat uchun signal vazifasini o‘taydi. Zarb, koptokni uzatdingiz. Zarb, partnyoringiz uni ilib oldi. Bitta koptokni otish o‘zlashtirilganidan so‘ng, aylanaga ikkinchi koptokni, so‘ng uchinchi va to‘rtinchi koptoklarni qo‘shish kerak. Doirada yigirma kishidan iborat qatnashuvchi ishtirok etsa, bir vaqtning o‘zida, beshta – oltita koptok baravariga ishlatilishi mumkin.

**15 – mashq**

**Sonli koptoklar**

Koptok bilan bog‘liq boshqa mashq:

- Koptokni uzatayotganda bir sonidan boshlab, o‘n to‘qqizgacha bo‘lgan xohlagan sonni aytasiz. Kimga koptok uzatilsa, o‘sha talaba aytilgan songa bir qo‘shib, javob qaytaradi, koptokni uzatish chog‘ida yana bitta son qo‘shib uzatadi. Koptokni uzatayotganda, hozir aytilgan sonlardan keyingisini ketma-ket aytish ta’qiqlanadi. Koptokni ilib olganingizda «sakkiz» degan bo‘lsangiz, «to‘qqiz» sonini (ketma-ket) koptok uzatayotganda aytaolmaysiz. Boshqa sonni ayting.

– Yetti! – bitta talaba otadi.

---

[1] - Метроном – намунавий ўлчов кўрсатгичи (мусиқадаги темпни аниқлаш учун махсус мослама.

– Sakkiz! – ikkinchi talaba javob beradi, koptokni ilib oladi va «o‘n besh» - deb uchinchi talabaga uzatadi.  Uchinchi talaba esa, o‘n olti”, - deb javob beradi. Buni birdaniga uddalash qiyin. Ikkita son tez ritmda aytilganida, odatda navbatdagi son o‘z-o‘zidan tildan chiqib ketay deydi. Ish paytida diqqatni bir joyga jamlab olsangiz,  mana shu refleks bo‘lib qolgan ketma – ketlikni yo‘qota olasiz. Borgan sari koptok otuvchi va ilib oluvchilarning qo‘l harakati, ritmlar o‘zgarishiga moslashib boradi. Sonni koptok otayotgan  vaqtda aytish kerak. Javob sonini esa, koptokning havodagi harakati vaqtida aytish talab qilinadi.

**16 – mashq**

**So‘zli koptoklar**

Talabalar ikkita oq va qora koptoklarni bir-biriga o‘zaro uzatadi. Har ikkalasi ham berilgan ritmga bo‘ysungan xolda harakatlanadi. Qora koptokni otayotgan talaba, istagan nomni bosh kelishikda aytadi. Kim koptokni ilib olsa, shu onda ma’no bo‘yicha mos keluvchi fe’lni qo‘shadi.

– Bulut…

-  suzyapti!..

- Gulxan…

-  yonyapti!..

Birinchi qarashda oddiy bo‘lib ko‘ringan bu mashq, hech qanday qiyinchiliksiz sust ritmda bajariladi. Mashqning ishchi holatini, diqqat o‘tish mexanizmini yaxshi egallagach, tezkor ritmga o‘tish mumkin.

**17 – mashq**

**Yer va havo**

Avvalgi mashqning boshqa ko‘rinishi bor. Oq koptok ramziy ma’noda «havo»ni anglatadi. Shuning uchun oq koptokni ilib oluvchi talaba  biron – bir qushni, kapalaklar va boshqa nomlarni aytadi. Qora koptok – «yer»dir. Buning uchun yerdagi biron – bir hayvonning nomini aytib javob qaytarish kerak. Uchinchi koptok - «suv»ni ham qo‘shish mumkin va biron – bir baliqning nomini aytish kerak. Bu koptok boshqa rangda masalan, havo rangda bo‘lishi mumkin. Ongimizda tezda tasavvur  (qora – yer, oq - havo, havorang – suv) paydo bo‘ladi. Uchta koptok bilan harakat qilish  qiyin ish. Yaxshi mashq qilingan diqqat esa, talabaga bir zumda chamalash (oriyentatsiya[1] )  imkonini beradi.

Agar turli xil rangdagi koptoklar bo‘lmasa, bir rangdagi koptoklar bilan ishlang. Ularni otayotganda «havo», «yer», «suv» nomi bilan atab  ishlash mumkin. Mabodo koptok bir dona bo‘lsa, uni yo «yer», yo «havo» bilan atab,

[1] Ориентация – мўлжаллаш, чамалаш.

mashq qilinadi. Shuni nazarda tutish lozimki, mashqning Asosiy adabiyotlar maqsadi – partnyor bilan oʻzaro bogʻlanish koʻnikmasini shakllanishida, bir vazifadan ikkinchi vazifaga tez oʻtishdan iborat. Bunda fantaziyaning keng boʻlishi, yoki kashf qilishdan koʻra, fikrlar jarayonining tez paydo boʻlishi muhimroq.

**18 – mashq**

### Qoʻshiq

Mashgʻulotda barcha talabalar biladigan qoʻshiq boʻlishi kerak. Qoʻshiqni birgalikda joʻr boʻlib kuylaymiz. Birinchi qarsakda kuylashni boshlaysiz, ikkinchi qarsakda fikrda kuylashni davom ettirasiz, uchinchi qarsakda ozingizni chiqarib kuylang. Shu yoʻsinda, bu mashqlar sizning ichki eshitish qobiliyatingizda umumiy ritmni ushlab turishni tarbiyalaydi. Bir qancha qaytarishlardan soʻng, mashqning koʻrinishi oʻzgaradi.

- Ikkinchi qarsakdan keyin, fikran kuylashga oʻtasiz, shunda men dirijyorlik qilaman. Qoʻlim bilan kimni koʻrsatsam, oʻsha talaba qoʻlimni undan olib boshqa talabani koʻrsatmagunimcha, ovozini chiqarib kuylashni davom ettiraveradi.

Shu yoʻl bilan lozim topilgan ovozlar saralanadi.

**19 – mashq**

### Oʻz qoʻshigʻingni top

Bu mashq, oldingi mashqlardan oʻlaroq, biroz boshqa maqsadni koʻzlaydi. Bu umumiy ritmga qarshi, oʻziga xos “immunitet”[1] hosil qilish mashqi. Aktyor koʻpincha sahnadagi harakatning umumiy ritmi ga kirishib ketadi, aynan paytda esa u oʻz ritmini olgʻa surishi kerak.

-Birinchi zarbda har biringiz fikran oʻz qoʻshigʻingizni kuylashni boshlaysiz. Kuylayotgan qoʻshigʻingizni biz hozircha bilmaymiz. Har biringizning oʻz qoʻshigʻingiz bor.

Ikkinchi zarbda hamma ovozini chiqarib, oʻz qoʻshigʻini kuylaydi. Diqqatni jamlang. Yon sherigingizning qoʻshiq ritmi, sizni chalgʻitmasin, xalaqit bermasin. Eslab qoling, bitta zarbda ichingizda, ikkitta zarbda ovozingizni chiqarib kuylaysiz.

Talabalarning ish holati, diqqat koʻnikmasi va ixtiyoriy oʻtish koʻnikmalari tizimini mujassamlashtirish mashqini bajarayotganda, uni yanada

---

[1] Иммунитет – аъзо ва баданнинг айрим касалликларини ўзига юқтирмаслиги ва уларга қарши курашиш қобилияти.

murakkablashtirishi mumkin. Ba'zida uni ikkita bir xil bittadan yoki ikkitadan zarblar bilan rivojlantiradi.

-Diqqat! Siz bir lahzada Ichingizda kuylashni davom ettirasizmi, yoki ovozni chiqarib kuylashga oʻtasizmi?olishga xarakat qiling .

Nima qilish lozimligini bir lahzada hal qilishingiz kerak, fikrdami, yoki ochiq kuylashga oʻtasizmi?

**20 – mashq**

## Harakatlar nazorati

Xarakatlarni birlashtirish koʻnikmalari sahna harakati darslarida maxsus mashqlar orqali oʻzlashtiriladi. Bu yerda murakkab boʻlmagan bitta misol bilan chegaralanamiz. Talabalar biron – bir qoʻshiqni kuylashganda ularning harakatlar tartibini oʻqituvchi aniqlaydi. Masalan talaba:

1) qoʻshiqning birinchi uch qatorida oʻz oʻrnidan tezda turadi va oʻz oʻrindigʻini sekin aylanib oʻtib, uning orqasida toʻxtaydi;
2) toʻxtash vaqtida keyingi ikki qatorni kuylaydi;
3) oʻrindiq oʻz joyiga qoʻyilgach, toʻxtaydi va qoʻshiqning uchinchi qatorini kuylaydi;
4) turgan joyda qimirlamasdan bir qator kuylaydi;
5) oʻrindiq ustida turib, qaddini rostlab, yana bir qator kuylaydi;
6) qatorlar oraligidagi pauzada tez sakrab tushish kerak;
7) tik turib keyingi ikkita qatorni kuylaydi;
8) boshlangʻich qatorni takrorlab, oʻrindiqni tezda avvalgi holatiga qaytarish lozim;
9) keyingi qatorlarida oʻrindiqni sekin aylanib oʻtadi va oʻtirib oladi.

Buyruq boʻyicha qoʻshiq boshlanadi, ritmni buzmasdan, talabalar berilgan harakatlarni oʻzlashtiradilar.

Xar bir punkt[1] alohida mashq qilininadi. Qoʻshiq boshidan, buzilmasdan oxiriga yetkaziladi.

**21 – mashq**

## Yozuv mashinasi

Talabalar yarim doirada. Ular chapdan oʻnga, alifbo boʻyicha nomlab joylashtiriladi:

- A, B, V, G, D…

---

[1] – Пункт – бирор иш учун белгиланган жой.

Agarda yarim doirada talabalar soni kam bo‘lib, xarflar soni ortib qolsa, unda doira bo‘ylab talabalar ikkinchi bor nomlanadi. Har bir talaba zimmasiga bir necha harf biriktiriladi. O‘qituvchi biron – bir she’rdan jumla beradi va uni «yozuv mashinkasida» yozadilar.

O‘qituvchi qarsak chaladi («harf tugmasini bosadi»). Berilgan jumladagi harfning egasi qarsak chaladi. Jumladan harflar qog‘ozga tusha boshlaydi. Pauza vaqtida hamma birdaniga qarsak chaladi. Masalan, «San’atda o‘zingni emas, o‘zingda san’atni sev», jumlasini olib, mashinkada yozish mashqini bajaramiz. Mashqning tartibi quyidagicha bo‘ladi:

1) Murabbiyning qarsagi – “S” harfi tugmasi. Mashinkada yoziladi.
2) “S “harfi egasi qarsak chaladi, qog‘ozga ko‘chiriladi.
3) Murabbiy qarsagi «A» harfi tugmasi bosiladi.
4) Talaba qarsagi «A» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
5) Murabbiyning «N» harfi tugmasi bosiladi.
6) Talaba qarsagi «N» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
7) Murabbiy qarsagi «‘» harfi tugmasi bosiladi.
8) Talaba qarsagi «‘» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
9) Murabbiy qarsagi «A» harfi tugmasi bosiladi.
10) Talaba qarsagi «A» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
11) Murabbiy qarsagi «T» harfi tugmasi bosiladi.
12) Talaba qarsagi «T» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
13) Murabbiy qarsagi «D» harfi tugmasi bosiladi.
14) Talaba qarsagi «D» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
15) Murabbiy qarsagi «A» harfi tugmasi bosiladi.
16) Talaba qarsagi «A» harfi qog‘ozga ko‘chiriladi.
17) Murabbiy qarsagi jumla tugallanishini anglatadi.
18) Hamma talabalar bir vaqtda qarsak chalishadi. Pauza (keyingi so‘zga o‘tishdagi oraliq).
19) Murabbiy qarsagi «O‘» harfi tugmasi bosiladi va hakozo.

Mashq shu ko‘rinishda o‘zlashtirilgach, o‘qituvchi murakkab jumlalarga o‘tadi. «Tugmalarni bosayotib» ishni tezlashtiradi, yoki sekinlashtiradi va ritmni o‘zgartiradi. Bu mashqda, talaba partnyori bilan o‘zaro faol bog‘lansa, bajarayotgan mashq ma’noga ega bo‘ladi. Bu holatda partnyor - o‘qituvchi hisoblanadi. Talabalar faqat o‘qituvchini kuzatishlari lozim, o‘rtoqlarining hatolari ularni chalg‘itmasligi kerak. Har bir harf o‘z tugmasini bosilishini kutadi xolos. Partnyor o‘z harfini o‘tkazib yuboradi, yoki «bosma xatosi» bo‘lib qolishi mumkin. Muhimi talaba tugmasini bosish bilan birga zarba bilan javob bersin. «Bosma xatolari»ga e’tibor bermasdan, butun matnni kuzatib (ularga e’tibor bermaslik – bu eng qiyini), talaba o‘z harfini kutadi va uni yozadi. (qog‘ozga ko‘chiradi).

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, matnlar ana shunday mashinkada «chop etilgan»da talabalar xotirasida uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Biz esa o‘z vaqtida ularning xotirasida yozilgan matnimiz mazmuniga alohida e’tibor berishimiz kerak bo‘ladi.

**22 – mashq**

### Ikkita bosma harf

«Yozuv mashinka»si mashqini yanada murakkablashtirsak, partnyor bilan o‘zaro bog‘lanish bir obektdan ikkinchisiga o‘tish mexanizmini ham mashq qilish imkoniyatini vujudga keltiradi. Alifbo bo‘yicha chapdan o‘ngga xarflar taqsimlanishi bir miqdorda bo‘lsa, o‘ngdan chapga harflar taqsimlanishi ikkinchi miqdorni tashkil qiladi. Demak, birdaniga ikki xil yozuvdagi alifbo «ishlaydi», ikki xil yozuvdagi bosma harf. Shartli ravishda ulardan birini “Bosh” harf, ikkinchisini –“ Kursiv[1]” deb ataymiz. Kurs o‘n- o‘n beshta talabadan iborat bo‘lsa, bir talabaga xarflar quyidagicha taqsimlanadi: masalan birinchi miqdordagi K, S bosh harflar va kkinchi miqdordagi V, P, E kursiv harflari.

Avval xotirada ushbu ikkala miqdorni mustahkamlab olishimiz kerak: o‘z “Bosh” harflaringizni eslang. “Kursiv”… Yana bir marotaba – “Bosh” harf… “Kursiv”…

So‘ngra o‘qituvchi she’rning bir qatorini beradi va uni eslab qolishni iltimos qiladi.

O‘qituvchi birinchi qarsagi oldidan e’lon qiladi: - “Bosh” harfli! (yoki – “Kursiv”).

Harflarni bosish jarayonida o‘qituvchi berilgan ritmni buzmasdan, xohlagan so‘zning yoki qatorning boshlanishi oldidan vazifani o‘zgartirishi mumkin:

- “Kursiv” bilan! (yoki – “Bosh” harf bilan)

Oldindan taqsimlash ham mumkin.

- Birinchi qatorni “Kursiv” bilan, ikkinchi va uchinchini qatorni “Bosh” harf bilan, to‘rtinchini esa, “Kursiv” bilan. Har ikkala mashq «tugmani bosmasdan» ham bajarilishi mumkin. Harflar o‘qituvchi qarsagisiz, talabalar tomonidan birin – ketin yoziladi.

**23 – mashq**

### Buzilgan yozuv mashinasi

Yozuv mashinkamizning ayrim harflari ishdan chiqqan bo‘lsa-chi? Siz tugmachalarni bosasiz, ammo harflarning ba’zilari qog‘ozga ko‘chmaydi. Qaysi harflar ishdan chiqqanligi haqida, o‘qituvchi «tugmachani bosishdan» oldin, oxirgi daqiqada xabar beradi.

---

[1] – Курсив – ёзма шаклдаги босма харф. Масалан: Курсив.

Mashqni murakkablashtiramiz. Buzuq xarf tugmachasi bosilishi bilan, o‘rnidan turishi kerak. Yoki buzuq harf qarsak chalish bilan emas, ovoz chiqarib aytiladi.

Buzuq mashinka mashqining yana bir turi:

- Har bitta so‘zning ohirgi harflardan oldingisi buzilgan.

Yoki she’rlar mashinkada chop qilinsa:

- Hamma katta harflar buzilgan. Demak, har bitta satr va iboraning boshida birinchi harf indamaydi.

**24 – mashq**

Linotip (harf teruvchi mashina)

Iborani harf teradigan mashinada yozamiz. Tugmachani bosayotganda harflar to‘kilishi mumkin. Harf terish mashinasida satrdagi harflar kamayadi. Biz so‘zni kamaytiramiz. Murabbiyning qarsak belgisi berilishi bilan to‘kiluvchi “talaba – harf” ustaxonaning o‘rtasiga, «kamayish chizig‘i»ga saflanadi. Keyingi qarsak belgisida ularga boshqa “talaba – harf” qo‘shiladi. Birinchi so‘z terilganda, joyida qolgan talabalar, belgi bo‘yicha so‘zni aytadilar va o‘zlarining joylariga o‘tirayotib to‘kiladilar. Keyingi so‘z yig‘iladi. Mashqni murakkablashtiramiz. Yig‘ishning boshidan oxirigacha, har bittangiz biron – bir qo‘shiqni kuylamog‘ingiz kerak. Qo‘shiq aytinglar hamda, «yig‘ish»da qatnashinglar, aytiladigan qo‘shiq ritmi, «yig‘ish»ning ritmini buzmasligi kerak.

**25 – mashq**

Plakat[1]

Bu mashq tasavvurdagi buyumlar bilan xatti-harakat qilish ishlari uchun talabalarga beriladigan ilk vazifalar qatoriga kiradi. Diqqatni yig‘ish hamda diqqatni erkinlashtirish mashqlarini davom ettiramiz. Talabalar «yozuv mashinasi» mashqiga o‘xshash, alifbo bo‘yicha taqsimlanadi. Tasavvur qiling, har biringiz oldingizda yasama harflar bilan to‘la bir nechta quti turibdi. Harflar katta, balandligi yarim metr, ular qalin oq kartondan qirqilgan. Yana tasavvuringizda - xonada ikkita yog‘och ustun, o‘rtasiga esa arqon tortilgan. Unga harflarni ilish kerak. Ana shu tasavvurdagi arqonga “San’at uchun jonim fido” degan shiorni tizib ilamiz.

O‘qituvchi aniq bir ritm beradi, talabalar shu ritm asosida tasavvuridagi harflarni birin – ketin iladilar. Yaxshilab kuzating, o‘rtog‘ingiz oldingi harfni qayerga va qanday ildi. Harflar aro masofani saqlanglar, matnning bir-tekis yotishini ta’minlang.

---

[1] Плакат - ахборот ёки реклама учун суратли қисқача матн.

**26 – mashq**

### Hisob mashinasi

Talabalar yarim doira holatida o‘tiribdilar. O‘nta odam birdan nolgacha (bu 10 raqami ham) bo‘linadi. Bundan tashqari, talabalar soniga qarab qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, barobar belgilarini taqsimlab berish mumkin. Yana 11,12,13 va boshqa sanoqni davom ettiradigan sonlarni ham aniqlab oling.

Eshiting, vazifa quyidagicha:

Besh ko‘paytirilgan to‘rtga, ayiruv bir va barobar:

Besh o‘rnidan turadi, chapak chaladi va o‘tiradi.

Ko‘paytirish belgisi turadi, chapak chaladi va o‘tiradi.

To‘rt o‘rnidan turadi, chapak chaladi va o‘tiradi.

Bir vaqtning o‘zida ikki va nol (20 soni), chapak chalib o‘tiradilar.

Ayiruv belgisi turadi, chapak chaladi va o‘tiradi. Bir turadi, chapak chaladi va o‘tiradi.

Tenglashish belgisi turadi, chapak chaladi va o‘tiradi. Bir va to‘qqiz turadi (19 soni), chapak chalishadi va o‘tirishadi. Shu harakatda qatnashuvchilarning barchasi o‘rnilaridan turib, bir vaqtda chapak chalib o‘tiradilar.

**27 - mashq**

### O‘yinli hisob mashinasi

Xisob mashinasiga o‘xshash ikki xil ko‘rinishdan iborat o‘yin o‘ynaymiz. Birinchisi: talabalar 15 ta bo‘lsa, ulardan 14 tasi yarim doira shaklida turadilar, bittasi esa boshlovchi bo‘ladi. O‘nta talaba – noldan (0) to‘qqizgacha (9) bo‘lgan sonlarga taqsimlanadi. To‘rtta talaba esa belgilar: qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish. Boshlovchi: besh qo‘shuv to‘qqiz, deydi. Boshlovchining qarsagi bo‘yicha «besh» oldinga qadam qo‘yadi, «qo‘shish» - chapak chaladi, «to‘qqiz» - oldinga qadam qo‘yadi. Barcha talabalar ikki marotaba qarsak chaladi (barobar belgisi), «bir» va «to‘rt» oldinga qadam qo‘yadi, bu 14 sonini bildiradi. Endi hamma uch marotaba qarsak chaladi (tamom). 5+9=14

Ikkinchi variant. Yettita talabadan birinchisi - birlik, ikkinchisi - o‘nlik, uchinchisi - yuzlik, to‘rtinchi - minglik, beshinchi - o‘n minglik, oltinchi - yuz minglik. Yettinchi talaba - boshlovchi.

Boshlovchi biron – bir sonni aytadi, masalan 125102. So‘ngra chapak chaladi. Yuz minglik talaba ta’zim qiladi, o‘n minglik talaba ikki marta buriladi, minglik talaba besh marta qo‘llarini ko‘taradi, yuzlik talaba bir marta o‘tiradi, o‘nlik talaba esa joyidan qimirlamaydi, birlik ikki marotaba oyog‘i bilan polni tepadi so‘ng hamma qarsak chaladi.

**28 – mashq**

**Varrak**

Partnyorning harakatlarini takrorlash uchun mashq.. Talabalar bir-birlarining orqalaridan ustaxona bo‘ylab yuradilar, boshlovchi talaba tasavvuridagi to‘siqlarni chetlab o‘tadi, tasavvuridagi chuqurlikdan sakrab o‘tadi, qolganlar esa uning harakatlarini qaytaradilar. O‘qituvchining buyrug‘i bo‘yicha, boshlovchi varrakning dumiga o‘tib oladi, ikkinchi varrakka esa, yangi boshlovchi bosh bo‘ladi. Bu mashq partnyor bilan o‘zaro harakat qilish maqsadini ko‘zlamaydi. «Partnyor hayoti bilan yashash, uning fikri bo‘yicha fikrlash, uning ko‘zlari bilan ko‘rish» kabi talablar hali oldinda. Hozircha mashqning yagona talabi - tashkilotchilik va ishchi holatni aniqlashdan iborat xolos.

**29 – mashq**

**Kechikib ko‘rsatuvchi ko‘zgu**

Chapdan birinchi talaba, siz ko‘zgu oldida o‘tirib shoshilmasdan yasan – tusan qilayotganingizni tasavvur qiling. Bitta harakat qildingizmi, bir soniyaga to‘xtang, ko‘zguga qarang. Navbatdagi harakat – pauza. Uchinchi harakatni bajaring – yana pauza. Chap tomondagi qo‘shni, siz birinchi harakatni qachon bajarasiz? Boshlovchi ikkinchi xarakatni boshlaganda, siz birinchi xarakatni boshlang. Chapdagi uchinchi talaba esa, boshqaruvchining birinchi harakatini, uning o‘ng tarafidagi qo‘shnisi boshqaruvchining ikkinchi harakatini qaytadan tiklashni boshlaganida bajaradi, boshqaruvchining o‘zi esa, shu vaqtning o‘zida uchinchi harakatni bajarayotgan bo‘ladi. Shunday qilib, yarim doirada o‘tirgan har bir talaba boshlovchining harakatlarini qaytaradi, faqat u bilan birgalikda emas - bitta harakatdan orqada qolgan holda ishlaydilar. Masalan, boshlovchi sochini tarayapti. Uning birinchi harakati - qo‘lini taroq turgan cho‘ntagiga olib bordi, qotdi. Ikkinchi harakati – taroqni oldi. Uchinchi harakati – boshni orqaga tashlash va hokazo.

Ikki va xattoki uchta harakatga orqada qoluvchi «ko‘zgu» - bu mashqimizning eng qiyin jarayoni hisoblanadi.

Bu mashq diqqatning mufassalligini ta’minlash bilan birga, xotirani va kelgusida xotiradagi bitikni qayta jonlanishini ta’minlaydi.

Keyingi mashqlar ongda xotirani yodda saqlanishi uchun, yoki ijodiy maxsulni qabul qilishni rivojlantirish uchun bajariladi.

**Ijodiy mahsulni qabul qilish, o‘zlashtirish**

**30 – mashq**

**Kuzatuvchanlik**

- Do‘stlaringizning tashqi ko‘rinishi sizga yaxshi ma’lummi? O‘ngdagi qo‘shningizni diqqat bilan sinchiklab kuzating. Siz shu paytga qadar undagi sezilmagan biron bir xususiyatini toping. Uning ko‘zlari qanaqa, qanday shaklda? Qanday rangda? Sochlarichi? Qulog‘ining, daxanining shakliga qarang. Chapdagi qo‘shni bilan solishtiring. Farqi nimada? Qo‘llari qanday? Barmoqlarining uzunligi, yo‘g‘onligi va tirnog‘ining shakli qanday?

- O‘giriling va yon qo‘shningizni eslab, uni bizga tasvirlab bering. Har biringiz yarim doirada turgan istagan sahnadoshingizni tanlab, uni kuzating… Endi orqangizni o‘girib, yon qo‘shningizga tasvirlab bering. Siz shunday tasvirlangki, kursdoshlaringiz kimni kuzatganingizni tushunsin.

**31 – mashq**

## Besh barmog‘ingiz

Qachonki bizga biron narsa yaxshi tanish bo‘lsa, uni - «besh barmog‘imdek bilaman» - deymiz. O‘sha besh barmog‘imiz bizga yaxshi tanishmikan? Agar ularga diqqat bilan qarasangiz, siz ilgari sezmagan birqancha yangiliklarning guvohi bo‘lasiz. Solishtirish uchun qo‘shningizni qo‘lini oling. Kim o‘zining besh barmog‘ida ko‘proq yangilik topadi?

- Kaftingizga qarang, o‘giriling. Chap va o‘ng qo‘llaringizning kaftlari orasida farq bormi? Nimada? Yaxshiroq qarang. So‘zlab bering, bir qo‘lingiz ikkinchisidan nimasi bilan farq qiladi. Chap jimjilog‘ingiz, o‘ng jimjilog‘ingizdan nimasi bilan farq qiladi?

**32 – mashq**

## Soat

Kimga o‘zining qo‘l soati yaxshi tanish? Uni yeching va yarim doira bo‘ylab uzatib yuboring. O‘z soatingiz haqida eslab, o‘rtoqlaringizga so‘zlab bering. Do‘stlaringiz esa sizni tekshiradilar. Soatingizni bir daqiqaga qaytarib oling, diqqat bilan ko‘rib chiqing va yana do‘stingizga bering. So‘zlang! Eslang, soat betidagi olti sonini shakli qanday? Uch soniningchi? Soat ko‘rsatgichini eslang, uning uchi qanday? Olti sonining tagida nima yozilgan?

**33 – mashq**

## Almashtirish

Har biringizga vazifa: o‘z shaxsiy buyumlaringizdan birontasini – taroq, ruchka, kalitni qo‘lingizga oling. Men yigirmagacha sanayman, siz esa buyumlarni diqqat bilan qarab chiqing. ..... 19! 20! To‘xtang! Qo‘shningiz bilan buyumlarni almashtiring. Qo‘shningizdan olgan narsalarni yaxshilab kuzating. ...... 19! 20! To‘xtang! Endi bir – biringizga navbat bilan, avval bitta buyum haqida, so‘ngra boshqasi haqida so‘zlab bering. Boshqa qo‘shningiz sizlarni kuzatsin. Biron bir

kichik tafsilotni ham qoldirmang. Taroqdagi tirnalgan joy bu nimasi, u qachon va qanday qilib paydo bo‘ldi? Eslang, yoki buni o‘ylab toping. Qo‘shningizni soati azaldan bormidi? U buni sotib olganmi, yoki sovg‘ami? O‘ylang, kim sovg‘a qilgan? Nima uchun siz bunday deb hisobladingiz? Ko‘rish xotirasi mashqi, tasavvurimizni boyitadi va u kuzatish mahsulidir.

**34 – mashq**

### Gugurt qutisining tarjimai xoli

Sizga yaxshi ma’lum bo‘lgan gugurt qutisida, hali tanish bo‘lmagan yangilikni toping. Tasavvur qiling – uni qanday yasashgan? Avval nima qilinadi? O‘rmondagi daraxtlarni kesadilar, arralash zavodiga olib boradilar. Siz gugurt qutisi tayyorlanishidagi barcha jarayonni bilmasligingiz mumkin, fantaziya qilib ko‘ring! O‘ylab ko‘ring – gugurt qutisining tarjimai holida daraxt qirquvchidan tortib, magazindagi sotuvchigacha qancha odam qatnashgan. Boshidan oxirigacha, to hozirgi kungacha, shu tarjimai hol bo‘yicha fikran o‘tib chiqing. Agar diqqat bilan qarasangiz, siz uni qanday yaratilginligini va qanday yo‘l bosib o‘tganini osonroq tushunib olasiz. Birdaniga sezilarli bo‘lmagan belgilar bo‘yicha, tarjimai xol izini va barcha tafsilotlarni topa olasiz. Mana endi gugurt qutisi sizga yaxshi tanish. Uni yashiring va bizga tasvirlab bering. Huddi shunday ko‘rinishga ega boshqa bir gugurt qutisini oling. Ko‘rinishidan har ikkalasi ham bir xil. Siz esa ular o‘rtasidagi farqni toping! Nima uchun ularni solishtirayapsiz? Hayotda qanday sharoit sizni shunday qilishga majbur etishi mumkin? Siz xar xil gugurt qutisini to‘playsizmi? Yoki siz tergovchimisiz?

(Bu savollarga javob topishga harakat qiling!)

**35 – mashq**

### Stol ustidagi buyumlar

Stolning ustida – bloknot, ruchka, ko‘zoynak qutisi, qog‘oz, tangalar yotibdi.

- Stol oldiga boring, ikki ko‘zingiz bilan barcha buyumlarni razm solib kuzating va “rasmga tushiring”. Besh soniya vaqt ichida “rasmga tushiramiz”.

- To‘rt, besh! Endi o‘giriling, yoki ko‘zlaringizni yuming va o‘z ichki ekraningizda rasmni namoyon qiling! Stol ustida qanday buyumlar, qay tartibda yotibdi, so‘zlab bering? Ularni eslayapsizmi?

- Tekshiring! Buning uchun ko‘zlaringizni oching va qarang! O‘giriling! Nima haqida o‘ylab qoldingiz, nimani qoldirib yubordingiz?

- Qarang! O‘giriling! Qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi? Men qaysi buyumni joyini alishtirdim? Stolda qanaqa yangi buyumlar paydo bo‘ldi? Buyumlar boshida qanday turgan bo‘lsa, shunday qilib joylashtiring. Xotirangizda saqlanayotgan surat bilan solishtiring.

**36 – mashq**

**Fotoapparat**

Kuzatuvchanlikni takomillashtirish uchun ko‘z xotirasining mashqi. O‘quvchilar yarim doira holatida. Ulardan biri o‘rtaga turib, o‘rtoqlarini “suratga” oladi (20 yoki 10 yoki 5 shartli sanoq vaqtida), so‘ngra eshik ortiga chiqadi. Qisqa pauza paytida talabalar boshqa joylarga o‘tirib oladilar. «Rasmchini» chaqirsa bo‘ladi.

- O‘rtoqlaringiz avval qanday o‘tirgan edi?

**37 – mashq**

**Rasmchilar**

Maydonchaga stullar qo‘yilgan. Bitta yoki bir nechta talabalar (3, 2, 1 qisqa muddatda) xonaning umumiy ko‘rinishini “rasmga oladilar” va tashqariga chiqadilar. Ular tashqarida bo‘lganlarida, o‘rindiqlar joylashuvi o‘zgartiriladi. Joylarni butunlay o‘zgartirish shart emas, ikkita – uchta o‘rindiq joyi o‘zgartirilsa bas.

- Kiringlar. Avvalgi holat qanday edi? Yoki ikkita talaba yarim doira oldida turadi, qolgan o‘tirgan talabalar, ularni shartli suratga oladilar. So‘ng shu ikkita talaba tashqariga chiqib, o‘zlarining tashqi ko‘rinishiga, sochi, yoki kiyimining biron – bir joyiga o‘zgarish kiritadi. Ular qaytadan xonaga kiradilar, qolganlar esa, bularning avvalgi holatlarini esga olishlari kerak.

**38 – mashq**

**Ko‘r rasmchilar**

O‘qituvchi stoli ustiga bir nechta mayda buyumlar qo‘yilgan. Uchta talaba chaqiriladi.

- Buyumlarni “rasmga oling”. Ko‘zingizni yuming. Endi men buyumlarni aralashtiraman, siz esa ko‘zingizni ochmasdan, ular avval qanday yotgan bo‘lsa, shunday qo‘yib chiqasiz. Doim “ko‘r rassomlarning qo‘llari”, buyumlarni joylashtirganda bir-birlari bilan talashishini kuzatish qiziqarlidir.

**39 – mashq**

**Gugurt qutilari qanday joylashdi**

Stol ustiga bir nechta gugurt qutisini tashlaymiz. Beshta talaba stolning yoniga keladi. Uch hisobiga gugurt qutisi qanday tushganini eslab qoling. Ularni to‘siq vazifasini o‘tovchi varoq bilan o‘rab yashiramiz. Nechta gugurt qutisi yotgan edi? Sakkiztami? Sakkizta yangi gugurt qutisini oling va stolning boshqa tomoniga qutilarni xuddi shunday qo‘yib chiqing. Tayyormi? Tekshiring. Men ikki sanog‘iga varoqni ko‘taraman. Bir, ikki! Xatolarni to‘g‘rilang. . . Tayyormi? Varoq qaytadan ko‘tarilgan. Yana beshta talaba stolning yoniga keladi. O‘rtoqlaringizni ishini qabul qiling. Ularning ishlari to‘g‘rimi?

**40 – mashq**

## Ko‘cha rasmchisi

Xotirani muhrlash va kuzatuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi yakka holdagi mashg‘ulot uchun mashq. Ko‘chada ketayotganinizgda bir zumda suratga tushirishni o‘rganing. Qarshingizda siz tomonga kelayotgan odamni ko‘rayapsiz, unga to‘g‘ridan – to‘g‘ri nazar tashlang va biror soniyadan so‘ng kuzatishni to‘xtating. Endi o‘sha kuzatgan odamingiz suratini xotirangizga muxrlang, so‘ng haqiqiysi bilan solishtiring. Xuddi (suratchi), rasmga tushurganday:

1. Muhrlaymiz (rasmga tushiramiz)
2. Qog‘ozda aks ettiramiz (tasvirni namoyon qilamiz)
3. Qog‘ozga muhrlaymiz (chop etamiz)
4. Asl nushani ko‘rib chiqamiz.

Tadbirlar afishalarini, magazin peshtaxtasi, uylarni aynan shunday xotiraga muhrlashni tez-tez mashq qilib turing.

Sizning ko‘zingiz bir soniyada, aniqliklar kiritgan xolda, tasvirni eslab qolishni uddalaydi. To‘g‘rirog‘i, ko‘zingiz buni biladi, u shunday qiladi ham. Ammo biz xotirada muhrlangan tasvirni, har doim ham anglab yetishga ojizlik qilamiz. Bunga erishish uchun doimiy tarzda mashq qilib turish kerak.

**41 – mashq**

## Xindular o‘yini

Mashqni bunday nomlanishining sababi shundaki, uning negizida xindularning ov qilish o‘yinlari yotadi. Ikkita talaba bir – biridan yashirincha, o‘z xududida aniq bir tartib bilan, turli xil buyumlarni tegishli joyga qo‘yadilar. Tanlangan hakam har bir guruhdagilarni dushmanning xududiga olib boradi. Bir, ikki, uch hisobiga talabalar qo‘yilgan buyumlarni ko‘zdan kechiradilar, keyin orqaga o‘giriladilar. Talabalar nimalarni ko‘rganligini aytib berganlaridan so‘ng, hakam «g‘olib guruhni» e’lon qiladi. Yolg‘iz sinovlar ham o‘tkaziladi. Bunda har bir guruh bitta «ko‘z snayperini» ajratadi. Shunda bir guruhning talabalari, boshqa guruhning «snayperi» uchun hakam hisoblanadi.

**42 – mashq**

## Bitta harfga

Xotirada muhrlash va kuzatuvchanlikni shakllantirish uchun yana bir mashq. Men o‘ttizgacha sanayman, sizlar nomlari S harfi bilan boshlanuvchi, xonadagi barcha narsalarni topinglar va eslab qolinglar. .....29,30 Marhamat, kim birinchi ?

Stul, stol, surat, sigareta, saqich…

Kim qo‘shimcha qiladi?

Sochiq, sarafan, soch, siyohdon.

Shunday qilib, biz bir daqiqa ichida birgalashib, xonada «S» harfi bilan boshlanuvchi bir nechta buyumning nomini izlab topdik.

Endi «A» harfi bilan boshlanuvchi buyumlarni toping va hokazo.

**43 – mashq**

### Nimaga o‘xshaydi?

Buyuk rassom Leonardo da Vinchi shogirdlariga devordagi dog‘larga qarab fantaziyani shakllantirishni tavsiya qilgan. U ta’kidlaganki, «Sen u yerda turli janglarni, odamlarning g‘alati xolatlari va harakatlarini, chehralar, kiyimlar, cheksiz, ko‘plab narsalarni ko‘rishing mumkin».

Fantaziya inson tasavvurining shakllanishi, assotsiativ fikr o‘sishi, xotiraga muhrlash mashg‘ulotini surunkali mashq qilinishi va ongli fikrlash orqali yuzaga keladi. Xonada bizni o‘rab turgan barcha narsalar fantaziyamizning obekti bo‘lishi mumkin: xonadagi parket qatlamining chiziqlari, shipdagi soyalar, pardalarning burmalari, dasturxon, kiyimlarning burmalari va xokazo. Stolga bir nechta gugurt donalarini tashlaymiz.

- Qarab chiqing - bu sizga nimani eslatayapti?
- Xodalar daryo bo‘ylab suzmoqda. . .
- Ayiq og‘zini ochib, tishini ko‘rsatdi – mana ko‘zlari!

-Yo‘q, ayiqda unaqa aniq belgilar yo‘q. Bu – oqqush. Qanotlarini yozdi, hozir uchib ketadi. . .

**44 – mashq**

### Ko‘zi ojizlar yo‘li

Ko‘zlarni yumib, butun xona bo‘ylab aylanib yurish va o‘z o‘rniga o‘tirib olish kerak.

– Shoshilmang. Yurishdan oldin ancha ishlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. O‘zingizning bo‘lg‘usi yo‘lingizni diqqat bilan tekshirib ko‘ring. Ko‘zingiz ochiqligida, o‘zingizni xuddi yurayotgandek tasavvur qiling. Qarang, yo‘lingiz qanday bo‘lishi kerak. Qachonki fikran, lekin xali ham ochiq ko‘zlar bilan siz butun yo‘lni bosib o‘tganingizda, ya’ni siz qanday qilib stul oldiga borayotganingizni va o‘tirayotganingizni ko‘rganingizdan keyin ko‘zlaringizni yuming. Yumuq ko‘zlar bilan ham, huddi shu narsani qilib ko‘ring, fikran butun yo‘lni bosib o‘ting. Fikran necha qadam yurish lozim bo‘ladi? Ko‘zlaringizni oching, qadamlarni to‘g‘ri hisobladingizmi?

- Endi ko‘zlaringizni yuming va yuring. Masofani fikran qisqartiring. O‘zingizni sizga yaxshi tanish bo‘lgan makonda harakat qilayotganday xis qilishingiz kerak. Yo‘q, qadamlarni hisoblash kerak emas! Taxmin qilgan

joyingizda ekanligingizga ishonch xosil qilishingiz uchun, yaxshisi koʻzlaringizni bir lahzaga oching.

- Bu sport mashqi emas, siz hammadan zoʻr, tez oʻtishni oʻylamang, bizga bu narsa kerak emas. Biz ichki koʻrish qobiliyatini shakllantirish ustida ishlaymiz. Shuning uchun eng muhimi, yurayotganingizda yoʻlingizni ichki koʻz ekranida koʻrib olishga harakat qiling.

Oʻquvchi qadamlar sonini hisoblab, avtomat ravishda harakat qilmaganligi aniqlangach, u ichki koʻrish qobiliyatidan faol foydalanganligiga ishonch xosil qilib, mashq bajarilib boʻlganidan soʻng, uni murakkablashtirish mumkin. Yoʻlning toʻgʻri yoʻnalishida bir nechta toʻsiqlar yaratish mumkin. Masalan: atrofidan aylanib oʻtish va tegib ketmaslik sharti bilan stul yoki stol qoʻyiladi,

**45 – mashq**

## Labirint

Avvalgi mashq boʻyicha tayyorlanamiz. Talaba makonda fikrni yigʻish va chamalash koʻnikmalarini «Labirint» mashqi orqali takomillashtirishi mumkin. Labirint - oʻrindiqlardan qoʻrilgan boʻlib, qingʻir-qiyshiq, oʻtish uchun murakkab yoʻl deb hisoblaymiz. Bu yoʻldan bir necha marotaba ochiq koʻz bilan, soʻngra yumuq koʻz bilan oʻtish kerak. Bir nechta talabalar bu mashqni bir vaqtda bajarishlari mumkin. Ular ochiq koʻz bilan labirintdagi hamma burilishlarni eslab qolib, sekin oʻtadilar. Ularni koʻz xotirasi bilan bogʻlangan - kinesteziya[1] xotirasi boshqaradi.

- Siz yoʻlni nafaqat koʻz bilan eslab qolasiz, balki butun tanangiz, badanning keskin burilish payti ishlaydigan har bir muskullaringiz bilan eslab qolasiz.

-Albatta tushunib turibsiz, bu xaddan tashqari oshirib yuborilgan talab: muskulning har bir harakatlarini eslab qolish mumkin emas va buning foydasi ham yoʻq.. Lekin hech boʻlmasa sizda «butun badan bilan eslab qolish» hissiyotining soyasi qoladi.

- Shoshilmang. Sizning sezgilaringiz va xotiralaringiz, imkoni boricha aniq boʻlsin. Orqaga qayting va boshidan qaytaring. Yana va yana bir marotaba - har bir qiyin burilishdan oʻting. Yoʻllaringiz va zanjirday ulangan xatti-harakatlaringiz ketma-ketligi xotirangizda muxrlanib qolishi kerak. Endi, labirintga kirish yoʻlagiga turib oling va joyingizda turgan holda, boyagina sekin va aniq yurganingizday, butun yoʻlni fikran bosib oʻting. Sekin va aniq - hamma gap shunda! Tez yuraman deb shoshilmang! Oʻtdingizmi? Endi, joyingizda turgan holda, qaytadan butun yoʻlni fikran oʻtishingiz mumkin. Ammo endi, yumuq koʻzlar bilan. Koʻzlaringizni oching, yana bir marotaba oʻtish yoʻlini chamalang. Koʻzni yuming va qoʻrqmasdan olgʻa!

---

[1] Кинестезия – кўриш орқали эслаб қолинган хотиротлар (кўз хотираси билан боғланган).

**46 – mashq**

## Aylana yo‘llar.

- Har biringiz xona bo‘ylab aylana shaklida o‘zingiz uchun yo‘lingizni belgilab oling. Uni harakatda tekshirib chiqing. Xona bo‘ylab yurganda, sizning yo‘lingiz kimning yo‘li bilan kesishayotganini, yo‘lning qaysi joyida va kim bilan uchrashayotganingizni aniqlang!

- Har biringiz xona bo‘ylab yurganda o‘z ritmingizni aniqlab oling, lekin qo‘shningizning ritmini yuqtirmang.

- Qisqa vaqtga ko‘zlaringizni yumishga harakat qiling. Yo‘lingizni va manzilingizni aniq bir joyda ko‘ryapsizmi? Yana va yana bir marotaba ko‘zingizni yuming va oching. O‘rtog‘ingizning yo‘li sizning yo‘lingiz bilan kesishgan, uni yaqinlashayotganini eshityapsizmi? U bilan to‘qnashib ketmaslik uchun chetlab o‘tishga tayyormisiz?

- Hammangiz ko‘zingizni yumib, o‘z yo‘lingiz bo‘ylab yuring. Ritmingizni yo‘qotmang.

- Men hozir qayerdaman? Kim mendan o‘zib ketayapti? Eshitish qobiliyati, ichki ko‘rishga yordam berayaptimi, sizga qarshi kelayotgan kim, kimning qadamlari yaqinlashyapti?

**47 – mashq**

## Kompas

Ko‘rish xotirasi bilan bog‘liq holda makonda chamalash, mo‘ljal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qilinadigan mashq. Avval xonada mo‘ljalni to‘g‘ri olmoq, makonning to‘rt tomoni ko‘rinishini xotiraga muhrlab qo‘ymoq lozim (shartli – Janub, Sharq, Shimol, G‘arb). Xonaning o‘rtasida turib, ko‘zlaringizni yuming. Xonaning janubini eslang. Siz «janub» so‘zini eshitganingizda, xotirangizda nimagadir beixtiyor – dengiz, kiparislar va uzoqda yuk kemasi paydo bo‘ldi. Biz esa, Janub so‘zini boshqa hayolotga o‘tkazamiz. Siz buni uddasidan chiqa olasiz. Janub! Devor oldidagi parda osilgan derazani, zangori oyoqli o‘rindiqni, burchakdagi shirmani eslang. Bu – Janub. Endi esa, shimol! Yo‘q. Muzlar va oq ayiqlar bizga kerak emas, o‘zingizni ichki ko‘rish ekraningizni xonaning shimoliy devor ko‘rinishi bilan band qiling. Pianino, uning oldida stul, zinapoya, uning ustida ikkita sumkani eslang. Bu shimol! Shimol! Ko‘zlaringizni oching, xonani shimol tarafini tekshiring. Xonaning to‘rtta devorini vaqtinchalik Janub, Shimol, Sharq va G‘arb deb olamiz. Ichki hayolotni tezda boshqa yo‘lga olib o‘tishni mashq qilib ko‘ramiz. Janub! Janub deganda belgilangan devorning ko‘rinishi tasavvurda oson paydo bo‘ldimi? Sharq! Shimol! Janub! G‘arb! Janub! Ixtiyoriy tartibda ketma – ket kelayotgan hayolotni boshqa yo‘lga burib yuborishni mashq qilish, muhim va mustaqil bo‘lim hisoblanadi. Talaba avval irodali harakati orqali, o‘z hayolotini bir manzildan boshqa manzilga

ko‘chirishda, ya’ni bir qutbning nomini, boshqa qutb nomidan ajratishda katta pauzalar yordami bilan amalga oshiradi. So‘ng pauzalar qisqartiriladi. Hozir siz janubga qarab turibsiz. Ko‘zingizni ochmasdan, sharqqa qarang. Ko‘zlaringizni oching, siz aniq sharqqa qaraganingizni tekshirib ko‘ring. Ko‘zlaringizni yuming. Shimolga qarab turing. Endi g‘arb qayerda? Janubchi? Siz o‘zingizni ichki ekraningizda hamma qutblarni ko‘ryapsizmi? Sharq  qayerda? Ko‘zlaringizni oching, tekshirib ko‘ring.

**48 – mashq**

## Aylanma

Avvalgi mashqni o‘zlashtirgandan so‘ng, makonda mo‘ljal qilish va ichki ko‘rish sezgilar bilan bog‘liq holda, hayolotni boshqa yo‘lga solib yuborilishini mashq qiluvchi «aylanma» o‘yiniga o‘tish mumkin. Talaba yumuq ko‘zlar bilan, xonaning o‘rtasida turibdi. Uni o‘ng va chap tomonga aylantiradilar. . .

- To‘xtang! Janub qayerda, ko‘rsatinglar! Sharq qayerda? Devor ko‘rinishini eslayapsizmi? Shuni esda saqlash lozimki, talaba o‘qituvchining tovushi (agar u o‘zining joyida o‘tirsa) xonaning aniq bir tomonidan kelayotganligini sezadi. Shu bois, mashq boshlanishidan oldin o‘qituvchi xona bo‘ylab yuradi, deb talabani ogohlantirish kerak.

- To‘xtang! Oldingizdagi nima? Pianino qayerda? Derazalar? Ko‘zlaringizni oching, tekshiring.

**49- mashq**

## Tezlik

- Anavi devorgacha masofa qancha? Bu yerda mavzu metr va santimetr o‘lchami xaqida emas. Qadamlarning o‘lchamida ham emas, garchi mavzu shulardan boshlansa ham.

- Nima deb o‘ylaysiz, o‘sha devorgacha shoshmasdan borishingiz uchun qancha qadam, qancha vaqt kerak bo‘ladi? Tez qadamlar bilanchi? Avval sekin yuring, keyin esa tezroq.

- Endi o‘z yo‘lingizga qaytish uchun tayyorlaning. Sekin yuring, birinchi tezlikda. Men «oldinga» buyrug‘ini bermagunimcha, joyingizdan qimirlamang, lekin yurishga tayyor turing.

Vazifani o‘zgartiramiz – ikkinchi tezlikda, tezroq yurasiz. Tayyorlaning. . . Birinchi tezlikda bo‘lsa-chi? «Oldinga»! Biz bu yerda makon va vaqt birligida xatti-harakatlarga asoslanib ish olib boramiz. Bunday mashqlar tempo – ritmni egallashda yordam beradi. Bu mashq orqali tezlik reaksiyasiga erishiladi .

- Sizlarda ikkita tezlik mavjud. Vaqtni qanday qisqartirish mumkin? Devorgacha qanday qilib tezroq yetib borish mumkin? Qani oldinga!

Endi talabaning «sezgilar g‘alladoni» uchta har xil – sekin, tez va shiddatli tezlik moyilligiga ega. Joyingizda turib yurishga tayyorlaning, yo‘lga tushish uchun topshiriqni kuting. Birinchi tezlikda boramiz! . . Ikkinchi! Uchinchi! . . Birinchi! . . Birinchi! . . Olg‘a! «Olg‘a» topshirig‘idan so‘ng, talabaning xatti-harakatiga qarab, kilgan ishlari moyilligi to‘g‘ri-noto‘g‘riligini, hamda bitta moyillikdan boshqasiga o‘tish qanchalik tez sodir bo‘lganligini aniqlash mumkin.

**50 – mashq**

**Santimetr**

- Shu o‘rindiqning beldamchasiga qarang. Ko‘zingizni yuming va o‘rindiqni eslang. Ko‘zingizni ochmasdan stul beldamchasi eniga qarab, qo‘llaringizni ikki yoqqa cho‘zing. Ko‘zingizni oching, tekshiring.

- Stolda yotgan daftarga qarang. Ko‘zingizni yumib, stolning enini, daftarning enini navbat bilan bir necha marotaba ko‘rsating. Xuddi shu narsani ochiq ko‘zlar bilan ham bajaring. Qaytadan yumuq ko‘zlar bilan. Bu yerda ko‘z bilan chamalash ishlari muxim emas. Muhimi ichki ko‘rish va kinestetik xotira o‘rtasida ixtiyoriy ravishda bog‘lanish usulini ongimizda mustahkamlaymiz.

## TEST SAVOLLARI

## I - V A R I A N T

**1. Diqqat e’tibor doiralari qanday tizimda bo‘lish kerak?**
A) Kichik,o‘rta, katta *
B) Katta-kichik,eng katta
V) Kichik,o‘rta, buyuk
G) Katta-kichik umum insoniy

2. **Xatti – harakat**
A) Xatti – harakat - sahnada aktyorning berilgan shart – sharoitlarda maqsad sari psixofizik intilishi, faoliyati. *****

B) Saxnada aktyorning jismoniy faoliyati
V) Saxnada aktyorning ruxiy faoliyati
G) Aktyorning partnyoriga so‘z bilan ta’sir ko‘rsatishi

**3.Vazifa**

A) Aktyorning saxnada, tasavvurdagi berilgan shart-sharoitda ma’lum maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan xatti – harakatidir. *

B) Aktyorga rejissyor tomonidan berilgan topshiriq.

V) Aktyor ichki kechinmasi

G) Aktyor oliy maqsadi.

**4.Xissiyot**

A) Aktyorning saxnada fikr yuritishi.

B) Partyorga qarshi kurashi.

V) Partnyorga diqqatini qaratishi

**G) A**ktyor rolning berilgan shart-sharoitlarida haqqoniy, psixofizik xatti-harakati *

**5. Aktyor tasavvuri**

A) **H**ayotiy (real) muxitda, turli sharoitlarda aktyor o‘zini ko‘ra olish qobiliyati, o‘sha vaziyatda qahramon o‘rnida o‘zini ko‘ra bilish saloxiyati. *

B) Partnyor xaqida o‘y-fikri.

V) O‘zi yaratayotgan timsolni fantaziya qilib ko‘rish

G) Aktyorning diqqati qaratilgan manba to‘g‘risidagi o‘y-fikri.

**6.Fantaziya**

A) Extimoldan uzoq bo‘lgan (irreal) sharoitlarda aktyor o‘zini ko‘ra olish qobiliyati yoki aslida yo‘q manbalarni ko‘rishi. Irreal bu - haqiqiy hayotda mavjud bo‘lmagan, *afsonaviy, diniy, ertaklar olami xaqida fantastik qarash, ilmiy gipoteza.

B) Oldida turgan obektga munosabat

V) Fantaziya teatrda aktyor o‘zi yaratayotgan timsolining obektga nisbatan ko‘rsatgan qarshiligi, o‘y-fikri va sezgisi orqali ifodalanadi.

G) Bo‘lib o‘tgan voqealar.

**7. Saxnaviy diqqat nima ?**

A) Sahnada bo‘layotgan xamma xarakatlarga munosabatini bildirish
B) Sahnadagi xatti-xarakatda faqat o‘z xatti-xarakatiga e’tibor berish
V) Partnyor xarakatini kuzatish
G) Beixtiyor ravishda kandaydir obektga o‘z diqqatini to‘plash *

**8. Hatti – xarakat nima?**
A) Maqsadga yo‘naltirilgan, berilgan shart-sharoitdagi ruxiy va jismoniy jarayon *
B) Mantiqiy jarayondagi ruxiy uyushma
V) Maqsadga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar
G) Berilgan shart-sharoitda mantiqiy xolat

**9. Sahnaviy xissiyot**
A) Saxnadagi xissiyot psixofizik xarakat va qarshi xatti-xarakat natijasida paydo bo‘ladi *
B) Aktyor xissiyotni bo‘rtirib o‘ynashi kerak
V) Hissiyotni o‘ynash mumkin emas
G) Hissiyotni o‘ynash mumkin

**10. Aktyorning sahnaviy tasavvuri nima bilan bog‘liq?**
A) Ehtiros xaqiqati
B) Diqqat -etibor
V) Sehrli “agarda” *
G) Xaqiqatni his qilish

**11. Etyud tushunchasi**
A) Pesa bo‘lagi.
B) Xikoya yoki romanning bir qismi
V) Rassom eskizi
G) Tugun va yechim voqealar tizimidan iborat bo‘lgan kichik saxnaviy ko‘rinish *****

**12. Asarda mavzu nimani anglatadi?**
A) Mavzu muallif tamonidan tanlanib badiiy obrazlar orqali talqin etilgan xodisalarning umumiy majmuasidir *
B) Lozim bulgan xodisalarning tasvir orkali talkin kilinishi
V) Adib ilgari surmoqchi bo‘lgan voqea mazmuni
G) Ijrochi talqin qilmoqchi bo‘lgan voqea yo‘nalishi

**13. Asar hoyasi qanday aniqlanadi?**
A) Hayotiy voqealardan ochilgan chuqur taasurot natijasida aytilmoqchi bo‘lgan ma’no *
B) Turmush voqealaridan kerakli hodisalarning anglatishi
V) Muallifning asari orqali o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan asosiy fikr, maqsadi .
G) Voqea mazmunidan kelib chiqadigan muallifning oliy maqsadi

**14. Asar mazmuni xaqida tushuncha**

A) Adabiy asarning o‘sib borishi jarayoni
B) Maqsadning xatti-xarakatlar orqali rivojlanib borish asosida bo‘ladigan xodisalar tizimi
V) Aniq xodisa va voqealar tizimining rivoji va yechimi *
G) Badiiy obrazning voqea tizimidagi ifodasi

**15. Pesa tuguni xaqida tushuncha**
A) Keyingi voqealar rivojlanishiga turtki beruvchi dastlabki to‘qnashuv va xodisalarning bog‘lanishi *
B) O‘quvchi uchun jumboq bo‘lgan voqea
V) Anglashmagan maqsadning anglanishi
G) Harakatlar tizimi oldidagi qarama-qarshiliklar

**16. Asar kulminatsiya qanday aniqlanadi?**
A) Voqealarning shiddatli rivojining va qarama-qarshilik bilan to‘qnashuvini yuqori cho‘qqisi va hal qiluvchi laxzasi. *
B) Asarning xal qiluvchi voqeasi.
V) Oliy maqsad sari keskin shiddatli xarakatlar tizimi
G) Voqea va xodisalarning rivojlangan laxzasi

**17. Yechim xaqida tushuncha**
A) Asar kulminatsiyasidan keyingi xarakatning mantiqiy yakuni
B) Rivojlanuvchi bosqichdan so‘ngi personaj va xodisalar o‘zgarishi
V) Voqealaring yakunlovchi, xal etuvchi oydinlashtiruvchi oxirgni jarayoni va uning mantiqiy takdiri
G) Syujet bilan aloqador mantiqiy xulosa *

**18. Asardagi vaziyat xaqida tushuncha**
A) Og‘ir axvolda qolgan qaxramonning xatti-xarakat tizimi
B) Asardagi voqealar rivoji natijasida personajlarning ma’lum bir paytdagi o‘zaro munosabatlari
V) Voqealar zanjirining almashuvida yuzaga kelgan xodisa *
G) Saxnada sodir bo‘layotgan voqea

**19. Ekspozitsiya deb nimaga aytiladi?**
A) Tushuncha olib keladigan voqea sharxi
B) Badiiy asarning boshlang‘ich tasviri *
V) Shart-sharoit va portret xaqidagi bayon
G) Voqea va xodisalarning tasviri va talqini

**20. Prolog xaqida tushuncha**

A) Ekspozitsiya qismning kengaytirib syujetga ega bo‘lish jarayoni *
B) Shart-sharoit va personajning kashfiyoti
V) Asarning xal qiluvchi tarkibiy qismi
G) Epik asarlarning rivojlanuvchi nuqtasi

**21. Epilog xaqida tushuncha**

A) Asar yechimidagi asar voqeasini oydinlashtiruvchi muffasal tugallanishini anglatuvchi tasvir *
B) Asar voqeasining alohida sharx bilan tasvirlanishi
V) Boshqa voqealardan berilgan shart-sharoitlari
G) Mustaqil bo‘lim tusini olgan talqin

**22. Konflikt xaqida tushuncha**

A) Oqibati jiddiy kurashlarga olib keluvchi qarama-qarshilik xatti-xarakatlari, baxs munozara va kelishmovchiliklar jarayoni *
B) Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik orasidagi to‘qnashuv
V) Urushlarga olib keluvchi to‘qnashuv
G) Ziddiyatga olib keluvchi omillar

**23. Oliy maqsad xaqida tushuncha**

A) Muallif va ijrochining tomoshabinga taqdim qilmoqchi bo‘lgan asosiy fikr-niyat va xoxishi *
B) Ijrochining tomoshabinga qilmoqchi bo‘lgan muhim yangiligi
V) Tomoshabinga yetkazmoqchi bo‘lgan zaruriy ma’lumot
G) Asarni asosiy voqeasi

**24. Asosiy voqea tushunchasi**

A) Ijrochilik oliy maqsadi va vazifasiga sabab bo‘luvchi qarama-qarshilik *
B) Har bir adabiy asar yoki undan olingan adabiy matn bo‘lagining vujudga kelishiga, uning yozilishiga va shakllanishiga sabab bo‘lgan turtki bergan voqea
V) Adabiy matndagi xarakat faolligiga sabab bo‘luvchi kuch
G) Ijrochining emotsional imkoniyatini uyg‘otuvchi xarakat mezonlari, adabiy parcha manzarasidagi yorqin tasvirlar tizimi

**25. Xarakat xaqida tushuncha**

A) Saxnaning asosiy mag‘zini ochib beruvchi vazifaning amalga oshirilishi
B) Ikki kechinmaga turtki beruvchi voqeaning amalga oshirilishi
V) Oliy maqsad yulidagi mantiqiy izchil vazifalar tizimi *
G) Ijrochi hoxish irodasining yetaklovchi kuchi

**26. Yetakchi xatti-xarakat xaqida tushuncha**
A) Ijrochi yoki asar qaxramonining oliy maqsadga erishmog‘i yo‘lidagi asosiy intilishi, bajarishi zarur va muqarrar bo‘lgan vazifalari *
B) Ijobiy yoki salbiy qaxramonlarning o‘zaro qarama-qarshi intilishlari, vazifalarning amalga oshirishga undovchi hoxishlarning faoliyati
V) Sanat asarini oziqlantiruvchi manb’a
G) Hoxish, irodasi, xodisalarning mantiqiy to‘qnashuvidan xosil bo‘ladigan manb’a

**27. Urg‘u tushunchasi xaqida**
A) So‘z bo‘g‘inlarning ajratilib aytilganda xosil bo‘ladngan kuchli tovush *
B) Jumlalar aro bo‘rtirilib talaffuz etilishga sabab bo‘ladigan oxangdorlik
V) Nuqtada biror bo‘lak, yoki so‘zning so‘z xarakatining tasirida kuchliroq talaffuz etilishi xodisasi
G) Talaffuzning ravonligiga yordam beruvchi oxangdorlik

**28. Muomala xaqida tushuncha**

A) Bayon etilayotgan fikrning tinglovchiga qay darajada yetib borayotganligi, tasir etayotganligi o‘lchovi, diqqat nazorati, tomoshabin va ijrochi orasidagi mustaxkam bog‘lanishdir
B) Tinglovchi va tomoshabin aro anglatish va anglashning samarasi
V) Voqeaning tomoshabinga ishonarli yetib borishi va o‘zgartirishi *
G) Tasavvurning jonli tasirli so‘zdagi ifodasi

**29. Tempo-ritm tushunchasi**
A) Maqsadga yetishtiruvchi xatti-xarakatning vaqt birligidagi o‘lchovi
B) Oliy maqsad uchun qilingan xarakatlar miqdori va vaqt birligidagi o‘lchovi
V) Ijrochilik sanatiiing tezkorlik darajasi
G) Personajlar xatti-xarakatning faollik yoki sustlik meyori *

**30. Sahna nutqi nechta qismga bo‘linib o‘rganilishi qaysi qatorda to‘g‘ri belgilangan ?**
A) Ifodali va badiiy o‘qish
B) Mantikiy o‘qish va adabiy o‘qish

V) Badiiy o‘qish va badiiy suz
G) Nutq texnikasi va badiiy o‘qish *

**31. Tasavvurni jonlashtiruvchi omillar**

A) Bor mavjudotlarnnng xarakatlar orqali ifodalangan g‘aroyib ko‘rinishlari *
B) Nazariy ilmiy taxlil qilingan ilmiy asarlardan bo‘laklar
V) Xotiralarni joylaitiruvchi erkin tasviriy xikoyalar
G) Turli manzaralarning eslash orqali xikoyalanishi

**32. Aktyorning rol ustida ishlashi.**
A) Aktyor pesada partnyorlarining matni ustida ishlashi. *
B) Aktyor bo‘laklarni etyud shaklida ishlash. *
V)Aktyor matn ostida yashiringan mazmunni aniqlashi. *
G) Akter rolning xatti-harakatli tahlilini aniqlashi. *

**33. Sahnaviy ko‘rinishning ritmi?**
A) Musiqa usuliga xarakat kilish
B) Asarning emotsional qizishi *
V) Sahnada bo‘lib o‘tayotgan voqeaning ichki emotsional vaziyati
G) Xatti xarakatni mantig‘i

**34.Birinchi o‘zbek dramasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
A) Xamza Xakimzoda Niyoziy «Ishq qurbonlari».
B) M.Behbudiy «Padarkush». *
V) Fitrat «Abulfayzxon».
G) A.Qodiriy «Baxtsiz kuyov».

**35.Jadidlar g‘oyasi Xamza Xakimzoda Niyoziyning qaysi dramasida o‘z aksini topgan?**
A) «Tuxmatchilar jazosi».
B) «Zaxarli xayot». *
V) «Paranji sirlari».
G) «Maysaraning ishi».

**36. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini muallifi kim?**
A) Elbek

B) Avloniy    *
V) Xamza
G) Fitrat

## II - V A R I A N T

**1.  Ilk  o‘zbek dramaturgiyasidagi tragediya muallifi?**
A) Fitrat      *
B) Behbudiy
V) Cho‘lpon
G) Avloniy

**2.  «Mirzo Ulug‘bek» dramasining muallifi?**
A) A.Qodiriy
B) M.Shayxzoda   *
V) A. Qaxxor
G) O.Yoqubov

**3.  «A. Navoiy» badiiy filmida Navoiy siymosini kim ijro etgan?**
A) O.Xodjayev
B) A.Xidoyatov
V) R.Xamrayev *
G) YO.Axmedov

**4.  Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni bosh qahramoni asl ismi?**
A) Majnun
B) Shopur
V) Qays *
G) Moxr

**5.«O‘tgan kunlar» filmida Otabek rolini ijro etgan artist  ismini ayting?**
A) Tesha Mo‘minov
B) Isamat Ergashev
V) Erkin Komilov
G) O‘lmas Alixo‘jayev *

**6.«O‘tgan kunlar» filmida Yusufbekxoji rolini ijro etgan artist ismini ayting**?

A) Shukur Burxonov
B) Abbos Bakirov *
V) Razzoq Xamrayev
G) Olim Xo‘jayev

**7.«Nasriddin Buxoroda» filmining rejissyori kim?**
A) Komil Yormatov

***B) Yo‘ldosh A’zamov***

V) Nabi Raximov
G) Protazanov *

**8.«O‘tgan kunlar» filmida Kumush rolini ijro etgan aktrisa kim?**
A) Rixsi Ibroximova
B) Sayrvm Isayeva
V) Oydin Norboyeva
G) Gulchexra Jamilova *

**Dantening «Iloxiy komediya»sining o‘zbek tiliga kim tarjima qilgan?**
A) G‘.G‘ulom
B) A.Oripov *
V) E.Voxidov
G) Oybek

**10. Achchiq tanqidiy saxna asari janri?**
A) Komediya
B) Grotesk
V) Feleton
G) Satira *

**11.«Turkiston tabibi» komediyasining muallifi kim?**
A) A.Yassaviy
B) Xaziniy
V) S.Olloyor
G) M.Uyg‘ur *

**12.Spektaklda yetakchi xatti- harakat qayerdan boshlanadi?**
A) Spektakldan oldin
B) Kulminatsiyadan
V) Tugundan *
G) Spektakldan sung

**13.«Yig‘la Turkiston» she’rini muallifi kim?**
A) So‘fizoda
B) Xamza Xakimzoda Niyoziy
V) Elbek
G) Cho‘lpon *

**14.«Farxod va Shirin» musiqali dramasida Yosuman siymosini birinchi ijrochisi?**
A) SH.Ma’sumova
B) S.Eshonto‘rayeva
V) L.Sarimsoqova *
G) M.Kuznetsova

**15.Spektaklning yetakchi xatti-xarakati qayerda yakunlanadi?**
A) Oliy maqsadda
B) Finalda
V) Yakuniy voqeada *
G) Kulminatsiyada

**«Tobutdan tovush» va «Og‘riq tishlar» komediyalarining muallifi kim?**
A) S.Axmad
B) Oybek
V) A. Qaxxor *
G) G‘.G‘ulom

**Aktyorlarning sahnaviy tasavvuri nima bilan bog‘liq?**
A) Diqqat-e’tibor
B) Mantiq va izchillik
V) Sexrli «Agarda» *
G) Extiros va xis tuyg‘ular

**«Asrga tatigulik kun» romanining muallifi kim?**
A) O‘.Umarbekov
B) O‘.Xoshimov
V) O.Yoqubov
G) CH.Aytmatov *

**O‘zbekistonda jadidchilik  harakati yetakchi vakili kim?**
A) A.Avloniy
B) M.Behbudiy
V) A.Fitrat
G) I.Gaspirinskiy *

**Xamzaning «Kim to‘g‘ri?» sahna asarini janrini aniklang?**
A) Musiqali drama
B) Tragediya
V) Komediya *
G) Vodevil

**«Alisher Navoiy» pesasining muallifi kim?**
A) S.Axmad, R.Bobojon
B) O.Yoqubov, P.Qodirov
V) A.Qaxxor, Oybek
G) Uyg‘un, I.Sulton *

**O‘zbek adabiyotida romanchilik asoschisi kim?**
A) S.Ayniy
B) A.Qodiriy *
V) A.Qaxxor
G) Cho‘lpon

**«Boy ila xizmatchi» pesasini kim yozgan?**
A) Uyg‘un
B) K.Yashin
V) A.Qaxxor
G) Xamza Xakimzoda Niyoziy *

**Dramaturgiyada «Bosmachilik» mavzusidagi yangicha qarashlar asosida asar yaratgan muallif kim?**
A) T.Malik
B) N.Aliyev
V) SH.Xolmirzayev *
G) M.Qodirov

**«Paranji sirlari» asari muallifi ?**

A) Uyg‘un
B) K.Yashin
V) Xamza Xakimzoda Niyoziy  *
G) I.Sultonov

**Quyidagilarning qaysi biri san’atning nisbatan yosh turi xisoblanadi?**
A) Xaykaltaroshlik
B) Kino *
V) Musiqa
G)  Teatr

**Teatrda sahnalashtirish uchun mo‘ljallangan adabiy asar?**
A) Pesa *
B) Drama
V) Ssenariy
G) Inssenirovka

«**Mirzo Ulu$^2$bek» pesasini muallifi ki**m?
A) Uyg‘un
B) N.Safarov
V) P.Qodirov
G) M.Shayxzoda *

**Rejissyor Mannon Uyg‘ur faoliyatini qaysi teatrda boshlagan?**
A) Milliy teatr
B) Muqimiy teatri
V) Opera va balet teatri
G) To‘ron teatri *

**30.  Asr boshida istiqlol, ma’rifat g‘oyalarini tarafdorlari qanday atalar edi?**
A) Futuristlar
B) Demokratlar
V) Jadidlar *
G) Bosmachilar

**M.Uyg‘ur Shekspirning ikki pesasi asosida sahnalashtirgan mashxur spektakllarning nominі ayting?**
A) «Yuliy Sezar» va  «Genrix IV»
B) «Otello» va «Qirol Lir»

**V) «Qirol Lir» va «Romeo va Djuletta»**

G) «Gamlet» va «Otello» *

**32. V.Shekspirning «Gamlet» asarini ilk tarjimoni kim?**
A) Elbek
B) Behbudiy
V) Fitrat
G) Cho‘lpon *

**33. «Nodirabegim» pesasini muallifi kim?**
A) Uyg‘un
B) K.Yashin
V) S.Axmad
G) T.To‘la *

**34. M.Uyg‘ur ilk bor M.Shayxzodaning qaysi pesasini sahnalashtirgan?**
A) «Jaloliddin» *
B) «Mirzo Ulug‘bek»
V) «Mukanna»
G) «Abdulfayzxon»

**35. «Parvona» komediyasining muallifi kim?**
A) A.Qaxxor
B) Uyg‘un *
V) S.Axmad
G) SH.Boshbekov

**36. «Shubxa» pesasini kim yozgan?**
A) O.Yoqubov
B) O‘.Xoshimov
V) Uyg‘un *
G) R.Bobojon

## III - V A R I A N T

**1. Stanislavskiyning «Mening san’atdagi hayotim» kitobini o‘zbek tiliga tarjima qilgan rejissyor?**
A) Yetim Bobojonov

B) Jovod Obidov
V) Toshxo‘ja Xo‘jayev *
G) Nabi Raximov

**2. Spektaklning badiiy bezagi aks ettirilgan loyiha?**
A) Eskiz *
B) Reja
V) Maket
G) Reja

**3. Cho‘lponning Milliy teatrda sahnalashtirgan keng qamrovli pesasi?**
A) Padarkush
B) Advokatlik osonmi?
V) Kecha va Kunduz
G) Yorqinoy *

**4. Tugun xaqida tushuncha**
A) Keyingi voqealar rivojlanishiga turtki beruvchi dastlabki to‘qnashuv va xodisalarning bog‘lanishi *
B) O‘quvchi uchun jumboq bo‘lgan voqea
V) Anglashmagan maqsadning anglanishi
G) Harakatlar tizimi oldidagi qarama-qarshiliklar

**5. Kulminatsiya xaqida tushincha**
A) Voqealarning shiddatli rivojining va qarama-qarshilik bilan to‘qnashuvini yuqori cho‘qqisi va hal qiluvchi laxzasi. *
B) Asarning xal qiluvchi voqeasi.
V) Oliy maqsad sari keskin shiddatli xarakatlar tizimi
G) Voqea va xodisalarning rivojlangan laxzasi

**6. Yechim xaqida tushuncha**
A) Asar kulminatsiyasidan keyingi xarakatning mantiqiy yakuni
B) Rivojlanuvchi bosqichdan so‘ngi personaj va xodisalar o‘zgarishi
V) Voqealaring yakunlovchi, xal etuvchi oydinlashtiruvchi oxirgni jarayoni va uning mantiqiy takdiri
G) Syujet bilan aloqador mantiqiy xulosa *

**7. Konflikt xaqida tushuncha**

A) Oqibati jiddiy kurashlarga olib keluvchi qarama-qarshilik xatti-xarakatlari, baxs munozara va kelishmovchiliklar jarayoni *
B) Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik orasidagi to‘qnashuv
V) Urushlarga olib keluvchi to‘qnashuv
G) Ziddiyatga olib keluvchi omillar

**8. Oliy maqsad xaqida tushuncha**
A) Muallif va ijrochining tomoshabinga taqdim qilmoqchi bo‘lgan asosiy fikr-niyat va xoxishi *
B) Ijrochining tomoshabinga qilmoqchi bo‘lgan muhim yangiligi
V) Tomoshabinga yetkazmoqchi bo‘lgan zaruriy ma’lumot
G) Asarni asosiy voqeasi

**9. Asosiy voqea tushunchasi**
A) Ijrochilik oliy maqsadi va vazifasiga sabab bo‘luvchi qarama-qarshilik *
B) Har bir adabiy asar yoki undan olingan adabiy matn bo‘lagining vujudga kelishiga, uning yozilishiga va shakllanishiga sabab bo‘lgan turtki bergan voqea
V) Adabiy matndagi xarakat faolligiga sabab bo‘luvchi kuch
G) Ijrochining emotsional imkoniyatini uyg‘otuvchi xarakat mezonlari, adabiy parcha manzarasidagi yorqin tasvirlar tizimi

**10. Yetakchi xatti-xarakat xaqida tushuncha**
A) Ijrochi yoki asar qaxramonining oliy maqsadga erishmog‘i yo‘lidagi asosiy intilishi, bajarishi zarur va muqarrar bo‘lgan vazifalari *
B) Ijobiy yoki salbiy qaxramonlarning o‘zaro qarama-qarshi intilishlari, vazifalarning amalga oshirishga undovchi hoxishlarning faoliyati
V) Sanat asarini oziqlantiruvchi manb’a
G) Hoxish, irodasi, xodisalarning mantiqiy to‘qnashuvidan xosil bo‘ladigan manb’a

**11. 1952 yili Milliy akademik drama teatri sahnasida qo‘yilgan «Revizor» spektaklida Xokim rolini ijro etgan artist nomini ayting?**

A) Shukur Burxonov *
B) Obid Jalilov
V) Olim X°jayev
G) Nabi Raximov

**12. 1939 yili Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan «Boy ila xizmatchi» spektakli rejissyori ?**

A) Sharif µayumov
B) Mannon Uy²ur
V) Javod Obidov
G) Yetim Bobojonov *

**13. Tempo-ritm tushunchasi**
A) Maqsadga yetishtiruvchi xatti-xarakatning vaqt birligidagi o‘lchovi
B) Oliy maqsad uchun qilingan xarakatlar miqdori va vaqt birligidagi o‘lchovi
V) Ijrochilik sanatiiing tezkorlik darajasi
G) Personajlar xatti-xarakatning faollik yoki sustlik meyori *

**14. Tasavvurni jonlashtiruvchi omillar**

A) Bor mavjudotlarnnng xarakatlar orqali ifodalangan g‘aroyib ko‘rinishlari *
B) Nazariy ilmiy taxlil qilingan ilmiy asarlardan bo‘laklar
V) Xotiralarni joylaitiruvchi erkin tasviriy xikoyalar
G) Turli manzaralarning eslash orqali xikoyalanishi

**15. Saxnaviy diqqat nima ?**
A) Sahnada bo‘layotgan xamma xarakatlarga munosabatini bildirish *
B) Sahnadagi xatti-xarakatda faqat o‘z xatti-xarakatiga e’tibor berish
V) Partnyor xarakatini kuzatish
G) Beixtiyor ravishda kandaydir obektga o‘z diqqatini to‘plash

**16. Sahnaviy xissiyot**
A) Saxnadagi xissiyot psixofizik xarakat va qarshi xatti-xarakat natijasida paydo bo‘ladi *
B) Aktyor xissiyotni bo‘rtirib o‘ynashi kerak
V) Hissiyotni o‘ynash mumkin emas
G) Hissiyotni o‘ynash mumkin

**17. Mizansahna nima ?**

A) Sahnadagi harakat turi.

B) Aktyorlarning o‘z-aro munosabati
V) Sahnadagi aktyor va dekoratsiyalar joylashuvi *
G) Dekoratsiyalarni yoritish

**18. Badiiy xaqiqat nima?**
A) Xayotning badiiylashgan ko‘rinishi *
B) Tasavvurdagi xaqiqat
V) Hayotiga o‘xshamagan ko‘rinish
G) Hayotning ayni ko‘rinishi

**19. Shartli dekoratsiya tushunchasi nima?**
A) Spektaklga aloqasi yo‘q dekoratsiyalar
B) Hayotiy ko‘rinishga ega bo‘lgan dekoratsiyalar
V)Tomoshabin tasavvurini uyg‘otishga hizmat qilaoladigan dekoratsiya unsurlari *
G) Dekoratsiyasiz spektakl

**20. Qanday harakatlarsiz spektakl bo‘lmaydi?**
A) Qarama-qarshiliksiz *
B) Kompozitorsiz
V) Rassomsiz
G) Rejissyorsiz

**21. Berilgan shart – sharoit**
A) Tasavvurdagi sharoitda aktyor xatti-harakati
B) To‘qima sharoit
V) Asar davomidagi voqealar tizimi
G) Berilgan shart-sharoit - pesa bayoni, dalillar, vokea, davr, makon, zamon va vaqt, hayotiy sharoitlar, aktyor va rejisserning pesa haqidagi tushunchalari *

**22. Oliy-oliy masad tushunchasi?**
A) Ijodkorning dunyoqarashi, asosiy prinsip va maqsadi *
B) Teatrning maqsadi
V) Rejissyorning maqsadi
G) Aktyorning maqsadi

**23. Milliy teatrining «Otello» spektaklida ilk bor Yago – rolini kim ijro etgan?**
A) T.Tojiyev
B) N.Raximov *

V) S.Xo‘jayev
G) SH.Qayumov

**24. Mubolag‘adagi dialog asosiga qurilgan xajviy-yumoristik janr qanday ataladi**?
A) Latifa
B) Lof *
V) Masal
G) Mushoira

**25. A.S.Pushkinning «Bog‘cha saroy favvorasi» asarini kim o‘zbekchaga tarjima qilgan?**

A) Uyg‘un
B) X.Olimjon
V) U.Nosir
G) Mirtemir *

**26. «Alisher Navoiy» badiiy filmining rejissyorini aniqlang**
A) Y.A’zamov
B) K.Yormatov *
V) SH.Abbosov
G) L.Fayziyev

**27. «Shum bola» qaysi janrda yozilgan asar?**
A) Absurd
B) Realistik
V) Liro-epik *
G) Fantastik

**28. N.G‘aniyevning «Toxir va Zuxra» filmida Xon-Boboxon rolini kim ijro etgan?**
A) A.Xidoyatov
B) R.Xamrayev
V) SH.Burxonov
G) A.Ismatov *

**29. «Imon» pesasining muallifini aniqlang?**
A) K.Yashin
B) Uyg‘un

V) S.Axmad
G) I.Sulton *

**30. «Otello» rolini ijrosi bilan o‘zbek teatrini jahonga mashxur qilgan aktyor kim?**
A) SH.Burxonov
B) T.Azizov
V) O.Xo‘jayev
G) A.Xidoyatov *

**31.«Nasriddin Buxoroda» badiiy filmida Nasriddin rolini kim ijro etgan?**
A) R.Pirmuxammedov
B) L.Sverdlin *
V) N.Raximov
G) R.Xamrayev

**32. Ozarbaydjon teatr san’ati taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shgan o‘zbek aktrisasi?**
A) X.Nosirova
B) S.Eshont°rayeva
V) N.Aliyeva *
G) SH.Ma’zumova

**33. «No’malum kishi» pesasining muallifi kim?**
A) T.To‘la
B) R.Bobojon
V) I.Sultonov *
G) A.Oripov

**34.Amir Temur xaqidagi ilk bor asar yozgan MDX mamlakatining dramaturgi kim?**
A) Xojibekov
B) X.Javid *
V) M.Karim
G) A.To‘kay

**35.«Toxir va Zuxra» kinofilmining rejissyori kim?**
A) K.Yormatov
B) Z.Sobirov
V) N.G‘aniyev *
G) Y.A’zamov

**36.«Toshkent non shaxri» kinofilmining rejissyori kim?**
A) R.Botirov
B) A.Xamrayev
V) I.Eshmuxammedov
G) SH.Abbasov *

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

### 1 kurs.
### Aktyorlik mahorati elementlarini o‘zlashtirish
### Joriy baholash

1. Ijodiy eshitish -1
2. Ijodiy ko‘rish -1
3. Ijodiy e’tibor -1
4. Ijodiy tasavvur –1
5. Sahnaviy erkinlik - 1
6. Diqqatni jamlash - 1
7. Diqqatni bir obektdan ikkinchi obektga ko‘chirish jarayoni - 1
8 Mashqlar ustida ishlash. - 1
9. Tempo-ritm - 1
19. Mustaqil ish - 1

1. Berilgan shart-sharoitda eshitish -1
2. Berilgan shart-sharoitda ko‘rish -1
3. Berilgan shart-sharoitda diqqatni yig‘ish -1
4. Berilgan shart-sharoitda tasavvur -1
5. Berilgan shart-sharoitda badiyxaguylik. -1
6. Buyumlarni ijodiy jonlantira olish -1
7. Ijroda tabiiylikka erishish -1
8. Munosabatning tug‘ilishi. -1
9. Tasavvur va fantaziyalarni rivojlantirish mashqlar -1

10.Mustaqil ish -1

1. Berilgan maqsad, voqelik orqali eshitish -1
2. Berilgan maqsad, voqelik orqali ko‘rish -1
3. Berilgan maqsad, voqelik orqali e’tibor -1
4. Berilgan maqsad, voqelik orqali tasavvur -1
5. Berilgan maqsad, voqeiylik ichida badixago‘ylik -1
6. Xotira asosida xatti-xarakat mashqi -1
7. Sahnaviy haqiqatni paydo qilish -1
8. Sahnaviy ishonch- mashqlar -1
9. Munsabat -1
10.Mustaqil ish -1

1. Tanho etyud jarayonida eshitish -1
2. Tanho etyud jarayonida ko‘rish -1
3. Tanho etyud jarayonida e’tibor -1
4. Tanho etyud jarayonida tasavvur -1
5. Tanho etyud jarayonida badixaguylik -1
6. Tanho etyud jarayonini tashkil etish -1
7. Etyudning plastik yechimi -1
8. Etyudni musiqali yechimi -1
9. Yakka etyuddan juftlik etyudga o‘tish jarayoni -1
10.Mustaqil ish -1

**Oraliq baholash:**

**1 Oraliq baxolash**

1.Eshitish, ko‘rish, e’tibor, sahnaviy erkinlik -2
2.Diqqatni jamlash -2
3.Diqqatni bir obektdan ikkinchi obektga ko‘chirish jarayoni -2
4. Sahnaviy xatti-harakatni mantiq izchilligida bajarish mashqlar -3
5.Yangi tempo-ritmning paydo bo‘lishi -3
6.Mustaqil ish -3

**2 Oraliq baxolash**

Sahnaviy haqiqatni paydo qilish -1
Qabul (idrok) qilish va kuzatuvchanlik -1
Tanho etyud jarayonida eshitish -1
Tanho etyud jarayonida ko‘rish -1
Tanho etyud jarayonida e’tibor -1
Tanho etyud jarayonida tasavvur -2
Etyudning plastik yechimi -2
Etyudni musiqali yechimi -2

Yakka etyuddan juftlik etyudga o‘tish jarayoni -2
Mustaqil ish -2

**Yakuniy baholash:**

Eshitish, ko‘rish, e’tibor, sahnaviy erkinlik -2
Diqqatni jamlash -2
Diqqatni bir obektdan ikkinchi obektga ko‘chirish jarayoni -2
Hissiyot va marom -2
Yangi tempo-ritmning paydo bo‘lishi -2
Mustaqil ish -2
Sahnaviy haqiqatni paydo qilish -2
Prizniklar yig‘ish -2
Tanho etyud jarayonida eshitish -2
Tanho etyud jarayonida ko‘rish -2
Tanho etyud jarayonida e’tibor -2
Tanho etyud jarayonida tasavvur -2
Etyudning plastik yechimi -2
Etyudni musiqali yechimi -2
Yakka etyuddan juftlik etyudga o‘tish jarayoni -1
Mustaqil ish -1

**2-bosqich**

Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitda ishlash.
Tanlab olingan badiiy parchalarda rol ustida ishlash.

**Joriy baxolash**

1. Badiiy saviyani o‘stirish -2
2. Berilgan shart-sharoitda xatti xarakat -2
3. Tanlangan asarni etyud usulda ishlash -2

4. Etyud jarayonida ko‘rish, eshitish xis qilish - 2
5. Etyud jarayonida diqqat-e’tibor -2
6. Mustaqil ish -2

1. Etyud jarayonida jonli tasavvur -2
2. Etyud jarayonida badiyhago‘ylikka moyillik -2
3. Etyud voqeligini tashkil etish -2
4. Etyudda baholash, munosabat -2
5. Mustaqil ish -2

1. Badiiy parcha tanlash. -2

2. Tanlangan badiiy parchaning ijodiy tahlili. -2
3. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitga
qarshi kurashish imkoniyati -2
4. Voqeliklarni aniqlash -2
5. Maqsadni aniqlash -2

1. Yetakchi xatti-harakatni aniqlash -2
2. Badiiy parcha voqeligini tashkil etish -2
3. Badiiy parchada baholash -2
4. Badiiy parchada munosabat -2
5. Ijroning tabiiyligi -2

**1 Oraliq baxolash**

1. Berilgan shart-sharoitga qarshi kurashishi -1
2. Etyud jarayonida eshitish -1
3. Etyud jarayonida ko‘rish -1
4. Etyud jarayonida diqqat-e’tibor -1
5. 5. Mustaqil ish -1
6. Etyud jarayonida jonli tasavvur -2
7. Etyud jarayonida badiyhago‘ylikka moyillik -2
8. Etyud voqeligini tashkil etish -2
9. Etyudda baholash, munosabat -2
10. Mustaqil ish -2

**2 Oraliq baxolash**

1. Badiiy parcha tanlash. -1
2. Tanlangan badiiy parchaning ijodiy tahlili. -1
3. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitga
qarshi kurashish imkoniyati -1
4. Voqeliklarni aniqlash -1
5. Maqsadni aniqlash -1
6. Yetakchi xatti-harakatni aniqlash -2
7. Badiiy parcha voqeligini tashkil etish -2
8. Badiiy parchada baholash -2
9. Badiiy parchada munosabat -2
10. Ijroning tabiiyligi -2

**Yakuniy baxolash**

1. Berilgan shart-sharoitga qarshi kurashishi -2
2. Sahnaviy parcha jarayonida eshitish ko‘rish -2

3. Sahnaviy parcha jarayonida diqqat-e’tibor, tasavvur -2
4. Sahnaviy parcha voqeligini tashkil etish -2

5. Sahnaviy parcha baholash, munosabat -2
6. Badiiy parcha tanlash. -2
7. Voqeliklarni, maqsadni aniqlash -2
8. Yetakchi xatti-harakatni aniqlash -2
9. Badiiy parcha voqeligini tashkil etish -2
10. Badiiy parchada baholash -2
11. Badiiy parchada munosabat -2
12. Ijroning tabiiyligi -2
13. Etyudni musiqiy yechimi -2
14. Etyudning plastik yechimi -2
15. Reyting ko‘rigidagi ishtiroki -2

**3-bosqich**
**Dramaturgik parchalar, diplom oldi spektakllari ustida ishlash**
**Joriy baxolash**

1. Asar o‘qish jarayoni -2
2. Sahnaviy asarning xatti xarakatli tahlili -2
3. Asar voqealarini aniqlash -2
4. Stol atrofida ishlash -2
5. Mustaqil ish -2

1. Sahnalarni etyud shaklida ishlash -2
2. Berilgan shart-sharoitni aniqlash -2
3. Oliy maqsadga qarama-qarshi shart-sharoitlar -2
4. Mezanssena -2
5. Mustaqil ish -2

1. Yangi voqelikning tug‘ilishi -2
2. Maqsad va tempo-ritmning o‘zgarishi -2
3. Diplom oldi spektakli ustida ishlash -2
4. Diplom oldi spektakli tanlash -2
5. Mustaqil ish -2

1. Diplom oldi spektaklining ijodiy tahlili -2
2. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitga qarshi kurashish -2
3. Diplom oldi spektakli voqeligini aniqlash -2
4. Maqsadni aniqlash -2
5. Mustaqil ish -2

**1 Oraliq nazorat**

1. Asar o‘qish jarayoni, tahlil -1
2. Rol taqsimoti -1

3. Asar voqealarini aniqlash -1
4. Stol atrofida ish -2
5. Sahnalarni etyud shaklida ishlash -2
6. Berilgan shart-sharoitni aniqlash -2
7. Oliy maqsadga qarama-qarshi shart-sharoitlar -2
8. Yetakchi xatti xarakat -2
9. Mustaqil ish -2

**2 Oraliq nazorat**

1. Yangi voqelikning tug‘ilishi -1
2. Maqsad va tempo-ritmning o‘zgarishi -1
3. Diplom oldi spektakli ustida ishlash -1
4. Diplom oldi spektakli tanlash -2
5. Diplom oldi spektaklining ijodiy tahlili -2
6. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitga qarshi kurashish -2
7. Diplom oldi spektakli voqeligini aniqlash -2
8. Maqsadni aniqlash -2
9. Mustaqil ish -2

**Yakuniy baxolash**

1. Diplom oldi spektaklini yetakchi xatti-harakatni aniqlash -3
2. Rol ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi -3
3. Ijroda badihago‘ylik imkoniyati -3
4. Qaxramonlar oliy maqsadi -3
5. Spektakl atmosferasi -3
6. Spektakl mezanssenasi -3
7. Rassom bilan ish -3
8. Grim va kostyumer bilan ish -3
9. Rolning plastik yechimi, ijrodagi tabiiylikka erishish -3
10. Spektakl namoyishi, Premera -3

**4-bosqich**
**Diplom spektakli ustida ishlash**
**Joriy baxolash**

1. Asar o‘qish jarayoni -2
2. Asarning xatti xarakatli tahlili -2
3. Asar voqealarini aniqlash -2
4. Stol atrofida ish -2
5. Mustaqil ish -2

1. Vazifa va bo‘laklar -2
2. Berilgan shart-sharoitni aniqlash -2
3. Oliy maqsad sari intilish -2
4. Yetakchi xatti xarakat -2

5. Mustaqil ish -2

1. Voqealar tizimi ustida ish -2
2. Maqsad va tempo-ritmning o‘zgarishi -2
3. Diplom oldi spektakli ustida ishlash -2
4. Diplom oldi spektakli tanlash -2
5. Mustaqil ish -2

1. Diplom oldi spektaklining ijodiy tahlili -2
2. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitga qarshi kurashish -2
3. Diplom oldi spektakli voqeligini aniqlash -2
4. Maqsadni aniqlash -2
5. Mustaqil ish -2

**1 Oraliq nazorat**

1. Asar o‘qish jarayoni -1
2. Rol taqsimoti -1
3. Asar voqealarini aniqlash -1
4. Stol atrofida ishlash -2
5. Sahnalarni etyud shaklida ishlash -2
6. Berilgan shart-sharoitni aniqlash -2
7. Oliy maqsadga qarama-qarshi shart-sharoitlar -2
8. Saxnadan tashqari qaxramon xayoti -2
9. Mustaqil ish -2

**2 Oraliq nazorat**

1. Yangi voqelikning tug‘ilishi -1
2. Maqsad va tempo-ritmning o‘zgarishi -1
3. Diplom oldi spektakli ustida ishlash -1
4. Diplom spektakli tanlash -2
5. Diplom spektaklining ijodiy tahlili -2
6. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoitga qarshi kurashish -2
7. Diplom spektakli voqeligini aniqlash -2
8. Maqsadni aniqlash -2
9. Mustaqil ish -2

**Yakuniy baxolash**

1. Diplom spektaklini yetakchi xatti-harakatni aniqlash -3
2. Rol ustida ishlash ko‘nikmasi -3
3. Ijroda badihago‘ylik imkoniyati -3
4. Musiqali asarning ariya ustida ishlash -3
5. Konflikt va to‘sqinliklar -3
6. Asar shart sharoitida obraz yaratish -3
7. Rassom, Grim, Kompozitor, Kostyumer, Baletmeysterlar bilan ish -3
8. Asar mezansena va atmosferasi -3

9. Obraz yaratish uslubiyati -3
10. Spektakl namoyishi, Premera -3

## GLOSSARIY

**1.** ***Xatti-harakat***.- sahnada yoki suratga tushirish maydonchasida aktyorda xatti-harakat hayotiy his-tuyg‘ularni vujudga keltiradi. Aniq xatti-harakat jarayonida ichki kechinma o‘z-o‘zidan tug‘iladi.

**Xatti-harakat** - berilgan shart-sharoit bilan kurashishda maqsadga erishish yo‘lidagi psixo-fizik jarayon - deb G.A. Tovstonogov va A.I.Katsman belgilaganlar.

Ammo pesa, yoki ssenariy ekspozitsiyasidagi syujetda tugungacha **xatti-harakatda** kurash bo‘lmaydi.

**2.** ***Jonli xatti-harakat*** - aktyor ijodida tabiiy xatti-xarakat, u eng qulay va to‘g‘ri xolat paydo qiladi.

**3.** Aktyor xatti-harakati orqali sahnada tabiiy hayot, ya’ni ***tomoshabin oldida tanxolik*** vujudga keladi.

**4.** ***Xatti – harakat*** **-** sezgi va tafakkurga qarama-qarshi o‘laroq, ***aktyor ijodiy faoliyatining moddiylashgan*** ko‘rinishidir. YA’ni, xatti-xarakat - aktyor mexnatining maxsuli xisoblanadi.

***Xatti – harakat*** - teatr sahnasi yoki suratga olish maydonchasida aktyorning ***berilgan shart – sharoitlarda*** tasavvurdagi ***maqsad*** sari intilishi, faoliyatidir. ***Xatti – harakat*** – aktyor ijodining asosi.

**5.** ***Berilgan shart – sharoit*** **-** sahnada, yoki suratga tushirish maydonidagi tasavvurdagi sharoitda aktyor tomonidan amalga oshiriladigan shartli harakat.

Berilgan shart-sharoit ayni hayotning o‘zi emas, uning badiiy tarzda aks ettirilishidir (“Berilgan shart-sharoit” atamasi A.S.Pushkinning "Berilgan shart-sharoitlar”to‘g‘risidagi manzumasidan olingan).

Stanislavskiy bu atama tushunchasini kengroq tadqiq qiladi: “Berilgan shart-sharoit - pesa bayoni, dalillar, vokea, davr, makon, zamon va vaqt, hayotiy sharoitlar, aktyor va rejisserning pesa haqidagi tushunchalari, o‘zidan qo‘shimchalar kiritish, mizansahna, sahnalashtirish, rassomning dekoratsiya va liboslari, butaforiya, chiroq hamda tovush va shovqinlar, ijodiy jarayonda aktyorga taklif etiladigan qo‘shimcha vazifalar”. Ammo bularning xammasi spektakl hayotining to‘qima sharoitidan kelib chiqadi. Stanislavskiy shogirdlari ularni unsur va atamalar - deb atagan.

**6.** ***Vazifa*** **-** bu aktyorning saxna yoki ekranda, tasavvurdagi berilgan shart-sharoitda ma’lum maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan xatti – harakatidir.

**7.** ***Xissiyot* –** aktyor rolning berilgan shart-sharoitlarida haqqoniy xatti-harakat qilishi, fikr yuritishi.

**8.** ***Ichki kechinma* –** pesa yoki ssenariyning berilgan shart-sharoitlarida xatti-xarakat qilayotgan aktyorning xotirasidagi xissiyotlar tufayli beixtiyor vujudga kelgan xis-tuyg‘ulari.

**9.** ***Ohang* –**aktyor ichki kechinmasi xususiyatlaridan biri.

**10.** ***To‘rtinchi devor*** **-** teatr pardasining qizil chizig‘igacha bo‘lgan makon va ana shu parda ortida tomoshabin borligi nazarda tutiladi.

**11.** Spektakl yoki ekran asaridagi **g‘oya** – roldagi inson hayotining ruhiyatiga singib ketish orqali, aktyor xissiyotiga aylangan tendensiY.

Harakatli munosabat **–** insonning kundalik hayotidagi hatti-xarakati, faoliyati uning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Aktyor yaratayotgan timsolning **xatti-xarakati**, faoliyati orqali qaxramonning **fe’l-atvori** (xarakteri) namoyon bo‘ladi.

**12.** ***Xarakter (fe’l-atvor)*** **-** aktyor ijrosi orqali qayta gavdalangan timsolning **mantiqiy betakror qilig‘i, odati, xislati** tufayli namoyon bo‘ladigan xususiyat.

**13.** ***Kurash*** **-** pesa yoki ssenariyning berilgan shart-sharoitidagi kurash - Aktyor ijodining maxsuli. Kurash –aktyor xatti-harakatini faollashishiga sabab bo‘ladi.

**14.** ***Teatr* –** insonlarning, qolaversa xalqlarning o‘zaro muloqati uchun, ularning qalbidagi yashirin fikrlari va xissiyotlarini yoritish xamda anglash uchun xizmat qiluvchi vosita. Aktyorning xaqqoniy, ifodali xatti-xarakati – teatrning badiiy moxiyati hisoblanadi.

Ekran asari yoki spektaklda yuzaga keladigan muxim vaziyatlar ***qarama –qarshilik*** natijasida paydo bo‘ladi. Sahnaviy qarama – qarshilik natijasida kurash vaziyatlari vujudga keladi.

***15. To‘qnashuv (konflikt)*** **-** to‘sqinlik demakdir. Partnyor, yoki partnyorlarning qarama - qarshi, adovatli xatti-harakati. Ammo har qanday to‘sqinlik **to‘qnashuv** bo‘la olmaydi.

**16.** ***To‘sqinlik* –** spektakl yoki ekran asarining Asosiy adabiyotlar sharoitlaridan hisoblanadi..

**17.** ***«Agarda?»*** **-** real hayotdan va real shart-sharoitlardan, tasavvurdagi hayotga o‘tishdagi shart, hamda pesa, ssenariy muallifi yoki Aktyor tasavvuridagi shart-sharoitga aktyorning haqiqiy hayotdan o‘tishi uchun beriladigan javobidir. Stanislavskiy «Agarda»ni, «ijodga kirish darvozasi» - deb atagan. Aktyor o‘ziga: «Agarda men spektakldagi sharoitga tushib qolsam, nima qilar edim?» - savol berishi va shu savoldan kelib chiqadigan vaziyatda qanday harakat qilish mumkin? Ijodda «Agarda?» aktyor tomonidan hayotiy haqiqatni tabiiy qilib yaratishga imkon beradi. Natijada tabiiy haqiqat badiiy haqiqatga aylanadi.

**18. *Bugun, hozir, shu yerda* –** aktyor xatti-harakat qilishi uchun berilgan shart-sharoit.

**19. *Qiziqish* –** aktyorni rol bilan intuitiv, jonli birlashuvi, rolni anglash va qayta gavdalanish uchun eng yaxshi vositadir. Rol hayotiga qiziqish bilan, berilib ishlash qobiliyati – aktyor talantining xususiyatlaridan biri.

**20. *Taassurot* –** pesa ilk bor o‘qilganda chuqur xissiyotlar orqali qabul qilinadi va o‘quvchida taassurot qoldiradi**.** Aktyor va Aktyor ijodida bu birinchi bosqich.

**21.** Aktyor ijodi undan alohida ***diqqatni*** talab qiladi, ya’ni sahnaviy harakatlarda, uning sharoitlarida, maqsad va manbalarda fikrni jamlash kerak.

**22. *Sahnaviy diqqat manbalari* - xaqiqiy** va **tassavurda** bo‘lishi mumkin.

**23.** Sahnada yoki suratga tushirish maydonchasida hamisha ***tabiiy manbalar*** mavjud.

**24. *Tasavvurdagi manbalar*** - rol ijrochisining hayolida, uning tasavvurida bo‘ladi.

Diqqat doiralari (kichik, o‘rtacha, katta).

**25. *Kichik diqqat doirasi* –** rol ijro etayotgan aktyor sahnadagi mavjud manbaga diqqatini to‘plashi va shu sahnada qo‘l cho‘zish masofasida joylashgan manbalarga, yoki o‘ziga yaqin turgan manbalarga diqqatini to‘plashi lozim bo‘ladi.

**26. *O‘rtacha diqqat doirasi* –** aktyor ijro etayotgan rolida, suratga tushirish maydonida yoki spektakl jarayonida sahnada joylashgan manbalarga va ular xaqidagi ma’lumotlarga diqqatini to‘plashi talab qilinadi.

**27. *Katta diqqat doirasi* –** rol ijrochisidan sahnadagi va undan tashqaridagi manbalarga va ular haqidagi ma’lumotlarga diqqatini qaratish talab qilinadi. YA’ni, tomosha zali, ko‘cha, shahar, xatto boshqa davlat ham bo‘lishi mumkin. Rolda aktyorning katta diqqat doirasining oxirgi nuqtasi butun koinot, olam ham bo‘lishi mumkin.

Stanislavskiy aktyorning diqqati tomosha zali bilan sahnaviy hayot o‘rtasida ikkiga bo‘linsa, ijodiy jarayonga xalaqit beradi, deb hisoblagan. Bunday vaziyatda aktyor o‘zining to‘g‘ri jismoniy xolatini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Tomoshabin bilan bevosita muloqotga kirishishga, faqat Aktyor ko‘rsatmasi hamda asar yechimi sabab bo‘la oladi. YE. Vaxtangovning “Malikai Turandot” spektaklini misol qilish mumkin.

**28. *Aktyor tasavvuri* -** hayotiy (real) muxitda, turli sharoitlarda aktyor o‘zini ko‘ra olish qobiliyati, o‘sha vaziyatda qahramon o‘rnida o‘zini ko‘ra bilish saloxiyati.

**29. *Fantaziya* -** extimoldan uzoq bo‘lgan (irreal) sharoitlarda aktyor o‘zini ko‘ra olish qobiliyati yoki aslida yo‘q manbalarni ko‘rishi. Irreal bu - haqiqiy hayotda mavjud bo‘lmagan, afsonaviy, diniy, ertaklar olami xaqida fantastik qarash, ilmiy gipoteza.

**30. *Qarash va ko‘rish* –** aktyorning sahnaviy yoki suratga olish maydonidagi ijodiy salohiyati. ***Qarash*** – aktyor o‘zini qiziqtirayotgan manba yoki manbalarga nigohini

qaratishi. ***Ko'rish*** – timsolni gavdalantiruvchi shaxs nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak uni qiziqtirayotgan manbaga to'g'ri munosabatda bo'lishi.

**31.** ***Munosabat*** - bu aktyor o'zi ijro etayotgan qaxramonining ko'ringan manba xaqidagi ***o'y-fikri*** va ***sezgisidir***. Kino yoki teatrda aktyor o'zi yaratayotgan timsolining manbaga nisbatan ko'rsatgan qarshiligi, o'y-fikri va sezgisi orqali ifodalanadi.

**32.** ***Xayoliy ichki ko'rish*** **–** aktyorning diqqati qaratilgan manba to'g'risidagi o'y-fikri.

**33.** ***Botiniy sezgi*** **–** sahnaviy hayot jarayonida aktyorning o'z partnyori, buyumlar, tabiat xodisalari, voqealari, o'zini qurshab turgan muhit va anjomlarni fikriy his etish, hayolan ko'z oldiga keltirishlik. «Gapni saxnadoshning qulog'iga emas, ko'ziga gapirish kerak», degan edi Stanislavskiy.

YE.B.Vaxtangov esa, bu fikrga yanada aniqlik kiritib shunday degan: "Berilgan narsani ko'rish va talab qilingan darajada munosabat bildirish kerak". Bu degani - yo'q narsalarni ko'rish kerak degani emas.

**34.** ***Eshitmoq va sezmoq*** **–** aktyorni yorqin ijodiy qobiliyatiga egaligini belgisi. ***Eshitish*** **-** bu so'zlashayotganlarga, ovoz yoki musiqaga diqqatni qaratishlik. ***Sezmoq*** – bu eshitilgan narsaga to'g'ri munosabatda bo'lishlik. **Munosabat** – bu aktyorning rolda eshitgan narsasi xaqidagi o'y-fikri va his - tuyg'ulari. O'y-fikr va his – tuyg'ular aktyorni sahnadagi yoki suratga tushirish maydonidagi gavdalantirayotgan rolida eshitgan narsalarini qabul qilish qobiliyatini ifoda etadi.

**35.** ***Ichki monolog*** **-** aktyorning roldagi o'y-fikri. Ichki monolog – aslida ichki dialog: aktyor tomonidan ijro qilinayotgan personaj fikr yuritib, o'zini nimagadir ishontiradi, umidvor bo'ladi, ikkilanadi, xayolan partnyor hamda o'zi bilan baxslashadi. K.S. Stanislavskiy "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitobida aktyor o'z rolida kechirayotgan fikr jarayonini ***o'y-fikrlar va fikriy xatti-harakat*** deb nomlagan.

V.O.Toporkov "Stanislavskiy repetitsiyada" nomli kitobida Stanislavskiy sistemasida ichki monolog aktyorlik maxoratining eng muxim jihati", -deb ta'kidlab o'tadi. Stanislavskiy Toporkov bilan N.V.Gogolning "O'lik jonlar" asaridagi Chichikov roli ustida ishlar ekan, Chichikov rolini ijro etayotgan Toporkovdan diqqatni ichki monologga qaratishni talab qilgan.

S.M.Eyzenshteynning yozishiga qaraganda "ichki monolog" atamasini u ixtiro qilgan. Tovushsiz kinodan keyin tovushli kinoga o'tish jarayonida olib borilgan izlanishlar bunga turtki bo'lgan.

Ichki monolog aktyorning ***so'z orqali harakat qilish jarayonida*** (podtekstni) matn ostiga yashiringan mantiq va ma'noni, ovoz chiqarib aytilmagan fikrni aniqlashga yordam beradi. Buning yordamida aktyorning roldagi hayotini anglab olish mumkin..

**36.** ***Matn ostidagi tub ma'no*** (podtekst) – rolning, "inson ruxiyati hayotining" ichki kechinmasi, ijod mazmuni. Hamma narsa roldagi aktyorning fikri va his-tuyg'ulariga bog'liq. ***Matn ostidagi tub ma'no*** – *bu* fikrning nozikligi, aktyorni sahnaviy xatti-harakatining sirliligi, "istehzo", "qochirim" bilan aytilgan so'z, tagida yashirin ma'nosi bor matn yoki gapning boshqacha ma'nosi. G.A.Tovstonogov misoli: bittasi bir nojo'ya ish qilib qo'ydi, «Barakalla» - deya unga ikkinchisi kesatadi. Tub ma'noda "Tentak" ma'nosi kelib chiqadi. Tub ma'noda so'z ostiga yashiringan say-harakat, xohish, istak namoyon bo'ladi. Tub ma'no fikrning nozikligi va o'tkirligidan kelib chiqadi.

**37.** ***Aktyorning hissiy (emotsional) xotirasi*** **-** bu uning hayotida boshidan kechirganlari yoki boshqa odamlarning fe'li, xatti-harakatlari natijasida xotirasida muxrlanib qolgan hissiyotlari

**38.** ***Berilgan shart – sharoitga ishonch*** **–** bu aktyorning spektakl yoki suratga tushirish maydonida to'qib chiqaruvchanlik, badiha (improvizatsiya) qila oladigan ijodiy qobiliyati. Berilgan shart – sharoitda hayotdagiday badiiy obrazda yashay olish, fikrlash, tabiiy xatti-harakat qilish saloxiyati.

Berilgan shart-sharoitga ishonish – xotirada saqlanib qolgan hissiyotlar ta'sirida xatti-harakat qilishdir.

Hissiy xotira yordamida berilgan shart-sharoitga ishonish aktyor qobiliyati va iqtidorining mezonidir.

**39.** ***Saxnaviy kayfiyat*** **-** spektakl yoki kino san'atida aktyorning berilgan shart-sharoitda o'z maqsadiga intilish yo'lidagi xissiy qarshiligi.

Aktyornining saxnaviy his etish tabiati – berilgan shart-sharoitlarda asarning qahramoni sifatida o'z maqsadiga erishish uchun qay darajada ishonarli harakat qila olishi uning saloxiyat mezoni xisoblanadi.

**40.** Sahnada yoki tasvirga olish maydonida aktyorning sahnaviy holati uning ***sur'at va maromi*** (tempo- ritmi**)** orqali namoyon bo'ladi.

**41.*Sur'at* -** bu aktyorning roldagi botiniy xarakatini tezligi.

**42.*Marom*** - uning asabiy holati, faoliyati. Qaxramonning jismoniy xatti – harakati va ruxiy xissiyoti, kayfiyati uni harakat jarayonida sur'at va marom oralig'ida bir-biriga muvofiq.

**43.**Stanislavsikiy barcha hayotiy va sahnaviy ***sur'at – maromlarni*** 13 taga bo'lib chiqqan. Oddiy hayotiy sur'at va marom 5-si hisoblangan. 5 – chi sur'at – maromdan keyingilari, ijobiy va salbiy xissiyotlar bo'lib, 5 – chi sur'at va maromgacha bo'lganlarni faqat salbiy xissiyotlar xisoblagan.

- 1 - sur'at va marom – misol: qariyalar uyidagi kimsasiz nuroniyning xatti – harakati.

- 2 – sur’at va marom – misol: o‘zi yoqtirgan institutga kiraolmagan talabaning holati.
- 3 – sur’at va marom: o‘zi yoqtirmagan bema’ni, lekin talab qilinayotgan ish bilan mashg‘ul bo‘lish holati.
- 4 – sur’at va marom: xayrlashuvdan va poyezd ketgandan so‘nggi holat.
- 5-sur’at va marom oddiy hayotiy xolatlardan iborat .
- 6 – sur’at va marom: **ijobiy** xissiyot - insonning o‘zi orzu qilgan omadli xarididan so‘nggi holati;

  **salbiy** xissiyotlar - noxaq ranjitilgan insonning kayfiyati.

- 7 - sur’at va marom: **ijobiy** xissiyot– sevimli kishidan xat orqali olingan xushxabardan so‘nggi holat;

  **salbiy** hissiyot - qadrdon inson hayoti uchun tashvishlanayotgan odamning holati.

- 8 - sur’at va marom: **ijobiy** hissiyot - tengsiz kurashda g‘olib chiqqan inson holati;

  **salbiy** - omadsizlik yoki xatosini sezib qolgan odamning holati.

- 9 – sur’at va marom: **ijobiy** hissiyot– muhabbat og‘ushida yoki katta g‘alabaga guvoh bo‘lgan inson kayfiyati;

  **salbiy -** hayotidagi daxshatli xatolikni tuzatishga oshiqayotgan inson holati.

- 10 – sur’at va marom: **ijobiy** hissiyot – o‘z farzandini falokatdan qutqarib qolgan ota-ona holati;

  **salbiy** hissiyot- yaqin kishisidan ayrilib qolgan inson xolati.

- 11 – sur’at va marom: **ijobiy** hissiyot – hayot-mamot jangida raqibi ustidan g‘alaba qilish holati;

  **salbiy -** shu jangda mag‘lub bo‘lish xolati.

- 12 – sur’at va marom: **ijobiy** hissiyot – ishonish qiyin bo‘lgan yutuqqa erishish, imkoniyatsiz sharoit ustidan g‘alaba qozonish.

  Bunda **ijobiy va salbiy** hissiyotlar bir – biri bilan o‘rin almashadi.

- 13 – sur’at va marom: **salbiy** hissiyot – shaxsiy hayotida o‘limni tanlashga majbur bo‘lish;

  **ijobiy -** ishsiz yurgan odamning million so‘m yutib olishi.

**44.*Mantiq va izchillik* -** aktyor tomonidan sahnada gavdalantirilayotgan shaxsning jismoniy faoliyati, o‘y fikrlari natijasidir. Bu natija esa, hissiyot bilan uzviy bog‘liq.

**45. *Aktyorning jismoniy erkinligi* -** o‘zi ijro etayotgan rol uchun aniq xatti-harakat topishga ko‘maklashadi.

Rol ijro etayotgan aktyorning jismoniy erkinligi, o‘zi bajarayotgan ishga samimiy ishongan xolda maqsad sari intilishining tabiiyligini keltirib chiqaradi. Natijada sahnaviy shart – sharoitda aktyor o‘zini emin-erkin tutish orqali o‘zi bajarayotgan

ishidan qoniqish hosil qiladi. Lekin sahnadagi erkinlikni bo‘shanglik, lapashanglikka yo‘yib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, saxnada yoki suratga tushirish maydonida aktyorning xushidan ketish va yiqilish o‘yinlaridan tashqari, mutlaqo jismoniy erkinligiga erishib bo‘lmaydi.

**46.*Muskullarni bo‘shatish*** - berilgan rolni to‘g‘ri ijro etish uchun aktyor jismoniy erkinlikga erishish yo‘lida o‘z tanasida muskullarni bo‘shatishi zarur.

**47.*Aktyorning jismoniy a’zolarining muvozanati* -** bu aktyorning jonli xatti-harakat jarayonida jismoniy erkinligidir.

**48. *Aktyor yuzidagi erkinlik* -** Stanislavskiyning fikricha yuz erkinligi, bu – bachkanalikdan, o‘y-fikr va hissiyotni «o‘ynab» ko‘rsatishdan holi bo‘lishdir. Tabiiy harakat jarayonida aktyor o‘z yuzi va butun jismoniy a’zolari yordamida gavdalantirayotgan shaxsining ruhiy hayotini aks ettiradi. Fe’l-atvor yaratish jarayonida qayta o‘zgargan aktyorning yuzi va tana a’zolari asl tabiiy jarayonda ixtiyorsiz ravishda ichki ruhiy holatni aks ettiradi. Yuzni burishtirib ko‘rsatish oddiy havaskorlikdan boshqa narsa emas. Peshonani tirishtirish, labni tishlash, ko‘zlarni katta ochib yumish, qosh qoqish, ortiqcha qo‘l harakatlari (jestikulyatsiya) sahna qonuniga ziddir.

**49.*Mimika* –** sahnaviy harakat jarayonida aktyorning tabiiy, samimiy ifodali yuzi (mimikaga o‘rgatib bo‘lmaydi – faqatgina yuz muskullarini mashq qildirish asosida ishlab takomillashtirish zarur).

**50.*Shleyf* –** shaxs timsolini yaratayotgan aktyorning sahnaviy xatti-harakatida shleyf uning sahnaga chiqishdan oldingi hayotini va kulis ortiga chiqishi yoki suratga tushirish maydonida kadrdan chiqib ketgandan keyingi hayotini aks ettiradi. Sahnaviy shaxsning hayotiy mantig‘i talabiga ko‘ra – sahnadan biror voqeaga yoki biror ish uchun chiqib ketish kerak. Shaxs tomonidan bajariladigan yoki bajarib bo‘lingan ishdan sahnaga qaytib kelish, u bilan bo‘lib o‘tgan voqea yoki hozir saxna ortida bo‘layotgan voqea - shleyf deyiladi. Berilgan shart-sharoitga tegishli bo‘lmagan holda sahnaviy harakatni va kulis ortidagi harakatni uzib, kulis ortidan sahnaga chiqib bo‘lmaydi, shuningdek sahnadan kulis ortiga chiqib ketib bo‘lmaydi.

**51.*Bo‘lib o‘tgan xodisani baholash, uni idrok qilish, yoki hodisaga munosabat* –** sahnada bo‘lib o‘tgan yoki bo‘layotgan voqeaga nisbatan sahnaviy timsolning fikri, his-tuyg‘ulari hamda uni qabul qilishi, ya’ni idrok etishi va ta’sirlanishidir. Kutilmagan xodisa yoki xabarni qabul qilish - “qotib qolish nuqtasi” bo‘lishi mumkin. “Qotib qolish nuqtasi” jarayonida, aktyor bundan keyin qanday xatti-harakat qilishni, biror qarorga kelgandan so‘ng, bo‘layotgan voqeaga qarab, xatti-harakatini davom ettiradi.

**52.*Muloqot*–**aktyor sahnadoshi yoki sahnadoshlari bilan o‘zaro amalga oshiradigan xatti – harakatining hosilasidir. Muloqot - aktyor suxbatdoshi, yoki sahnadoshi bilan o‘zaro muloqotga, munosabatga kirishishidir. Aktyorning saxnadoshi bilan o‘zaro xatti – harakati, sahnadoshining ta’sir kuchini, o‘ziga qabul qilish xolatlarini o‘z ichiga oladi. Ta’sir kuchini qabul qilish – bu qanday yo‘l tutish, fikrlash, hal etish, keyin qanday xatti-harakat qilib amalga oshirish va nihoyat javob berish. Muloqat -sahnadosh nima deyapti,

nima qilayapti, nimani his qilayapti, degan fikriy jarayonni majburiy ravishda o‘z ichiga oladi. Muloqot tushunchasi – eshitish, ko‘rish, ya’ni qanday xatti-harakat qilishni o‘ylab, munosabat bildirish, keyin qanday javob berish. «Suhbatdosh so‘zi to‘g‘risida o‘ylang», – deb rejissyor A. Labanov aktyorlardan talab qilardi. Partnyor bilan fikriy kelishish yoki talashish, bahslashish, ayniqsa «sukut saqlash doirasida» fikr yuritish kerak.

**53.**Aytib o‘tilgan muloqot qonuni – sahnadoshlararo ***jonli sukut saqlash*** vaziyatlari va berilgan shart-sharoitlar orqali aniqlanadi.

**54. *Xatti-harakat qilish uchun yondashish, sahnadoshga yaqinlashish* –** bu oliy maqsadga muvaffaqiyatli erishish yo‘lida shaxs tomonidan o‘zi uchun qo‘shimcha sharoit yaratilishidir.

**55.*Moslashish* -** bu rol ijrochisi sifatida aktyor sahnaviy vazifasini muvaffaqiyatli hal etish uchun qo‘llaydigan harakat hususiyatlaridan biridir. YA’ni ayyorlik, ustamonlik, tilyog‘lamalik, xushomad, extiyotkorlik maqsadga erishish yo‘lida sahnadagi hayotiylikni aniq his kilishni yuzaga keltiradi.

«Moslashishni» Stanislavskiy mana shunday atagan: «Moslashish – bu xotirjamlik, g‘azablanish, hayajonlanish, mexribonlik, iztehzo, injiqlik, minnat, nafratlanish, afsuslanish, po‘pisa, hursandchilik, dilkashlik, ikkilanish, hayratlanish, ogohlantirish va boshqalar». Bular qanchalik ta’sirli, to‘satdan, dadil, dag‘al bo‘lsa, shunchalik taassurot qoldiradi.

**56.*Fe’l- atvor (xarakterlilik)* –** sahnaviy yoki ekrandagi shaxsning xulq-atvori, yorqin ichki va tashqi xususiyatlarining mohiyatini aks ettiradi.

**57.*Natijani o‘ynash* -** bu hissiyotlarni namoyish etib, xolatni bo‘rttirib ko‘rsatish.

**58.*Aktyorning so‘z orqali xatti-harakati* -** sahnaviy yoki film qaxramonining maqsadga erishish yo‘lida sahnadoshiga so‘z orqali ta’sir etishi.

So‘z harakati - so‘z orqali ta’sir o‘tkazish demakdir. So‘z bilan harakat jarayonida eng muhimi «sukut saqlash» orqali muntazam fikriy kurash, xatti-harakat qilishdir. Sahnadoshining so‘zli xatti- harakatiga nisbatan u bilan fikriy bahslashish, janjallashish yoki murosaga kelish. Shundagina sukut xolatida ta’sir javobini o‘tkazayotgan saxnadoshining aniq xatti-harakati topiladi. Eng yorqin so‘z harakati – bu saxnadosh bilan fikran baxslashish, ya’ni sahnadoshni qo‘llab - quvvatlashga yoki boshqacha o‘ylashga, xatti – harakat qilishiga va nihoyat unda o‘zgacha tuyg‘ular paydo qilishga majburlash.

**59.*Nutq ifodaviyligi* –** so‘zlarda unlilarni kerakli joylarda cho‘zib aytish va har bir so‘zda oxirgi undosh tovushlarni aniq aytish nutq ifodaviyligiga olib keladi. Aktyor tomonidan bunday so‘zli harakat, uning maqsadga erishish faolligi bilan oqlanishi kerak

**60.*Sahnaviy muhit*** bu - xatti-harakat sodir bo‘layotgan makondagi kayfiyat, joy va vaqtni his qilish. Bularning hammasi qahramon, ijrochilar va tomoshabin qalbida hissiy taassurot tug‘diradi. Bekatdagi muxit bilan ibodatxonadagi muhitni, oshxona bilan kasalxona, to‘y bilan azani, qashshoqlik bilan to‘kin dasturxonni tenglashtirib bo‘lmaydi.

Sahnada hukm surayotgan muhit qahramon yoki ishtirokchilarning shaxsiy his-tuyg‘ularidan keskin farq qilsa, bu to‘g‘ri topilgan ifodaviy vosita bo‘ladi. Muxit xatti-harakat rivojlanish jarayonida o‘zgaradi. Teatr san’ati bo‘yicha muhit muallifi bu- Moskvadagi Badiiy teatr. K.S.Stanislavskiy va Vl.I.Nemirovich – Danchenko spektakllari xar doim hissiyotlarga boy muhit bilan ta’riflanar edi. Bu spektakllar tomoshabin tomonidan badiiy ixtiroday qabul qilinardi. Muhitga dekoratsiya, tovush va musiqalar ta’sir qiladi. Aktyor, rejissyor va ssenografning teatr, kino san’atida aniq yaratgan muhiti– yorqin badiiy ifodaviy vosita xisoblanadi.

**61.*Rolning yetakchi xatti – harakati* -** aktyorning butun spektakl davomida yoki kino asarida asosiy xatti – harakati xisoblanadi. Yetakchi xatti – harakat aktyorni maqsad sari intilishiga va o‘zi ijro etayotgan rolining oliy maqsadiga erishishga yetaklab boradi. Bu rolning asosiy g‘oyasi.

**62.*Rolning asl mohiyati* -** uning assotsiativ (o‘xshash) timsoli, ya’ni fikriy bog‘liqligi**.** Sahnaviy timsolning tub ma’nosi. YA’ni obrazning ichki va tashqi tomonlari kimgadir, yoki nimagadir o‘xshashi (hayvon, o‘simlik, buyumga).

**63.*Rolning oliy maqsadi* –** bu tomoshabinga, tinglovchiga ta’sir etish yo‘lida aktyor xatti-harakatining asosiy maqsadi va rolning g‘oyaviy mazmuni; oliy maqsad shaxs xatti – harakatining axloqiy mazmunini ifoda etadi yoki salbiy qahramonni yengilishiga sabab bo‘ladi.

**64.*Spektaklning yetakchi xatti – harakati* –** bu spektaklning eng oliy ahloqiy g‘oyasi, oliy maqsadi uchun kurash jarayonidagi asosiy xatti-harakat. Xatti – harakat aktyor san’atining mahsuloti.

**65.*Spektaklning oliy maqsadi* –** bu tomoshabinga ta’sir kuchini o‘tkazish yo‘lida so‘nggi ma’naviy, g‘oyaviy maqsad.

**66.*Qarama-qarshi xatti-harakat (kontr xatti – harakat)*** - spektakl yoki ekran asarlaridagi yuksak g‘oyalar g‘alabasi uchun intilayotgan qahramonlarga qarshi kurashuvchi salbiy shaxslarning asosiy xatti – harakatini bildiradi. To‘qimalarning chalkashli, favqulodda o‘zgarishlari keskinlikni oshirib, tomoshabin qiziqishini kuchaytiradi. Agar spektaklda barcha vokealarni namoyish etishga o‘tib, kurash jarayoni nazardan chetda qolsa, tomosha zalida zerikish muhiti paydo bo‘ladi.

**67.*Sahnaviy haqiqat* –** aktyorning barcha saxnaviy xulq –atvori oqlangan bo‘lishi kerak. Shundagina tomoshabin va artistning o‘zi sahnaviy haqiqatga samimiy ishonadi.

**68.*Realizm* –** xayotiy haqiqatni ijodda aks ettirishning badiiy uslubiyati.

**69.*Voqea* –** spektakl yetakchi xatti – harakatida sodir bo‘ladigan xodisa. Voqea – shaxslarning kurash va maqsad mantig‘ini o‘zgartirish bilan birga aniqlashtiradi ham. Voqea - sahnaviy xatti-harakatning yorqin bosqichlaridan biri hamda tomoshaviylik birligi. Voqea- ayni damdagi hayot bo‘lib, u bizning ko‘z o‘ngimizda kechadi. U sahnada ro‘y beradigan yagona tomosha hisoblanadi. Sahna yoki kadr ortidagi voqea – bu berilgan shart-sharoit, avval bo‘lib o‘tgan voqea hisoblanadi.

**70.*Rassomning oliy maqsadi –*** bu uning ijodiy, hayotiy, maqsadi. Bu maqsad odatda pinxona xazinadir. U yuksak yoki tuban, haqiqiy yoki soxta, jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan yoki tanazzulga sudrash kabi ma’nolarda ham bo‘lishi mumkin.

**71.*Rol kelajagi –*** spektaklda aktyorning xatti-harakati, sahnaviy hayoti. Ijrochi shaxslar o‘zining kelajagini aniq bilmaydilar. Hayot kutilmagan xodisalardan iborat. Sahnada shaxs bilan bo‘layotgan barcha voqealar ilk bor sodir bo‘layotganday ko‘rinishi kerak- bu sahna qonuni.

**72.*Artistning roldagi kelajagi*** o‘zgacharoqdir. Spektaklda aktyor o‘z qahramoni hayotini oldindan bilgan holda, rolning badiiy tomonlari, xususiyatlarini yuzaga chiqarish maqsadida ifoda va ta’sir etuvchi vositalardan o‘rnida foydalanishi kerak.

**73.*Teatr - jamoa san’ati,*** ya’ni unda rejissyorlar, aktyorlar, sozandalar, rassomlar, tikuvchi, chiroq ustalari, butoforiya, sartarosh, grimyorlar va boshqa juda ko‘p teatr mutaxassislari ishtirok etadi. Teatrda hamma narsa hammaning mahoratiga bog‘liq. Ammo teatr san’atida asosiy ijodkor bu aktyordir. Shuning uchun aktyorning ijodiy saviyasi, madaniyati, mahorati va intizomi muhim o‘rin egallaydi. /«Aktyordan askar kabi metin intizom talab qilinadi», - degan edi Stanislavskiy/.

**74. *Ansambl (yaxlitlik)*** – spektakldagi oliy maqsadni ro‘yobga chiqarish yo‘lida aktyorlar va boshqa ijodkorlarning badiiy ijodiy yaxlitligi. Bu ijodiy birlik badiiy asarning yetakchi xatti –harakatini va oliy maqsadini amalga oshirishda hizmat qiladi.

**75**. ***Aktyor qadr-qimmati –*** bu uning pesa, ssenariy muallifi san’ati oldida, o‘zi va boshqa ijodkorlar oldidagi ma’suliyati. San’at ustasi sifatida aktyor, tomoshabin va tanqidchilarga yoqishga intilmasligi, tomoshabin oldida o‘z qadrini yerga urmasligi, talab darajasidan oshirib yubormasligi, tomosha zalida o‘zini ko‘z-ko‘z qilmasligi kerak.

**76. *Manok –*** aktyor ijodini qo‘zg‘atuvchisi. Manok aktyorni hayajonlantiradigan turli tovushlar, fikr, shart–sharoit, manzara, hissiyotlar, buyum, idish, mezansahna, libos, pardoz, so‘z, musiqa, moslashma, muhit va boshqalar. Eng muhimi aniq timsoliy xatti –harakat.

**77.*Teatr etikasi –*** aktyorlarning yuksak ahloqiy madaniy mehnati va munosabatidir. Aktyorlar ishi bir – biriga bog‘liq bo‘lganligi sababli, teatrda qulay sharoit, ijodiy muhit va odob talab qilinadi. Har bir yozuvchi o‘zining qoralamasi ustidan qayta-qayta ish olib borgani kabi, aktyor xam repetitsiyada yanglishish, xato qilish xuquqiga ega bo‘lish kerak. Teatr san’atiga aloqador har bir shaxs o‘qimishli, ziyoli bo‘lishi shart. K.S.Stanislavskiy ta’kidlaganday, teatr odobi - har bir insonni boshqalarga g‘amho‘rlik qilishga undaydi. Shundagina boshqalar xam senga g‘amxo‘r bo‘ladi.

**78.*Aktyorning fuqarolik burchi–*** aktyorning o‘z xalqiga, davlatiga, shu davlatning san’ati va madaniyatiga bo‘lgan sadoqati, munosabatidir.

**79. *Aktyor – shaxs –*** tinimsiz kurash orqali o‘z san’ati bilan jamiyatni yuksak g‘oyalar sari yetaklovchi ijodkor inson.

**80.** ***Aktyorni timsoliy gavdalanishi –*** sahna yoki suratga tushirish maydonida aktyor o‘zligini yo‘qotmagan xolda ***boshqa insonga*** aylanib, ijodiy xulq-atvor va hissiyotini namoyon etishidan iborat. Aktyor tomonidan bajarilayotgan *“**boshqa inson**”*ning qilmishlari bu - rolda o‘ylab topilgan *“**boshqa inson**”* ning, ya’ni badiiy timsolning fe’l-atvori, xissiyotini tug‘diradi.

**81.*Ilxom*** –ong osti, ong usti va beihtiyor aktyor, rejissyor hamda ssenograf maxsulining namoyon bo‘lishi. Inson tabiatida uchraydigan bu ***“ravshan tortish”*** **-** chuqur ijodiy izlanishlar natijasida beihtiyor tug‘iladi. Ijodiy izlanish intuitsiya (g‘ayriihtiyoriy xis, ziyraklik)ni, ya’ni o‘ta ongli ravishdagi ixtiro va kashfiyotni vujudga keltiradi. Aktyor ijodi bu – ongli, ong osti, ong usti va beixtiyor izlanishlar sintezi.Stanislavskiy Z.Freydning ilmiy kashfiyotini anglagan holda beixtiyoriylik psixologiyasiga o‘z diqqatini qaratadi.

**82**.***Ong osti ijodi*** – aktyor hayotida o‘z boshidan kechirganlari. Ilgari ongli ravishda bo‘lmagan narsa – endilikda ong ostida xam bo‘lmaydi.

**83**.***Intuitsiya*** bu **-** san’atda ong osti, ong usti va beihtiyor topilgan ijodiy yechim. Ong usti ravishda qilingan ish - bu (obraz, nazariya, kutilmagan yangi fikrlar, va x.k.z.lar darajasidagi) ijodiy kashfiyot xisoblanadi.

**84.** ***Ijodiy izlanish*** **-** bu badiiy timsol yaratish jarayonidagi ulkan mehnat.

**85**. ***Aktyorning ijodiy saloxiyati*** – bu uning insoniy xislati, tabiati, yoshi, tashqi ko‘rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta’sirchanligi, hayotiy voqea va xodisalarga munosabati va ularni saxnada yoki ekran orqali aks ettira olish salohiyati.

**86.** ***Aktyor*** **-** ijodiy kasb atamasi, lotincha «Acteo» so‘zidan kelib chiqqan, xatti – harakat ma’nosini bildiradi; akt – aktiv ya’ni faol. Uning o‘ziga xosligi shundaki, insonlarning xususiyat va xislatlarini xatti-harakat orqali, kechinma, tashqi qiyofa, fikr yuritish, munosabat, qilig‘i, so‘z ohanglari orqali bajargan va bajarayotgan ishlarini tomoshabinga ko‘rsataolishi kerak.

**87.** ***Artist*** **–** fransuz tilidan olingan bo‘lib, ***ijodkor***, yaratuvchi ma’nosini anglatadi. ***Ijodkor*** – yuqori malakali mutaxassis. Hayotda barchaga ma’qul bo‘ladigan xususiyatlarni kashf qila olish, san’atda yangilik yarata olish va u yaratgan asarlar badiiy qiymat kasb etishi zarur.

**88.*Hissiyotlar tabiati*** **–** hissiyotning shakli va mazmuniga aktyor qiziqishi. Hissiyotlar tabiati bu - beihtiyor ruhiy ijodni vujudga keltirishdagi xususiyatlardan biri.

**89.*Rolning badiiy timsoli*** **–** ijodning bir ko‘rinishi, hamda qahramon va timsolning fe’l-atvorini aniq ochib berishdan iborat.

**90.** ***Spektaklning badiiy timsoliy yechimi*** **–** badiiy-ijodiy jarayon natijasi bo‘lib, shakl jixatidan ixtiro, mazmun jixatidan kashfiyot darajasidagi (immitatsiya) o‘xshatishdir. Immitatsiya bu aktyorning sahnada yoki ekranda qaxramon timsolini xaqqoniy, shu bilan birga tabiiy qilib o‘xshatishidir. Buning uchun tasvir vositalari (estetik, xulq-odob)

va ular yordamida o‘zligini o‘zgartirish (ta’sir ko‘rsatuvchi shakllar, majoziy usullar) kerak bo‘ladi. Spektaklning badiiy timsoliy yechimi ichki sezgilar, xissiyotlar yordamida chuqur muloxaza va tahlil etish orqali vujudga keladigan jarayon hisoblanadi.

**91.*Mizansahna* –** xatti-harakatni, dialogni, voqeani, munosabat va qarama-qarshilikni plastik (nafis) timsoli.

**92. *Jest*** (qo‘l xarakatlari) –suratga tushirish maydonida yoki sahnada aktyorning qo‘l yoki qo‘llarining badiiy-ifodaviy harakati.

**93.*Harakatsiz qo‘llar* –** K.S.Stanislavskiy aktyorning saxnadagi ifodasiz, samarasiz qo‘l harakatlarini rad etgan. Aktyorlar ortiqcha qo‘l xarakatini qilmasliklari uchun, repetitsiya jarayonlarida Stanislavskiy ularni o‘z qo‘llari ustiga o‘tirishlarini taklif qilgan. Shaxsning qo‘l harakatlari ochiq, badiiy jixatdan hissiyotlarga boy, ta’sirchanlik xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak.

**94.*Aktyor iste’dodi* –** bu uning qobiliyati va chuqur bilimi.

**95.*Aktyorning sahnaviy tarovati* –** insoniy jozibadorlik, jalb etuvchi yoqimtoylik.

**96.*Aktyor plastikasi*** – nafis harakat, bu undagi tana harakatlarining ifodaviy ta’sirchanligi, ma’nodorligi.

**97.*Aktyor irodasi* –** maqsad sari sobitqadamlik bilan xatti-harakat qilib, ijodiy yutuqlarga erishish yo‘lidagi faollik.

**98.*Inson ruhiyati* –** badiiy timsolda aktyor kechinmalarining yuksak ahloqiy mohiyati.

**99.*Shtamp*** (ko‘chirma)**–** aktyorning “misi chiqqan”, “chaynalgan” xatti-harakatlari, o‘zining yoki boshqalarning xulq-atvorini mana shu tarzda ko‘chirib ko‘rsatish.

**100.*Dekoratsiya* –** spektaklning berilgan shart-sharoitini badiiylashgan moddiy ko‘rinishi.

**101. *Shartlilik* –** sahnaviy shartlilik spektakldа inson hayoti ruhiyatini ochib berishda yordam beradi.

**102.*O‘y-fikr* -** rol va spektaklning badiiy yechimi ustida ijodiy izlanish bosqichlari.

**103.*Stol atrofida ijodiy ish jarayoni* –** spektakl yoki ekran asarlarining tahlilida, rol moxiyatini ochish uchun stol atrofida o‘tirib olib, boriladigan ijodiy izlanishlar bosqichi.

**104.*Pesa va rolning harakatli tahlili* -** bu spektaklni stol atrofida ishlash jarayoni bilan birga, sahnadagi etyudli repetitsiyani o‘z ichiga oladi. Bu - asarning berilgan shart – sharoitlarida aktyorni ruhiy - jismoniy hayot kechirish jarayonining birikmasi. Rol so‘zlari yodlanmaydi. Matnni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday ish jarayonida ijodiy fikrlash doirasi va aktyorlar izlanishi faollashadi.

**105.*Teatrallashtirish* –** spektaklning yorqin, majoziy tomoshaviyligi, rollarning rang-barang ijrosi, dekoratsiyalar jozibadorligi.

**106. *Diletantizm* –** bu teatr mehnati haqida yuzaki bilim, aktyor yoki rejissyor sahnaviy ishida kasbiy uquvning yo‘qligi.

**107.*Sahnaviy xunarmandlik –*** shtamp, ya'ni boshqa aktyorlarga taqlid qilib o'ynash, rolda o'zgalarning xatti-harakat shaklini, o'zining boshqa o'ynagan rollaridagi topilmalarini takrorlash.

**108.*Sahnada qiliq qilish -*** layoqatsiz aktyorda kasbiy madaniyatini yetishmasligi oqibatida saxnada turib turli qiliqlar ko'rsatishi. Buni biz «***Sahnaviy qiliq*** yoki ***nozlanish***» - deb ataymiz.

**109.*Badiiy ijod –*** san'at olamida yangi qadriyatlar yaratadi. Rejissyor spektakl, aktyor insonlarning yangi qiyofasini yaratish orqali namoyon bo'ladi. Aktyor tomonidan inson timsolini yaratish, yangi narsani eskicha, eski narsani yangicha talqin qilish orqali bunga erishiladi. San'at yangiliksiz bo'lmaydi

**110.*Kechinma san'ati - bu*** spektakl yoki ekran asarlarida, har bir ijro davomida aktyor ichki kechinmasi bilan rol hissiyotlari birlashib ketishi. Kechinma san'at tomoshabinni hayajonlantiradi, hayratga soladi.

**111.*Taqlidiy san'at –*** repetitsiya jarayonida ichki kechinma orqali yaratilgan rol his-tuyg'ularini spektaklda takrorlash. Ana shu jarayonda topilgan shaklni spektaklda "ustalik" bilan qaytarish. Faqatgina, sahnaviy yoki ekran asaridagi timsolni yaratish jarayonidagi aktyorning haqiqiy sezgi va hissiyotlar kechinmasi, taqlidiy san'atni ijodiy san'at darajasiga ko'taradi, ammo zinxor tomoshabinni larzaga solib xayajonlantirmaydi, hayratga solmaydi. .

**112.*Tasavvurdagi buyumlar bilan xatti-harakat qilish –*** aktyor diqqatini buyumlarga va jismoniy xatti-harakatlarga qaratadi, uni tushunish va o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

**113. *Maishiy hayot –***aks ettirilayotgan xalqning xayotini xaqqoniy ko'rinishi.

**114.*Kuzatuv –*** aktyor va rejissyorning aloxida xususiyatlarga ega bo'lishi va boshqalarda qiziqish uyg'otuvchi kundalik narsalarni ko'rib kuzatish qobiliyati.

**115.*Rejissura ildizi –*** spektakl yoki ekran asarining berilgan shart-sharoitlarida, aktyor xatti-harakati orqali badiiy timsolni jonli qilib yaratishi. Bu ongli ruhiy-texnika orqali beihtiyoriy va ong osti ijodiga boriladigan yo'l.

**116. *Rejissura natijasi –*** saxnalashtirishdan iborat.

**117.*Aktyor psixotexnikasi va rejissura -*** Stanislavskiy sistemasining unsur va atamalari.

**118.*Badihago'ylik*** (improvizatsiya) – aktyor o'z nomidan obrazni erkin talqin qilishi.

**119.*Badiiy intizom –*** teatr san'at soxasidagi barcha ijodkorlaridan badiiy intizomni talab qiladi. U o'zga qalbga sabr-toqat, bardosh, qat'iylik, xotirjamlik bilan yondashish orqali yaratiladi. "...Metinday intizom... barcha ijodiy jamoa uchun muxim axamiyatga ega..."[1]

**120.*Stanislavskiy sistemasi –*** aktyorlik va rejissyorlik kechinma san'atining ijodiy uslubiyati. Jonli va poetik timsol hayotini ijodda aks ettiruvchi birlamchi badiiy san'at xisoblanadi. Aktyorlik va rejissyorlik ijodi – yuksak kamolotga erishilgan axloqiy, ma'naviy hayotni, ya'ni go'zallik, ezgulik va xaqiqatni tarannum etadi.

Aktyorlik va rejissyorlik ijodi sistemasini K.S.Stanislavskiy doimiy ishlab, rivojlantirib keldi.Uning unsur va atamalar xaqida olib borgan izlanishlari ko‘p qirrali. Aktyorlik va rejissyorlik ijodining sistemasi ustida u 1906 yildan 1938 yilga qadar ishlagan.

Sistemani Stanislavskiyning safdoshlari va shogirdlari muntazam

rivojlantirib kelganlar.

Agar Aktyorlik kursi talabasi o‘z oldiga shunday maqsad qo‘ysa,zarur bo‘lgan joylarda ham kundalik ishini bajarish barobarinda , ijodiy kuzatuvni ham olib borishi mumkin.(magazin,sartaroshxona,mahkama-idora,oshxona)O‘zi bo‘lgan joylarida insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini,muomilasini,yurish-turishini,xordiq chiqarishini,yakka o‘zi qolgandagi xayotini bemalol kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.Ayni shunday joylarda insonlarning o‘zi uchun muhim bo‘lgan tipik holatlarini ilg‘ab oladi.Ko‘rgan eshitganlarini aynan qanday bo‘lsa shundayligicha yozmay,o‘zi uchun zarur bo‘lgan qisqa, lo‘nda iboralarda qiyosiy misollar bilan timsoliy ko‘rinishda aks etdirishi lozim. Talabada rasm chizish qobiliyati bo‘lsa nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Ayrim vaziyat holatlarni aksini tushirib qo‘yadi.Agar talaba sur’atga olishni bilsa, bunday kuzatuvlarini rasmga tushirib qo‘yshi kerak .

*2.Aktyor hikoyasi.* Aktyor qiziqarli tarzda hikoya qilib berishni o‘rgansa,daftardagi yozuvlarining qiymati yana ham ortadi. Talaba ko‘rgan eshitganlarini daftarda qayd etganidan so‘ng, ularni o‘rtoqlari,tanish-bilishlari,yaqinlariga gapirib bersa xotirasida mustahkam o‘rnashib qoladi.Na faqat tanish-bilishlarga gapirib berish, balkim birinchi kurs talabalari mashg‘ulot jarayonida “kim qiziqarliroq gapirib berishi mumkin” degan musobaqa tarzda o‘tqazilsa yana ham foydaliroq bo‘lishi aniq.Bunday gapirib berish chog‘ida xikoyaning jonli,qiziqarli,muqoyasa,o‘xshatma va ramziy ma’nolariga e’tibor qaratish lozim.Chunki, keyinchalik Aktyor aktyor bilan ishlash jarayonida .albatta aktyorni qiziqtira olishi,o‘z ortidan ergashtira bilishi zarur bo‘ladi.

Kundalikdagi yozuvlar ham, hikoya qilib berishlar ham talabaning beshta sezgi a’zolari ishtirokidagi faoliyati mahsuli hisoblanadi.Ammo Aktyor aktyor kabi oltinchi- mushaklar turtkisi orqali ham kuzatish,qabul qilish salohiyatiga ega bo‘lishi zarur.

3.*Aktyorning ko‘rsatib berishi.*Talaba o‘zi ko‘rganlarini hayolan o‘zi bajarib ko‘rishga harakat qilishi kerak bo‘ladi.Avvaliga ichki mushaklar harakati orqali, boshlang‘ich turtkilarni his etishi, so‘ngra tashqi jismoniy xatti-harakatlar orqali o‘zi ko‘rgan xodisa ,voqealarni ijro etishga odatlanishi lozim. YA’ni o‘zini o‘zi ko‘rgan odam o‘rniga qo‘yib,o‘sha harakatlarni, o‘sha xarakterda ijro etishga urinib ko‘rish kerak.Bunda o‘sha odamning o‘ziga ta’sir qilgan harakati,imo-ishorasi,qo‘l va ko‘z qarashi,ovqat yeyishi,ketmon,tesha ushlashini esda qolgan xususiyatlarini,faqat tashqi jihatlarini emas,ayni o‘sha yerda o‘zi turganday va bu harakatlarni o‘zi tomonidan o‘sha sharoitda qanday bajarishi mumkinligini takrorlashi kerak.Bunda o‘zining ichki va tashqi holati,xatti-harakatini ishga solishi zarur.Har safar ma’lum xatti-harakatni bajarishda uning ichki va tashqi psixofizik holatini,ayni shunday shaklda harakat qilishga turtki bo‘lgan omillarni ichki kuchni,turtkini topishga intilishi lozim.Nima uchun shunday vaziyatda, ayni shunday harakat qilishga majbur bo‘ldi?Nima uchun oyoqlarini shunday tashladi,bir gap eshitganda yuzini burishi,qoshini chimirishiga nima sabab bo‘ldi, degan savollarni o‘ziga berib, ularga o‘zi javob topishi kerak.

“Shunday” xodisa ro‘y berganda,insonda qanday hissiyotlar paydo bo‘ladi? degan savollarga,tafakkur orqali og‘zaki javob topish o‘rniga,o‘sha xissiyotni o‘zida uyg‘otishga, aks etdirishga harakat qilish kerak.

Agar bo‘lg‘uvsi Aktyor avvaliga hikoya qilib, asta-sekin, ko‘rsatishga o‘tsa mashqning foydasi ko‘proq bo‘ladi.Bunday mashqlarni soni qanchalik ko‘paysa shunchalik yaxshi bo‘ladi.Biroq,Aktyor talabalar aktyorlik mahoratining boshlang‘ich unsurlarini yaxshi o‘zlashtirib olgan bo‘lishlari shart.Aks holda bunday mashqlar “taqlidchilik”dan boshqa narsa bo‘lmay qoladi. Shuning uchun bunday mashqlarni odatda birinchi o‘quv yilining ikkinchi yarmi,ikkinchi kurslardan bajarilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qituvchi bunday mashg‘ulotlarni quyidagicha tashqil qilishi mumkin.

YA’ni talabalar bir hafta davomida insonlarga xos bo‘lgan ***yurishni*** kuzatib,so‘ngra kuzatganlarini ko‘rsatib beradilar.Boshqa safar,qanday ovqatlanishni,telefonda gaplashishni,sport musobaqalari vaqtida,televizor ro‘parasida o‘zlarini qanday tutishlarini ko‘rsatib beradilar.(Har bir talaba o‘zi ko‘rgan o‘rgangan darajasida ko‘rsatadi.)

Keyinchlik talalabalar o‘zlari tanlagan,o‘zlariga yoqqan voqea,xodisalarni ko‘rsatishlari mumkin bo‘ladi.Bunday mashg‘ulotlarni ko‘payib ketishidan sira qo‘rqmaslik kerak.Talabalar qanchalik ko‘p mashq-etyud ko‘rsatsalar shunchalik foydasi ko‘proq bo‘ladi.

Aktyorlik kuzatuvining so‘nggi bosqichi bu murakkabroq ko‘rsatuvlardan iborat bo‘lishi kerak. YA’ni insonlarning ayrim vaziyatlardagi qisqa holatlarini ko‘rsatishdan sekin-asta tugallangan voqealar bilan bog‘liq vaziyatlardagi harakatini ko‘rsatishga o‘tishlikdir.(ya’ni etyud shaklida)

Etyud inson faoliyatining ijtimoiy,ma’naviy,mafkuraviy sifatlarini ko‘rsatib berishlikni o‘z ichiga olishi kerak bo‘ladi. Inson qanday fikrlaydi,extirosli vaziyatlarda o‘zini qanday tutadi?Avvaliga **gapirib** berishdan boshlab,keyinchalik shunday holatlarni **ko‘rsatib** berishga o‘tish kerak. O‘qituvchi, voqealar tanlashni talabalar ixtiyoriga topshiradi.Manbani,voqelarni talabalarning o‘zi tanlab, ko‘rib o‘zi kuzatadi.So‘ngra o‘zi ko‘rsatadi. Misol uchun biri sartarosh,ikkinchisi do‘xtir,uchinchisi etikdo‘z,to‘rtinchisi boks maydonidagi sudY.Bunday mashq va etyudlarning son-sanog‘i yo‘q.

Isonlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni,eng qiziq,ta’sirli daqiqalarini bir ko‘rishda yodda saqlab qolish. uni gapirib berish, so‘ngra ko‘rsatib berish biz o‘ylaganday oson ish emas.Buning uchun ko‘nikma,tajriba kerak.Bu narsalar esa uzluksiz mashqlar natijasida vaqt o‘tishi bilan egallanadigan qasbdir.Buning uchun esa o‘qishdan mashq qilishdan charchamaslik zarur.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

1..*Kuzatish daftariga nimalar yozilish kerak?.*

*2.Aktyor hikoyasi nimani tarbiyalaydi?.*

3.” *Aktyorning ko‘rsatib berishi” topshirig‘iga mashqlar o‘ylab toping..*

**Tavsiya etiladigan va qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2-ye. M. Iskusstvo.1978g.
2. K. S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965Y
3. J.Maxmudov “Aktyorlik asoslari” Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov “Saxna makon kompozitsiyasi” Toshkent -2008y.

5-ma’ruza

## Aktyor kuzatuvchanligini tarbiyalash

**Darsning o‘quv maqsadi:**

***Atrofingizda bo‘layotgan voqea va xodisalarni kuzatib ularda o‘zingiz uchun zaruriy ijodiy manba sifatida foydalanashni o‘zlashtirganingizdan so‘ng,o‘zingizga kerak bo‘lgan manbalarni qidirib topish va ularni o‘rganishni o‘zlashtirishingiz kerak.Sizning kasbingiz va san’atingiz shunday faoliyatga asoslangan*** . K.S.Stanislavskiy

**Asosiy adabiyotlar savollar:**

**1.Aktyor kuzatuvchanligini tarbiyalash da asosan e’tiborni nimaga qaratmoq lozim?**

**<u>Ma’ruza matni</u>**

K.S.Stanislavskiy shunday deb yozgan edi:

***“.Men odam bir-biri bilan to‘qnashganda o‘ziga yuqtiradigan hissiyotlar,sezgilar,odatlar to‘g‘risida gapirmoqchiman. Bunday manbalar va bilimlarni qidirib topish oson ish emas.Chunki bunday hissiyotlar insonlarning ichida,ruhiyati, qayfiyatida, inson ko‘zidan yashiringan bo‘ladi.***

***Insonlar kamdan-kam vaziyatlarda o‘z yuraklarini boshqalarga ochishi mumkin.Shuning uchun ularning tashqi boshqa-yu ,ichi boshqa bo‘ladi.Ko‘pincha insonlar o‘z iztirob,g‘am tashvishlarini insonlar ko‘zidan yashirish uchun,xotirjam ko‘rinishga harakat qiladilar.Bunday vaziyatlarda isnonning ichidagini bilish juda ham qiyin.Siz kuzatayotgan shahsining ichki holati,kayfiyati,uning muomilasi,xatti-harakati,munosabatida seziladi. Ana shunday daqiqalarda obektni diqqat bilan kuzating.”Nima uchun mavjud vaziyatda u bunday ohangda gaplashdi,bunday qo‘lini siltadi.bunday qadam tashladi.bunday qaradi”deya o‘z o‘zingizga savol berib uni shunday qilishga majbur qilgan ichki turtki,ichki omil,sababini topishga harakat qiling.Shu yo‘l***

***bilan o‘zingiz kuzatayotgan obektning ko‘nglida nima borligini aniqlashga harakat qilib ko‘ring.Agar obektning o‘y-fikrini,ko‘nglida nima borligi topishga muvaffaq bo‘lsangiz bu siz uchun bebaho hazina hisoblanadi.”***

Biz tavsiya etayotgan mashqlardan ko‘zlagan maqsadimiz ham ayni shudir. ko‘zlagandir.

.*Kuzatuvlar bilan almashinish*.Ma’lumki Aktyor o‘z ko‘rgan -kuzatganlarini sahnada bevosita tomoshabin bilan baham ko‘rmaydi(agar Aktyor bir vaqtning o‘zida aktyor bo‘lmasa).

Aktyorning vazifasi o‘zi ko‘rgan kuzatganlarini aktyorga o‘tqazishi,uni ijodiy qurollantirish hamda tasavvurini boyitishdan iborat.Bunday vaziyatda aktyor tayyor ma’lumotlarni bevosita hayotning o‘zidan emas Aktyordan oladi.Bu ko‘rsatuvlar,aktyorning shahsiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi,izzat-nafsiga tegmasligi ,ijodiy tomondan unimli bo‘lishi uchun, Aktyor o‘z ko‘rgan, kuzatganlarini qiziqarli tarzda tushintirishi,ko‘rsatib berishi, shu yo‘l bilan aktyorni o‘z ortidan ergashtira bilishi zarur. Aktyorni qiziqtiribgina qolmay,uning yuragini qizitishi,ta’sirlantira olishi,ilhomlantirishi kerak.Lekin ko‘rganlarini mexanik tarzda, shunchaki ko‘rsatib berishning foydadan ko‘ra zarari ko‘proq bo‘ladi.

Bunday **ko‘rsatib** berish samaradorligi oshirish maqsadida quyidagi mashqlarni tavsiya etamiz:

O‘qituvchi talabalar orasidan o‘z kuzatuvlarini yaxshi ko‘rsatib bergan talabaga shu ko‘zatganlarini aktyor hamroxiga o‘rgatishlikni topshiradi.Aktyor esa o‘z kursdoshi bo‘lishi ham mumkin.Bunda **Aktyor** o‘z kuzatuvlaridan olgan ta’surotini avvaliga ko‘rsatib berish orqali,tushintirish orqali,o‘rgatishi kerak bo‘ladi.Bu mashq bir necha marta hatto bir necha kun davom etishi mumkin.Asosiy adabiyotlar maqsad **Aktyor** o‘zi ko‘rib tasavvuriyada yaratgan voqelikni ishonarli tarzda aktyor tomonidan ijro etib berishidir(maylin bu mashq davomida aktyor sezgilarni xaqqoniy chiqaraolmasin,ammo tashqi xatti-harakatlar aynan o‘sha kuzatganiday bo‘lishi kerak).So‘ngra ko‘rsatib bergan bilan ijrochi o‘rin almashinadilar.

Mazkur mashqlardan ko‘zlangan maqsad,talabaning kundaligini tekshirish,kuzatganlarini gapirib berishi,ko‘rsatib berishi orqali uchta narsaga e’tibor qilish kerak bo‘ladi.

**1**.Xaqqoniy va yorqin ta’sirchanligi (ko‘rsatib berganida o‘ziga xos orginalligi)

**2.**Ko‘rsatib berilayotganga nisbatan talabaning o‘z munosabati (fikri,munosabati va hissiyoti)

**3**.Badiiyligi.

O‘qituvchi bularni birdaniga talab qilmay,birin- ketin bu talablarni qo‘yishi kerak bo‘ladi.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

**1.Aktyor kuzatuvchanligini tarbiyalash da uchun improvizatsiyaga bir nechta mashqlar bajaring.**

**Tavsiya etiladigan va qo'shimcha adabiyotlar:**

1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2 - ye. M.Iskusstvo 1978 g.
2.K.
2. S. Stanislavskiy «Aktyor o'z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965Y
3,J.Maxmudov "Aktyorlik asoslari" Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov "Saxna makon kompozitsiyasi" Toshkent -2008y.

6-ma'ruza

***Aktyorda tasavvur va fantaziyani o'stirish mashqlari.***

**Darsning o'quv maqsadi:**

**Badiiy asar voqealari xaqida kinolentani tasavvurimizda yarata olsakkina uni boshqalarga gapirib ,ko'rsatib berishimiz mumkin bo'ladi.**

**Asosiy adabiyotlar savollar:**

1. ***Aktyorda tasavvur va fantaziyani o'stirishuchun asosan qanday mashqlar bajarish maqsadga muvofiq?***

**Ma'ruza matni**

*"Bu qanday ro'y berdi"- mashqi:(Adabiy asar asosidagi kinolentani tasavvurda yaratish)*Voqealar batafsil yozilgan bironta adabiy asardan parcha o'qib chiqiladi.(Misol uchun Oybekning "Navoiy"romanidan yosh Alisherni cho'lda bir o'zi o'xlab qolib ketishi)Endi kitobni yopib bir chekkaga qo'yingda,qadam ba qadam voqelar tafsilotini bu xodisani qanday tarzda ro'y berganini tasavvuringizda namoyon qilishga urinib ko'ring.Bunda xodisa tafsilotini ipidan -ignasigacha ko'z oldingizga keltirishga, cho'lda eshitilishi mumkin bo'lgan ovozlarni eshitishga,atrofda nimalar borligini ko'rishga harakat qilib ko'ring.
Mazkur vazifani bajarish jarayonida qator to'siqlarga duch kelishingiz tabiiydir.Ot ustida uxlab qolgan Alisherni qandayligini ko'z oldingizga keltirishga urinishingiz bilan bu qiyin muammo ekanligiga amin bo'lasiz.Alisher yoshligida qanday ko'rinishga ega bo'lgan?Tabiiy yana romanni varaqlashga tushasiz.Lekin romanda bu xaqda yetarli ma'lumot topaolmaysiz.Buning uchun dastaval uning ustida

qanday, qaysi rangdagi chopon borligini,boshidagi kiyimi qanday shaklda,qaysi rangda ekanligini,oyog‘ida qanday poyafzal borligini va nihoyat Alisher mingan ot qanday,qaysi rangda, ko‘rinishi qanday ekanligini aniqlash kerak bo‘ladi.Lekin qanday qilib? Faqat o‘z tasavvur va fantaziyamizni ishga solish orqali buni ko‘z o‘ngiga keltirish mumkin.

YA’ni kitobdan o‘qiganlarimiz,boshqa manba’lardan olingan ma’lumotlar,rasmlarda ko‘rgan eshitganlarimizni hayolan bir yerga to‘plab ularni bir-biriga solishtirish orqali yaxlit manzarani tasavvurda gavdalantirish mumkin bo‘ladi.

**Alisher uyqudan uyg‘onib atrofida bepoyon sahroni qanday ko‘radi**? degan savol qo‘ysak,yana qator savollar paydo bo‘ladi.Avvalo Alisherning turgan joyi qanday ko‘rinishga ega?Undan so‘ng Alisher qayerda ekanligini bilishi kerak.Uning ko‘zi dastlab nimani ko‘rdi?Shu atrofda oti o‘tlab yuripti deyilgan.O‘sha otning kattaligi-rangi ustidagi yopinchiqlari,uzangisi,yugani, egari qanday?

Yana tasavvurni ishga solamiz.Agar tasavvurimiz bizga kerakli ma’lumotni to‘g‘ri yetkazib bersa,ish yurishadi.Bordi-yu tasavvurimiz oqsayotgan bo‘lsachi?

So‘ngra, Alisher otni tutishga harakat qiladi.Otning qaysi tomonidan yaqinlashadi.Otning munosabati qanday bo‘ldi?

Alisher otga minmoqchi bo‘ldi,Nega mina olmadi? Shunga o‘xshash savollar birin-ketin Aktyorning fikrida tug‘ilishi kerak.

Yuqorida keltirgan misollarimizdan ko‘rinib turiptiki.romanni dastlab o‘qiganimizda ishga tushgan tasavvurimiz juda ham nochor ishlar ekan.Sababi bu sohadagi bilimlarning o‘zi nochor ekan.Shuning uchun dastavval, tasavvurda voqea xodisaning umumiy ko‘rinishiga aloqador vaziyatlar namoyon bo‘laboshlaydi.Savollar chuqurlashtirilgan sari aniqliklar bilan bo‘sh joylar to‘ldiriladi.

**Badiiy asar voqealari xaqida mana shunday kinolentani tasavvurimizda yarata olsakkina uni boshqalarga gapirib ,ko‘rsatib berishimiz mumkin bo‘ladi.**

Demak Aktyorlik kursida mashg‘ulotlar talabaning tasavvurini ,fantaziyasini o‘stirishga qaratilgan bo‘lishi kerak ekan. O‘qituvchi har bir talabaga ma’lum bir adabiyotni o‘qib chiqishi undan parcha tanlashi va o‘sha parchani ma’lum muddat ichida kinolenta shaklida gapirib, tushintirib berishi kerakligini topshiradi.

Talabaning hikoya qilib berishi jarayonida o‘qituvchi unga turli (ust-boshi qanaqaligi,ob-havo qanaqaligi,qaysi fasl ekanligi va shunga o‘xshash) savollar berib, gapirib beruvchining tasavvurini qitiqlab uyg‘otib,faollashtirib borsa foydadan holi bo‘lmaydi.

Yuqorida tavsiya etilgan mashqni bajarish jarayonida hikoya qilib beruvchining tasavvurini to‘g‘ri yo‘naltirish,maqsad sari yetaklash uchun talaba hikoyaning mavzusidan chetlashib ketishiga,qahramon shaklu-shamoyiliga,ruhiyatiga teskari

bo‘lmagan sifatlarni berishiga,xayotiy xaqiqatdan uzoqlashib ketmaslikka,badiiy asar janri va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslikka harakat qilishi kerak.

Shu bilan birga hikoya qilib beruvchi hikoya jarayonida voqea-xodisalarga o‘z munosabatini ham bildirib,sezdirib ketishi zarur bo‘ladi .

Keyingi mashg‘ulot tasvirlanayotgan manzara ***ro‘y berguncha*** va ***ro‘y bergandan*** so‘ng voqea qanday ***davom etishi*** kerak,degan *kinolenta.*

YA’ni biron-bir taniqli rassom tomonidan tasvirlangan manzarani diqqat bilan ko‘zdan kechiriladi.So‘ngra rasmda tasvirlangan manzaraga qadar qanday xodisa bo‘lib o‘tgan edi,degan savolga tasavvur va fantaziya yordamida ko‘z o‘ngida gavdalantirish. Qanday xodisa natijasida rasmda aks etdirilgan holat paydo bo‘lishi mumkinligini tasavvur oynasida yaratishga urinib ko‘ring.YA’ni voqealar o‘zluksiz zanjirini tasavvur orqali yaratish natijasida rasmda tasvirlangan mizansahna paydo bo‘lishi mumkin ekan?

Mizansahna deganimizda ***qahramonlarning berilgan maydon va makonda bir-biriga nisbatan hamda mavjud buyumlarga nisbatan joylashuvi hamda shakliy holati (rakurs)*** nazarda tutiladi.Bu tushunchani yanada kengaytiradigan bo‘lsak,qahramonning shakliy turishi- holati(rakurs) ham nazarda tutilishi kerak.Shunday yo‘l bilan mizansahnalarning oldinma-ketin o‘zgarib turishi orqali,manzaraning plastik ta’sirli-nafis ifodaviy shakli vujudga keladi.

Mana shunday uzluksiz harakatlar u yoki bu tasviriy asar-rasmni o‘rganib tasavvur va fantaziya qilish orqali paydo bo‘lishi lozim.

Bunday natijaga qanday yo‘l bilan erishish mumkin?

Avvalo, mazkur mizansahnani uning mazmun - mohiyati hamda shaklini sinchikovlik bilan o‘rganib tahlil qilish talab qilinadi.

YA’ni mazkur manzarada aks etdirilgan qahramonlar, ayni damda kimlar xaqida o‘ylashmoqda,nimalarni ko‘nglidan o‘tkazmoqda?

***O‘rtada turgan odam kim?***

***U qayerdan keldi?***

***Qamoqdanmi?Urushdanmi?Daladanmi?Tog‘dan tushdimi?***

***Uni bu xonadonga qanday aloqasi bor?***

***Rassom shu asrari bilan nima demoqchi?***

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun rassomning o‘z asari xaqidagi fikrlari bilan tanishib chiqish kerak.Undan tashqari mazkur tasvir xaqida kimlar nimalar degan?

Tokim qo‘yilgan savollarga to‘liq javob topilmaguncha .fantaziya mudrab yotaveradi.Fantaziya bilan tasavvur ham uyquda bo‘ladi.

Qachonki rasmda tasvirlangan qahramonning ichki dunyosi,har bir holatning keltirib chiqargan sabab, qahramonning yuzi,ko‘z qarashini chuqur o‘rganish orqali u shu xonaga kirib kelgunga qadar bo‘lib o‘tgan hodisalarni ko‘z o‘ngimizga keltirishimiz mumkin ekan.Biz voqealarni rasmda tasvirlangan daqiqalarini hayolan orqaga qaytarish orqali,manzarada aks etdirilgan xodisa boshlangunga qadar bo‘lib o‘tgan voqealarni bilishimiz mumkin .

Mazkur vazifani ko‘ngildagiday bajarib bo‘lganimizdan keyin uni shunday tasvirlab berish kerak bo‘ladikim, tokim uni eshituvchi ham ko‘z oldiga keltiraolsin.Tasavvurida o‘sha manzarani aniq-tiniq ko‘raolsin.
Shundan so‘ng mashg‘ulotlar natijasi o‘laroq shu mavzuda kichik bir novella shaklida hikoya ham yozib qo‘yish kerak bo‘ladi.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

1.O‘qib chiqilgan badiiy adabiyotdan parchani talaba qay tarzda gapirib bermog‘i lozim?
2. ***“Ro‘y berguncha*** va ***ro‘y bergandan*** **so‘ng voqea**” bo‘yicha kinolenta uchun mashq o‘ylab topib bajaring. *kinolenta.*
3.Mizansahna deganda nimani tushunasiz?

**Tavsiya etiladigan va qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2 - ye. M.Iskusstvo 1978 g.
2.K.
2. S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965Y
3,J.Maxmudov “Aktyorlik asoslari” Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov “Saxna makon kompozitsiyasi” Toshkent -2008y.

7-ma’ruza

## Mizansaxnalarni tasavvur va fantaziya orqali o‘rganish .

**Darsning o‘quv maqsadi:**
Mazkur mashg‘ulotlardan ko‘zlangan maqsad,berilgan mavzuning mohiyat-maqsadi g‘oyasi.aytilmoqchi bo‘lgan fikrni qanday vositalar yordamida timsoliy yoritib bermoqchi ekanligini amalda ko‘rsatishga harakat qiladi.

**Asosiy adabiyotlar savollar:**

**1. Mizansaxnalarni tasavvur va fantaziya orqali o‘rganishni qanday amalga oshirish mumkin?**

**Ma’ruza matni**

***Dinamik lahza*** (dinamicheskoye mgnoveniye) berilgan mavzu yuzasidan jonli sahna yaratish bo‘yicha navbatdagi mashg‘ulot.
Tasviriy san’atda ma’lum voqelikning eng qizigan nuqtasida, bir lahzalik hayot oqimi, rasmda muhrlanib qoladi.

Ana shunday voqelik **dinamik rivojlanish** deyiladi.
Qo‘liga mo‘yqalam olmagan  odam ham tasavvurida ,ma’lum fikrni anglatishga hizmat qiladigan “**Muhrlanib qolgan**” voqelikni o‘z tasavvurida yaratishi,ko‘z oldiga keltrishi mumkin.Ko‘pchilik bo‘lib hordiq chikarmoqchi bo‘lgan kishilar,”Toqqa chiqmoqchi”,”Cho‘milishgan bormoqchi”, “Choyxonada o‘tirmoqchi”bo‘lganlar hali uydan qo‘zg‘almay turib oldindan bo‘lajak “dam olishni” ko‘z oldilariga keltiradilar.Garchand bunday odamlar teatr to‘g‘risidagi tushunchadan uzoq bo‘lsalar-da, bajarishi lozim bo‘lgan ishni har kimning layoqatiga qarab avvaldan bo‘lashib oladilar. Xuddi shunday bo‘lg‘uvsi Aktyorlar ma’lum mavzularda “qotib qolgan “manzarani-tasvirni” bo‘lg‘uvsi aktyorlar-Aktyorlar bilan bajarishlari mumukin.
Masalar:”Xarbiy xizmatdan qaytib kelgan zobit.”,Muvaffaqiyatsiz jarroxlik”,”O‘g‘il tug‘ildi”,”Chaqirilmagan mehmon”,”Institutga kiraolmadi” v.x.k.z.Mana shu mavzularda kutilmagan ijrochilar,sahna rekvizitlari yordamida mizansahnalar yaratish ustida mashg‘ulot o‘tqazish,talabalarda shakl,ritm,muhit,janr,maqsad,g‘oya tushunchalarini chuqurroq o‘zlashtirishlariga katta yordam beradi.Ayni shunga o‘xshasha mavzularda mizansahnalar yaratishlikni takomillashtira borib umumiy tushunchalarga ega falsafiy fikr va g‘oyalarni ilgari suruvchi mavzularda ham etyud-mizansahnalarga o‘tish kerak bo‘ladi.
Masalan:”Nomus”,”Sevgi”,”Hiyonat”,”Rashk”,”Burch”,”Baxt”,”Onalik baxti”,”Go‘zallik”,”Ijodiy lahzalar”,”Jinoyat”,va.x.k.z.
Shu usul bilan ***jonli rasmlar*** yordamida Aktyorning dunyoqarashini shakllantirishga o‘rgatadi.Masalan “Baxt”deganda Aktyor nimani tushunadi?uni qanday tasavvur qiladi?To‘g‘ri birov “Baxt”deganda lotoreyaga yutuq chiqishini tushunar,boshqasi yangi mashina sotib olishni tushunar.Bunday tushunchalar maishiy ahamiyatga ega bo‘lib,unda Aktyorning tor doiradagi tushunchaga ega ekanligi ayon bo‘ladi.Aslida”Baxt”tushunchasi falsafiy fikr bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi bilan birga umum insoniy muammolar,qadriyatlar,siyosiy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.
“**Dinamik rivojlanish”**turkumidagi “jonli rasm”mashqlarda masallar,matallar,maqollardan ham foydalanish mumkin.  Bunda albatta qissadan xissa bo‘lishi ,ya’ni shu asar orqali muallif nima demoqchi bo‘lganligi ochiq oydin aks etdirilishi va aytilmoqchi bo‘lgan g‘oya aniq-to‘liq ifodalanishi zarur.
“Keskin harakat” mavzusidagi mashqlarni tahlil qilishda albatta tanqidiy yondoshuv kerak bo‘ladi.Birinchidan uning mavzusi va to‘qimasi,g‘oyasi tanqidiy ruhda muhokama qilinishi lozim.
Ikkinchidan unda aks etdirilgan voqea yorqin, ta’sirchan,tushunishga oson bo‘lmog‘i kerak.Ana shunday tanqidiy muhokamadan so‘ng o‘qituvchi albatta talabalaga yutuq va kamchiliklarini birma-bir tushintirishi lozim bo‘ladi.Tushintirish jarayonida ko‘zlangan maqsadga qanchalik erishilgan erishilmagani ,nima uchun erishilmagani kamchiliklar nimalardan iborat,qaysi

ifoda vositalari to‘g‘ri tanlangan, qaysilari noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib o‘tishi shart. Mashg‘ulotlarning xuddi mana shu bosqichida bo‘lg‘uvsi Aktyorlar “***ta’sirli mizansahna”*** bilan ***“ifodali-plastik mizansahna”*** hamda ***”faqat tashqi ko‘rinishga ega namoyishkorona ”***mizansahnalar o‘rtasidagi farq nimada ekanligini tushinib yetishi kerak.Agar Aktyor tomonidan yaratilgan ***jonli rasm*** hech bir izohsiz tushinarli bo‘lsa maqsadga erishilgan deya hisoblash mumkin.

***Buyumlardan foydalanish.*** *Sahnaga shunday bir buyum qo‘yilishi kerakkim tokim u aktyor ruhiy yoki jismoniy aloqaga kirishsin* degan teatr qonuniyati bor. Aktyor sahnada ana shunday munosabatlarni yarataolishi kerak .Shuning uchun o‘zi foydalanmoqchi bo‘lgan har bir buyumni yaxshi o‘rgangan bo‘lishi lozim .

Deylik, bir Aktyor sahnaga sanoqli buyumlarnigina chiqaradi va undan har tomonlama unumli foydalanadi.Ikkinchi bir Aktyor esa sahnani buyumlar bilan to‘ldirib tashlaydi, ammo ulardan unumli foydalanishni bilmaydi.YA’ni buyumlar ishtirokchi aktyor bilan ruhiy-jismoniy munosabatga kirishadi.Boshqacha qilib tushintiradigan bo‘lsak, sahnada “jonli va jonsiz” buyumlar paydo bo‘ladi.

Misol uchun, hammamiz yaxshi biladigan va kundalik turmushimizda foydalanadigan oddiy kursi-stulni olib ko‘raylik.Bir qarashda kursi faqat unda o‘tirish uchun mo‘ljallangandek ko‘rinadi.Aslida ham shunday kundalik turmushda undan asosan o‘tirish uchun foydalaniladi.Lekin unda o‘tirgan odam hech bir harakatsiz o‘tirmaydiku.Xatto unda harakatsiz o‘tirgan odam ham dam olishi,orzu-hayolga berilishi,yoki biron muammo ustida bosh qotirishi,biron narsani eslashga urinishi,yoki biron ishga tayyorgarlik ko‘rishi mumkin bo‘lgan ichki harakatni amalga oshiradi.Mazkur harakatlarga monand ichki va tashqi holatlar (kayfiyat) ko‘zga tashlanishi muqarrar.Bu kayfiyat yoki holat uning tashqi ko‘rinishida,gavdasini tutishda o‘z aksini topadi.Ichki ruhiy holatdan kelib chiqib odam kursida har turli shaklda o‘tirishi mumkin.

Masalan:

-stulning bir chekkasida oyoqlarini jipslashtirib,tizzasiga qo‘lini qo‘yib,g‘oz o‘tirishi mumkin.

-kursi suyanchig‘iga butunlay yastanib qo‘llarini ikki tomonga yoyib,oyoqlarni uzatib o‘tirishi

-yuzini kaftlari orasiga olgan holda tizzasiga tirsagini tirab ikki bukilgan holda o‘tirish

miriqib suhbatlashish uchun tufli poshnasini o‘tirgichning chetiga qo‘ygan holda ikkala qo‘li bilan tizzasini quchoqlab olgan holda o‘tirish.

-oyoqlarini uzatib bir-birining ustiga qo‘yib qo‘llarni yozib o‘tirish

-bir oyog‘ini kursi ostiga bukib nimanidir o‘ylash.

-ikkala oyog‘ini kursi tagida bir biriga chalishtirib,qo‘llarini ko‘kragida chalishtirib o‘zini kursi suyanchig‘iga tashlab suxbatdoshi gaplariga istehzo bilan quloq solish.

-kursiga teskari o‘tirgan holda qo‘llarni uning suyanchig‘iga qo‘ygan kuyi suhbatdoshiga kuyinib nimadir tushintish.

-o‘rindan turib bir qo‘li bilan kursi suyanchig‘ini ushlab nimadir uqdirish.

-kursiga bir oyog‘ini qo‘ygan holda o‘zi tik turib biron narsani isbotlashga harakat qilish.

Bu harakatlar insonning birgina kursi yordamida o‘zining ichki xis hayajoni iztirobi va xursandchiligini izxor qilishi mumkinligini isbotlab turipti.
Xuddi shu misoldan kelib chiqib o‘qituvchi talablarga quyidagicha mashg‘ulotni taklif qilishi mumkin.:
-Birgina kursi-stul yordamida turli etyud-mashqlar bajarish.
Bunda kursidan o‘z vazifasi atrofida foydalanish kerak bo‘ladi.Kursidan boshqa buyum sifatida foydalanish mumkin emasligini o‘qituvchi talabalarga avvaldan tushintirishi kerak.Garchand kursi yordamida odamni o‘ldirish,deraza pardasidan kafanlik o‘rnida foydalanish,yastiqni ichiga qimmatbaho buyum yashirish kabi etyudlarni ham bajarish mumukin.Ammo birinchi kurs talablari uchun bunday talab qo‘yish uchun hali vaqt ertalik qiladi.Bunday etyudlarni ikkinchi kursda bajarishlik tavsiya etiladi.Chunki bu vaziyat va shart-sharoitlar talabalar tabiatidan ancha yiroq .Ularni ishonish va ishontirish bir oz murakkabroq.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

***1.“Dinamik lahza”,* “Dinamik rivojlanish”,** “**Muhrlanib qolish**”, “***Ta’sirli mizansahna”*** , ***“Ifodali-plastik mizansahna”*** , ***”Faqat tashqi ko‘rinishga ega namoyishkorona ”, xamda*** “***Buyumlardan foydalanish” kabi unsurlarning misollar tariqasida tushuntirib bering..***

**Tavsiya etiladigan va qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2 - ye. M.Iskusstvo 1978 g.
2.K.
2. S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965Y
3,J.Maxmudov “Aktyorlik asoslari” Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov “Saxna makon kompozitsiyasi” Toshkent -2008y.


8-ma’ruza

## Sahnadagi buyumlar bilan muomila qila olish mahorati

### Darsning o‘quv maqsadi:

Tavsiya etilgan mashqlarni bajarishlikdan ko‘zlangan maqsad,talaba oz miqdordagi buyumlardan ko‘p sonlit harakatlar shaklini mizansahnalarni yarataolishlik salohiyatini tarbilashdan iboratdir.

**Asosiy adabiyotlar savollar:**

**1. Sahnadagi buyumlar bilan muomila qila olish mahoratiga qanday erishmoq mumkin?**

**Ma’ruza matni**

Boshlang‘ich kurslarda Asosiy adabiyotlar diqqat e’tibor turli-tumian , ifodali harakat va mizansahnalar yaratish bo‘lib, bu harakatlar oldinma-ketin mantiqiy tarzda paydo bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xuddi kursi kabi talaba shkafdan,oynadan,derazadan ham turli kayfiyat va ichki holatlarni aks etdirishlikdan foydalanishi mumkin.Shuningdek.bosh kiyim,xassa,choynak-piyola, qoshiq,ketmon,o‘roq,tesha,bolta,arra kabi buyumlardan ham foydalanish tavsiya etiladi.Sahnaga chiqariladigan bunday buyumlar-***rekvizit*** deyiladi.

Bir timsol uchun zarur bo‘lgan xassa, ko‘z oynak,tasbeh,qamchin,guvohnoma kabi buyumlar ***shahsiy rekvizit*** deb ataladi va unday rekvizitlar aktyorning kostyumi bilan birga aktyor kiyimhonasida bo‘ladi.Umumiy foydalanish uchun mo‘ljallangan rekvizitlar sahnaga chiqarib qo‘yiladi.bunday rekvizitlarni ***sahna aksessuari*** ham deyiladi.

Sahna aksessuarlaridan ham sahnada o‘rnida unumli foydalaNilsa ta’sirchan vosita hisoblanadi.Ular yordamida tomoshabinga ko‘p narsalarni so‘zsiz gapirib berish mumkin.

Misol uchun: so‘zlashib turib biron-bir buyum,qurol yordamida ma’lum jismoniy harakat qilayotgan aktyor,qo‘lidagi buyum,qurol yordamida ajoyib harakatlar,ta’sir vositalari topishi mumkin.

Misol uchun uy supirayotgan qiz,onasining o‘zi sevmagan yigitga turmushga bermoqchi bo‘lganiga shu supirgi yordamida o‘z noroziligini tushintirishga,onasining taklifini qabul qilaolmasligi,mutlaqo qarshiligini bildirishi mumkin.Bunda shu oddiy supurgi unga hamfikr sifatida ta’sirli ifoda vositasi bo‘lib hizmat qiladi.Yoki boshqa bir misol.”Boy ila xizmatchi” asaridagi Solih boy bilan G‘ofir o‘rtasidagi munozarada oddiy cho‘t qanday o‘rin egallashini sinab ko‘rish mumkin.Bunday misollarni teatr san’ati tarixidan juda ko‘plab keltirish mumkin.

Vs. Meyerxold A.Ostrovskiyning “O‘rmon” spektaklini sahnalashtirish jarayonida Aksyushaning xarakterini uning qat’iyligi,mardligi,irodasi mustahkamligi,jasurligini yorqinroq namoyon etish uchun Bulanov bilan gaplashish sahnasida unga kirlarni dorga yoyib turib gaplashish vazifasini yuklaydi.Natijada Aksyusha kir yoyar ekan Bulanovga nisbatan munosabatini

uni mensimasligini,qoʻrqmasligini hoʻl kirlarni silkitib,jahl bilan qoqib,beparvo dorga ilgan holda aks etdiradi.

Shu spektaklning boshqa bir sahnasida Aksyusha Gurmijskaya bilan kirlarni yogʻoch toʻqmoqda tekislash bilan birgalikda gaplashadi.Natijada yogʻoch toʻqmoqni gursillashi,uni jahl bilan ishqalash orqali Aksyushaning mehnatsevarligi,bu xonadonda hechkimga boqimanda emasligini aks etdiradi.

Bunday usulni Meyerxold ***“buyumlar bilan oʻynash”***deb ataydi.

Bunday usuldan K.S.Stanislavskiy,YE.B.Vaxtangovlar,M.Uygʻur,Y.Bobojonov,T.Xoʻjayevlar ham unumli foydalanganlar.

Sahnadagi buyumlar bilan muomila qilish mahoratini oshirish uchun quyidagi mashqlarni tavsiya etamiz.

***Aksessuarlar bilan muomila qilish.***

Oʻqituvchi talabaning qoʻliga bironta buyumni berib, undan qanday oʻrinlarda foydalanish mumkinligini yaxshilab oʻrganib chiqishlikni, soʻngra shu buyum bilan bogʻlangan biron-bir etyud tayyorlab namoyish etishlikni tavsiya etadi.

Misol uchun oddiygina ayollar oʻraydigan roʻmolni olib koʻraylik.

Ikki sevishgan, ilk uchrashuvga chiqqan oydin kechada, shu roʻmol orqali qanchadan qancha dil izhori,iztiroblarni,sharm-hayo,uyat va andishani,nafrat va muhabbatni aks etdirish mumkin.

Qiz yuzini roʻmol bilan nim toʻsish orqali sharm-hayosini koʻrsatadi...roʻmolining uchini oʻynab boshini eggan holda yer chizishi ikkilanayotganligini bildiradi...roʻmolini varrak qilib uchirmoqchi boʻlib boshi uzra hilpiratishi baxtiyorligini bildiradi.Roʻmolini jahl bilan boshiga oʻrab peshonasidan yoki tomogʻidan tez bogʻlashi achchiqlanganligini bildiradi va x.k.z.l.

Oʻqituvchi shuningdek talabaga gugurt,sigareta,pol latta,qoshiq,choynak piyola kabi aksessuarlarni ham berib ular bilan munosabatga kirishishlikni vazifa qilib yuklashi ham mumkin. Bunday mashqlarni darsxonada shuningdek uyda mustaqil ravishda muntazam ravishda bajarib borish kerak.

Darsxonada oʻtqaziladigan mashqlarni,bir necha ishtirokchi bilan kichik voqeaga bogʻlangan holda diqqat markazida sahna aksessuri ishtirokida etyud oʻylab topish orqali bajarish mumkin.

Lekin buyum bilan oʻynash faqat buyumni oʻynatish mahoratini namoyish etishga oʻtib ketmasligini alohida ta’kidlab oʻtmoqchimiz.Sahnadagi aksessuar aktyorning ichki xis-tuygʻusini, kechinmalarini quvonch-iztirobini yorqinroq, ta’sirliroq aks etdirishga koʻmaklashishi Asosiy adabiyotlar maqsad boʻlishi shart.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

***1.Rekvizit, shahsiy rekvizit, sahna aksessuari***, ***“buyumlar bilan oʻynash”*** , ***aksessuarlar bilan muomila qilish – deb nimaga aytamiz?.***

**Tavsiya etiladigan va qo'shimcha adabiyotlar:**

1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2-ye. M. Iskusstvo.1978g.
2.K. S. Stanislavskiy «Aktyor o'z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965y.
3.J.Maxmudov "Aktyorlik asoslari" Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov "Saxna makon kompozitsiyasi" Toshkent -2008y.

9-ma'ruza

***Mashq va etyudlarda janr***

**Darsning o'quv maqsadi:**

Tavsiya etilgan mashqlar o'quvchilarni turli janrlarning o'ziga hos qonunlari va ijrochilik yo'llarini amalda sinab ko'rish, har bir o'quvchida janrni his etish tuyg'ularini tarbiyalash,har bir janrda ijro etiladigan rol uchun aktyorga to'g'ri xissiyotlarni topishlikda ko'maklashish,mazkur janrga xos bo'lgan xususiyat va sifatlarni o'z vaqtida aktyorga aytib turish,janrga mos sifat va xususiyatlarni tanlash,tanlangan janr badiiyligini oshirish, yanada ta'sirli bo'lishiga yordamlashishdan iboratdir.

**Asosiy adabiyotlar savollar:**

1. Mashq va etyudlardagi janrni qanday aniqlash mumkin?

**<u>Ma'ruza matni</u>**

O'qituvchi talabalga ikki-to'rt jumladan iborat so'z tavsiya etadi.Bu jumlalardan ikki kishi foydalangan holda kichik etyud o'ylab topishi kerak bo'ladi.

Etyudda taklif etilgan jumlalardan turli janrlarda,turlicha foydalanish kerak bo'ladi.

YA'ni:

**1.maishiy drama**
**2.komediya janri**
**3.vodevil-musiqiy komediya**
**4.tragediya-fojea janri.**

Talabaga shunday jumlalar taklif etiladi:

Yigit-*Men sizni sevaman*

Qiz-*Yolg'on,siz meni sevmaysiz...*

Talaba o'zi tanlagan qiz bilan shunday bir etyudni o'ylab topishi kerakki mazkur shart-sharoitda ,janrdan kelib chiqib berilgan jumlalarni gapirsin.Janrdan kelib chiqib sharoit o'zgarmasligi ham mumkin.

Shekspirning "Romeo va Djuletta" asarida ikki sevishganlarning qovushishlariga to'sqinlik qilgan narsa ikki oila o'rtasidagi o'z aro dushmalikdir.Shekspir o'z

fojeaviy asarini shu asosga quradi.Ayni xuddi shunday vaziyat komediya uchun ham asos bo‘lishi mumkin.

Bu yerda masala sharoitdan ham ko‘ra teatr va Aktyor aktyorlarning berilgan mavzuga qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liq.Agar p’saning janriga nisbatan unda aks etdirilgan hayotga teatrning munosabati o‘zgacha bo‘lsa spektakl bilan pesa o‘rtasida janr o‘zgarishi ro‘y berishi mumkin.

O‘zbek miliiy teatri tarixida bunday holatlar kam uchrasa-da,lekin rus teatri tarixida bunday holatlar tez-tez uchrab turadi.

Misol uchun taniqli Aktyor N.P.Akimov ijodining dastlabki yillarida Yevg.B.Vaxtangov teatrida Shekspirning “Gamlet” fojeasini komediya janrida talqin etgan edi.

Gap bu yerda pesaning to‘qimasi,shart-sharoitida emas ekan.Eng muhimi pesada aks etdirilayotgan voqea va xodisalarga teatr va ijodiy jamoaning yondoshuvi munosabatidir.

Misol tariqasida Xamzaning “Maysaraning ishi” komediyasini dramatik janrda talqin qilish yoki SH.Boshbekovning “Temir xotin” komediyasini drama janrida talqin etish mumkin.

Odatda “aktyor”deganimizda ko‘pchilik rol ijro etuvchi deya tushunadi.Aslida bu juda ham to‘g‘ri emas.Aktyor sahnada ikki ko‘rinishda harakat qiladi.

YA’ni:

**Aktyor-yaratuvchi**

**Aktyor-timsol (obraz)**

Aktyor –yaratuvchi,o‘z yurtining fuqarosi sifatida,ijodkor shaxs sifatida,fikrlovchi inson sifatida xayotda ro‘y berayotgan voqealarni kuzatar ekan unga munosabat bildiradi,hamdard bo‘ladi.

Aktyor-timsol sifatida obraz qiyofasida qahramonning munosabatlari bilan yashaydi uning fikri va maqsadi bilan harakat qiladi.

Masalan K.Yashinning “Nurxon” spektaklida Nurxonning otasi rolini ijro etgan Anvar Yusupov, ***Xojining xatti-xarakatlaridan g‘azablanaman Nurxonning onasiga rahmim keladi*** “degan edilar.

Aktyor-yaratuvchi sifatida rahm shafqatli bo‘lishi,oddiy insonlarga xos hamdardlik munosabatida bo‘lishi,beozor kulgi yoki zaxarxanda kulgi bilan qarashi,g‘azabnak bo‘lishi,yoki butunlay undan hazar qilishi,fahrlanishi yoki nafratlanishi,qaxri kelishi yoki mazah qilishi, qo‘yingchi, bu yerda turli-tuman munosabatlar bildirishi mumkin.Ammo ikkala munosabat ham ijodkor aktyor va yaratuvchi aktyor bir-biridan ajralmagan holda yonma-yon harakatda bo‘ladi.Ikkala munosabat bir-birini to‘ldirgan holda bir-biriga ta’sir o‘tkazish orqali bir butun yaxlit , janrga munosabatni hamda ijro usulini vujudga keltiradi. Albatta komediya bilan fojea janrini bir hil shaklda ijro etib bo‘lmaydi.Har bir janr uchun aktyorning alohida ijrochilik usuli,ichki va tashqi a’zolari shu janrga mos ravishda sozlangan bo‘lishi zarur.Hammaga ma’lumki berilgan shart-sharoit va rolga sahnadagidek emas hayotda qanday to‘qnash kelsa xuddi shunday

munosabat bildirmog‘i lozim. Xuddi mana shu jarayonda aktyorning “***agarda”***(K.S.Stanislavskiy) degan vaziyatni tasavvur qilaolishi ya’ni to‘qib chiqarilgan shart-sharoitga qanchalik ishonish va ishonmasligi namoyon bo‘ladi.Aktyorning xaqiqiy ijodkor ekanligi, layoqati qobiliyati va mahorati ayon bo‘ladi.Biroq aktyorning bu layoqati,qobiliyati turli janrlarda turlicha bo‘yoqlarda aks etadi.Komediya janridagi *jiddiylik*,tragediya janridagi *jiddiylikdan* farq qiladi.Yaratuvchi aktyorning ham sahnada ro‘y berayotgan voqealarga,shuningdek o‘zi yaratayotgan obrazga munosabati o‘zini sahnada qanday tutishi berilgan spektaklning janridan kelib chiqib turlicha bo‘yoqlarda aks etishi mumkin.

Har bir janrning o‘zga xos ichki hissiyoti bo‘ladi.Ana shu ichki hissiyotsiz komediyani ham fojeani ham o‘ynash mumkin emas.

To‘g‘ri komediya janriga aktyor o‘ta jiddiy yondoshmog‘i zarur ammo shu ijro etilayotgan rolga aktyorning shaxs sifatida o‘z munosabati, ichki kulgisi ham bo‘lishi kerak.Buni baland dor ustidagi dorbozning o‘yiniga muqoyasa qilish mumkin.U.baland dor ustidan turib pastdagi tomoshabinlarni har turli o‘yinlar bilan hayajonga solishi, vahima qo‘zg‘atishi,o‘zini go‘yo hozir qulab tushadiganday qilib ko‘rsatishi,shu bilan birga bir vaqtning o‘zida tomoshabinlarni kuzatishi har bir bosayotgan qadamini o‘ylashi,harakatlarini hisobga olib dor ustidagi muvozanatini ushlab turishi kerak bo‘ladi.

Shuningdek drama va tragediya-fojeaviy spektakldа o‘ynayotgan aktyor o‘zini mutlaqo boshqacha his etishi lozim.O‘zi aks etdirayotgan qahramonning ichki iztiroblari,his-xayajoniga hamdard bo‘lishi, rahmi kelishi mumkin.U sahnada ko‘z yoshi to‘kar ekan,qahramonning ko‘z yoshi bilan ijrochi aktyorning ko‘z yoshini bir-biridan ajratish mumkin emas.Ijrochining ham yaratuvchining ham his-xayajoni,armon va quvonchlari bir-biri bilan qorishib, bir butun yaxlit qahramon qiyofasida namoyon bo‘ladi,ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.Tajribali aktyorlar har bir spektaklda sahnaga chiqishdan oldin o‘zlarini shu rolga tayyorlaydilar.

Masalan ,mashhur tragik aktyor Abror Hidoyatov “Otello” spektakli o‘ynaladigan kun teatrga ,garchand spektakl kech soat sakkizda boshlanishiga qaramay,soat uch-to‘rtdanoq teatrga kelar va o‘z roli to‘g‘risida o‘ylar shu bilan birga asar qahramoni qiyofasiga kirish, rolning ruhiy kayfiyatini his etish uchun harakat qilar edi.Teatr hodimlari, asar ishtirokchilari bilan spektakl boshlanishidan oldin Otello qiyofasida suhbatlashar,hazil-mutoyiba qilar edi.Xuddi shunday Shukur Burhonov ham har spektaklga asar boshlanishidan kamida uch soat oldin kelar va tayorgarlik ko‘rar teatr xodimlari bilan bugun o‘zi ijro etishi kerak bo‘lgan qahramon qiyofasiga kirib suhbatlashar edi.

Aktyorni har janrning o‘zidan kelib chiqib ruhiy va hissiy tayorgarlik ko‘rishda Aktyordan ko‘ra boshqa hechkim to‘g‘ri va samarali yordam beraolmaydi.Shu maqsadda aktyorga kerakli bo‘yoqlarni topishda.his-tuyg‘ularni janrga mos tarzda qo‘zg‘atishda,aktyor qahramonning dunyosiga kirib borishiga, berilgan shart-sharoitda qanday hatti-harakatlardan foydalanish,janr qonunlari asosida maqsad

sari intilishda Aktyordan ko‘ra boshqa odam aktyorni to‘g‘ri yo‘l sari yetaklab boraolmaydi .

Aktyorni rolga tayyorlashda Aktyor ikki tomonlama harakat qiladi.Ichki va tashqi ta’sir vositalarini topishda aktyorga yordam berishi mumkin.

Mazkur janrga tegishli ranglar va bo‘yoqlarni aktyorga uqdirish orqali uning his-tuyg‘usiga ta’sir o‘tqazadi.O‘z navbatida his-tuyg‘usiga ta’sir o‘tqazish orqali,aktyorning sahnaviy hatti-xarakati uchun turli moslamalarni topishiga ko‘maklashadi.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

**1.Maishiy komediya ,drama, vodevil-musiqiy komediya, tragediya-fojea, kabi janrlarni tavsiflab bering.**

**Tavsiya etiladigan va qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2 - ye. M.Iskusstvo 1978 g.
2.K.
2. S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965Y
3,J.Maxmudov “Aktyorlik asoslari” Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov “Saxna makon kompozitsiyasi” Toshkent -2008y.


10 –ma’ruza

***So‘zsiz xatti-harakat***

**Darsning o‘quv maqsadi:**

Mazkur mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad,bo‘lg‘uvsi Aktyorlarda ba’zi spektakllarning ayrim ko‘rinishlarida ro‘y berdigan xodisalarga nisbatan qahramonlarning munosabatini anglatuvchi mizansahlar yaratishlik salohiyatini o‘stirishdan iboratdir.

**Asosiy adabiyotlar savollar:**

**Ma’ruza matni**

Kundalik turmushimizda goho ***ko‘rib qotib qoldi,eshitib qotib*** qoldi degan so‘zlarni eshitib qolamiz.YA’ni biron xodisa yoki so‘z ta’sirida hayajonning eng yuqori holati nazarda tutiladi.Bunda miyya qobig‘ida qabul qilish ro‘y beradi,mushohada yuritib biron qaror qabul qilish uchun bir muddat to‘xtab qoladi.

Aktyor har bir pesani tahlil etish jarayonida katta -kichik voqea, voqeachalar mavjudligini ko‘radi.Odatda katta voqealar pesadagi uzluksiz harakatning burilish nuqtasi hisoblanadi.Shunday katta voqelar asar ishtiroqichisi uchun kutilmagan xodisa bo‘lsa, qahramonning hissiyotiga so‘zsiz kuchli ta’sir o‘tkazadi.Goho bunday xodisalar qotib qolishga yoki asablar taranglashuviga sababchi bo‘ladi.Bunday xodisalarni qabul qilgandan so‘ng to qahramon o‘ziga kelguncha ma’lum muddat o‘tishi tabiiydir.So‘zsiz sahna (pauza)yoki harakat, shu sifatda to‘xtab qoladi. Lol qolib, qo‘l oyoq bo‘shashishi jonsiz bo‘lib qolishi shundandir.Xodisa qanchalik kuchli ta’sir etishiga qarab ***qotib qolish*** yoki ***harakatdan to‘xtab qolish*** shunchalik cho‘zilishi mumkin.

Misol tariqasida N.V.Gogolning “Revizor” pesasidagi so‘zsiz sahna (nemaya ssena) muallif tomonidan mahorat bilan ishlab chiqilganligining yorqin isbotidir.

Deyarlik har bir pesada ana shunday ***so‘zsiz to‘xtam*** joylarini istalgancha topish mumkin.

Bunday vaziyatlarda Aktyor, kerakli to‘xtamlarni topib ular ustida ishlashni bir necha bosqichda olib borishi kerak.

Sahnada ana shunday ***qotib, angrayib,tashqi harakatdan to‘xtab qolish*** kabi mizansahnalarni yarataolishlik Aktyor salohiyati va iqtidorining bir belgisi ekangligini e’tirof etgan holda, mashg‘ulotlarni etyud shaklida o‘tkazishlik maqsadga muvofiqdir.

***A). Kutilmagan xodisa ro‘y berishi mumkin bo‘lgan mizansahnani oldindan tayyorlash;***

***B).Ishtirokchilarni ana shunday kutilmagan xodisalarga ruhiy jismoniy,ovozli munosabatini topish va tashkillashtirish(harakat,baqiriq,qichqirish,xayqirish,qotib qolish,ko‘p nuqtali pauza)***

***V).Bo‘lib o‘tgan hodisani qabul qilib,tafakkurdan o‘tqazib, munosabat bildirish uchun qotib, qimir etmay turib qolishning muddati (pauza-to‘xtam)***

***G).Qotib to‘xtab qolishdan keyingi, xatti-harakat qanday davom etdirilishi (keyingi harkatga o‘tishni topish)***

Mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad,talaba pesa tanlab undan ishtirokchilarning hayotida muhim o‘rin egallaydigan axborot yoki xodisani qanday qabul qilishi va unga munosabat bildirishi kerak bo‘lgan ko‘rinish-voqeacha aniqladi.

Aktyor-talaba ***keskin vaziyat*** ga etyud topganidan so‘ng kursdoshlari orasidan ijrochilar tanlanaydi. O‘zi tasavvur qilgan ko‘rinishni ijrochilar bilan ***amalga oshirishga harakat qilish zarur.***

Mazkur mashq-etyudni bajarish jarayonida Aktyor-talaba har bir ishtirokchi bilan talqin etmoqchi bo‘lgan timsol taqdirida mazkur xodisa- axborot qanday o‘rin egallashi va uning ta’sir kuchi alohida-alohida holda ishlanadi.Shundan keyin barcha ijrochilar birgalikda so‘zsiz sahnani aks etdirishlari lozim bo‘ladi.Bu yerda eng muhim masala, so‘zsiz sahnani shunchalik mexanik tarzda aks etdiribgina

qolmay,tabiiy tarzda qaxramonning ichki dunyosiga qanchalik ta’sir o‘tkazganlini namoyish etaolishlikdan iborat bo‘lmog‘i lozim.Aktyor-talabalar oldiga qo‘yilgan vazifa ayni shu maqsadni ko‘zlaydi.

Talabalar yuqorida keltirilgan mashqlarni qanchalik ko‘p ishlasalar,undan to‘g‘ri xulosa chiqarishga odatlansalar shunchalik tajribalari ortadi, bu esa keyingi ijodiy hayotlarida o‘z samarasini ko‘rsatadi.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

1. **Aktyorlarda *“aktyorlik mahorati”*ni o‘stirish uchun yangi mashqlar topib keling.**

**Tavsiya etiladigan va qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Izd. 2 - ye. M.Iskusstvo,1978g.
2. S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi» Toshkent badiiy adabiyot nashryoti 1965Y
3,J.Maxmudov “Aktyorlik asoslari” Toshkent -2009y.
4.J.Maxmudov “Saxna makon kompozitsiyasi” Toshkent -2008y.

**Texnologik xarita**
**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**
**Mavzu: Badiiy adabiyotlar bo‘yicha parcha ustida ishlash.**
**Aktyor tarbiyasining asosiy tamoyillari.**

<table>
<tr><th colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</th></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br>Badiiy saviyani tarbiyalash, .adabiy parcha ustida ishlashni o‘rgatish<br>.</td><td colspan="4">Vazifalar<br>Adabiy asar tanlash va u bilan tanishib chiqish, ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, talabalar bilan taxlil o‘tkazish, ya’ni - voqealar tizimi, oliy maqsad, g‘oya, yetakchi xatti xarakat, shart-sharoitlarni , qaxramon oliy maqsadini aniqlash...</td></tr>
<tr><th colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</th></tr>
<tr><td colspan="6">Adabiy parcha haqida umumiy tushuncha, asarlardan adabiy parcha izlash tizimi, parcha tanlash va ustida ishlash jarayoni. Berilgan shart-sharoitda “Agarda men” tamoyiliga asoslanib ishlash Improvizasiyaga parchani etyud usulida ishlash.</td></tr>
<tr><th colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</th></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum, interaktiv uslub</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><th colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</th></tr>
</table>

| O‘qituvchi | Talaba |
|---|---|
| - talabaning o‘zida bo‘lgan ichki layoqatini ochish<br>- darsning samaradorligini oshirish<br>- adabiy asar bilan ishlash jarayonida parchani to‘g‘ri taxlil qilishga erishish<br>- talaba organik xatti-xarakat qilishiga erishish<br>- darsni qiziqarli bo‘lishi uchun talabalarga mashqlar orqali tushuntirish. | - yangi badiiy adabiyotlar o‘qish<br>- pedagog berayotgan bilmni o‘zlashtirish<br>- tanlangan asarlarni kurs oldida to‘g‘ri taxlil qila olish.<br>- “Men berilgan shart-sharoitda” tamoyilini amaliy o‘zlashtirish.<br>- 2-kurs dasturidagi mavzularni mukammal o‘zlashtirish.<br>- turli janr va uslublarda rol ijro etish;<br>- rol ustida mustaqil ravishda ishlash;<br>- spektakl va kinoda organik xatti-xarakat ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.<br>- |
| **KELGUSI REJALAR** | |
| O‘qituvchi | Talaba |
| - ijodiy izlanish<br>- adabiy janrlarning murakkab turlarini o‘rganish<br>- talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish | - mustaqil ishlarni faollashtirish<br>.<br>- keyingi ijodiy ishlarni rejalashtirish<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash |

## MA’RUZA MATN

### 1-ma’ruza

### Aktyor tarbiyasini asosiy tomoyillari

**Darsning o‘quv maqsadi:**

Talabani ijodkor shahs sifatida shakllantirish va uning ichki layoqatini yuzaga chiqarish.

**Asosiy savollar:**

1. Aktyor tarbiyasidagi umumiy qoidalar nimadan iborat?.
2. Badiiy saviyani tarbiyalashda nimaga e’tiborni qaratmoq lozim? .
3. Estetik tarbiya nima?

Har bir san’at bilim yurti oldida, talabalar tarbiyasiga qaratilgan ikki muhim vazifa mavjuddir.

***Birinchi vazifa:*** bo‘lajak ijodkorni siyosiy-g‘oyaviy intizomiy, ma’naviy-mafkuraviy tarbiyasi. (Dunyoqarashni shakllantirish, ijodiy lazzat lahzalari, ma’naviy qiyofa va h.k.)

***Ikkinchi vazifa:*** professional tarbiya vositasida, talaba ongida, ijodkor shahs tuyg‘usini shakllantirish.Aktyorlik mahorati yuzasidan o‘tkaziladigan imtihon, mohiyatan, boshqa yo‘ldosh fan uchun ham imtihon hisoblanadi.

Chunki talaba, badiiy siymo yaratish jarayonida har tomonlama o‘z imkoniyatlarini namoyish etadi.

Afsuski, o‘quv jarayonida talabalar nazariy darslarga jiddiy e’tibor bermaydilar. Bunday ahvolni paydo bo‘lishiga so‘zsiz mahorat o‘qituvchilari sababchidir. Chunki, amalliy mashg‘ulotlar vaqtida ular nazariy bilimlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini talabalarga tushintirabilmaydilar. Nazariy fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar esa o‘z navbatida, nazariyani amalliyot bilan chambarchas bilim ekanligini o‘z tinglovchilarga yetkazaolmaydilar. Ko‘p yillik teatr san’ati tajribasidan shu narsa ayon bo‘ladiki, aktyorning tashqi qiyofasiga mos tushgan rol o‘rtacha ijrodan yuqori ko‘tarilmaydi.

Buning sababi nima ekan?

Ma’lum bo‘lishicha, sahnada ijodiy-g‘oyaviy fikrni tomoshabinga yetkaza olish uchun, qobiliyatli aktyor bo‘lishdan tashqari, ma’naviy-mafkuraviy jihatdan yetuk, har tomonlama professional, tayyorgarlik ko‘rgan va shakllangan shahs bo‘lish kerak ekan.

Negaki, ijodiy-g‘oyaviy fikrni o‘zida tajassum etishdan oldin, o‘sha fikr ijodkor ongida paydo bo‘lishi, tafakkur ko‘zgusidan o‘tishi, so‘ngra siymo qiyofasida namoyon etishi kerak.

Bunday vazifani ado etish uchun esa, tashqi qiyofaning o‘zigina kifoya qilmay, bu darajadagi tafakkur ham zarurdir.

Bo‘lg‘uvsi aktyorlarga ta’lim – berish jarayoni, ikki qutbdan, bir-biri tomon intilayotgan: amaliy va nazariy bilim beruvchi o‘qituvchilarining o‘z talabalariga, ijodiy jarayon kechadigan sahna maydonida, har ikki bilimning uchrashishi uchun zamin yaratishlari zarur bo‘ladi.

Aynan, bo‘lg‘uvsi aktyorlarning ijodiy izlanishlari jarayonida, hozirgi zamon siyosiy-g‘oyaviy bilimlari, Mustaqillik davrida jamiyat hayotida, insonlar ongida ro‘y berayotgan ruhiy va mafkuraviy o‘zgarishlarni, har bir talaba anglashi, his qilishi, muhim ahamiyatga ega.

«Dunyo jihodgardir», - degan edi ulug‘ mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy.

Bugungi Mustaqil Respublikamizda, milliy g‘oyalar bilan ozuqlangan yangi aktyorlar sulolasi paydo bo‘lmoqda va bo‘ladi. Ozod mamlakatning ozod fuqarosi, vatanparvar davlat arboblari darajasidagi san’atkorlarni tarbiyalab yetishtirib chiqarish, san’at oliygohlari o‘qituvchilarining, Vatan oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi va ta’lim-tarbiyaning asosiy mezoni hisoblanadi.

Bu muqaddas vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa, amaliy va nazariy bilimlarni, mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotida, millatimiz ongida

ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni, san’atkorlar ijrosi orqali tomoshabinga yetkazish, birinchi galdagi vazifalardan hisoblanadi. ´zbekiston qahramoni ´zbekiston Xalq artisti Zikir Muhammadjonov shunday yozadi: «Respublikamiz o‘z mustaqilligiga ega bo‘lganiga 12 yildan oshdi. Shu qisqa muddatda misli ko‘rilmagan yutuklar yuzaga keldiki, ularni faqat odamlar yuzaga keltirayapti. Barcha sohalarda yangi-yangi ajoyib qahramonlar dovrug‘ qozonmoqda. Shunday qahramonlarimiz borki, ularga sahna to‘ridan o‘rin berib, ko‘z-ko‘z qilish vazifamizdir» .

## Badiiy saviyani tarbiyalash.

Teatr maktabining asosiy va muxim vazifalaridan biri, talabalarning badiiy saviyasini shakllantirishdan iboratdir.

Har bir insonning badiiy saviyasi ahloq odobi, ma’naviy qiyofasi, badiiy - g‘oyaviy tamoyillardan hosil bo‘ladi. Ammo, birgina ahloq-odobning o‘zi, shahsning «badiiy saviyasi» yuksakligidan dalolat bermaydi. Ayrim hollarda, badiiy saviya ahloq – odob mezonlaridan ortda qolgan bo‘lishi ham mumkin. Ba’zan teatrshunoslar, badiiy asarni, a’lo darajada tahlil etgan holda, shu asarda tasvirlangan qahramonlarning, badiiy saviyasini tahlil etishda ojizlik qiladilar. Chunki bunday teatrshunoslarning estetik dunyoqarashi, ularning xayot mazmuniga aylanib, qon-qoniga singib ketmaganligining belgisidir.

Aksariyat hollarda, badiiy jihatdan bo‘sh, g‘oyaviy noto‘g‘ri talqin etilgan pesa, dastlabki tanishuv vaqtida, ijobiy baholanadi. Lekin uni sahnalashtirish jarayonida, asarning barcha illatlari ayon bo‘lib, badiiy to‘qimalar chok-chokidan so‘kilib ketadi. Natijada ijodkorlar, shunday bo‘sh asarga qanday qo‘l urganlariga o‘zlari hayron bo‘lishadi. Yoki buning aksini ko‘rish mumkin. Dastlabki tanishuvda bo‘sh bo‘lib ko‘ringan pesa, sahnalashitirish jarayonida, ijodiy jamoani o‘ziga maftun etadi va bu asar mavsumning eng yaxshi spektakli sifatida e’tirof etiladi.

Shuning uchun, pesa bilan dastlabki tanishuv, ko‘p hollarda yuzaki, yanglish ta’surot qoldirishi mumkin.

***Sabab:*** badiiy saviyaning ojizligidir.

Demak, badiiy saviya, ijodiy dunyoqarash bilan xamohang qadam tashlamog‘i kerak ekan. Buning uchun o‘qish, mashq qilish va o‘qish kerak. Bo‘lg‘uvsi aktyorlarda, badiiy did va saviyani o‘stirishda o‘qituvchilar ihtiyorida, rag‘batlantirish, hamda tanbex berish kabi vositalar mavjud.

Har ikkala vosita ham nozik va o‘tkir qurol bo‘lib, undan unumli foydalanish o‘qituvchidan sezgirlik, fahm-farosat, ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu quroldan o‘z o‘rnida, sezgirlik bilan foydalanaolmaslik talabalarni ijodiy nogironlikka olib kelishi mumkin.

Misol uchun «aktyorlik mahorati» mashg‘uloti vaqtida, talabaga qarata «Sizning hozirgi ijroingiz hayotiy haqiqatga zid bo‘lsa-da, texnik jihatdan qoyilmaqom qilib o‘ynadingiz», - deyishi mumkin. Turgan gap, bunday o‘rinsiz maqtashni, talaba uchun foydadan ko‘ra, ziyoni ko‘proq bo‘ladi. Talaba o‘zicha

shunday hulosa kelishi mumkin: garchand domla, xatti-harakatimdan ko‘ngli to‘lmagan bo‘lsa, ham mahoratimga tan berdi».

Demak, talaba o‘zi uchun «to‘g‘ri ekan» deya qabul qilib noto‘g‘ri yo‘ldan ortga qaytmaydi.

Teatr san’atidagi eng muhim narsa bu iqtidor, texnika va layoqatdir degan tabiiy hulosa, talaba uchun dasturi amal bo‘lib qoladi. Agar sahna san’atida, haqiqat, mezon buzilsa, boshqa fazilatlarni, qidirishning hojati yo‘q. Haqiqat yo‘qolgan joyda, barcha fazilatlar, sariq chaqachilik qiymatiga ega emas.

Boshqa bir holatda esa, domla talaba ijrosidagi haqiqatnamo arzimagan harakatni ko‘rib, «hayotiy haqiqatga yaqin», deya baholasa va qoniqish hosil qilsa, talaba *«sahna haqiqati bilan hayotiy haqiqat bir - biriga zid ekanda», degan xulosa chiqarishi ham mumkin*.

Teatr bilim yurtida bo‘lib o‘tgan bir imtihondagi voqea fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin:

I kurs talbalari quyidagicha etyud namoyish etishadi. «´zlari yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan imtihondan qutilib qolish uchun, o‘z betobliklarini bahona qilib, «tez yordam» chaqirishadi. Birinchi talaba o‘zini «betob» ekanligiga shifokorni ishontiradi. Ikkinchi talaba, shifokor tomonidan, kasallik to‘g‘risidagi ma’lumotnoma qog‘ozini o‘g‘irlaydi va uni o‘zi to‘ldiradi. Ular o‘ylab topgan hiylalaridan hursand bo‘lib, sakrashadi.

Mazkur etyud, hajviy janrda emas, hayotiylik tarzida talqin etiladi. Mahorat o‘qituvchisi esa, talabalarning yaxshi ijrosini inobatga olib «ko‘rik imtihoniga» tavsiya etadi.

Natijada, badiiy haqiqat bilan hayotiy haqiqat o‘rtasida tafovut paydo bo‘lgan. Bunday hol o‘z navbatida, tarbiyada muhim o‘rin tutgan g‘oyaviy dunyoqarash, ma’naviy va mafkuraviy tarbiyaga salbiy ta’sir o‘tkazishni o‘qituvchi inobatga olmagan.

Yuqorida keltirilgan misoldan shunday xulosa yasash mumkin. Talaba tomonidan bajarilgan har bir ijodiy ishga baho berish vaqtida, ijrodagi aks ettirilgan voqea mohiyatini, uning g‘oyaviy yo‘nalishi, haqiqat mezonlariga munosibligi, har tomonlama mushohada qilib ko‘rilganidan keyingina, ijroning tashqi texnik jihatlariga baho berish kerak ekan.

Toki talaba, o‘z ijodiy mehnati samarasiga befarq bo‘lmasligi birinchi navbatda, bajargan ijodiy ishining *badiiy-g‘oyaviy yo‘nalishi, mohiyati, hayotiyligi,* so‘ngra to‘ldiruvchi sifatida, uning texnik jihatlari baxolanishini muntazam his qilib tursin.

´qituvchi talabaning ijodiy ishini tahlil qilar ekan, dastavval uning *mazmun-mohiyati,* «g‘oyaviy talqiniga» asosiy e’tiborini qaratishi zarur. So‘ngra, aks ettirilgan voqeaning tashqi ko‘rinishi, shakli, mahorati darajasiga sinchkovlik bilan yondoshuvi, xatti-harakat jarayonida yo‘l qo‘yilgan, har bir kichik nuqson ham uning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Kamchiliklar birma-bir ko‘rsatilib, ularni sababi aniqlanib, bartaraf etishda, yo‘l-yo‘riq berilishi kerak.

## <u>Estetik tarbiya intizomi.</u>

Aktyorning ahloq va odob sohasidagi tarbiyasi, bir tomondan teatr san'atining o'ziga hos tomonlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan aktyorning o'zi tanlagan soha taqazosiga ko'ra, g'oyaviy kurash jabhasining jangchisi sifatida, uzluksiz davom etayotgan g'oyaviy kurashning oldingi safida ekanligiga bog'liqdir. Akter-g'oyaviy jabha kurashchisi sifatida, mustaqil Respublikamiz manfaatlarini himoya qilishi, millat va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur anglagan bo'lishi kerak.

Teatr san'ati yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan har bir inson, shu yurtning farzandi sifatida, tomoshabin, teatr jamoasi, pesa muallifi, sahnadagi hamrohi (partnyor) va nihoyat o'z vijdoni oldidagi mas'uliyatini chuqur anglagan holda zimmasidagi sharafli vazifani his etishi shart.

Teatr san'atida uchraydigan illatlarni murg'aklik holatidayoq, bartaraf etishga qodir aktyor, san'atning murakkab bu sohasiga o'z umrini baxshida qilsa arziydi. Madomiki, inson teatr deb atalmish bu sehrli va sirli olamga bo'sag'asiga qadam ko'yar ekan, o'zida mavjud barcha illatlarni tashqarida qoldirib, ichkariga kirishi kerak. Aktyorning ichki va tashqi holatidan, teatrga aloqasi bo'lmagan sifatlarni topib bo'lmaslik kerak. Chunki aktyordagi barcha insoniy hislatlarga o'rgatishi kerak. YA'ni tarbiyachi, o'zining kuchli irodasi, emosional ta'siri ostida, har bir talabadan ijodiy jamoa tuza bilishi lozim. O'z talablarini bir g'oya, bir maslak yo'lida, ortidan ergashtira bilgan tarbiyachi, ijodiy jamoa orasida, ijodiy muhitda, har bir talaba yengil nafas olsin, mehr-oqibatni, samimiylikni his etsin. Natijada har bir salohiyat egasi, o'z imkoni, qobiliyati, mahoratini oshirishga, imkoniyatlarini kengaytirishga, intilsin.

### Nazorat savol va topshiriqlar:

**1.** «Badiiy saviya» - tushunchasi haqida gapirib bering.

**2.** Estetik tarbiyaning san'atga bog'liqligi.?

### Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. K.S.Stanislavskiy "Aktyor o'z ustida ishlashi"
2. B. Zaxava «Masterstvo aktera i rejissura» J. Maxmudov tarjimasi

## 2-Drama va kino aktyorligi kursida "Aktyorlik maxorati" fani
## Mavzu: Rol ustida ishlash

| MAQSAD VA VAZIFALARI |
|---|

<table>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br>Aktyorni rol ustida mustaqil ishlashga o‘rgatishdan iboratdir.</td><td colspan="4">Vazifalar<br>Teatr maktabining vazifasi talabalarni ijodiy izlanishga o‘rgatishdan iboratdir<br>Mashqlar va etyudlar orqali parcha ustida ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</td></tr>
<tr><td colspan="6">Rol ustida ishlash haqida umumiy tushuncha. Rol ustida ishlashda ijodiy usullardan foydalanish. Muallif tomonidan berilgan shart-sharoit doiralarni xatti-xarakatlar orqali o‘zlashtirish.</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</td></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><td colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- izlanishlar orqali rol ustida ishlashga qiziqishini orttirish.<br>-ijodiy izlanishlar jarayonining natijasida siymo qiyfasi jonlanishi xaqida talaba bilimini oshirish.<br>-talabalarni ijodning barcha usullari bilan qurollantirish.<br>-talabalar bilan uch - to‘rt rollar ustida birgalikda ijodiy izlanish usullarini Satnislavskiy ta’limoti asosida olib borish.</td><td colspan="3">-pedagog berayotgan bugungi kun mavzusini puxta egallashi;<br>- talabalar bir necha siymolar yaratishga muvaffaq bo‘lishi;<br>-keyinchalik professional sahnada ishonch bilan ishlab ketishi<br>- aktyorlik mahorati darslari davomida, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim va tajriba orttirishi.</td></tr>
<tr><td colspan="6">KELGUSI REJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- ijodiy izlanish<br>- adabiy janrlarning murakkab turlarini o‘rganish<br>- talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish</td><td colspan="3">- mustaqil ishlarni faollashtirish .keyingi ijodiy ishlarni rejalashtirish<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash</td></tr>
</table>

## 2–ma’ruza
## <u>Rol ustida ishlash</u>

**Darsning o‘quv maqsadi:**

aktyorni rol ustida mustaqil ishlashga o‘rgatishdan iboratdir.

**Asosiy savollar:**

**1.** 1. Rol ustida mustaqil ishlash deganda, nimalar nazarda tutiladi?
**2.** Rol ustida ishlashda etyud qanday ahamiyatga ega7
**3.** Rol ustida ishlashda, qanday ijodiy usullardan foydalanish kerak?

Birinchidan; sahnada o‘z ifodasini topadigan voqelikni mustaqil o‘rganib, uni tahlil qila bilish kerak.

Ikkinchidan: dramatrug tomonidan berilgan rolni tahlil va tasavvur hamda tafakkur qilabilishlik.

Uchinchidan: aktyor repetisiya, uyda spektakl ustida ishlayolishi kerakligi.

Biz sanab o‘tgan xususiyatlarning har uchchalasi, sahnaviy siymoning tabiiy tarzda yaratish uchun omil bo‘ladigan ijodiy sharoit bo‘lib, shu yo‘l bilan siymo qiyofasiga kirib borish sari yo‘l ochib beradi.

Rol ustida ish olib borar ekan aktyor bu uzoq izlanishlarni taqazo etadigan jarayon ekanligini unutmaslik kerak. Ijodiy izlanishlar jarayonining natijasi o‘laroq, siymoning ichki va tashqi qiyofasi, o‘z mazmun - mohiyati bilan namoyon bo‘ladi. Tayyorgarlik jarayonida olib borilgan izlanishlar samarasi o‘laroq sahnada siymo qiyfasi jonlanadi. Teatr maktabining vazifasi ham o‘z talabalarni ijodiy izlanishga o‘rgatishdan iboratdir.

Talabalarni ijodning barcha usullari bilan qurollantirish, o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan o‘z shogirdlari bilan uch - to‘rt rollar ustida birgalikda ijodiy izlanish usullarini Satnislavskiy ta’limoti asosida olib borsa va talabalar bir necha siymolar yaratishga muvaffaq bo‘lsalar, keyinchalik professional sahnada u ishonch bilan ishlab ketishi mumkin.

Aktyor mahoratining unsurlari haqidagi suhbatimizni muhtasar qilar ekanmiz, yana bir karra, aktyorni har tomonlama yetuk san’at namoyondalari bo‘lib yetishishlikda, mahorat saboqlari o‘qituvchilarining mas’uliyati beqiyos ekanligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Bo‘lg‘uvchi aktyorning siyosiy - g‘oyaviy jihatdan mustahkam e’tiqod, shakllangan ma’naviy – mafkuraviy qiyofasi, aktyorlik mahorati darslari davomida, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha qanchalik bilim va tajriba orttirganligiga bog‘liq. Boshqa, yordamchi fanlar o‘qituvchilari bilan mahorat o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamjihatlik bilan olib borilgan ta’lim bo‘lg‘uvchi aktyorning mahorati va ma’naviy dunyoqarashi orqali o‘z natijasini ko‘rsatadi.

## Nazorat savol va topshiriqlar:

1.Rol ustida ishlash jarayoniga o‘tgunga qadar parchalarni etyud tarzida ishlab keling.

## Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1.K.S.Stanislavskiy “Aktyor rol ustida ishlashi”
2.Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissuri». J. Maxmudov tarjimasi. Toshkent 2003 yil TDSI.

**2-Drama va kino aktyorligi kursida "Aktyorlik maxorati" fani**
**Mavzu: *<u>Ijodiy siqiqlik va aktyorning fikr jamlashi.</u>***

<table>
<tr><th colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</th></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br>-talabani bilmlar orqali siyosiy – g'oyaviy, ma'naviy – mafkuraviy jihatdan mustahkam qilib shakllangirish</td><td colspan="4">Vazifalar<br>Fanning asosiy maqsadi aktyorlik kasbiga layoqati bor yoshlarni yuksak mahoratli,zamonaviy va mumtoz dramatik asarlarda turli harakterga ega qahramonlar timsolini sahnada yarata olish solihiyatiga ega san'atkor kadrlarni tarbiyalashdan iborat.</td></tr>
<tr><th colspan="6">O'QUV JARAYONINI MAZMUNI</th></tr>
<tr><td colspan="6"></td></tr>
<tr><th colspan="6">O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</th></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><th colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</th></tr>
<tr><td colspan="3">O'qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- talabada mavjud ammo hali ochilmagan iste'dod qirralarini ochish,<br>-ovoz, plastik harakatlar, tomoshabinga ta'sir o'tkazish usullaridan sahnada foydalanaolish qobiliyatini o'stirish</td><td colspan="3">-mashqlar tufayli ijodiy siqiqlikni bartaraf bo'lishi<br>-aktyorni fikr jamlanishiga va saxnaviy erkinlikka erishishi</td></tr>
<tr><th colspan="6">KELGUSI REJALAR</th></tr>
<tr><td colspan="3">O'qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- alabani psixofizik holatni erkinligiga erishish;<br>- Stanislavskiy sistemasini puxta egallashda talabalar faolligini oshirish</td><td colspan="3"><u>-ijodiy siqiqlik va aktyorning fikr jamlashi</u> borasida<br>mustaqil ishlarni faollashtirish<br>-ichki va tashqi plastikaga ega bo'lish</td></tr>
</table>

## 3-ma'ruza
## <u>Ijodiy siqiqlik va aktyorning fikr jamlashi.</u>

**Darsning o'quv maqsadi:**

aktyor o'z diqqatini bir joyga to'plashdan iboratdir. Sahnadagi erkinlik va diqqat teatr san'atining qon tomiri hisoblanadi.

**Asosiy savollar:**

1. Ijodiy siqiqlikni qanday bartaraf qilish mumkin?
2. Ichki va tashqi erkinlik deganda nimani tushunasiz?

Agar aktyor holatini ta'riflash lozim bo'lib qolsa, ba'zida uning butun quvvati va ruhiy va jismoniy kuchini yutib yuboradigan psixofizik (ruhiy va jismoniy) holat ustivorlik qilganini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi faqat aktyorlardagina sodir bo'lmaydi. Bunday holatni boshidan o'tkazmagan odam kamdan – kam topilsa kerak.

Imtihon topshirayotgan talabani, hayajondan terlab – pishib ketganligini ko'p kuzatganmiz.

Tajribasiz notiq, ko'p ming kishilik haloyiq oldiga chiqib, gapirishini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Yigit, ko'pdan biladigan qizga ham muhabbat izhor qilish vaqtidagi holati qanday bo'ladi? Hatto o'zimiz kundalik hayotimizda, biron – bir amaldor, arbob, olim oldida haddan tashqari hayajonlanishimizni eslaylik. Insonni shunday psixofizik holatga tushib qolishi, ichki va tashqi a'zolarimizni mo'tadil ish faoliyatiga salbiy ta'siri oqibatida paydo bo'lar ekan.

Bir tomondan fikr chalg'ishi (ichki) mushaklar (tashqi) qotib qolishi, quloq eshitmaydi (tashqi) oyoq ostini sezmay (ichki) qolishlik, til aylanmaslik (tashqi) esdan chiqib qolishi (ichki), yaxlit olib qaraganda o'z - o'zini boshqara olmay qolish natijasidan kelib chiqadi.

Bunday psixofizik holatning kulgili tomoni ham bor. Biz qanchalik hayajonimizni yashirishga harakat qilganimiz sari, bu hayajon natijasida vujudga keladigan noqulay harakatlarimiz shunchalik kulgi tusga kiradi. Agar sahnadagi aktyor bunday ahvolga tushib qolsa, bormi, ijodiy jarayon hususida gap ham bo'lishi mumkin emas. Psixofizik tuzgan uning qo'l - oyog'inigina emas, ichki a'zolarini ham izdan chiqarib qo'yadi. ´z o'rnida tomoshabinning munosabati, aktyorning bir hayajoniga o'n hayajon qo'shadi. Soddaroq qilib aytsak, o'lganni ustiga chiqib tepgan bo'ladi. Agar sahnada oddiy harakat hisoblaymiz, choy quyish kerak bo'lsa, piyola to'lishini kutishga ham bunday aktyorning majoli qolmaydi. Sahnaga ilk marta chiqqan ko'pchilik aktyorlar boshidan kechirgan desak sira mubolag'a bo'lmaydi.

Agar havaskor aktyor sahnada, kosani to'ldirib suv quyishi kerak bo'lsa, u hech qachon suvni to'ldirib quymaydi. Demak oddiy va sodda vazifani ham oxirigacha bajara olmaydi. Hatto jismoniy harakat talab qiladigan kalish kiyish, belbog' bog'lash kabi ishlar ham oxiriga qadar bajarilmaydi. Sahnada bo'm - bo'sh bo'lib qolishdan qo'rqib, qo'lni cho'ntakka solamiz, o'tiradigan, suyanadigan joy qidirib qolamiz. Xo'sh bunday to'siqlarga qarshi qanday kurashish mumkin. Umuman ularga qarshi kurashadigan qurolning o'zi bormi?

Faqat va yana faqat, aktyor o'zida, shu to'siqqa qarshi turadigan hususiyatni qaror toptirishi kerak. Bunday faoliyat inson ongida shakllanadi. YA'ni bir to'siqqa qarshi turadigan qudratliroq kuch shakllantirish ongimiz ihtiyorida

bo‘ladi. Xo‘sh, bunga erishish uchun nima qilish kerak? Avvalo, qo‘rquv, xadiksirash deb yuritiladigan, ko‘ngilimizdagi yig‘ilib qolgan g‘ashliklarni yengib o‘ta oladigan idrok etish xujayrasini qo‘zg‘atishimiz va ijodiy jarayon sari boshlaydigan yo‘lni topish kerak ekan. ´z navbatida bu xujayralar bizning diqqatimiz orqali harakatga keladi. Bu holdagi harakat o‘z navbatida nerv xujayralarini o‘rnidan qo‘zg‘atib sergaklantiradi. Nerv xujayralari bizga kerakli yo‘nalishda faoliyat boshlasa, shu xarakatlarni tizginlovchi xujayralar faoliyati sustlashib asta – sekin yo‘qolishi mumkin.

Ongning bunday faoliyati, diqqatning eng yuqori uchinchi pog‘onasi deyiladi. Xo‘sh bunga erishishning yo‘li qanday? Odatda diqqat bizning ixtiyorimizga qaramay biron – bir manbaaga jamlanadi. Ana shu diqqati ixtiyoriy tarzda, sahnada muhim, zarur bo‘lgan manbaaga ko‘chirsak, fikr yuritish tezlashadi. Boshqacha qilib aytilsa, qiziqish ortadi. ´sha manbaa atrofida tafakkur qilish jadallashadi. Tajribajan ma’lum, kitob o‘qiyotgan odamni atrofdagi hodisalar qiziqtirmay yoki kamroq qiziqtirar ekan. Hatto, o‘ziga diqqatni berilib ketishi oqibatida, kitobga bo‘lgan qiziqishni kamaytirish o‘rniga, uni ko‘paytirishi mumkin ekan.

Demak aktyor uchun muhim vazifalardan biri o‘z diqqatini bir joyga to‘plashdan iboratdir. Faqat, fikrni o‘zi tanlagan manbaaga nisbatan ko‘chliroq jalb qilish orqaligina salbiy to‘siqni yengib o‘tishi mumkin ekan. Shu bilan birga ijodiy jarayon uchun ham zaruriy sharoitni yaratib beradi. Xo‘sh, bir – biriga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarda aktyor birinchi navbatda o‘z diqqatini qaysi manbaaga qaratishi lozim?

## Sahna erkinligi:

Aktyorni sahnada o‘zini erkin his qilishi, to‘g‘ridan to‘g‘ri sahnaviy diqqat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sahnadagi erkinlik va diqqat teatr san’atining qon tomiri hisoblanadi.

Sahna erkinligi ikki ko‘rinishda o‘zini ko‘rsatadi. Tashqi erkinlik – jismoniy erkinlik deb ataladi. Ichki erkinlik-(botiniy) ruhiy erkinlik deb ataladi. Shu ikkala, tashqi va ichki erkinlik uzviy bog‘liq holda harakatda bo‘lsagina, tom ma’nodagi ijodiy jarayon deb ataladi.

## Nafis harakatning (plastika) asosiy qonuni

Aktyorning jismoniy yoki mushaklarni erkin harakat qilishi, har bir tirik mavjudotda bo‘lgani kabi, paylar quvvatini to‘g‘ri taqsimlash natijasida hosil bo‘ladi. Mushaklar erkinligi – bu inson a’zolarining shunday holatiki, unda har bir harakat, har bir holat uchun mushaklar quvvati zaruriy miqdorda sarf etiladi. YA’ni ayni shu harakat yoki quvvat uchun qancha quvvat talab etiladigan bo‘lsa, undan ortiq ham, kam ham sarf etilmaydi. Demak nafis harakatlar uchun mushaklar quvvatini aniq maqsad bo‘yicha tarqatilishi inson tanasining qanchalik erkin, nafis harakat qilishini ta’minlaydigan omildir.

Mavjud sharoitda, inson a’zolarining erkin harakat qilishi uchun, har bir a’zoga zarur bo‘lgan miqdorda quvvat tarqatilishi – nafis harakatning asosiy

qonuni hisoblanadi. Bu qonunni ichki qonun deyish mumkin. Chunki uning harakati tashqi ko‘rinishga ega emas. Demak, tashqi harakatlar, holatlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar (chiroyli, go‘zal, jozibali bo‘lishligi bevosita mana shu ichki qonunlarga bog‘liqdir.

«Chiroylik» tushunchasi bilan «Go‘zallik» tushunchasi o‘rtasida farq bor. «Chiroylik buyum» deganimizda uning xarakatsiz holdagi tashqi sifati tushuniladi.

«Go‘zallik» esa, tirik mavjudotga nisbatan berilib harakatdagi holatiga aytiladi. Ichki nafis harakatlar qonuniga bo‘ysindirilgan maqsadli harakat, erkin bo‘lgani sababli - go‘zaldir. Tabiatda, nafis bo‘lmagan harakatning o‘zi yo‘q. Bahordagi, bog‘larning rang – barang gullari, yaproqlarni yengil shabodada o‘ynashi, quyosh chiqishi va botishi, otning yugurishi, jilg‘alarning toshdan – toshga sakrab tepadan tushib kelishi, hatto bahaybat filning oxista qadamlari ham ko‘zimizga nafis va jozibali ko‘rinishi mumkin.

Tabiatdagi quvvat hamisha harakatda bo‘lib, bir manzaradan boshqachiga ko‘chib turadi. Shu bilan tabiat tomonidan berilgan quvvati berilgan vazifani bajarish uchungina yetarli hisoblanadi.

Faqat insongina, ma’lum sharoitga tushib qolganidagina, o‘zining jismoniy harakatlarini ichki nafis harakatlar qonuniga bo‘ysindiraolmay muvozanatini yo‘qotib qo‘yishi mumkin ekan.

***Ichki va tashqi erkinlik***

Shunday bir manzarani ko‘z oldimizga keltirib ko‘raylik. Odam to‘la zalda majlis o‘tmoqda. Majlisga kechikkan odam zalga (xonaga) kirib keladi. U orqa o‘rindiqdagi bo‘sh o‘rinlardan bir tomon egilganicha yaqinlashadi. Yo‘l - yo‘lakay kimgadir «salom» berib, kimdandir «alik» oladi. Kimgadir ko‘z qisadi, kimgadir gap qotadi, oxiri o‘tiradi. Uning qo‘llari ohista tizzasiga qo‘yiladi. Sahnadagi notiqqa tikiladi va uning so‘zlariga diqqat bilan quloq soladi.

Bu odamning shu damgacha bajargan barcha harakatlari erkin va ihtiyoriy bo‘lgan edi. Mana, minbardagi notiq o‘z so‘zini tugatib joyiga o‘tiradi. Birdan, hozirgina kechikib qolgan odamga so‘z berib qolishadi. Endi uning harakatini kuzatib ko‘raylik. Mana kechikkan odam o‘rnidan turib minbar tomon yuraboshlaydi. Negadir uning harakati beo‘xshov bo‘laboshlaydi. Goh kostyumining tugmasini ushlab ko‘radi, goh bo‘yinbog‘ini to‘g‘rilaydi. Yuzida yasama jilmayish paydo bo‘ladi. Mana u minbarga ham ko‘tarildi. Uning qo‘llari yana kostyumini tuzatib, bo‘yinbog‘ini bo‘shatadi. ´ng cho‘ntagida turgan dastro‘molini qidiradi. Bu kadar siqiqlik qayerdan paydo bo‘ldi?! Yaqinginada, suhbatdoshi bilan yarim soat baxslashganida, bir marta ham tomog‘ini qirmagan edi – ku!

«´rtoqlar», - dedi u to‘satdan baland ovozda. Uning ovozi shu topda, qandaydir g‘ayritabiiy ravishda quruq bo‘lib, o‘zining ovoziga o‘xshamasdi. Birdan, peshonasidan ter quyila boshlaydi. Agar bu odam ichki diqqatini jamlab, nima haqida gapirishligini avvaldan o‘ylab, fikrni bir joyga to‘plab minbarga ko‘tarilganida, u o‘zini erkin his qilgan bo‘lar edi.

Hamma gap shundaki, erkin tutish gapirishga onson. Agar, inson ko‘pchilik o‘rtasida, o‘zini erkin tutaolmasa – chi? Tomoshabin qarshisida, o‘zini beixtiyoriy diqqatini ixtiyoriy diqqatga aylantirish uchun aktyor ozmuncha mashq qilishi kerakmi?

Unday bo‘lsa, nima uchun ayrim notiqlar, «diqqat to‘plash» uchun, maxsus mashqlar borligidan bexabar bo‘lsada, minbarga ko‘tarilishi bilan, suvga tushgan baliqdek, o‘zini erkin tutadi. Ular o‘z fikrlarini sira hayajonlanmay, bamaylixotir o‘tirganlarga izhor etaoladilar. Kerak bo‘lgan joyda, qo‘llarini siltashlari, ovozlarini baland qilib pastlashishlari mumkin.

Zaruriyat tug‘ilsa, zal to‘la odam, og‘ziga tikilib o‘tirganiga ham parvo qilmay, to‘xtashi, yonidan biron – bir dalil olishi, suv xo‘plashi mumkin.

- Albatta, uni tajribasi katta notiq, ko‘pchilik oldida gapirib o‘rganib qolgan – da, deyishingiz mumkin. Unday bo‘lsa, ayrim kishilar, ko‘pchilik oldida bot – bot gapirsalar ham, o‘zlarini erkin tuta bilmaydilar – ku, ayrimlar, bir ikki marta minbarga chiqishlari bilan o‘zlarini erkin his qilaboshlaydilar.

Balkim, birinchi toifadagi kishilar, minbarga chiqishdan oldin, nimalar haqida gapirish, nima haqida gapirmaslikni, yaxshilab o‘ylab ko‘rmagan bo‘lishlari mumkindir.

Ikkinchi toifadagi odam esa minbarga chiqib gapirishga avvaldan tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lib, nimalar haqida gapirishlikni aql torozisidan tortib o‘tkazgan bo‘lib, hatto qaysi fikrdan keyin qaysi gapni gapirish zarurligi, uni qanday dalillar bilan isbotlashini ham o‘ylab qo‘ygan bo‘lar.

Birinchi toifadagi kishi minbarga chiqib nima to‘g‘risida gapirishdan avval, o‘zining tashqi ko‘rinishi, ovoz ohanglari haqida zaldagilar qanday fikrda bo‘larkin degan savol to‘g‘risida ko‘proq o‘ylaydilar. Ularning fikr – u yodi, gapiriladigan gap, izhor etiladigan masaladan ko‘ra, o‘zlarining tutishlari, tashqi qiyofalari yig‘ilganlarda qanday ta’surot qoldirishi ko‘proq qiziqtiradi.

Ikkinchi toifadagi, odam esa, bir maqsad, bir vazifa bilan minbarga ko‘tariladi. U ham bo‘lsa, yig‘ilganlar oldida o‘zini haq ekanligini isbotlashdan iborat bo‘ladi. Chunki u, o‘zi keltirgan isbot va dalillarni inkor etib bo‘lmasligiga qat’iyan ishonadi. Shuning uchun u, o‘ziga ishonadi.

Agar bu notiq hayajonlansa, mutlaqo boshqa masala yuzasidan, ya’ni o‘z raqiblarining noxaqligidan, yoki boshqalarning adolatli ishidan xursand bo‘lishi mumkin. Lekin u har ikki holatda ham uni minbarga yetaklagan maqsad va u yerda bajarishi lozim bo‘lgan vazifasini yaxshi biladi.

Bunday odam notiqlik san’atidan mutlaqo bexabar bo‘lishiga qaramay, a’zoyi badani erkin harakat qiladi. Demak, nima qilish, nima gapirish kerakligini yaxshi bilgan odamning mushaklari hamisha, har qanday sharoitda ham erkin harakat qiladi.

## Mushaklar erkinligi va sahnaviy diqqat

Insonning mushaklarini bo‘shatishi bilan diqqatni to‘plash o‘rtasida o‘zaro aloqa qanchalik ahamiyatga ega ekanligini tushinish qiyin bo‘lmasa kerak.

Inson, ichki diqqatni bir joyga to‘plashga harakat qilgan sari, undagi mushaklar taranglashuvi shunchalik kamaya boradi. Yoki aksincha, tashqi mushaklar taranglashgan sari, ichki diqqat susayadi. Inson tabiatida ular muntazam o‘rin almashib turadi. Shuning uchun aktyor biron bir narsaga qanchalik diqqatini oshirsa, tashqi mushaklari shunchalik erkin va bo‘sh bo‘lardi.

Biroq inson tanasi, mushaklari behad taranglashib turgan vaqtda, darhol ichki diqqatni ishga tushirib yuborish oson kechmaydi. YA’ni quvvatni bir a’zodan ikkinchi a’zoga ko‘chirish yengil ko‘chmaydi. Shuning uchun, diqqatni biron-bir buyumga qaratishdan avval tashqi mushaklar bo‘shatilib so‘ngra diqqatni biron manzaraga qaratish va o‘sha yerda diqqatni jamlash osonlik bilan ko‘chadi. Lekin qo‘rquv natijasida turgan yurak urishini o‘z ihtiyoringiz bilan to‘xtata olasizmi? Albatta yo‘q! Chunki, u sizning hohishingizga bo‘ysinmaydi. Biroq, mushaklar tarangligidan qolgan bu siqiqlikni, faqat diqqatni biron narsa, buyumga to‘plashga erishsangiz, yurak urishi asta-sekin pasayib, bir maarom bilan boshlaydi.

Demak, erkinlikga erishish quyidagi bosqichda navbati bilan ro‘y berar ekan.

***1-bosqich:*** Tashqi a’zolardagi mushak tarangligini bo‘shatish uchun, ongli ravishda ularga ta’sir o‘tkaziladi.

***2-bosqich:*** Berilgan manzaraga diqqatni bosim o‘tqazish yo‘li bilan qaratish.

***3- bosqich:*** Ixtiyoriy diqqatni beixtiyoriy diqqatga aylantirish va shu orqali ichki erkinlikka erishish. (mushaklar tarangligidan beixtiyoriy ravishda halos bo‘lish)

**Nazorat savol va topshiriqlar**:

1. Ijodiy siqiqlik.
2. Saxnaviy erkinlik.
3. Ichki va tashqi erkinlik.
4. Mushaklar erkinligi va saxnaviy diqqat.

**Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. B. Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissuri» J. Maxmudov tarjimasi.
2. K. S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi» Toshkent 1965 yil.

**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**

**Mavzu: Voqelikni oqlash.**

| **MAQSAD VA VAZIFALARI** | |
|---|---|
| **Maqsad**<br>Talabalar oqlash, dalil keltirish, tushuntira bilish, isbotlashni o‘zlashtirishdan iborat. | **Vazifalar**<br>Talaba sahnada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tasodiflar va ularni oqlay bilish. |
| **O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI** | |
| Ishonchli bo‘lgan dalil va isbot, aktyor uchun ham qiziq bo‘lishi bilan birga, spektakl va | |

<table>
<tr><td colspan="6">rolning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi va bu sahnaviy oqlash bo‘ladi. Oqlash - haqiqatiga erishish</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</td></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><td colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- aktyorning san’atida alohida o‘rin egallovchi- kutilmagan sahna hodisalarini oqlay bilish kabi qobiliyatni talabadada ochish,<br>-talabada sahnaviy ishonchni , mahoratini , ichki texnikasini charxlash..<br>-</td><td colspan="3">- talaba ro‘y berishi mumkin bo‘lgan har qanday tasodifiy holatlarni oqlashni o‘zlashtirishi.<br>- sahnada hech narsadan hayiqmay erkin harakat qilishi.<br>- har qanday kutilmagan holatlardan sharaf bilan chiqib keta olishi.</td></tr>
<tr><td colspan="6">KELGUSI REJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- spektakl davom etayotgan vaqtda kutilmagan hodisalarni mantiqiy oqlay bilish mavzusida yangiliklar izlash, yaratish,<br>- shu bilan birga spektaklning tomoshaviyligini yana ham oshirish,<br>- ijodiy izlanish<br>- adabiy janrlarning murakkab turlarini o‘rganish<br>- talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish</td><td colspan="3">- professional teatrga borganda, kutilmagan tasodifga qarshi, bilmlar orqali kuchli qurollangan bo‘lish<br>- -mutasodiflardan ustalik bilan foydalana olish,<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash</td></tr>
</table>

## 4-ma’ruza

## Voqealikni oqlash.

**Darsning o‘quv maqsadi:**
Talabalar oqlash, dalil keltirish, tushuntira bilish, isbotlashni o‘zlashtirishdan iborat..

***Asosiy savollar:***

**1.** «Saxnaviy oqlash» deb – nimani ataymiz?

**2.** Tasodiflarda saxnaviy oqlash haqida tushuntirib o‘ting.

Demak, sahnaviy ishonchga olib boradigan birdan bir yo‘l voqelikni to‘g‘ri tushunishga bog‘lik ekan, faqat saxnadagi xatti – xarakatning qiziqish bilan rad etib bo‘lmaydigan dalillar orqali tushuntirib berishiga bog‘liq.

Aktyor ishonchining eng muhim tomoni shundaki, u, «nega, nima uchun, nima sababdan?» degan savollarga to‘g‘ri javob topa bilishida.

«qachon, qayerda, qanday qilib, qanday sharoitda» ham shular jumlasidandir.

Bunday savollarga berilgan javoblarni K.S.Stanislavskiy sahnaviy oqlash deb atagan edi. «Oqlash» deganda nima nazarda tutiladi? Oqlash dalil keltirish, tushuntira bilish, isbotlash demakdir.

Ammo, har qanday, isbot dalil sahnaviy oqlash bo‘la olmasligi mumkin. Faqat nima uchun shunday bo‘lishi zarur deyishga loyiq harakatlarni amalga oshirishlikni «Sahnaviy oqlash» deyish mumkin.

Buning uchun, isbot va dalillar sahnadan siymo tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakatlarini to‘g‘ri ekanligini oqlashi kerak. µo‘shimcha ravishda aktyorning o‘zi uchun ham bunday «oqlash» qiziq va o‘zini roli qilib qo‘yadigan darajada bo‘lishi lozim.

***Voqelikni oqlash.***

Ishonchli bo‘lgan dalil va isbot, aktyor uchun ham qiziq bo‘lishi bilan birga, spektakl va rolning maqsad va vazifalaridan kelib chiqsa, uni sahnaviy oqlash deyishimiz mumkin ekan.

Dalil qilib, sahnada ro‘y beradigan barcha hodisa va voqealarni ko‘rsatish mumkin. Voqealar ro‘y beradigan joy, uning vaqti, dekorasiya jihozlar, sahnada turgan barcha buyumlar, berilgan shart-sharoit, liboslar, aktyorning grimi, uning yurish-turishi, siymoga xos bo‘lgan barcha harakatlar, gaplari, sahnadagi hamroh so‘zlari hamma hammasi, sahnaviy oqlash uchun dalil va isbot bo‘lishi mumkin ekan.

Savol tug‘ilishi mumkin. Nima uchun oqlash degan ibora qo‘llanilgan? µaysi ma’nodagi «oqlash»? Albatta sahna san’ati tushunchalaridan kelib chiqib, shunday ibora ishlatilgan.

Oqlash o‘z-o‘zi uchun haqiqatiga erishish demakdir.

Aktyor sahnaviy oqlash orqali, ya’ni haqqoniy va qiziqarli dalillar orqali, o‘ylab topilgan (tomoshabin va o‘zi uchun) voqealarni, badiiy haqiqatga aylantiradi.

Albatta, bu o‘rinda «oqlash» so‘zi na ma’naviy va ahloqiy, hamda huquqiy ahamiyatga ega emas. Misol uchun Shekspirning Yagosini sahnaviy talqin yuzasidan oqlash degan ma’noni bildirmaydi. Sahnadagi hatti-harakatining asl mohiyatini, tomoshabinga tushuntirish orqali demakdir.

Shunday tushuntirish orqali, Yago ustidan chiqaradigan ma’naviy hukm, yanada shafqatsiz, yanada keskinroq bo‘lishi mumkin.

## Sahnada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tasodiflar va ularni oqlay bilish.

Aktyorlik san’atida kutilmagan sahna hodisalarini oqlay bilish, aktyorning san’atida alohida o‘rin egallaydi.

Aktyor, bunda kutilmagan sharoitlarda hatti-harakatini qanchalik ko‘proq oqlashga intilsa va buning uddasidan chiqa olsa, uning sahnaviy ishonchi shunchalik ortadi, mahorati oshadi, ichki texnikasi charxlanadi. Bunday aktyorlar ro‘y berishi mumkin bo‘lgan har qanday tasodifiy holatlar, mutlaqo qo‘rqinchli emas. U sahnada hech narsadan hayiqmay erkin harakat qiladi. U har qanday kutilmagan holatlardan sharaf bilan chiqib keta oladi.

Hamrohining sahnaga chiqishdan kechikishi, sahnada zarur bo‘lgan buyumni o‘z joyiga qo‘yilmaganligi, o‘zi yoki hamrohining so‘zi esdan chiqib qolishi, uni siymo sifatida ko‘rsata olmaydi.

Har bir kutilmagan tasodifga qarshi, kuchli quroli bo‘ladi. Uning bu quroli, albatta sahnaviy oqlashdir. Aktyorlik san’atining ichki texnikasi sahnadagi har qanday tasodifni o‘sha zaxotiyoq oqlashlikni talab qiladi.

Sahnada ro‘y bergan tasodif tufayli kutilmagan hodisa, shu oqlash sababli sahnada kechayotgan voqealar mantiqiga singib ketadi.

Ustiga – ustak shu tasodifiy hodisa, oqibatda sahnada kechayotgan voqealar yana ham qiziq yana ham jozibali bo‘lishi mumkin.

Haqiqiy mahorat egalari, sahna tasodiflari yoqtiradilar. Undan, sahnada, yanada erkinroq, yanada qiziqarliroq ijro uchun foydalanadilar.

1. Xulosa qilib aytganda, sahnada barcha hatti-harakatlar o‘ziga ishongan holda to‘liq ishonch bilan ijro etish uchun spektakl davom etayotgan vaqtda kutilmagan hodisalarni mantiqiy oqlay bilish, shu bilan birga spektaklning tomoshaviyligini yana ham oshirish uchun mutasodiflardan ustalik bilan foydalana olgan aktyor o‘z mahoratini yuqori pog‘onalariga ko‘targan hisoblanadi.

### Nazorat savol va topshiriqlar:

1. Voqelikni oqlashga mashqlar topib keling..
2. Tasodiflar va ularni oqlash .

### Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Gorchakov N. M. «Rejissyorskiye uroki» K. S. Stanislavskogo. M. Iskusstvo 1984 god.
2. Knebel M. O. «O deystvennom analize pesi i roli». M. Iskusstvo 1982 god.


## 2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani

**Mavzu:** ***Pesa va rolning xarakatli taxlili***

<table>
<tr><th colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</th></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br><br>spektakl sahnalashtirishda, stol atrofida o‘tirib, xatti-xarakatli taxlil ustida ishlash</td><td colspan="4">Vazifalar<br>stol atrofida o‘tirib ishlaganda bo‘lajak spektaklni harakatga keltiruvchi ichki omillari, matn ostiga yashiringan tub ma’no va maqsad, o‘zaro munosabat, voqealar tizimi va ularni bir – biriga bog‘lab turgan, uzluksiz harakat – «qizil ish» asarda aks ettirilgan muhit va boshqa tomonlari aniqlash, chuqur o‘rganish</td></tr>
<tr><th colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</th></tr>
<tr><td colspan="6">«O‘tirib ishlash» jarayonida asarning g‘oyasi, sahnalashtirishdan ko‘zlangan maqsad, muallifning maqsadi, har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilinadi</td></tr>
<tr><th colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</th></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><th colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</th></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- pesa taxlili jarayonida asar g‘oyasi va oliy maqsadini aniqlash<br>- asar ustidagi ishning boshlanish nuqtasida, keraksiz ma’lumotlar bilan talabaning boshini aylantirib tashlamaslik.<br>- darsning samaradorligini oshirish</td><td colspan="3">-rolning xarakatli taxlilidan so‘ng o‘zi uchun maqsad va vazifalarni aniqlaydi.<br>-asarda berilgan shart – sharoit bilan hayotiy sharoit o‘rtasida qarama - qarshilik vujudga keltirmaslik.<br>- xarakat bilan fikr, sezgilar orqali paydo bo‘lishini o‘rganish.</td></tr>
<tr><th colspan="6">KELGUSI REJALAR</th></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">-ijodiy izlanish<br>-pesa va rolning xarakatli taxlilini talabalar bilan qizg‘in o‘tkazish.<br>--talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish</td><td colspan="3">- pesa va rolning xarakatli taxlilini to‘g‘risida olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash</td></tr>
</table>

***5- ma’ruza***

**Pesa va rolning xarakatli taxlili**

**Darsning o‘quv maqsadi:**

spektakl sahnalashtirishni, stol atrofida o‘tirib ishlashdan boshlamoq kerak.

Chunki, o‘tirib ishlaganda bo‘lajak spektaklni harakatga keltiruvchi ichki omillari, matn ostiga yashiringan tub ma’no va maqsad, o‘zaro munosabat, voqealar tizimi va ularni bir – biriga bog‘lab turgan, uzluksiz harakat – «qizil ish» asarda aks ettirilgan muhit va boshqa tomonlari aniqlash, chuqur o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

**Asosiy savollar:**

1. Spektakl sahnalashtirishda, stol atrofida o‘tirib ishlash qanday ahamiyatga ega?
2. Stol atrofida o‘tirib ishlashning qanday salbiy tomonlari bor?
3. Pesa taxlilini harakat bilan bog‘lash deganda nima nazarda tutiladi?

«O‘tirib ishlash» jarayonida asarning g‘oyasi, sahnalashtirishdan ko‘zlangan maqsad, muallifning maqsadi, har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilinadi. O‘tirib ishlash vaqtida aktyorlar, o‘zlari yaratishlari lozim bo‘lgan qahramonning ichki dunyosi, gapiradigan gaplari, ular ostiga yashiringan ma’no, ko‘zlangan maqsad, birma-bir tahlil qilinadikim, o‘z navbatida bunday ish, bo‘lajak spektaklning asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga Stanislavskiy «o‘tirib ishlash»ning salbiy tomonlari ham borligini sezadi:

Xo‘sh, bu salbiy tomonlar nimalardan iborat?

Aktyor o‘tirib repetisiya qilar ekan, o‘zi bilan timsol o‘rtasidagi masofani qisqartirib, timsol qiyofasiga kira borish o‘rniga, rejissyor ko‘rsatmasiga bog‘lanib qolar ekan. Natijada undagi intilish sustlashadi. Har bir gap, iborani talaffuz qilishda rejissyorga qaramligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu tabiiy bir xol. Sababi rejissyor, undan ko‘proq narsani biladi. Chunki u, asar ustidagi ijodiy izlanishlarni, ancha avval boshlangan bo‘lib, ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘ladi. Demak, uning asar xususidagi tushunchasi, aktyornikiga nisbatan ko‘p va chuqurroq bo‘ladi. Asar ustida «o‘tirib ishlanar» ekan, o‘z-o‘zidan aktyor, unga ergashishga majbur bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan Stanislavskiy, asar ustidagi ishning boshlanish nuqtasida, turli-tuman ma’lumotlar bilan aktyorning boshini aylantirib tashlamaslik kerak, degan qarorga keladi. Chunki bunday batafsil ma’lumotlar, aktyor tasavvurini bo‘g‘ib qo‘yadi. Natijada aktyor, mustaqil izlanishlar olib borishdan to‘xtab qoladi.

O‘tirib ishlashning yana bir salbiy tomoni shundan iboratkim, ijrochining ruhiy va jismoniy harakati o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi. Asarda berilgan shart – sharoit bilan hayotiy sharoit o‘rtasida sun’iy qarama - qarshilik vujudga keladi.

***Etyud ustida ishlash.***

Odatda bir odamni «nima ish qilayotgani emas, o‘sha ishni qanday qilayotgani» biz uchun, qiziqroqdir. Shunga qarab odamning ishiga baho beriladi.

Sahnada aktyor tomonidan bajariladigan xar bir xarakatni bajarishga turtki bo‘ladigan ichki va tashqi omillar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi shart. Muallim tomonidan berilgan shart-sharoitda, yashashga majbur bo‘lgan shaxs, har soniyada o‘zini qanday his qilmog‘i kerak?

K. S. Stanislavskiyning ta’kidlashicha, o‘tirib ishlash jarayonida, timsolning ruhiy holati aniqlanishi kerak.

Lekin aktyor, o‘tirib repetisiya qilar ekan, sahnadagi hamroxi bilan xuddi dashqaridan turib muloqot qilayotgandek bo‘ladi. Oqibatda sahnaga chiqib, jismoniy harakatga o‘tish bilan, qiyinchilik vujudga keladi. Shuning uchun Stanislavskiy, - aktyorning ichki va tashqi harakatini bir-biridan ajratib olib borish kerak, degan xulosaga keladi.

Demak, aqliy izlanishdan so‘ng darhol, sahnaga chiqish, rolning u yoki, bu qismini harakatga keltirish kerak ekan.

Shu zayldagi repetisiya jarayonida aktyor va sahna uchun zarur bo‘lgan unsurlar ham shu yerda tayyor turishi kerak.

Stanislavskiy ixtirosining mohiyati shundan iboratkim, «o‘tirib ishlash» bilan, jismoniy harakatni sahna maydonida qo‘shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

«O‘tirib ishlash»dan, sahnaga chiqiboq, ishni etyud qilishlik orqali aktyor, o‘zi ijro etayotgan rolni ijodiy sinovdan o‘tkazadi va u, yoki bu harakatni amalda sinovdan o‘tkazadi. Etyud jarayonida, uning sezgilari, fikr yuritishi, xissiy va ruhiy holati qay yo‘sinda ishlayotganligini tekshirib ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi. Stanislavskiy tomonidan taklif etilgan bunday usul, har bir ishtirokchining so‘zi, uning ta’sir kuchi, maqsad va hissiyotlari, bir-biri bilan hamoxangmi yo‘qmi, tekshirib ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, aktyor qahramon so‘zlarini shunchalik yod olib emas, harakat oqibatida kelib chiqadigan natija sifatida o‘zlashtiraboshlaydi. YA’ni, har bir so‘z: - fikr, tuyg‘u, sezgi mahsuli sifatida tug‘iladi. Aynan, shunday ishlash natijasida har bir qahramonning o‘zigagina xos bo‘lgan gaplashish ohangi yuzaga keladi.

Shuning uchun etyud vaqtida har bir aktyor, rolning so‘zini emas, o‘zining so‘zini gapirishi kerak. Natijada, repetisiya vaqtida aktyorga pesa muallifining so‘zi emas, fikri zarur bo‘ladi. Oqibatda, xarakat bilan fikr, sezgilar orqali paydo bo‘ladi. So‘zni yod olib sahnaga chiqish esa, qaytariqlik va soxtalikka olib keladi. Berilgan so‘zlar, qahramonning har bir harakatini, keltirib chiqaruvchi sababni izlashga, harakat natijasida yuzaga kelgan fikr va mulohazalarni izhor etish uchun, muallifning so‘zi zarur bo‘ladi.

Aktyor o‘ziga berilgan rol ustida ijodiy izlanishlar olib borar ekan, so‘zning tub ma’nosini tushunib yetishi, so‘z tagidagi fikrlar zalvorini sezishi, uni tomoshabinga yetkazish uchun sukut saqlash, ohang berish, so‘z tagidagi maqsadni idrok eta bilishi muhim ahamiyatga ega.

Aktyor hatto jismoniy harakatsiz turgan chog‘ida ham, sahnadagi yashash jarayonini to‘xtatmasligi kerak. Sabab, u jim turgan holida, sahnadagi hamrohining gapini qabul qiladi va unga qarshi o‘zi beradigan javobini o‘ylaydi. YA’ni qarshi xujumga hozirlik ko‘rib turishi shart.

1. Adabiy parchani – etyud usulida ishlash.

***Adabiyotlar:***


1. Knebel M. O. «O deymtvennom analize pesi i roli» M. Iskusstvo 1982
2. B. Zaxava «Masterstvo aktera i rejissuri» J. Maxmudov tarjimasi. Toshkent TDSI 2003.


**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**

**Mavzu: Dramaturgiya ustida ish.**

***Xatti-xarakat. «Agarda», berilgan shart-sharoit.***

| MAQSAD VA VAZIFALARI | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Maqsad**<br><br>. xatti-xarakat, «Agarda», berilgan shart-sharoit unsurlarini talabalar o‘zlashtirishdan iborat | | **Vazifalar**<br>**“Agarda “ berilgan shart-sharoit bilan ishlab, organik xatti-xarakat qilish**<br>Agarda» - talaba ijodining boshlanishiga sabab bo‘ladi, u talaba uchun yashab turgan hayotdan, ijod yaratiladishan odamga o‘tib oluvchi qurol hisoblanadi. | | | |
| **O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI** | | | | | |
| . san’atimizning asoslaridan biri sahna ijodining va san’atning aktivligi hamda harakatchanligi ishonarli bo‘lishi uchun,. saxnada ham jismoniy, ham ruhiy xatti-harakat qilinadi.<br>Saxnada bekordan-bekorga, yugurish va azob chekish mumkin emas. Saxnada xatti-harakat qilaman deb, «umuman» xarakat qilishning keragi yo‘q | | | | | |
| **O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI** | | | | | |
| **Metod**<br>Aqliy xujum | **Shakl**<br>Amaliy, yakka | **Vosita**<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>. | **Usul**<br>Ijro etish usuli | **Nazorat**<br>Repetisiya jarayoni | **Baholash**<br>Reyting nazorati asosida |
| **KUTILGAN NATIJALAR** | | | | | |
| O‘qituvchi | | | Talaba | | |

| | |
|---|---|
| - «Agarda» berilgan shart-sharoit da xatti-xarakat qilishni o‘rgatish. -<br>-«Agarda» ijodni boshlashi, «berilgan shart-sharoit esa, uni taraqqiy ettirish tamoyilini talabalar bilan amalda ishlash | - “Agarda berilgan shart-sharoit bilan asosli, maqsadga muvofiq va unumli xatti-harakat qilish.<br>-obraz va ehtiroslarni o‘ynamaslik,<br>- obrazga kirib, ehtiroslarning ta’siri ostida xatti - harakat qilish |
| **KELGUSI REJALAR** | |
| O‘qituvchi | Talaba |
| -ijodiy izlanish<br>murakkab turlarini o‘rganish<br>- talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish | - mustaqil ishlarni faollashtirish .-keyingi ijodiy ishlarni rejalashtirish<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash |

## 6- ma’ruza

**Xatti-xarakat. «Agarda», berilgan shart-sharoit.**

**Darsning o‘quv maqsadi:**

***xatti-xarakat, «Agarda», berilgan shart-sharoit unsurlarini talabalar o‘zlashtirishdan iborat.***

***Asosiy savollar:***

1. Tashqi-fizik, ichki-psixik xatti-xarakatning bir-biriga uzviy bog‘liqligini tushuntirib bering.
2. «Agarda»ning sifati va xususiyatini tekshirishda e’tiborni nimaga qaratish kerak?
3. Shart – sharoit nima?

Saxnada nimaki sodir bo‘lmasin, hammasi biror maqsad bilan qilinmog‘i lozim. U yerda tomoshabinlarga o‘zini ko‘rsatish uchun emas, bir maqsad bilan o‘tirmoq kerak. Ammo bu yengil ish emas. Drama san’ati, aktyorlik san’ati xatti-xarakatga, aktivlikka asoslangan.

Saxnada qimirlamay o‘tirish passivlikdan dalolat bermaydi. Saxnada qimirlamay utirgan kishi ham xatti-harakat qilayotgan bo‘lishi mumkin. Lekin bu tashqi-jismoniy emas, balki ichki-psixik xarakatdir.

Binobarin, jismoniy sokinlik ko‘pincha kuchli ichki xatti-harakat tufayli sodir bo‘ladi, bu ijod qilishda juda muxim, juda qiziqarlidir. San’atning qimmati, uning ma’naviy mazmuni bilan belgilanadi.

Shuning uchun saxnada, ham jismoniy, ham ruhiy xatti-harakat qilmoq kerak. Bu bilan san’atimizning asoslaridan biri sahna ijodining va san’atning aktivligi hamda harakatchanligi bajarilgan bo‘ladi.

Saxnada bekordan-bekorga, yugurish va azob chekish mumkin emas. Saxnada xatti-harakat qilaman deb, «umuman» xarakat qilishning keragi yo‘q, balki asosli, maqsadga muvofiq va unumli xatti-harakat qilmoq kerak.

Sahnaga chiqib olib, hech narsadan hech narsa yo‘q, rashk qilish, hayajonga tushish, g‘amgin bo‘lish mumkin emas. Ayrim talabalar shunday qilishga urinib ko‘radilar, lekin tuyg‘u jonglanmaydi, shundan so‘ng oshirib o‘ynash, kechinmani ko‘rsatishga o‘tadilar. Tuyg‘uni zo‘rlab chiqarib bo‘lmaydi. Chinakam, hayotiy, insoniy xatti-xarakat qilmoq kerak. Obraz va ehtiroslarni o‘ynab bo‘lmaydi, balki obrazga kirib, ehtiroslarning ta’siri ostida xatti - harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

## ***«Agarda»***

«Agarda» - har qanday ijodning boshlanishiga sabab bo‘ladi, u artist uchun yashab turgan hayotdan, ijod yaratiladishan odamga o‘tib oluvchi qurol hisoblanadi.

«Agarda» - so‘zi qanchadan-qancha ongli, bir-biriga bog‘langan fikrlarni-«agarda», bo‘lgani uchun, unday bo‘lgan taqdirda, unday bo‘lsa-kabi mantiqli pog‘onalarni, xilma-xil xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi. Lekin «agarda» boho, uz vazifasini qo‘shimcha yordam talab qilmay, birdaniga yolg‘iz o‘zi ham ado etadi.

Misol uchun talabaga qo‘lqob berib «bu sovuq qurbaqa»-deyilsa, u darrov tisariladi. Bu oddiy «agarda» emas, balki xatti-harakatni birdaniga, o‘z-o‘zidan qo‘zg‘atuvchi, «sehrli agarda»dir.

«Agarda»ning xususiyati va sifatini tekshirishda, shunisiga diqqat qilmoq kerakki, ular bir qavatli va ko‘p qavatli bo‘ladi. Masalan, yuqorida aytilgan ko‘lqop mashqida bir qavatli «agarda»dan foydalandik.

Agarda qo‘lqop-qurbaqa bo‘lsa-chi, deyishimiz bilan xatti-harakat poydo bo‘ldi.

Biroq murakkab pesalarda qahramonlarning turli ishlari va xarakatlarini asoslovchi avtor yaratgan yoki mutlaqo boshqa «agarda»lar chalkashib ketgan bo‘ladi. Unda biz bir qavatli emas, balki ko‘p qavatli «agarda»larga, o‘zaro chalkashib ketgan, juda ko‘p taxminlar va ularni asoslovchi tasavvurlarga duch kelamiz. Unda avtor pesani yozayotib, «agarda» voqea falon xonadonda o‘tsa: agarda u yerdagi yashovchi odamlar bunday xulq, bunday fikr va tuyg‘uga ega bo‘lsa; agarda ular o‘zaro mana bunday vaziyatda to‘qnashsalar va hakazo va hakazo-deydi.

Pesani sahnaga qo‘yayotgan rejissyor avtorning haqiqatga yaqin «agarda»sini o‘z «agarda»si bilan to‘ldirib bundayo deydi. «Agarda» pesaning qahramonlari o‘rtasida mana bunday munosabatlar bo‘lsa, agarda ular mana

bunday sharoitda yashayotgan bo‘lsalar va x.k.z unda pesa qahramonlarining sharoitiga tushgan artist qanday xatti-harakat qilar edi.

O‘z navbatida pesaning voqeasi o‘tadigan joyni tasvirlovchi rassom ham, sahnani yorituvchi elektr texnik ham, spektaklni yaratishda qatnashuvchi boshqa kishilar ham pesa hayotining shart-sharoitlarini o‘z badiiy tasavvurlari bilan boyitadilar.

«Agarda»ning bu qadar ta’sir kilishining yana bir siri shundaki, u real, hozir sodir bo‘layotgan fakt haqida emas, balki endi yuz berishi mumkin bo‘lgan narsa haqida gapirdi. «Agarda»... Bu so‘z hech narsani tasdiqlamaydi. U faqatgina faraz qiladi, u masalani hal qilishga urinadi. U aktyorning ichki va tashqi aktivligini zo‘rlash natijasida emas, tabiiy yo‘l bilan qo‘zg‘atadi. «Agarda» so‘zi harakatga keltiruvchi, ichki imjodiy aktivligimizni qo‘zg‘atuvchi vositadir. Haqiqatdan ham, siz o‘z-o‘zingizga «agarda» - qo‘lqop to‘g‘risidagi faraz chin bo‘lsa, nima qilardim, o‘zimni qanday tutardim-desangiz, shu ondayoq ko‘nglingizda aktivlik paydo bo‘ladi.

«Agarda» so‘zining bu muhim xususiyati oqimimizning asoslaridan biri bo‘lgan, sahnadagi ijodning aktivligi va xatti-harakatchanligi bilan yaqin aloqaga ega.

## ***Shart-sharoit*.**

Shart-sharoit – bu pesa fabulasi, uning faktlari, voqelar, davr, voqea o‘tadigan joy, hayot sharoitlari, pesaning aktyor va rejissyor tomonidan tushunilib olinishi, qo‘shimchalar, mizansenalar, butaforiya, yoritish, sahnadagi turli-tuman tovush va ovozlar va h.k.z lar ijod davrida ahamiyat berishi lozim bo‘lgan shart-sharoitlardir.

«Berilgan shart-sharoitlar», «agarda» singari «tasavvurimiz mevasi», faraz qilingan narsa.

Ularning kelib chiqishi bir: «berilgan shart-sharoitning» o‘zidir.

Biri- «agarda» faraz bo‘lsa, ikkinchisi- «berilgan shart-sharoit» unga qo‘shimchadir.

«Agarda» ijodni boshlaydi, «berilgan shart-sharoit esa, uni taraqqiy ettiradi. Biri ikkinchisisiz yashay olmaydi va rivojlana olmaydi. Lekin ularning vazifasi bir qadar boshqa-boshqa: «agarda» mudrab yotgan tasavvurni uyg‘otsa, «berilgan shart-sharoit» «agarda»ga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular birga va ajralgan holda ichki rivojning paydo bo‘lishiga yordam beradilar.

Nazorat savol va topshiriqlar:

**1.** Xatti-xarakat unsurlariga tegishli mashqlar topib keling.
**2.** «Agarda».ga mashqlar bajaring.
**3.** Berilgan shart sharoit unsuriga tegishli mashqlar bajaring.

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

**1.** K. S. Stanislavskiy «Aktyorning o‘z ustida ishlashi». Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti 1965 yil.

**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**
**Mavzu:**
***<u>Bo‘laklar va vazifalar.</u>***

<table>
<tr><td colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</td></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br>pesani metodik jixatdan to‘g‘ri taxlil qilish</td><td colspan="4">Vazifalar<br><u>Rolni analiz qilishda katta va kichik bo‘laklarga bo‘lish,</u><br>kichik bo‘laklar bilan faqat tayyorgarlik davridagina to‘qnashib, ijod paytida katta bo‘laklarga qo‘shish,</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</td></tr>
<tr><td colspan="6"><u>Bo‘laklar va vazifalar ustida ishlash bo‘yicha umumiy tushunchani egallash.</u><br>Pesa va rolni vaqtinchalik chora sifatida bo‘laklarga bo‘lib ishlash jarayoni. . Elementar-psixologik vazifalar ustida ishlash.</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</td></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><td colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- talabani rolni analiz qilishga o‘rgatish<br><u>- bo‘laklar va vazifalarni aniqlash borasida yangi uslublarni qo‘llash.</u><br>-elementar-psixologik vazifalar ustida ishlash</td><td colspan="3">-rolni analiz qilishni o‘rganish<br>-o‘rganish uchun mayda qismlarga bo‘lish</td></tr>
<tr><td colspan="6">KELGUSI REJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- bulaklar va vazifalar mavzusi bo‘yicha ijodiy izlanish<br>- artist<br>- tabiatini zo‘rlashdan xalos etish:<br>--talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish</td><td colspan="3">-rol ustida mustaqil ishlarni faollashtirish<br>.<br>-ijodiy vazifalarni tushunarli, yengil bajarishgp erishish.<br>.bo‘laklar va vazifalar mavzusi bo‘yicha olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash |

**7-ma’ruza**

**Bo‘laklar va vazifalar.**

**Darsning o‘quv maqsadi:**

**talabalar pesani metodik jixatdan to‘g‘ri taxlil qilishiga qaratilgan**

Asosiy savollar:

**1.** Pesani bo‘laklarga bo‘lish, tahlil qilish, nima maqsadda qilinadi?
**2.** Elementar-psixologik vazifa deb nimani ataymiz?
**3.** Ijodiy vazifalar deb nimani ataymiz?

***Rolni analiz qilishda katta va kichik bo‘laklarning ahamiyati.***

Pesa va rolni bo‘laklarga bo‘lishga faqat vaqtinchalik chora sifatida yo‘l qo‘yiladi. Pesa va rol uzoq vaqt bunday burdalangan, maydalangan holda qololmaydi. Singan haykal, yirtilgan suratning parcha-parchalari qanchalik go‘zal bo‘lmasin, baribir badiiy asar bo‘lolmaydi. Biz kichik bo‘laklar bilan faqat tayyorganlik davridagina to‘qnashamiz, ijod paytida esa ular katta bo‘laklarga qo‘shiladilar. Bunda ularning hajmi maksimumiga, soni minimumiga keltiriladi: bo‘laklar qanchalik yirik bo‘lsa, soni shunchalik oz bo‘ladi, oz bo‘lgandan so‘ng, ular yordamida butun pesa va rolni yaxlitligicha qamrab olish yengil bo‘ladi.

Rolni analiz qilish va o‘rganish uchun mayda qismlarga bo‘lish prosessi tushunarli, ammo qanday qilib ularni bir butun holga keltirish mumkinligini tushunarli emas.

Faraz qilaylikki, siz maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan kichkina etyudni yuz bo‘lakka bo‘ldingiz va ko‘pligidan bo‘laklarni chalkashtirib yubordingiz, yaxlitlikni yo‘qotdingiz, lekin har bir bo‘lakni alohida holda yaxshi o‘ynayapsiz. Biroq oddiy o‘rgamchik etyud bu qadar murakkab va ichki mazmuni jihatidan bunchalik chuqur bo‘lishi, buning ustiga yuzta asosiy va mustaqil bo‘laklarga bo‘linishi mumkin emas. Hoynahoy ularning ko‘pchiligi takrorlansa yoki bir-biriga o‘xshab qolsa kerak. Har bir bo‘lakning ichki mohiyatiga tushunib yetganimizdan keyin, aytaylik, birinchi, beshinchi bo‘laklar, o‘ninchidan o‘ndan keyin, aytaylik, birinchi, beshinchi bo‘laklar, o‘ninchidan o‘n beshinchigacha, yigirma birinchi va hakazo bo‘laklar bitta ma’noni berayotganiga tushunasiz; aytaylik, ikkinchidan to‘rtinchigacha, oltinchidan to‘qqizinchigacha, o‘n birinchidan o‘n to‘rtinchigacha va hakazo bo‘laklarning bir-biriga o‘xshashligini ko‘rasiz. Natijada yuzta mayda bo‘lak o‘rniga ikkita katta ma’noli bo‘lak hosil bo‘ladi, ulardan ustalik bilan foydalanish mumkin. Bunday vaziyatda chalkash etyud oddiy, oson va tushunarli bo‘lib qoladi. µisqasini aytganda, yaxshi ishlangan katta bo‘laklarni artistlar oson o‘zlashtiradi. Butun pesa bo‘ylab qo‘yib chiqilgan bunday bo‘laklar biz uchun farvaterlik vazifasini bajaradi: u bizga to‘g‘ri yo‘lni

ko‘rsatib turadi va xavfli sezgiliklardan, suv ostidagi qoya toshlardan, pesaning adashib qolish mumkin bo‘lgan murakkab chigilliklardan o‘tkazib qo‘yadi.

Afsuski, ko‘p artistlar busiz ish ko‘radilar. Ular pesani qismlarga ajratib tahlil qilishni bilmaydilar va shuning uchun juda katta ma’nosiz bo‘laklar bilan ish ko‘rishga majbur bo‘ladilar. Bo‘laklar ko‘pligidan artist adashib ketadi va hissiy yaxlitlikni yo‘qotadi.

Bo‘laklarni analiz qilish uchun bir o‘rta va kichik bo‘laklar yana xuddi shunday mayda qismlarga bo‘linadi. Bu bo‘laklar yig‘indisi keyin borib eng katta bo‘laklarni hosil qiladi.

Shunday hollar ham bo‘ladiki, bo‘sh avtorlarning xom pesalariga o‘zingning xususiy (rejissyorlik va aktyorlik) bo‘laklaringni xam kiritishga to‘g‘ri keladi. Bu o‘zboshimchalik zaruriyat tufayli qilingani uchun kechirish mumkin. Lekin o‘zidan qo‘shishni yaxshi ko‘rganlar ham borki, ular qo‘shimchani mutlaqo keragi bo‘lmagan, genial, monolit klassik asarlarga ham kiritaveradilar. Kiritilayotgan bo‘lakning asar xususiyatiga o‘xshashligi bo‘lsa ham bir nav. Ko‘pincha bunday bo‘lib chiqmaydi: ajoyib pesaning tirik bandida butun pesani o‘likka aylantiradigan begona et paydo bo‘ladi.

**1.** Artist uchun bo‘laklarning naqadar ahamiyatli ekanini o‘z vaqtida tajribada bilasizlar. Yomon ishlangan va yomon tahlil qilingan, aniq bo‘laklarga bo‘linmagan rolni sahnada o‘ynash juda azob. Bunday spektaklni o‘ynash qiyin, artist uchun g‘oyatda zerikarli va bunday pesa o‘z salobati bilan hammani qo‘rqitadi va juda uzun bo‘lib tuyuladi. Yaxshi tayyorlangan pesada o‘zingni butunlay boshqacha sezasan, kishi. Grim qila turib, faqat eng yaqin, galdagi bo‘lak haqida o‘ylaysan, ammo butun pesaga va uning asosiy maqsadiga bu bo‘lak aloqador bo‘ladi. Birinchi bo‘lakni o‘ynab bo‘lib, diqqatingni ikkinchisiga o‘tkazasan va shu tahlitda davom etiraverasan. Bunday spektakl yengil bo‘lib tuyuladi, men shunaqa ish to‘grisida o‘ylaganimda, maktabdan uyiga qaytayotgan o‘quvchi esimga tushaveradi. Agar yo‘lning olisligi uni qo‘rqitsa, nima qilishini bilasizmi? O‘quvchi tosh olib, bor kuchi bilan oldinga qarab otadi va...tashvishga tushib, topmay qo‘ymayman! Deb qidirib boraveradi. Topgach, xursand bo‘ladi va yangi g‘ayrat bilan o‘sha toshni yana ham uzoqroqqa otadi va yana tashvishlanib qidira boshlaydi. Uzoq yo‘l bu xilda qismlarga bo‘linganligi tufayli unitiladi va natijada uygа borib, yaxshi dam olajagini eslab, masofa to‘g‘risida o‘ylamay qo‘yadi va uni sezmaydi. Sizlar ham o‘z rollaringiz va etyudlaringizda bir katta bo‘lakdan ikkinchisiga o‘ting, tub maqsadni esdan chiqarib qo‘ymang, u holda sizlarga soat sakkizda boshlanib yarim kechada tugaydigan tragediya ham qisqa bo‘lib tuyuladi. Pesani bulaklarga bo‘lish tahlil qilish va asarni o‘rganish uchungina emas, balki bundan tashqari yana ham muhimroq maqsad uchun - har bir bo‘lakning ichki mohiyatini bilish uchun ham kerakdir. Gap shundaki, har bir bo‘lakda ijodiy vazifa joylashgan bo‘ladi. Vazifa o‘z bo‘lagidan uzviy ravishda kelib chikadi yoki aksincha o‘zi bo‘lakni keltirib chiqaradi. Biz pesaga taaluqli bo‘lmagan bo‘lakni zo‘rlab kiritish mumkin emasligini gapirib

o‘tgan edik, bunday ishni vazifalar bilan ham bajarib bulmaydi. Ular ham bulaklar kabi, bir-biridan mantiqiy ravishda, izchillik bilan kelib chiqmog‘i lozim. Ularning orasida uzviy bog‘lanish borligi tufayli bo‘lak to‘grisida ilgari gapirilgan hamma gaplarni vazifalarga ham tatbiq qilsa bo‘ladi. Shundan ekan, demak, katta, o‘rta, kichik, muhim ikkinchi darajali vazifalar mavjud. Ularni bir-biri bilan birlashtirmoq mumkin.

Hayot, kishilar, sharoitlar; biz o‘z oldimizga va bir-birimizga qator qiyinchiliklar qo‘yamiz va ulardan, changalzordan o‘tkandek, o‘tib boramiz. Bu g‘onlarning har biri vazifani va ularni yengib o‘tish uchun lozim bo‘lgan harakatni keltirib chiqaradi.

Odam hayotining har bir daqiqasida nimadir istaydi, nimagadir intiladi, nimanidir yengib chiqadi. Shunga qaramay, ko‘pincha, agar odamning maqsadi ulkan bo‘lsa, butun umri davomida boshlagan ishini tugatolmay o‘tib ketadi. Kattakon, olamshumul, umuminsoniyatga oid bo‘lgan vazifalar bir odam tomonidan emas, balki avlodlar va asrlar tomonidan bajariladi. Sahna ijodi ulkan vazifalarni qo‘ya bilishdan va ularni bajarmoq uchun chinakam, unumli, maqsadga muvofiq xatti-harakat qilishdan iboratdir. Xulosa shuki, agar ilgarigi ko‘rilgan tayyorgarlik to‘g‘ri bo‘lgan bo‘lsa, u o‘zidan-o‘zi kelib chiqaraveradi. Ko‘pchilik aktyorlarning xatosi shundaki, ular xatti-harakat to‘g‘risida o‘ylamay, faqat uning natijasi haqida o‘ylaydilar, unga intilaveradilar. Natijani bunday oshirib o‘ynash hunarga olib keladi, zo‘riqishga majbur etadi.

## ***Elementar- psixologik vazifalar***

Ayrim paytlarda, - qo‘lingizni cho‘zib, panjalarini qisib, ko‘z qarashingiz bilan bilan sevgi hislaringizni, hurmat va ehtiromingizni izhor qilishga harakat qilasiz. Bu vazifa va uning bajarilishi bizga odat bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, unda qisman psixologiya ham ishtirok etadi. Bunday vazifalar bizning tilimizda elementar-psixologik vazifalar deb ataladi.

Mana bu uchinchi hodisaga kiradi. Faraz qilaylik: kecha oramizda janjal chiqdi. Men sizni ko‘pchilik oldida haqorat qildim. Bugun bo‘lsa, uchrashgan paytimizda, oldingizga borib, qo‘lingizni qisgim va shu bilan kechirim so‘ragim, ayb menda va o‘tgan gapni unutishingizni istayman degim kelardi. Kechagi raqibga qo‘l berish oson ish emas, binobarin, ko‘p narsani o‘ylab chiqishim, his etishim va bu vazifani bajarishdan burun ko‘nglimdagi ko‘p narsalarni yengishim lozim.

Bunday vazifani psixologik vazifa, deb atash mumkin, vazifa bo‘lganda ham ancha murakkab vazifa.

-Vazifa qanchalik to‘g‘ri bo‘lmasin, uning eng muhim va asosiy xususiyati artistning qiziqishida va jalb qila bilishidadir. Vazifa yoqimli va jozibador bo‘lishi kerak, toki artistda uni bajarish istagi uyg‘onsin. Bunday vazifa jozibador kuchga egadir. U, magnit singari, artistning ijodiy erkinligini o‘ziga tortadi.

Artist uchun zarur va turli xususiyatlarga ega bo‘lgan vazifalarni biz ijodiy vazifalar deb ataymiz. Undan tashqari vazifalarning tushunarli, yengil bajariladigan bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega. Aks holda ular artist tabiatini zo‘rlaydi.

**Nazorat savol va topshiriqlar:**

1.Rolni analiz qilishda katta va kichik bo‘laklarning ahamiyati.

2.Elementar-psixologik vazifalar.

**Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. K. S. Stanislavskiy «Aktyorning o‘z ustida ishlashi». Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 yil.
2. M. Knebel. «Odeystvennom analize pesi i roli». M. Iskusstvo, 1982.


**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**

**Mavzu: Saxnaviy munosabat**

<table>
<tr><td colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</td></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br><u>talaba-aktyor to‘xtovsiz o‘zaro saxnaviy munosabatni o‘zlashtirishiga qaratilgan.</u></td><td colspan="4">Vazifalar<br>Saxnada bevosita va bilvosita munosabatlar mavzusida mashqlar ustida ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</td></tr>
<tr><td colspan="6">Saxnaviy jonli munosabat ustida ishlash (mashqlar orqali o‘zlashtiriladi) Sahnada partnyor bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish proseyessini egallash va qo‘llash</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</td></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><td colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">-spektaklda bilvosita munosabatda bo‘lishni talabaga tushuntirish,<br>-sahnaviy munosabatimizning qiyinligi va o‘ziga xos xususiyati ham partnyor bilan, ham tomoshabin bilan bir vaqtda sodir bo‘lishini talaba anglab yetishi,.</td><td colspan="3">-partnyor bilan bevosita,munosabatda bo‘lishlik qonuniyalarini o‘zlashtirish<br>- ongli ravishda munosabatda bo‘lish,<br>-tomoshabin bilan bilvosita munosabatda bo‘lish,,<br>-partnyor orqali beixtiyor ravishda munosabatda bo‘lish.</td></tr>
<tr><td colspan="6">KELGUSI REJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| - talaba sahnada to‘xtovsiz munosabatda bo‘lishida ijodiy izlanish<br>-talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish | - o‘zaro jonli munosabatlar orqali xayotiy xaqiqatga erishish<br>- saxnaviy munosabat mavzusi bo‘yicha mustaqil ishlarni faollashtirish .<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash |

## ***8-ma’ruza***

## **Munosabat**

**Darsning o‘quv maqsadi:**

***talaba-aktyor to‘xtovsiz o‘zaro saxnaviy munosabatni o‘zlashtirishiga qaratilgan.***

***Asosiy savollar:***

**1.**Sahnaviy munosabatlar deb nimani ataymiz?

**2.**Bevosita va bilvosita munosabatlar xaqida gapirib bering.

Sahnada artistning ko‘zlari, nigohi, qarashi uning yuksak ijodiy qalbining ulkan, chuqur ichki mazmunini ifoda qilishi lozim. buning uchun uning qalbida «insonning ruhiy hayotiga» monand bo‘lgan bu ulkan ichki mazmun to‘plangan bo‘lmog‘i lozim: ijrochi sahnadaligida ko‘nglining shu mazmuni orqali pesadagi o‘z partnyorlari bilan bo‘lishi kerak.

Tanho munosabatdan yoki o‘z-o‘zi bilan munosabatda bo‘lishdan boshlaymiz. Kundalik hayotda qanday paytlarda biz o‘z-o‘zimiz bilan qattiq-qattiq gaplashamiz, tanho munosabatda bo‘lganimizdami?

Hayajonlanganimizda, nihoyatda darajada g‘azablanganimizda yoki tushunish qiyin bo‘lgan biror fikrni hammasini ong birdaniga qamrab ololmaganidan uni tushunish uchun ovoz chikarib o‘qib yodlab olmoqchi bo‘lganimizda; o‘zimiz yolg‘iz payti ko‘nglimizni qiynayotgan yoki xursand qilayotgan tuyg‘uni aniqlamoqchi bo‘lganimizda, (jilla bo‘lmasa, ruximizni yengillatish niyatida) ro‘y beradi.

Sahnada partnyor bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish proseyessini egallash va qo‘llash osonroqdir. Ammo bunda ham biz qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ularni bilish va ular bilan kurasha olish lozim. Masalan: hammamiz sahnada bevosita munosabatdamiz. Ammo o‘qituvchi sizdan katta. Ko‘rdingizmi, qanday! Uning burni, og‘zi, oyoqlari, qo‘llari, gavdasi bor. Nahotki, u tashkil topgan gavdaning hamma a’zolari bilan bir yo‘la munosabatda bo‘la olasiz? –Bordi-yu, buning

imkoni bo‘lmasa, uning birorta a’zosini u bilan munosabatda bo‘ladigan nuqtangizni tanlab oling. Ko‘zlarni tanlash kerak. Ular qalb oynasidir.

Ko‘rdingizmi, munosabatda bo‘lganda siz hammadan burun odamning qalbini, uning ichki dunyosini axtarasiz.

***To‘xtovsiz o‘zaro munosabat.***

Sahnada to‘xtovsiz munosabat bo‘lishi, ayniqsa muhim va zarurdir, chunki avtorning asari, artistlarning o‘yini deyarli diologlardan iboratdir, ular pesaning qatnashuvi shaxslari bilan ikki yoxud ko‘p kishilarning o‘zaro munosabatidir.

Afsuski, bunday to‘xtovsiz o‘zaro munosabat teatrda kamdan-kam uchraydi. Ko‘pchilik aktyorlar bundan foydalangan hollarda ham faqat o‘z rollarining so‘zlarini gapirganlarida ishlatadilar, ammo jim qolganlarida partnyorning replikasini tinglamaydilar, uning fikrlarini idrok etmaydilar, o‘zlarining navbatdagi replikalarigacha o‘ynamay qarab tura beradilar. Bunday aktyorlik odati o‘zaro munosabatning to‘xtovsizligini yo‘qotib yuboradi. Aktyor gapirganda va javob tinglaganda tuyg‘ularni anglatish va idrok etishni talab qilishni taqazo qiladi, chunki shunday paytda ko‘p hollarda ko‘zlar gaplashadi.

Tanaffusli munosabatlar noto‘g‘ridir, shuning uchun o‘z fikrlaringizni so‘zlab berishni o‘rganing va gapirib bo‘lib, ular partnyorning ong va tuyg‘usiga yetib borishini kuzatib turing; buning uchun bir oz to‘xtab olishingiz lozim. Partnyorga yetib borganiga qanoat hosil qilganingizdagina va so‘zlarga sig‘magan fikrlarni ko‘zlaringiz bilan aytib bo‘lganingizdan keyingina, replikaning navbatdagi qismlarini aytishga kirishing. Uz navbati bilan partnyordan uning so‘zlarini va fikrlarini har safar yangichasiga, huddi bugun birinchi marta eshitayotgan kabi tinglang. Repetisiyada va juda ko‘p marta o‘ynalgan spektakllarda eshitgan begona odamning replikalaridagi yaxshi tanish bo‘lgan so‘zlar va fikrlarni anglab olishga urining. Tuyg‘u va fikrlarni o‘zaro idrok etish, anglatishning to‘xtovsiz prosessini va ijodiy ishni har gal takrorlab turish lorzim. Bu katta diqqat, texnika va artistlik intizini talab qiladi.

Munosabat uchun jonli obekt bo‘lmaganda nima qilmoq kerak?

- Iloji juda oson: to obekt topilmaguncha, munosabat qilmaslik kerak. «Trening va mushtra» klassi bor. U yakka holda emas, balki ikki-uch kishi yoxud gruppa bo‘lib mashq qilish uchun yaratilgan. O‘quvchilar yo‘q narsa bilan munosabat qilmasinlar, ular jonli obektlar bilan mashq qilsinlar va shuning bilan birga bu ishni tajribali odam tekshirib tursin.

Kollektiv obekt, ya’ni boshqacha aytganda, jamiyatda «tomoshabin» deb atalgan ming-ming odam to‘la tomosha zali bilan munosabat qilish ham oson emas.

Spektaklda bevosita munosabat qilish mumkin emas, ammo bilvosita munosabatda bo‘lish zarurdir. Sahnaviy munosabatimizning qiyinligi va o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ham partnyor bilan, ham tomoshabin bilan bir vaqtda sodir bo‘ladi. Birinchisi-partnyor bilan bevosita, ongli ravishda, ikkinchisi-tomoshabin bilan bilvosita, partnyor orqali beixtiyor ravishda munosabatda

bo‘linadi. Shunisi ajoyibki, bu bilan ham, u bilan ham bo‘lgan munosabat bir-birlariga o‘zaro ta’sir qiladi.

Nazorat savollar va topshiriqlari:
1.Sahnaviy munosabatni taxlil qiling.
2. To‘xtovsiz uzaro munosabatga mashq o‘ylab toping.

***<u>Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar</u>***


1. K. S. Stanislavskiy «Aktyorning o‘z ustida ishlashi» Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti 1965 yil.
2. M.Knebel «Odeystvennom analize pesi i roli» M. Iskusstvo 1982.


**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**
**Mavzu: *<u>Oliy maqsad. Yetakchi xatti-xarakat</u>* .**

<table>
<tr><td colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</td></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br>Sahnada yozuvchining fikr-tuyg‘ularini, uning orzu hayollarini, tashvish-quvonchlarini ko‘rsatib berish, spektaklning asosiy vazifasi hisoblanadi.<br>Talaba spektakl ustida ishlashdan oldin Oliy maqsad va Yetakchi xatti-xarakat unsurlarini tushunib olishi shart.</td><td colspan="4">Vazifalar<br>Cahnada hayotiylik va «jonli» teatr yaratish uchun asar oliy maqsadi, yetakchi xatti-xarakatni aniqlanadi ..<br>Talabalar tomonidan maqsad, shart – sharoit, hatti – xarakat, asosiy voqea, vazifalar (keynchalik so‘z, partnyor bilan o‘zaro munosabatlar) ishlab chiqiladi</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</td></tr>
<tr><td colspan="6">Ikkinchi kursda aktyorlik mahorati unsurlarini adabiy parchalar va dramaturgiya orqali amaliy o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan.<br>.</td></tr>
<tr><td colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</td></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><td colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">-Oliy maqsad, yetakchi xatti-xarakat aktyor</td><td colspan="3"></td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| ijodida muxim omil ekanligini talaba tushunganligini amalda ko‘rish.<br>- «Men muallif tomonidan rolga berilgan shart – sharoitda harakat qilayapman» degan ta’lim bosqichini talabalarga singdirish. | -shakl va janrdan qat’iy nazar, sahnada rol ustida mustaqil ishlash uslubini chuqur egallagash<br>-berilgan timsol qiyofasiga kira olish qobiliyatini egallash<br>- yetakchi xatti-xarakatni aniqlab saxnada «jonli» harakat qilish |
| **KELGUSI REJALAR** | |
| O‘qituvchi | Talaba |
| - ijodiy-uslubiy izlanish<br>- asarning va aktyorning Oliy maqsadi va yetakchi xatti-xarakatini murakkab tomonlarini o‘rganish<br>- talabalar mavzuga qiziqishini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish | - pesaning asosiy maqsadi uchun bo‘lgan chinakam, insoniy, faol uzluksiz intilishga ega bo‘lish<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash |

***9-ma’ruza***

## Oliy maqsad. Yetakchi xatti-xarakat.

**Darsning o‘quv maqsadi:**

sahnada yozuvchining fikr-tuyg‘ularini, uning orzu hayollarini, tashvish-quvonchlarini ko‘rsatib berish, spektaklning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Asosiy savollar:

**1.** Spektakl asosiy vazifasi nimadan iborat?

**2**. Oliy maqsad va tendensiya xaqidagi tushunchangizni bayon eting.

***Yozuvchi asarining oliy maqsadi.***

- Bitta dondan o‘simlik o‘sib chiqqani kabi, yozuvchining ayrim fikri va tuyg‘usidan asar paydo bo‘ladi.

Yozuvchining bu ayrim fikrlari, turishi, orzu-umidlari uning butun hayotiga singib ketadi va ijod vaqtida unga rahbarlik qilib turadi. Bular pesa asosini tashkil etadi, bu urug‘dan adabiy asar paydo bo‘ladi. Bu fikrlar, tuyg‘ular, hayotiy orzu-umidlar, yozuvchining tashvish va quvonchlari pesaning asosi bo‘lib qoladi. Shular uchun u qo‘liga qalam oladi. Kelajakda bu asosiy, bosh maqsaddan hamma vazifalarni mustanosiz o‘ziga biriktiruvchi, psixik hayotni harakatlantiruvchi elementlarning ijodiy intilishini hamda artist-rolning ahvoli ruhiyat elimentlarini vujudga keltiruvchi hamma narsani o‘z ichiga qamrab olgan maqsadni bundan buyon: Yozuvchi asarining oliy maqsadi deb ataymiz.

Dostoyevskiy butun umri kishilardan xudo va iblisni axtardi. Bu-uni «Aka-uka Karamazonlar» asarini yaratishga olib keldi. Mana shuning uchun ham xudoni axtarish bu asarning oliy maqsadi hisoblanadi.

Lev Nikolayevich Tolstoy butun umri kamolotga intilib o‘tdi, uning ko‘pgina asarlari shu negizdan o‘sib chiqqan, mana shu narsa ularning oliy maqsadi.

Anton Pavlovich Chexov qabihlik, meshchanlikka qarshi kurashdi va ajoyib hayotni orzu qildi. Yaxshi hayot uchun kurash va unga intilish uning ko‘pgina asarlaridagi oliy maqsad bo‘lib qoldi.

Geniylarning bunday ulkan hayotiy maqsadlari artist uchun hayajonli va qiziqarli vazifa bo‘lib qolishini, pesa va rolning barcha bo‘laklarini o‘ziga tortishga qodir ekanini o‘zingiz ham sezgandirsiz.

Pesada nimaiki ro‘y bermasin, undagi barcha katta-kichik vazifalar, rolga monand bo‘lgan artistning hamma ijodiy fikr-zikri hamda xatti-harakatlari pesaning oliy maqsadini bajarishga qaratiladi. Spektaklda sodir bo‘layotgan voqealarning u bilan umumiy bog‘lanishi va unga qaramligi shu qadar kuchliki, oliy maqsadga aloqador bo‘lmagan hatto eng kichik detal xam ortiqcha, zararli, diqqatni asarning asosiy mohiyatidan chetga tortuvchi bo‘lib koladi.

Oliy maqsadga intilish yaxlit, uzluksiz, butun pesa mazmuni bo‘yicha o‘tib borishi lozim.

Uzluksizlikdan tashqari, bu xildagi intilishning asarni boshdan-oyoq jonlantirib yubormaydi, chinakam unumli va maqsadga muvofiq xatti-harakatga bo‘lgan faollikni qo‘zg‘atmaydi. Bunday ijodiy intilishining saxnaga keragi yo‘q.

Ammo boshqacha-pesaning asosiy maqsadi uchun bo‘lgan chinakam, insoniy, faol intilish ham bo‘lishi mumkin. Bunday uzluksiz initilish, xuddi gavdaning asosiy qon tomiri singari artist organizmini va gavdalantirayotgan shaxsini ozuqlantiradi, ularga va butun pesaga hayot baxsh etadi.

Bunday chinakam, jonli intilishni oliy maqsadning sifati, qiziqarliligi bilan qo‘zg‘atish mumkin.

Genial oliy maqsad bo‘lganda unga bo‘lgan mayl g‘oyatda kuchli; genial bo‘lmaganda-bo‘sh bo‘ladi.

Yomon oliy maqsad bo‘lgan taqdirda uni o‘tkir hamda chuqur ma’noli qilish artistning o‘z zimmasiga yuklanadi.

Biz uchun oliy maqsadning sifati qanday bo‘lishi lozim?

Bizga noto‘g‘ri, garchand artist uchun juda qiziqarli bo‘lsa ham, pesa avtori ko‘zda tutgan ijodiy maqsadiga to‘g‘ri kelmaydigan, oliy maqsadning kerakligi bormi?

Yo‘q! Bunday vazifaning bizga keragi yo‘q. Buning ustiga u xavflidir. Noto‘g‘ri oliy maqsad qanchalik qiziqarli bo‘lsa, u artistni shunchalik o‘ziga tortib ketadi, uni avtordan, pesadan va roldan shunchalik uzoqlashtirib yuboradi.

His-tuyg‘usiz oliy maqsad bizga kerakmi? µuruq, his-tuyg‘usiz oliy maqsadning ham keragi yo‘q. Ammo ongli, oqil, qiziqarli ijodiy fikrdan kelib chiquvchi oliy maqsad g‘oyatda zarurdir.

Bizning butun tabiatimizni qo‘zg‘atuvchi, hissiy olam maqsad kerakmi? Ha, butunlay huddi suv bilan havodek zarur.

Bizning butun jismoniy, ruhiy borlig‘imizni qamrab oladigan, iroda to‘la oliy maqsadning keragi bormi? Juda ham kerak.

Ijodiy tasavvurni qo‘zg‘atuvchi, butun diqkatni qamrab oluvchi, haqiqat tuyg‘usini qanoatlantiruvchi, ishonchni qo‘zg‘atuvchi va artist ahvoli ruhiyatining bo‘lak elimentlarini hayajonga keltiruvchi oliy maqsad bizga osh-nondek zarurdir.

***Oliy maqsadning nomini tanlash*.**

Shunday qilib, bizlarga yozuvchining ko‘zda tutgan maqsadga monand bo‘lgan, lekin ijodkor artistning insoniy qalbida muqarrar ravishda bunga javob qo‘zg‘atuvchi oliy maqsad kerak ekan. Mana shu rasmiy, his-tuyg‘usiz emas, balki chinakam, jonli, insoniy kechinmani keltirib chiqara oladi.

Boshqacha aytganda, oliy maqsadni faqat roldan emas, balki artistning ko‘nglidan ham qidirmoq lozim.

Bitta rolning bitta oliy maqsadi, shu rolning barcha ijrochilari uchun ham majburiy bo‘lsa-da, har bir ijrochida turlicha jaranglaydi. Bir-biriga o‘xshasa ham, ammo boshqa-boshqa vazifa bo‘lib chiqadi. Masalan, hayotiy, insoniy bir maqsadni olib ko‘ring: «o‘ynab kulishni istayman». Bu istakning o‘zida va unga erishish yo‘lida hamda shodlik haqidagi tushunchaning o‘zida qanchadan-qancha xilma-xil, nozik jihatlari bor. Bularning barida bir talay shaxsiy, individual, ongli baholash qiyin bo‘lgan jihatlar bor. Bordi-yu, yana ham murakkabroq oliy maqsadni misolga olguday bo‘lsangiz, u holda inson-artistning individual xususiyatlari yana ham yaqqolroq bo‘rtib chiqadi.

Turli ijrochilarning ko‘nglidagi mana shu individual ta’sir-javoblar oliy maqsad uchun muhim ahamiyatga egadir. Ijodkorning subektiv kechinmalarisiz u quruq, o‘lik narsadir. Oliy maqsad ham, rol ham jonli, hayajonli bo‘lmog‘i, chinakam inson hayoti bilan tovlanib turmog‘i uchun artistning ko‘nglidan javob axtarmog‘i zarur.

Shunisi muhimki, artist rolga bo‘lgan munosabatida hissiy individualligini yo‘qotmasin, shuning bilan birga, yozuvchining ko‘zda tutgan maqsadiga qarama-qarshi bo‘lmasin. Agar ijrochi rolda o‘z insoniy tabiatini namoyish qilmas ekan, uning yaratgan qahramoni jonsiz bo‘lib qoladi.

**Oliy maqsadni artistning o‘zi topa bilmog‘i va uni sevmog‘i lozim. Bordi-yu, oliy maqsad unga bo‘lgan ichki mohiyatni topish demakdir.**

**Rolning har bir ijrochisini hayajonga soluvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan jozibani oliy maqsad qayerdan oladi? Ko‘p hollarda oliy maqsadga bunday alohida xususiyatni mulohazasiz sezgan narsamiz, beixtiyorlik sohasiga yashirinib yotuvchi jihatlar beradi.**

**Oliy maqsad bu soha bilan juda yaqin aloqada bo‘lishi lozim.**

**Katta, to‘lqinlantiruvchi, chuqur ma’noli oliy maqsadni qanchalar uzoq vaqt va g‘ayrat bilan qidirib topish kerak ekanligini o‘zingiz ham endi ko‘rib turibsiz.**

**Oliy maqsadni yozuvchining asaridan qidirib topishni va o‘z qalbimizda unga javob berishning qanchalik muhim ekanligini ko‘rib turibmiz.**

Oliy maqsadni qidirib topish va tasdiqlashning qiyin prosessida uning nomini qo‘yish katta rol o‘ynaydi.

Oddiy bo‘laklarda va vazifalarda aniq topilgan nomlar ularga kuch va ahamiyatlilik baxsh etadi. Biz o‘z davrida ismni fe’l bilan almashtirish ijodiy intilishning aktivligini va xatti-xarakatni kuchaytirishini gapirib o‘tgan edik.

Bu shartlar oliy maqsadni nomlash prosessida yana ham ko‘proq darajada namoyon bo‘ladi.

«Nima deb atalishi bari bir emasmi!» deyishadi ba’zi olimlar. Biroq, aniq topilgan nomdan, bu nomda yashiringan xatti-harakatga ko‘p hollarda asarning yo‘nalishi ham, talqini ham (traktovkasi ham) bog‘liq ekan.

Goldonining «Mehmonxona bekasi»da-biz avvaliga oliy maqsadni «Xotinlardan nariroq bo‘lishni istayman» (xotinlarni yomon ko‘rishlik) deb atadik. Ammo bunday belgilashda pesadagi yumor va xatti-harakatchanlik ochilmadi. Pesaning qahramoni xotinlarni yaxshi ko‘rishini, u xotinlarni yomon ko‘ruvchi emas, balki shunday bo‘lib ko‘rinishni istaganini tushunganimdan so‘ng, oliy maqsad quyidagicha belgilandi: «Ko‘nglini zimdan ovlayman» (o‘zimni xotinlarni yomon ko‘rgan qilib ko‘rsataman). Pesa shu ondayoq jonlanib ketdi.

Biroq bunday vazifa butun pesaga emas, balki ko‘proq bitta rolga taalluqli edi. Pesa ustida ancha ishlaganimizdan keyin, ayol kishi (Mirandolina) «Mehmonxonaning bekasi» yoki boshqacha aytganda, «hayotimiz bekasi» ekanligini tushunganimizdan keyin va shunga yarasha oliy maqsadni belgilaganimizdan keyin butun ichki moxiyat o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi.

Bizning ijodimizga va uning texnikasida oliy maqsadning nomini tanlash g‘oyatda muhim moment hisoblanadi, u butun ishga ma’no va yo‘nalish baxsh etadi.

*Yetakchi xatti-xarakat.*

Ijodiy intilishning asl maqsadini tushungandan so‘ng, harakatga keltiruvchilar va elimentlarning hammasi avtor ko‘rsatgan yo‘lga qarab, umumiy, eng asosiy maqsadga-ya’ni oliy maqsadga qarab intiladilar.

Artist-rolning psixik hayotini harakatlantiruvchilarning butun pesa bo‘yicha o‘tadigan bu hatti-harakatini, ichki intilishini biz o‘z tilimizda...

**Artist rolining yetakchi xatti-xarakati deb ataymiz.**

Shunday qilib, yetakchi xatti-harakat artist uchun psixik hayotni harakatlantiruvchilar intilish yo‘lning to‘g‘ri davomidir, ular ijod qiluvchi artistnig aqlidan, irodasidan va tuyg‘usidan kelib chiqadi.

Mabodo yetakchi xatti-harakat bo‘lmaganda, pesaning barcha bo‘laklari va vazifalari, berilgan shart-sharoitlari, munosabat, haqiqat hamda ishonch momentlari va hakazolar o‘zlaricha ajralgan holda jonsiz bo‘lib qolardilar va ularning jonlanishiga hech qanday umid qolmasdi.

Biroq yetakchi xatti-harakat yo‘li bularning hammasini birlashtiradi, barcha elimentlarni huddi marjonni bitta ipga tizgani singari tizib va ularni umumiy oliy maqsadga yo‘naltiradi.

Shu paytdan boshlab hamma narsa oliy maqsadga xizmat qiladi.

«Agar» siz yetakchi xatti-harakatsiz o‘ynar ekansiz, demak siz sahnada berilgan shart-sharoit va sehrli «agarda» asosida xatti-harakat qilmaysiz; demak, siz ijodga tabiatning o‘zini va uning beixtiyorligini jalb qilmagansiz, bizning asosiy maqsadimiz va san’atimiz talabi bo‘lmish – «roldagi» insonning ruxiy hayotini «yaratmagansiz». Ularsiz sistema yo‘q.

Ko‘z oldingizda ideal odam-artistni keltiring; u birgina hayotiy maqsadga: «o‘z yuksak san’ati bilan insonlarni yuksaltirishga va xursand qilishga, geniylarning asarlaridagi yashirin ruhiy go‘zalliklarni ochib berishga» bag‘ishlaydi, do‘stlik. Bunday odam-artist teatrga to‘plangan tomoshabinlar uchun genial pesa va rolni o‘zi qanday talqin qilishini ko‘rsatish va tushuntirib berish uchun saxnaga chiqadi va ijodkorning fikri bo‘yicha, asarning mohiyatini yaxshiroq ochib beradi. Bunday odam-artist butun umrini o‘z zamondoshlarini ma’rifatli qilishdek yuksak va madaniy maqsadga sarflamog‘i mumkin. U o‘zining shaxsiy muvoffaqiyati yordami bilan ongi, qalbi va hakazolariga yaqin bo‘lgan g‘oya va tuyg‘ularni ko‘pchilikka yetkazmog‘i mumkin. Hamma vazifalar va ulardagi rol hayotining qisqa yo‘llari muayyan, barchasi bir tomonga, ya’ni oliy maqsadga qarab yo‘nalsalar normal hol paydo bo‘ladi. Mana bunday:

——→——→——→——→——→————→————→————→Oliy maqsad

-Rol hayotining kichkina, o‘rtacha, katta yo‘llarning uzun qatori bir tomonga – oliy maqsad tomon yo‘nalgan. Rol hayotining qisqa yo‘llari o‘z vazifalari bilan, mantiqan izchillik bilan birin-ketin borib, biri ikkinchisiga ulandi. Shunga ko‘ra ulardan bitta – pesaning boshidan-oxirigacha o‘tadigan yo‘l hosil bo‘ladi. Endi

bir lahza ko‘z oldigizga keltiring: artist oliy maqsadga ega emas, u gavdalantirayotgan rol hayotining har bitta kalta yo‘li har tomonga qarab ketgan.Yetakchi xatti xarakatning uzuq-uzuq yo‘lini tasvirlaymiz;



Mana bular har tomonga yo‘nalgan rol hayotining kichik bo‘laklari va katta, o‘rtacha va mayda vazifalar qatoridir. Ular to‘ppa-to‘g‘ri uzluksiz yo‘lni hosil qila oladilarmi?

**2.** Bunday sharoitlarda yetakchi xatti-harakat barbod qilinadi, pesa bo‘laklarga bo‘linib ketgan, bo‘laklar, bo‘laklar esa har tomonga sochilik ketgan bo‘ladi va uning har bir qismi o‘z-o‘zicha, butunlikdan tashqarida kun ko‘rishga majbur etiladi. Bunday holda ayrim qismlar, ular o‘zlaricha qanchalik ajoyib bo‘lmasinlar, o‘z holicha pesaga kerak emas.

Har bir yaxshi pesada uning oliy maqsadi va yetakchi xatti-harakati asarning arganik tabiatidan kelib chiqadi. Bu hol buzilar ekan, asar ham yo‘q bo‘ladi.

Faraz qilingki, pesaga begona, unga aloqador bo‘lmagan maqsadni yoxud tendensiyani kiritmoqchilar.

Bu holda pesa bilan organik ravishda bog‘liq bo‘lgan oliy-maqsad va tabiiy hosil bo‘ladigan yetakchi xatti-harakat qisman qoladi, lekin ular minut sayin pesaga kiritilgan tendensiya tomonga qarab og‘ib turadi.




Bu xildagi pog‘onasi singan pesa yashay olmaydi.

Zamonaviy asar bordi-yu, u o‘zida ulkan masalalarni va chuqur g‘oyalarni jamlagan bo‘lsa, adabiy bo‘lib qolishi mumkin. Bunday zamonaviylikka, agarda u shoirning asari uchun lozim ekan, qarshilik qilmaymiz.

Unga to‘la qarama-qarshi turgan, tor, kundalik ahamiyatga ega bo‘lgan asar hech qachon adabiy bo‘lolmaydi, u faqat bugungina hayot, ertaga esa unutilishi turgan gap. Mana shunga ko‘ra san’atning adabiy asari, rejissyorlar, aktyorlar, shaxsan olganimizda, siz asarga qanchalik turli-tuman narsalar kiritmang, baribir oddiy kundalik bilan organik ravishda qovushib ketmaydi.

µadimiy, monolit, klassik asarga majburiy ravishda kundalik ahamiyat yoki pesaga yot bo‘lgan maqsad kiritsalar, u go‘zal tanaga yopishtirilgan begona etga o‘xshab qoladi va tanib bo‘lmas darajada xunuk qilib yuboradi. Asarning shikastlangan oliy maqsadi o‘ziga tortmaydi va qiziqtirmaydi, aksincha jahlini chiqarib yo‘ldan ozdiradi.

Zo‘ravonlik – ijod uchun yomon vositadir, binobarin, kundalik ahamiyat tendensiyasi yordami bilan «yangilangan» oliy maqsad pesa va rollar uchun o‘limdir.

To‘g‘ri, shunday hollarda ham yuz beradiki, tendensiya oliy maqsad bilan qovushib ketadi. Apelsin daraxtiga limon kurtagini payvand qilsa, undan yangi meva yetiladi, uni Amerikada «greyfrut» deb ataydilar.

Bunday ishni pesada ham qilishga muvaffaq bo‘linadi. Ba’zan eski, klassik asarga tabiiy ravishda zamonaviy g‘oya payvand qilinadi, u butun pesani yashartirib yuboradi. Bu holda tendensiya mustaqil ravishda yashashdan to‘xtaydi va oliy maqsadga aylanib qoladi.

Grafikada bu quyidagicha chiziqda o‘z ifodasini topadi: u oliy maqsadga va tendensiyaga qarab ketuvchi yetakchi xatti-harakat yo‘lidir.


oliy maqsad

tendensiya

Bu holda ijodiy prosess normal davom etgan bo‘ladi va asarning organik tabiati mayib bo‘lmaydi.

Hamma aytilgan gaplardan shunday xulosa chiqadi:

Hammadan ham oliy maqsadni va yetakchi xatti-harakatni ehtiyot qilinglar; zo‘rlik bilan kiritilgan tendensiyaga hamda pesaga yot bo‘lgan intilishlarga va maqsadlarga ehtiyot bo‘linglar.

Har qanday xatti-harakat qarshi xatti-harakat bilan to‘qnashadi, shuning bilan birga, ikkinchisi birinchisini harakatga undaydi va kuchaytirib yuboradi. Shuning uchun har bir pesada yetakchi xatti-harakat bilan bir qatorda, teskari yo‘nalishda bo‘lgan, unga ro‘paradan keluvchi, dushman bo‘lgan qarama-qarshi xatti-harakat bo‘ladi.

Bordi-yu, pesada hech qanaqa qarama-qarshi xatti-harakat bo‘lmasa va hamma narsa o‘z-uzidan tartibga tushib ketadigan bo‘lsa, u holda ijrochilarning va ular gavdalantirayotgan shaxslarning sahnada qiladigan ishlari qolmagan bo‘lardi, pesaning o‘zi esa xatti-harakatsiz bo‘lib qolardi, binobarin sahna asarligidan chiqib qolardi. Yozuvchi asarining oliy maqsadi.

Nazorat savollar va topshiriqlari:

1. Oliy maqsadning nomini aniqlash.
2. Yetakchi xatti-xarakat.

***<u>Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar</u>***

1. K. S. Stanislavskiy «Aktyorning o‘z ustida ishlashi». Toshkent, Badiiy asar nashriyoti 1965 yil.
2. M. Knebel «O deystvennom analize pesi i roli» M. Iskusstvo 1982 god.
3. A. M. Polomishev «Masterstvorejissyora», «Deystvenniy analiz pesi i roli». Moskva. Prosvesheniye, 1982.


**2-Drama va kino aktyorligi kursida “Aktyorlik maxorati” fani**

**Mavzu: _Voqea_**

<table>
<tr><th colspan="6">MAQSAD VA VAZIFALARI</th></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsad<br><br>. voqea – pesaning muxim omili ekanligini talaba bilishi.</td><td colspan="4">Vazifalar<br>Tanlangan asarlaringizdagi voqeani va xatti-harakatli faktlarni aniqlash, personaj xatti-harakatini o‘ziniki qilish, sahnada hayotiylikka erishish, voqea va xatti-harakatning mantiq izchilligini topish.</td></tr>
<tr><th colspan="6">O‘QUV JARAYONINI MAZMUNI</th></tr>
<tr><td colspan="6">Voqea va xatti-harakatlar mantiq-izchilligini aniqlab, aktyorning sahnada qayta gavdalanishida tasavvur, shart-sharoit, «agarda»ga rioya etgan xolda ishlashi.</td></tr>
<tr><th colspan="6">O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI</th></tr>
<tr><td>Metod<br>Aqliy xujum</td><td>Shakl<br>Amaliy, yakka</td><td>Vosita<br>Sahna, Jonli xatti-xarakat<br>.</td><td>Usul<br>Ijro etish usuli</td><td>Nazorat<br>Repetisiya jarayoni</td><td>Baholash<br>Reyting nazorati asosida</td></tr>
<tr><th colspan="6">KUTILGAN NATIJALAR</th></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
<tr><td colspan="3">- aktyor - personajni harakatlarini o‘ziniki qilib olishini egallashga tayyorlash<br>. aktyorni o‘zini, muallif tomonidan berilgan shart-sharoitlarda harakatlanuvchi shaxsni holatiga quyishga o‘rgatish<br>-asarni mohiyatini bilish,<br>-pesa va rol haqidagi muxokamalarni yaratish,<br>-aktyorga avvalam bor «nafaqat ruhan, balki jismonan rol hayotini real his qilish»ni o‘rgatish<br>- darsning samaradorligini oshirish</td><td colspan="3">- asosiy voqealarni topib ishlamoq<br>- hatti – harakat va kontr hatti – xarakat nimada ekanligini, ya’ni chuqur analizni asosida dramaturgik konfliktni aniklash<br>- sahnada qayta gavdalanishda tasavvur, shart-sharoit, «agarda»ning o‘rnini topish.<br>- saxnada samimiylik va haqqoniyatga erishish<br>-talaba aniq vokealar bilan bog‘langan eng sodda psixofizik harakatlarni bajarishga erishishi</td></tr>
<tr><th colspan="6">KELGUSI REJALAR</th></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qituvchi</td><td colspan="3">Talaba</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| - voqealar tizimini aniqlash bo‘yicha ijodiy izlanish<br>- talabalar faolligini oshirish<br>- ta’lim sifatini oshirish<br>- pedagogik mahoratni o‘z o‘rnida ishlatish | - voqealar tiziminii aniqlash mavzusini puxta egallash<br>- keyingi ijodiy ishlarni rejalashtirish<br>- olgan bilimlaridan samarali foydalanish<br>- yuqori malakali san’atkor salohiyatiga ega bo‘lish<br>- tinimsiz o‘z ustida ishlash |

## 10-ma’ruza

## Voqea

**Darsning o‘quv maqsadi:**

***voqea – pesaning muxim omili ekanligini talaba bilishi.***

***Asosiy savollar.***

1. Tanlangan asarlaringizdagi voqeani va xatti-harakatli faktlarni aniqlab bering.
2. Personaj xatti-harakatini o‘ziniki qilish uchun, nimalar qilish kerak?
3. Sahnada hayotiylikka erishish uchun psixo-fizik xatti-harakat qanday o‘rin egallaydi?

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Stanislavskiy muallif matnini mexanik tarzda eslab qolishni rad etgan, u aynan shu matnni tug‘dirgan barcha shart-sharoitlarni chuqur analiz qilishni talab qilgan. Voqea va harakatlarni aniqlayotib, aktyor pesa hayotidagi berilgan shart – sharoitlarni yanada keng qatlamlarini beixtiyor egallaydi. Stanislavskiy, aktyorlar pesani yirik voqealar bo‘yicha qismlarga bo‘lishni o‘rganishlarini talab qilgan. Asosiy voqeani aniqlayotib, aktyor, berilgan qisqa vaqt ichida uning hayotida, u bir emas, hattoki bir hafta emas, balki bironta yangi voqea uni chalg‘itib va eskisini to‘smaguncha, bir kun yoki bir necha soat yashagan, yanada mayda hodisalar bo‘lganligi ko‘rinadi.

Aktyor, pesani ya’ni muallifni rejasini, uni fikrlari va niyatlarini o‘zlashtirayotib, muallif unga taklif qilgan barcha voqealar va o‘sha shart – sharoitlarni markazida paydo bo‘lib qolishi lozim. U tasavvuridagi buyumlar orasida, o‘ylab topilgan va tasavvur qilingan hayotining ichida yashamog‘i kerak. Ijodiy tasavvur aktyorga shunday xizmat ko‘rsatadiki, uningsiz aktyor o‘ylab topilgan hayotni ichiga kiraolmaydi. Bu qanday tasavvur ekan? Tasavvurni har qanday uydirmasi aniq asoslangan bo‘lishi lozim va kim? qachon? qayerda, nimaga? Nima uchun? Va qanday? Savollari aktyor uchun o‘ylab topilgan, tasavvur qilingan hayot haqidagi yorqin ko‘rinishni tug‘diradigan tasavvurni asta-sekin qo‘zg‘otadi.

Shunday voqealar bo‘ladiki, qachonki mana shu soxta hayot, bizning aqlli, ongli faoliyatimizsiz ham, bevosita sezgan holda yaratilaveradi.

Ammo, bu narsa, fakatgina ba’zida sodir bo‘lishi mumkin, lekin aktiv tasavvurda biz doimo o‘z his-tuyg‘ularimizni qo‘zg‘ataolamiz va bizga zarur bo‘lgan tasavvurdagi hayotni yarataolamiz. Faqatgina orzuga berilish mavzusi aniq bo‘lishi kerak, chunki «umuman» orzu qilish mumkin emas. Tasavvur, inson-artistining organik hayotini uyg‘otishi uchun «uning butun tabiati rolga – nafaqat psixik, balki fizik tarzda berilishi» kerak.

***Voqea va xatti-harakatlar mantiq-izchilligi.***

Aktyor - Personajni harakatlarini o‘ziniki qilib olishi kerak, zero shundagina samimiylik va haqqoniyatga erishish mumkin. O‘zini, muallif tomonidan berilgan shart-sharoitlarda harakatlanuvchi shaxsni holatiga quyishi kerak.

Buning uchun esa avvalom bor, aniq vokealar bilan bog‘langan eng sodda psixofizik harakatlarni bajarish kerak.

Asarni mohiyatini bilish uchun, pesa va rol haqidagi muxokamalarni yaratish uchun, aktyorga avvalam bor «nafaqat ruhan, balki jismonan rol hayotini real his qilish» zarurdir.

Hamirturush ko‘pirtirganday, rol hayotini his qilish ham, artist qalbida, ijodiy anglash prosessi uchun zarur bo‘lgan ichki isish, qaynashni qo‘zg‘otadi. Artistning faqatgina shunday ijodiy holatidagina, pesa va rolga yondoshish haqida gapirish mumkin.

Psixikani va fizikani uzluksiz bog‘liqligini tasdiqlayotib, Stanislavskiy aytishimiz mumkin: aktyorni harakatlantiruvchi shaxsning faqatgina ruhiy hayotiga kirishi, bunday ish usuli o‘z ortidan yirik hatolarni jalb etadi, chunki ruhiy va fizik hayotning bo‘linishi aktyorga harakatlanuvchi shaxsning hayotini his qilish imkoniyatini bermaydi. Teatrdagi tomoshabin, dramaturgik asarni qahramoni saxnada bo‘lgan har bir laxzada nima bilan yashayotganligini, uning nima haqida gapirayotganiga va uning fizik holatiga qarab bilib oladi.

Insonni ichki xolati, uning tilaklari, fikrlari, xis-tuyg‘ulari, aniq so‘z va va aniq fizik harakatlanish bilan ifodalanishi kerak.

Biz aytib o‘tganimizdek aktyorlarni, fizik va ruxiy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik ajralmasligini tushunishga chaqiramiz, demak, insoni ichki va tashqi holatini ijodiy analiz qilish prosessini bilish mumkin emas.

Eng boshida aktyor pesani harakatda analiz qilishi kerak.

Inson tanasi rol hayotini yaratishidagi usul, ya’ni sir va yangi xususiyati shundan iboratki, eng oddiy fizik harakat ham saxnada real gavdalantirilsa, u artistni, uning shaxsiy niyatlari bo‘yicha, tasavvurning bor uydurmalarini, berilgan «agarda» shart – sharoitlarni yaratishga majbur qiladi.

Agarda bitta eng oddiy fizik harakatga tasavvurni shunday katta xizmati kerak bo‘lsa, unda inson tanasi roli hayotini butun chizig‘ini yaratish uchun, o‘z shaxsiy va butun pesaning uzun-uzluksiz, bir qator uydirma va berilgan shart-sharoitlari zarur bo‘ladi. Uni faqatgina ijodiy tabiatini butun ruxiy kuchlari bilan ishlab chiqarilgan analiz yordami bilan tushunish va topish mumkin. Bu usul tabiiy o‘z-o‘zidan shunday analizni keltirib chiqaradi.

***Aktyorning sahnada qayta gavdalanishida tasavvur, shart-sharoit, «agarda»ning ahamiyati.***

Konstantin Sergeyevichni ta'limida xarakatni tushunish doim katta joy egallagan, ammo u o'zining oxirgi izlanishlarida unga alohida ahamiyat bergan.

Agar Stanislavskiy o'z ishining birinchi davrida aktyorlarga: Ayni epizoda, nimani xoxlaysizlar? –degan savolni tez-tez bergan bo'lsa, keyinroq esa Stanislavskiy «Agarda shunday va mana shunday narsa sodir bo'lganida, nima qilgan bo'lar edinglar?»-degan savolni bergan. Agarda birinchi savol aktyorni mushohada qilgan va yetarlicha passiv holatda qoldirgan bo'lsa, unda ikkinchi holatda aktyor aktiv bo'ladi. U o'ziga men aynan, shu shart-sharoitlarda bugun, shu yerda, hozir nima qilgan bo'lar edim, degan savol bera boshlaydi.

Uni harakat qilishga majbur qilayotgan sabablarni anglaydi; u fikrni harakatga keltiradi, hattoki fikran harakat qilayotib, u his-tuyg'uga bo'lgan yo'lni topaoladi.

µahramoni tomonidan qilinayotgan muomilani bilgan holda, u pesaning syujetli chizig'ini rivojlanishida rolni mohiyatini bilib oladi.

Aktyor pesaning harakatli faktlarning butun tizimini chuqur o'rganishi lozim.

Lekin bu ham yetarli emas. Harakat, o'shalar orqali u paydo bo'ladigan bahona-sabablarsiz mavjud bo'laolmaydi.

«Men nima qilayapman?» degan savolni, parallel tarzda paydo bo'layotgan «Nega bunday qilyapman?» degan savolsiz, tasavvur qilib bo'lmaydi, ya'ni har bir hatti - harakatni, uni chaqiruvchi o'z sabablari bor.

Pesa voqealarni, uning personajlarini muomala va hatti - harakatlarini mantig'i va ketma-ketligini o'rganayotib, aktyor ularni qadrlashni asta – sekin boshlaydi, o'z qahramonlarining qilmishlarini, sabablarini anglashni boshlaydi.

Pesada ham, hayotdagidek, doimo eskini yangi bilan, ilg'orni qoloq bilan kurashi sodir bo'ladi.

Har bir pesada birinchi harakatlanuvchi shaxslar bir tomonga, ikkinchilari-ikkinchi tomonga intiladilar.

Bittasida-bitta maqsad, ikkinchisida-ikkinchi maqsad bo'ladi. Buning natijasida to'qnashuvlar, kurash sodir bo'ladi.

Mana shu to'qnashuvlarni sabablarini aniqlash, pesani u yoki bu personajlarni maqsadi va o'zini tutishini sabablarini tushunish, pesani tushunish, ya'ni asar g'oyasini aniqlash demakdir.

Repetisiya davrining birinchida turuvchi asosiy vazifasi – asosiy voqealarni, chetga olib ketishi mumkin bo'lgan mayda – chuydalarga e'tibor bermagan holda tushunmoq, hatti – harakat va kontr hatti – xarakat nimada ekanligini, ya'ni chuqur analizni asosida dramaturgik konfliktni aniklamoqdir. Ayni paytda, pesani fakt va voqealarini baholash nimani bildiradi? Bu ularda yashiringan ichki ma'noni, ularning ruxiy mavjudligini, ularni ahamiyati va ta'sir qilish darajasini topish

demakdir. Bu esa tashqi fakt va voqealarni ichki dunyosini qidirish va ularning ichidagi, ya'ni tagidagi chuqur yashiringan voqealarni topishdir. Bu ruhiy voqeani rivojlanishini kuzatish va uni ta'sir qilish darajasi va fe'l-atvorini his-qilish, harakatlanuchi shaxslarni intilishini kuzatish. Bir so'z bilan aytganda, insonlarni o'zaro munosabatini aniqlovchi ichki sxemani bilish.

Faktlarni baholay bilish-pesani faktlarini tagida yashiringan, rolning «inson ruhini hayotini» ko'plab sirlarini topuvchi kalitni egallash demakdir.

Nazorat savollar va topshiriqlari:

1. Voqea-pesaning muxim omilidir.
2. Voqea va xatti-harakatning mantiq izchilligi.
3. Aktyorning sahnada qayta gavdalanishida tasavvur, shart-sharoit, «agarda»ning o'rni.

***<u>Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar</u>***


1. K. S. Stanislavskiyning «Aktyorning o'z utida ishlashi» Toshkent «Badiiy adabiyot» nashriyoti 1965 yil.
2. M.Knebel «Odeystvennom analize pesi i roli» M. Iskusstvo 1982. . Kristi «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo» Iz-ye 2-s. M Iskusstvo 1979


## 3 - KURS UCHUN MA'RUZA MATN

### 1-ma'ruza

### Kechinma san'at

Asosiy savollar:

1.Stanislavskiy sistemasi xaqida nimalar bilasiz?

2.Beixtiyor ijod nima?

K.S.Stanislavskiy nomi san'at tarixida katta bir davrni o'z ichiga oladi. U yaratgan ijod sistemasi bugungi kun istiqboliga taaluqlidir. Unda sahna san'atining materialistik asoslari ishlab chiqilgan. Stanislavskiy o'zining «Aktyorning o'z ustida ishlashi» kitobida asosiy ta'lim obekti, tadqiqot predmeti qilib sahna xatti-harakati va uning elementlarining psixo-fizik tabiatini olgan va bularni to'la-to'kis bayon etgan.

Stanislavskiy o'z sistemasi bilan teatrdan bachkana teatrni, aktyorlik o'yinidan soxtalikni, yuzakilikni, taqlidchilikni, bachkana qiliq qilishni quvib chiqardi, hamda mazmundorlik va hayotiylikni o'rnatishga urindi. U, o'zining butun hayotini sahnada tirik inson, jonli obraz, hayotiy haqiqatning tantana qilishiga bag'ishladi.

Sahnada – ko'pchilik oldida ijod qilganda rolni chinakamiga his etish, tuyg'uni jonli, - yolg'on qilib ko'rsatmay, balki insoniycha, mantiqan, izchillik bilan, maqsadga muvofiq, unumli xatti-harakat orqali paydo qilish Stanislavskiy sistemasining asosiy moiyatini tashkil etadi.

Ko‘p asrlardan beri teatr san’atining buyuk arboblarini aktyorlik ilxomi o‘ziga tortib kelgan. Ular aktyorlik san’atiga va ilxom masalasiga katta e’tibor bilan qaraganlar.K.S.Stanislavskiy o‘z sistemasi bilan ilxom "iloxiy"bir xodisadir, u aktyorga to‘satdan kelib qoladi, unga muntazam mashqlar bilan erishib bo‘lmaydi,-degan nazariyani tag-tomiri bilan qo‘porib tashladi.U faqatgina aktyorning organik tabiatigina mo‘jizalar yarata olishini ilmiy ravishda isbotladi. Shunday qilib Konstantin Sergeyevich aktyor ijodi,teatr san’ati xaqidagi fanni yaratdi.

Hozirgi zamon aktyorlik va rejissyorlik san’ati, har bir aktyordan, har bir rejissyordan har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lishini, o‘z kasbining eng nozik tomonlarini mukammal bilib olishini talab qiladi.

San’at haqida sodda, tushunarli qilib yozmoq, so‘zlamoq kerak. Donishmandlarga xos gaplar o‘quvchini cho‘chitib yuboradi. Bunday so‘zlar yurakni emas, fikrni uyg‘otadi. Shu sababli ijod davrida aql artist tuyg‘usini va beixtiyor ijodni bosib ketadi, ma’lumki bizning san’atimizda ijod va tuyg‘uga katta ahamiyat beriladi.

Ammo murakkab ijodiy protsess haqida «sodda» qilib gapirish va yozish qiyin. G‘oyat nozik sezgilarni beixtiyor ijodni ifoda qilish uchun so‘zlarning ma’nosi torlik va qo‘pollik qiladi.

Inson qalbi ongimiz va irodamizga bo‘ysunish qobiliyatiga xam ega. Mana shu xususiyat bizning ruxiy jarayonimizga beixtiyor ta’sir ko‘rsatishga qodirdir. Shunisi ham borki, bunga erishish ancha murakkab ijodiy mehnatni talab qiladi, bu mehnat ongimizning bir qadar nazorati va bevosita ta’sir qilishi natijasida sodir bo‘ladi. Bu mehnat ko‘proq beixtiyor va irodamizdan xoli ravishda bo‘ladi. Bu ish mohir, yuksak iste’dodli, eng nozik, murakkab, sergak san’atkor bo‘lgan organik tabiatimiz qo‘lidan keladi, xolos. Eng mukammal aktyorlik texnikasi ham, kitobiy bilim am bu bilan tenglasha olmaydi. Artistlik tabiatimizga bu kabi munosabatda bo‘lish va bu xilda qarash, kechinma san’at qonunidir. Bordi-yu, tabiatimiz injiqlik qilib qolsa-chi? Unda uni qo‘zg‘atish va yo‘lga sola bilish kerak. Buning uchun psixotexnikaning alohida usullari bor. Bu usullarning asosiy vazifasi beixtiyor ijodni ong va boshqa vositalar yordami bilan qo‘zg‘otish va uni ijodiy jarayonga yo‘llashdan iboratdir.

«Aktyorning ongli psixotexnikasi yordamida beixtiyor ijodga o‘tishi», ya’ni ong natijasida beixtiyor ijodga, irodamiz orqali ixtiyorsiz hatti-xarakatga o‘tish degan prinsip kechinma san’atining asoslaridan biri bo‘lishi ham bejiz emas. Beixtiyor ijodni sergar tabiatimizga topshiraylik-da, qo‘limizdan keladigani-ijod qilishning ongli yo‘llariga va psixotexnikaning ongli usullariga murojaat qilaylik. Ular bizni hammadan burun beixtiyor ijod boshlanganida unga halaqit bermaslikka o‘rgatadi. Agar artist o‘zini sahnada o‘rab olgan sharoit tabiiy va normal holda, hatto juda oddiy shaklda, inson tabiatining barcha qonunlari asosida sodir bo‘layotganini anglay olsa va buni to‘la his etsa, shundagina u beixtiyor ijodning chuqur sir-sanoatlarini asta-sekin tushunib oladi. Bizga notanish bo‘lgan tuyg‘ular

ham shundan chiqib keladi. Ular bizni qisqa muddat ichida yoki allavaqtgacha chulg‘ab oladilarda, qalbimiz buyruq qilgan tomonga yetaklab ketadi. Uning boshqaruvchi kuchlarini bilmaganimiz va o‘rganolmaganimiz uchun uni, aktyor tili bilan aytganda «tabiat» deb atay qolamiz. Biroq to‘g‘ri davom etuvchi organik ayotimizni buzdikmi, sahnada noto‘g‘ri ijod qila boshladikmi, shu ondayoq injiq beixtiyor ijod zo‘ravonlikdan qo‘rqib, yana o‘zining bexavotir sirxonasiga bekinib oladi. Bunday holat yuz bermasligi uchun, eng muhimi, samimiyat bilan to‘g‘ri ijod qilmoq kerak. Shunday qilib, beixtiyor_ijodni uyg‘otish, ilhomning jo‘sh urishi uchun artistning ichki hayotida realizm, xatto naturalizm ham zarurdir.

Etyudlarni_yaratishda ongli va to‘g‘ri ijod talab qilinadi. Bu esahaqiqatni yaratadi, haqiqat esa ishonch uyg‘otadi, agar tabiatimiz inson vujudida ro‘y berayotgan ahvolga ishonsa, o‘zi ham ishga kirishadi. Uning orqasidan beixtiyor ijod ishga tushib, ilhom ham kela qoladi. Aktyor o‘ziga berilgan obrazni katta ishonch bilan haqqoniy ijro etmog‘i lozim. Lekin ba’zi birlari biz bilgan real insoniy hayotni emas, balki boshqacha sahna uchun pardozlangan hayotni yaratadilar. Mana shuning uchun ham taqlidiy san’atga mansub bo‘lgan artistlar rolni, faqat ishning boshlanish paytida, repetitsiya davrida to‘g‘ri, insonga xos qilib boshdan kechiradilar, keyin sahnada, ijod qilish paytida avvaldan belgilab qo‘yilgan shartli kechinmaga o‘tadilar. Buni oqlash uchun shunday bahonalarni ham topib qo‘yishgan: teatr va uning tomoshasi shartlidir. Sahna haqiqiy hayotni gavdalantirish vositalari uchun haddan tashqari kambag‘al, shuning uchun ham bu shartli vositalardan qo‘l siltamay, aksincha, ularni sevmog‘i lozim.

Bunday ijod go‘zal, lekin mazmundor emas, u kuchli bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq jozibadordir; unda mazmunga nisbatan shakl qiziqroqdir.Bunday ijod yurakka emas, ko‘proq ko‘z bilan quloqga ta’sir qiladi-binobarin hayajonga solishdan ko‘ra ko‘proq kishini zavqlantiradi. To‘g‘ri, bu san’at ham tomoshabinda kuchli taasurot qoldira oladi. Voqea ko‘z o‘ngingda bo‘lib turganida o‘ziga mahliyo qiladi, hatto go‘zal xotiralar uchun asos ham yaratadi, lekin bunday taasurotlar ko‘ngilni isitadigan va unga chuqur ta’sir qila oladigan taasurotlar bo‘lmaydi. Bunday san’atning ta’siri o‘tkir bo‘lgani bilan umri qisqa bo‘ladi. Unga ishonishdan ko‘ra ko‘proq taajjublanasan kishi. Shuning uchun bu san’at katta kuchga ega emas. Uning kuchi ayratda qoldirishga va sahnada hamma narsani chiroylik qilib ko‘rsatishgagina yetadi, xolos. Chuqur hislarni ifodalash uchun esa uning vositalari yoki haddan tashqari serhasham yoki haddan tashqari yuzakidir, nozik va chuqur insoniy tuyg‘ular texnik usullarga bo‘ysunmaydi. Bu sezgilar tabiiy kechinma va uni gavlantirish paytida tabiatimiz yordamiga muhtojdir.

Nazorat savol va topshiriqlar:
1. .Shakl va mazmun xaqida gapirib bering.

**Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar**:

1.K.S.Stanislavskiy “Aktyor o‘z ustida ishlashi”
**2.** B. Zaxava «Masterstvo aktera i rejissura» J. Maxmudov tarjimasi.

## 2- ma’ruza

## Metod va sistema (Usul va tizim. )

**Asosiy savollar:**

1. Metod (usul) qanday vazifalarga xizmat qiladi?
2. O‘quv jarayonidagi kalassik dramaturgiya ustida ishlash sababi?

1. Aktyor o‘z ustida ishlashda asosan nimaga ko‘proq e’tibor bermog‘i kerak?.

3-kursning o‘quv jarayonida aktyorlik maxorati sanatida, og‘irlik markazi - «aktyorning rol ustida ishlashi» – degan mavzuga tushadi. Bu vaqtgacha 3- kurs talabalari bu mavzu uchun tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi kerak –artistlik texnikasi, etyud va parchalar bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishlari shart. Spektaklda, rolda qayta gavdalanishi uchun bu ishlar ularga qayta ko‘makdosh bo‘ladi. 3-kursning eng muxim vazifasi bu - obrazda xatti – harakat qilishga o‘rganishdir. Bu bilan birga «o‘z ustida ishlash»-kabi ishlarni yoddan chiqarmasligimiz kerak.

O‘quv spektaklni yaratayotib, talabalar «pesa va rol ustida ishlash»- metodiga o‘rganadilar. Ayrim xollarda, aktyor pesani o‘qishi bilanoq, pesani ichki mohiyatini anglab, shu obrazda yashay boshlaydi. Ammo ko‘pincha aktyor, yangi rolga duch kelganda, san’atning butun qiyinchiligini ko‘radi. Qanday qilib bu xolatdan oson chiqish mumkin? Ishni nimadan boshlasa unumli va maqsadga muvofiq bo‘ladi? Birinchi navbatda aktyor spektakl yoki parcha uchun olingan pesa bilan yaqindan tanishib olishi kerak. Unda nima sodir bo‘layotganini, avtorning niyati yoki rejasini, pesa qaxramoni va undagi voqeaga munosabatini, obrazning xis-tuyg‘usini, xatti-harakatini o‘ziniki qilib olishini, ularni o‘zining tanasiga, ovoziga ko‘chirishni,qayta gavdalanishda obrazning tashqi formasini ham topishni bilish kerak. Teatr san’ati-kollektivdan (ommadan) iborat. Teatr ishi tashkillashtirilishi lozim. Bir kishining ijodi, boshqa kishining ijodiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday ishlar spektakl yaxlitligiga olib keladi, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aktyor rol ustida ishlaganda, tinimsiz izlanishda bo‘ladi. Avtor niyatini bilish uchun, rolni muxokamasi ustida ishlash, pesani qayta-qayta o‘qib, anglab olishga harakat qilish kerak. Ayrim xollarda aktyor ijodiy organikadan aylanib o‘tib ketadi. Faqat natijaga tezroq yetib kelish niyatida, rolning tashqi formasiga ega bo‘ladi. YA’ni obraz xarakterini tashqi tomonini, nutqi, intonatsiya, jest, mimikalarini ko‘rsatadi. Ammo shu jarayonning tabiiyligiga bu bilan erishib bo‘lmaydi. Bunday xollarda aktyor, partnyorning jonli

muloqatidan maxrum bo‘ladi. Oxir oqibat bu narsa taqlidiy san’at tushunchasiga olib keladi. Mezanssenalarni, bo‘lg‘usi spektaklning tayyor postanovka yechimini, janri, ritmini oldindan o‘ylab qo‘ymoq xatodir.aviy obraz yaratishda aktyor ishini shunday tashkillashtirish kerak-ki, ijodiy natija organikali, bo‘rttirilmasdan, tabiiy yetilishi kerak. Metod (usul) mana shu vazifaga xizmat qilish kerak. Stanislavskiy sistemasigacha, “sirtdan ichki tomonga”- degan tushunchaga san’atkorlar bo‘ysunar edi. Keyinchalik esa, «ichki tomondan sirtga» - qarab, ya’ni ichki xolatdan xatti – harakatga, hamda rol kechinmasidan, uning qayta gavdalanishiga degan tamoyilga rioya qilingan holda ishlay boshladilar. Aktyorlar har xil texnik usullar bilan o‘zlariga ichki kechinma xolatlarni yaratmoqchi bo‘ldilar. Rol ustida ish, pesani psixologik analiz qilishdan boshlanar edi. YA’ni, rol moxiyatini, irodali vazifalarni, kayfiyatni aniqlash ishlarga e’tibor qaratilar edi. His – tuyg‘ular xotirasiga tayangan xolda, ilk kechirgan his – tuyg‘ularni uyg‘otmoqchi bo‘lar edilar. Aktyorlar fizik xatti – harakatga o‘tishdan oldin, stol atrofida o‘tirib, rolga kirishga, uning ma’naviy mazmunini egallashga harakat qilar edilar. Ammo, bu qilinayotgan ishlar xato ekanligini, oqibatda tushunib yetdilar. Avval qatnashuvchining psixologiyasiga, kayfiyat va his – tuyg‘unlariga erishish, stol atrofida rolni anglab olish va kechinmaga erishish, undan keyin xatti – harakatda gavdalanish aktyor ishining eng yaxshi «ishlash usuli» - deb aytib bo‘lmaydi. Aktyor ongini ko‘p, kerak emas vazifalar bilan to‘ldirish shart emas. Stol atrofida «kechinma» larga o‘rganib qolgan aktyor, sahnada ham faol xatti – harakat qilish o‘rniga «kechinma»ni qayta ko‘rsatishga harakat qiladi. Oqibatda yangi tashqi «shtamp» ya’ni qolip, ishonarli darajadagi «kechinma» tug‘iladi. Hayotda psixik jarayon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bizni o‘rab turgan atrof muhitdagi real voqealar kelib chiqqan holda sezgi organimiz ishga tushadi. Undan chiqdi – aktyorning sahnadagi har bir qadami organik (jonli) bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, o‘sha fizik jarayondagi qabul qilish va ta’sir qilish kuchlarini o‘rnatishimiz kerak. Ularning ta’sirida bizning ichki dunyomiz yuzaga chiqadi va shakllanadi. O‘quv jarayonidagi pesa ustida ish, teatrlar spektakl postanovkasidan katta farq qiladi. O‘quv jarayoni o‘z oldiga boshqacharoq maqsad qo‘yadi va boshqacha tashkillashtiriladi. Talabani qiziqtirish uchun, ijodiy vazifasini tushunishi uchun turli usullar qo‘llaniladi. Talabani qiziqtirish uchun, olingan asar g‘oyasi sayoz bo‘lmasligi, obrazlar psixologiyasi eski sarqit bo‘lmasligi kerak. Metod (Usul) va sistemani «tushundim» - deb yig‘ishtirib qo‘ygan odam xato qiladi. Metod va sistema doim bizga kerak. Qiyin vaqtlarda, savolga javob topaolmaydigan paytlarda, asarning moiyatini chuqur tushunib yetaolmaganimizda –xullas xar doim, muntazam ravishda metod va sistemaga murojat qilamiz.

Mana shunday talablarga odatda, klassik dramaturgiyalar javob beradi. Kalassikadan o‘tgandan so‘ng, talabalar zamonaviy pesalar ustida ishlash uchun shaylanishi, qurollanishi mumkin va shunday paytlarda ularning diplom spektakllari o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Ijodiy jarayonni o‘tib, spektakl ustida

ishlashga kirishganda shoshilmaslik va qo‘rqmaslik lozim. 3 –kurs oxirida diplom spektakl tayyor bo‘lmasa – bu fojea emas imtixonga spektakldan alohida aktlarini va sahnalarni olib chiqish mumkin.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

1.O‘qish jarayonida klassik dramaturgiyaning ahamiyati.

**Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora v shkole Stanislavskogo».
Z.Axmedova tarjimasi.

## 3-ma’ruza.
## Rol ustida ishlash.

Asosiy savollar:

1. Pesa o‘qilgandan so‘ng, fikrlar almashuvi aktyor uchun qanday ahamiyatga ega?
2. Nima uchun pesa birinchi bor kollektiv bilan o‘qiladi?

Ayrim o‘qituvchilar pesani kursda o‘zi o‘qib bermasdan, talabalarning o‘zlariga tashlab qo‘yadilar. Talabalar bundan foydalangan xolda, tushlik paytida, transportda, uxlash oldidan, parcha – parcha qilib, bo‘lib o‘qiydilar. Ular o‘zlariga kerak joylarni faqat o‘zlarining obraziga e’tibor bergan xolda (tomoshabinni kuldirishga, o‘zini ko‘rsatishga, xullas o‘zini yutug‘ini o‘ylab) o‘qiydi. Pesa haqida yuzaki, noravshan fikrlar tug‘uladi. Bu albatta xato.

Pesani birinchi bor o‘qilishi-akter uchun qandaydir bir xayajonli vaqt bo‘ladi. Bu uning ijodga birinchi qadami xisoblanadi.

Pesa o‘qish- jamoani birlashtiruvchi ijodiy vazifadir. Shuning uchun pesa o‘qish, shunday tashkillashtirilish kerakki, dramaturg ijodiga nisbatan aktyorlarda xurmat tuyg‘usi, ma’suliyat tug‘ilish kerak. Pesa o‘qish jarayoni tantanali ravishda boshlanishi lozim.

Klassik pesa o‘qish jarayoni oson kechmaydi. Chunki pesani o‘z ko‘zingiz, o‘z dunyoqarashingiz, bugungi kunda yashayotgan inson fikri bilan, o‘rganish kerak. Obraz siz tomondan mustaqil, yangi, qaytariqsiz, badiiy yaxlitlik bilan yaratilishi kerak.

Ayrim xollarda pesani o‘qigandan so‘ng, u haqida noto‘g‘ri talqin, fikr yuritadilar. Pesani tushunish uchun avtor xaqida, zamon xaqida tushunchaga ega bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Sizga yaxshi tanish bo‘lgan pesani ham, birinchi bor tanishayotganday o‘zingizning mustaqil fikringizga ega bo‘lishingiz lozim. Pesani,

yuqorida aytganimizdek jamoa (kollektiv) bilan o‘qish lozim. Pesa o‘qish, badiiy ijroga aylanmasin. Aktyorlarga rol traktovkasini (sharx qilishni), intonatsiyani, xarakterlilikni pesa o‘qish jarayonida o‘rgatmaslik kerak. Pesa o‘qish – ma’ruza matni o‘qilgandek o‘qilishi va avtor fikri borishini, xamda voqealar burilishini sinchiklab kuzatib borish tavsiya qilinadi. Pesa o‘qib bo‘lgandan so‘ng, mustaqil fikrlar almashuvi bo‘ladi. Aktyorlar o‘zlarining birinchi taasuroti haqida, bu pesada ularni nima qiziqtirdi – yu, nimaga sovuqqonlik bilan yondashganligi xaqida o‘zaro suxbatlashadilar. Bunday suxbatlar ko‘pincha yuzaki o‘tadi. Shuning uchun shoshilmaslik kerak.

Har bir yangi rol, aktyor oldiga bir talay savol bilan keladi. Ishni shunday tashkillashtirish kerakki, savollarga javob talaba ongida o‘zi pishib yetishsin. Tayyor javobni aytib berish bu katta xatodir. Misol uchun – birinchi pesa bilan tanishgandan so‘ng talabadan pesa g‘oyasi, uning oliy maqsadi, yetakchi xatti - harakatini topishni talab qilib bo‘lmaydi. Talabalar fantaziya orqasidan shoshilib ketmasligi kerak.

Ijodning tirik organik jarayoniga erishaman degan inson, natijani bo‘rttirmasligi, rejissyor esa, asarning yechimini talaba ongiga majburiy singdirmasligi kerak. Pedogog vazifasi – obrazni jonli tabiat qonuniga binoan, extiyotkorona parvarish qilish zarur. Agar pedogog aktyor-talabaga o‘zining fikrini, o‘zining xis – tuyg‘ularini, emotsional xotirotlarini bog‘lasa, bunda talabani jabrlagan bo‘ladi. Har bir insonning o‘zicha dunyoqarashi, o‘zicha fikri, o‘zicha xis – tuyg‘usi bor albatta. Aktyor obrazining xulq atvor, muomalasini, o‘zining emotsional xotirasi bilan jonlantirmas ekan, bo‘lajak obrazga o‘zining munosabatini aniq bildiraolmaydi, boshqalarning fikrini tanqidiy muloxaza qilishga qodir bo‘lmaydi. Bunday fikr uni yo‘ldan uradi, ijodiy tashabbuskorlikni cho‘ktiradi, mustaqil yechim topishda qiynaladi. Mustaqil pesa materialini qismlarga bo‘lib, hal qilishni aktyorning o‘ziga qo‘yib berish kerak.

**Nazorat savol va topshiriqlari.**

1.Asar taxlili. (xaqida).

2. Pesa bilan tanishuv.

**Qo‘llanilgan adabiyotlar.**

1. B.Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissuri»dan doklad,. Z.Axmedova tarjimasi.
2.Kristi «Vospitaniye aktyora v shkole Stanislavskogo». doklad, Z.Axmedova tarjimasi.

## 4-ma’ruza

## Rol xayotining tashqi tomoni

**Asosiy savollar:**

1. Pesa fabulasi deganda nimani tushunasiz?
2. Pesa hayotining bayonnomasi tushunchasi haqida bayon eting.

**Mavzu rejasi**.

Pesani anglab yetish jarayonini Stanislavskiy, yer ostidagi qazilma boylikga asta-sekin yetib borish misoli bilan tenglashtiradi. Avvaliga o‘simlik dunyosining ustki qismi olinadi, keyin har xil, ko‘zga ko‘rinmaydigan zaminning geologik qatlami bo‘ladi. Shunday qilib inson asta yer qobig‘ining ichiga kirib boradi va uni qurilishini anglay boshlaydi. Yer ostining markazida qaynayotgan olovni (massani), Stanislavskiy hamma ham yetisholmaydigan ijodiy ongning maydoniga o‘xshatadi. Eng yuqorigi, ko‘rinadigan va seziladigan qatlam bu - fabula[1], fakt[2] - pesaning tashqi voqeasi. Faqat shular dramatik asarning obektiv asosini tashkil etadi. Mana shularni birinchi navbatda baholash va aniqlash kerak. Tragediyani talil qilganda eng muhimi – «hodisalar tarkibini» aniqlash kerak- keyin esa, boshqasini, ya’ni fikrni so‘z orqali, xarakter, sahnaviy shart-sharoitni – deb aytgan edi Aristotel.

Xodisalar tarkibini aniq baholash keyinchalik sahnaviy voqeani, xatti-harakat qilayotgan shaxsni xarakterini aniqlashda yordam beradi. «Tashqi voqealarni o‘rganish vaqtida faktlarni tug‘dirish bilan birga, pesaning berilgan shart-sharoitiga duch kelamiz. Ularni o‘rganayotib, ularga daxldor ichki sabablarni anglaymiz. Shunday qilib, hayotning va inson ruhiyatining eng chuqur ma’nosini ko‘ramiz, podtekstga yaqinlashamiz va pesaning suv osti oqimi tizimiga tushib qolamiz» – degan edi Stanislavskiy. Pesa ustida birinchi bor ishlaganda qisqacha uning mazmunini bayon qilib berishdan boshlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. **I**loji boricha ketma-ket voqea va faktlarni aniq bayon etishi xaqida aktyorga aniq vazifa beriladi. Avvaliga faktlarni g‘oyaviy oqlash, emotsional xotira va g‘oyani psixologik tomonini ochish va o‘zining hayoliy to‘qimalari degan tushunchalarni chetga surib turish zarur.

Misol qilib; «Romeo va Djuletta» tragediyasining sahnaviy faktlardan kelib chiqqan birinchi voqeaga murojaat qilamiz.

1.Kapulettilar oilasiga qarashli 2 ta xizmatkor uydan chiqdi.

2.Oldilaridan Montekki oilasiga mansub xizmatkorlar o‘tib qoldi. 3.Kapuletti xizmatkorlari ularni masxara qila boshlaydi.

4.Avvaliga janjal boshlanib, keyin urishib ketadilar.

5.Benvolio kelib, ularni ajratishga harakat qiladi.

6.Benvolio oldiga Tibalt kelib u bilan urishib ketadi.

7.Yo‘lovchilar urushga qo‘shiladi.

---

[1] Фабула – адабий асар сюжетининг схемаси

[2] факт - ³а±и±атдан содир б°лган иш

8.Shovqinni eshitgan Montekki va Kapuletti oilalariga mansub odamlar chiqib, urushga qo‘shiladi.

9.Oila boshliqlari - qilichini yalang‘ochlaydi. Xotinlari ularni ushlab qolishga harakat qiladi.

10.Urush cho‘qqisida gersog paydo bo‘ladi. U zo‘r urinishlar bilan urishayotganlarni ajratishga, tartib o‘rnatishga harakat qiladi.

11.Gersog o‘lim jazosi bilan ularni qo‘rqitib, po‘pisa qiladi.

Barcha hisoblangan faktlar bitta voqea mohiyatini o‘z ichiga oladi: gersog tomonidan bostirilgan, ko‘chadagi ikki oila nizosi. Agar butun pesa bo‘ylab shunday borilsa, faqat tashqi tomonidan olingan, «pesa hayotining bayonnomasi»ni topgan bo‘lamiz. Ammo xatti-harakatli talilni boshlash uchun, shuning o‘zini topganimiz ham yaxshi. Shunisi muhim-ki, birinchi bor aniqlangan sahnaviy voqea bo‘layotgan xodisalarning ichki tomonini ochayotgani yo‘q. Faqat ko‘zga ko‘ringan, tashqi tomonini ochmoqda. Vaqti kelib, aktyorning ijodida gavdalanadigan, yashiringan ruhiy mazmun paydo bo‘ladi. «Inson ruhiyati hayotiga» kirishdan oldin, obraz yaratilayotgan «inson tanasi hayoti»ni egallash zarur. (organik jarayonning barcha tafsilotlariga rioya qilgan olda.)

**Nazorat savol va topshiriqlari.**

1. Birinchi taxlil xaqida bayon eting.
2. Pesa xayotining bayonnomasi.

**Tavsiya etildigan qo‘shimcha adabiyotlar.**


1. K.S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi».
2. G.Kristi «Vospitaniye aktyora v shkole Stanislavskogo». Z.Axmedova tarjimasi.
3. Avdeyeva L. “Abror Hidoyatov”, Toshkent, 1960 y.


## 5- ma’ruza.

## Mumtoz chet el dramaturgi V. Shekspir va uning asarlari

**Asosiy savollar:**

**1.**V. Shekspir ijodi xaqidagi fikringiz?

2.«Romeo va Djuletta» pesasining voqea tizimlari qanday tuzilgan?.

V. Shekspir barcha asarlarni o‘z ichiga olgan, jahon badiiy madaniyatining eng nodir va buyuk ijodkorlaridan biridir. U 1564 yilida Angliyada tug‘ilgan, V. Shekspir maktabni tamomlagach 1612 yilga qadar «Globus» nomli xalq teatrida aktyorlik qiladi va repertuar – adabiyot masalalari bilan shug‘ullanadi, ko‘p o‘tmay o‘z pesalarini yozib, katta shuxrat qozonadi. Uyg‘onish (Renesans) davri - G‘arb

va Sharq tarixida , ayniqsa ma'naviy hayoti, fani, adabiyoti san'at tarixida alhoida o'rin egallagan, alohida ahamiyatga molik bo'lgan juda katta voqealardan biridir.

U, uzundan – uzun zamonlar mobaynida davom etgan ma'shum o'rta asirchilik zulmati bilan qoplangan qoloq jamiyatni, nurli ijodkorlikga, har tomonlama taraqiyotga olib chiqa boshladi, taxqirlanib kelayotgan aql ozodligi bayrog'ini, insonparvarlik, g'oyalarini baland ko'tarib chiqdi. Umuman dunyoning bir qismini qator jixatlardan ma'lum darajada yangi yo'lga – taraqqiyot yo'liga solib yuradi.

Shekspir ijodi G'arbdagi ana shu uyg'onish davri adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. Bu ijod katta dramatik asarlardan va mashxur sonetlardan tashkil topgan. Shekspirning mashxur yirik dramatik asarlari: «Otello», «Qirol Lir», «Gamlet», «Romeo Djuleta», «Makbet», «Qiyiq qizning quyilishi», «Richard- 3» va yana shunga o'xshash juda ko'p asarlarini o'qiganimizda shu fikrga kelamizki, uning asarlari asosini xaqiqat va hayotning o'zi tashkil etadi, shuning uchun barcha asarlari juda xaqqoniy va kuchlidir. Shekspirning ilk yirik dramatik asari – mashxur, «Romeo Djuletta» dir. Voqealar Italiyaning – Verona shahrida bo'lib o'tadi: Feodalizm jamiyatidagi eng yaramas xisoblangan, insonning ezgu istaklariga jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan qabilaviy dushmanlik, nizolik, ikki, bir – birini bexad sevgan va juda katta baxtga xaqli bo'lgan yoshlarning baxti yo'lini kesadi, sevgisini bo'g'adi va ularni o'limga olib keladi. Bu voqea quyidagi sabalarga ko'ra (4 – darsda bayon etilgandek) yuz beradi: ikki xil, buning ustiga bir – biriga dushman ikki qabila: shularga mansub bo'lgan Montekki va Kapuletti oilalari: ularning bir – biriga teskariliklari buning ustiga va shu boisdan bu ikki ona va ikki otalarning rozi emasliklari. Mana shu ikki oilaga mansub bo'lgan ikki yoshning bir birlarini sevishlari va hayot qurishlari, baxtli bo'lishlari mumkin emas, bunga ularning xaq -xuquqlari yo'q, o'lishlari mumkin, ammo bunga, bu sabablarga qarshi chiqishlari aslo mumkin emas.

Pesadagi bosh fojea – undagi sevishgan, ikki qalb, Romeo va Djulettalar fojiasi mana shudir. Avtor buni geneal tarzda aks ettirib – ifodalab, fojea sabablarini chuqur taxlil qiladi, kat'iy rad etadi, inson erki va sevgi ozodligini kuylaydi, inson qadr - qimmatini ko'klarga ko'taradi. Asarda inson, uning ezgu intilishlari, yurak va vijdon ozodligi, sevgisi, qadr - qimmatini kuylaydi, inson qadr - qimmatini ko'klarga ko'taradi. Asarda inson, uning ezgu intilishlari, yurak va vijdon ozodligi, sevgisi, qadr - qimmati xar narsadan yuqori turadi. Adibning fikricha, inson daosi qadr - qimmati, aq - xuquqi, taqdiri uning qaysi tabaqa qabila va mansabda ekanligi va qancha davlatga egaligi emas, insoniy moiyati, insoniy fazilatlari bilan o'lchanadi. Shunday qarash va shunga sodiq qolish, shunga rioya qilish xatto xayotdan voz kechishga olib keladigan ulug'vorlikdir, insoniylikka vafodorlik ifodasidir, shu darajada yuksak qudratli va muqqadas issiyotdir! Masalalarni buyuk adib mana shunday qo'yadi va o'zining g'oyat sevimli yoki ikki yosh qaxramonning xalokatini alam olovida o'rtangan xolda ko'rsatadi, feodalizm va insoniylikga zid hissiyotlar ustidan juda qattiq hukm chiqaradi,

shunday asarni insoniyatga taqdim etadi. Bu asarda ikki beguno yoshning sevgisi dunyoga sig‘madi, dunyo esa ularni o‘ziga sig‘dirmadi.

O‘sha zamon ularni yengadi, ammo muabbatini yenga olmaydi, ularning sevgisi u zamonni yengadi.

Umuman, ikki bir –biriga qarama - qarshi turgan oilada issiyotlar va kurashlar oqibati, fojea falsafasi bilan sug‘orilgan.

«Romeo va Juletta» davrga sig‘magan sevgi dostoni bo‘lib, shu sevgi qudrati va fojeasiga bag‘ishlangandir. Bu fojea mazmuni – feodal jamiyatidagi okim insoniylikka zid sharoit va urf – odatlarni fosh qilish, amda qoralashga qaratilgandir. Unda sevgi, vafodorlik, ozodlik kuylanadi. Ayniqsa muabbat buyuk san’atkor tomonidan nioyat darajada xayratlanarli maorat bilan juda nozik, samimiy, ta’sirchan, lirik tarzda ifodalanadi. Eng muimi yana shundan iboratki, avtorning juda katta ustalik bilan ko‘rsatishigacha, odamlar sevgi va adolat, aqiqat va ozodlik uchun kurashlar jarayonida rivojlanadilar, chiniqadilar xatto ba’zi illatlardan tozalanadilar, o‘z ideallariga izchil sodiq, fidokor va ar qanday zaifliklarni namoish qiladigan bo‘ladilar. Buni daramturg ikki sevishgan qaramon faoliyatida juda yaxshi ko‘rsatadi. Mana shu asar yaratilganiga bir necha yuz yil bo‘lgan bo‘lsada, amon dunyoda sevishganlarning madi va muofazalari, yordamchisi va kurashchisi sifatida faol xizmat qilib kelmoqda. Endi asar taliliga kelsak, birinchi navbatda, voqealar tizimini aniqlab oilishimiz shart.

**Voqealar tizimi:**

***1.*** Boshlovchi voqea – ikki oilaning o‘rtasidagi nizo.
***2.*** Bosh voqea – bal.
***3.*** Markaziy voqea – Tibalt o‘limi.
***4.*** Final voqea – Romeo va Djuletta o‘limi.
***5.*** Asosiy voqea – ikki oilani yarashuvi.
shart – sharoit- nizo.

Berilgan shart – sharoit – muxabbat (ikki yoshning bir – birini sevishi)

Yetakchi xatti – xarakat – birga bo‘lish.

SXEMA.






**Yetakchi xatti – xarakat**

**(Birga bo‘lish uchun intilish)**

**shart – sharoit (ikki oilaning nizosi)**

1. Pesaning oliy maqsadi – ezgu muxabbatning tantanasi, g‘alaba qozonganligi (muxabbat nafrat ustidan g‘alaba qozondi va urush o‘rniga tinchlik o‘rnatildi).
2. Romeo Djulettaning oliy maqsadi – baxtiyor oila qurish, sevish.

3.Ularning yetakchi xatti – arakati (barcha qarama - qarshiliklarni bartaraf etgan xolda) birga bo‘lishga intilish.

4. Shart – sharoit – ikki oilada ko‘p yillardan buyon davom etayotgan nizo.

***Bu asarda inson va uning ezgu intilishlari, yurak va vijdon ozodligi, sevgisi, qadr - qimmati – xar narsadan yuqori turadi.***

**Nazorat savol va topshiriqlari.**

1. V. Shekspir hayoti va ijodi.
2. Romeo va Djuletta pesasining taxlili.

**Tavsiya etildigan qo‘shimcha adabiyotlar.**

1. Vilyam Shekspir – «Badiiy dao mujassami» Voxid Zoxidov.
2. Nazira Aliyeva - “ San’at mening hayotim”, Toshkent 1975 y.

## 6 -ma’ruza

## Oliy maqsad

Asosiy savollar:

1. Oliy maqsadni nimaga asoslanib ,qanday nomlash mumkin?
2. Pesada oliy maqsadning o‘rni.

Yozuvchining ayrim fikrlari, tuyg‘ulari, turmush orzu umidlari uning butun xayotiga singib ketadi va ijod vaqtida unga, raxbarlik qilib turadi. Bular pesa asosini tashkil etadi, urug‘dan adabiy asar paydo bo‘ladi. Bu fikrlar, tuyg‘ular, xayotiy orzu – umidlar, yozuvchining tashvish va quvonchlari pesaning asosi bo‘lib qoladi: shular uchun u qo‘liga qalam oladi. Saxnada yozuvchining fikr – tuyg‘ularini, uning orzu – x ayollarini, tashvish - quvonchlarini ko‘rsatib berish spektaklning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Kelajakda bu asosiy, bosh maqsaddan xamma vazifalarni mustasnosiz o‘ziga biriktiruvchi, psixik ayotni arakatlantiruvchi elementlarning ijodiy intilishini amda artist rolining avoli, ruiyat elementlarini vujudga keltiruvchi xamma narsani o‘z ichiga qamrab olgan maqsad – yozuvchi asarining oliy maqsadi – deb ataladi.

Pesada nimaiki ro‘y bermasin, undagi barcha katta – kichik vazifalar, rolga monand bo‘lgan artistning amma ijodiy fikri – zikri, xamda xatti – arakatlari pesaning oliy maqsadini bajarishga qaratiladi. Spektaklda sodir bo‘layotgan voqealarning u bilan umumiy bog‘lanishi va unga qaramligi shu qadar kuchliki, oliy maqsadga aloqador bo‘lmagan, xatto eng kichik detal am ortiqcha, zararli, diqqatni asarning asosiy moxiyatidan chetga tortuvchi bo‘lib keladi.

Oliy maqsadga intilish yaxlit, uzluksiz, butun pesa ma’zmuni bo‘yicha o‘tib borilishi lozim.Uzluksizlikdan tashqari, bu xildagi intilishning sifatini va kelib chiqishini am farq qila bilmoq kerak.U aktyorchasiga, rasmiy bo‘lishi va deyarli to‘g‘ri, umumiy yo‘nalishida borishi am mumkin.Bunday intilish asarni boshdan – oyoq jonlantirib yubormaydi, chinakkam unumli maqsadga muvofiq xatti – arakatga bo‘lgan faollikni qo‘zg‘atmaydi. Bunday ijodiy intilishning sanaga keragi yo‘q.

Ammo boshqacha – pesaning asosiy maqsadi uchun xizmat qiladigan chinakam, insoniy, faol intilish xam bo‘lishi mumkin. Bunday uzluksiz intilish, xuddi gavdaning asosiy qon tomiri singari artist organizmini va gavdalantirayotgan shaxsini oziqlantiradi, ularga va butun pesaga ayot baxsh etadi. Bunday chinakam jonli intilishni oliy maqsadning sifati, kiziqarliligi bilan qo‘zg‘otish mumkin. Ulkan

oliy maqsad bo‘lganda unga bo‘lgan mayl g‘oyatda kuchli: ulkan bo‘lmaganda bo‘sh bo‘ladi.

His – tuyg‘usiz oliy maqsad bizga kerakmi? Quruq, xis – tuyg‘usiz oliy maqsadni am keragi yo‘q. Ammo ongli, oqil, qiziqarli ijodiy fikrdan kelib chiquvchi oliy maqsad g‘oyatda zarurdir.

Bizning butun tabiatimizni qo‘zg‘atuvchi xissiy oliy maqsad kerakmi? Xa, juda kerak.

Ijodiy tasavvurni qo‘zg‘atuvchi, butun diqqatni qamrab oluvchi, xaqiqat tuyg‘usini qanoatlantiruvchi, ishonchini qo‘zg‘atuvchi va artist axvoli ruxiyatining bo‘lak elementlarini xayajonga keltiruvchi oliy maqsad to‘g‘risida nima desa bo‘ladi? Psixik ayotni arakatlantiruvchilarni, artistning o‘z elementlarini qo‘zg‘atuvchi ar qanaqa oliy maqsad bizga osh, nondek zarurdir.

Shunday qilib, bizlarga yozuvchining ko‘zda tutgan maqsadiga monand bo‘lgan, lekin ijodkor artistning insoniy qalbida muqarrar ravishda bunga javob qo‘zg‘atuvchi maqsad kerak ekan. Mana shu rasmiy, is – tuyg‘usiz emas, balki chinakam, jonli, insoniy kechinmani keltirib chiqara oladi.

Boshqacha qilib aytganda, oliy maqsadni faqat roldan emas, balki artistning ko‘nglidan am qidirmoq lozim.

Bitta rolning bitta oliy maqsadi, rolning barcha ijrochilari uchun am majburiy bo‘lsa–da, ar bir ijrochida turlicha jaranglaydi. Bir – biriga o‘xshasa am, ammo boshqa – boshqa vazifa bo‘lib chiqadi. Masalan, ayotiy, insoniy bir maqsadni olib ko‘ring: «o‘ynab – kulishni istayman». Bu istakning o‘zida va unga erishish yo‘lida, amda shodlik xaqidagi tushunchaning o‘zida qanchadan – qancha xilma – xil, nozik jixatlari bor. Bularning barida bir talay shaxsiy, individual, ongli baxolash qiyin bo‘lgan jixatlar mavjud . Bordi–yu, yana am murakkabroq oliy maqsadni mislga olgunday bo‘lsangiz, u xolda inson – artistning individual xususiyatlari yana am yaqqolroq bo‘rtib chiqadi.

Turli ijrochilarning ko‘nglidagi mana shu individual ta’sir – javoblar oliy maqsad uchun muim aamiyatga egadir. Ijodkorning subektiv kechinmalarisiz u quruq, o‘lik narsadir. Oliy maqsad am, rol am jonli, ayajonli bo‘lmog‘i, chinakkam inson ayoti bilan tovlanib turmog‘i uchun artistning ko‘nglidan javob axtarmog‘i zarur.

Shunisi muimki, artist rolga bo‘lgan munosabatida issiy individualligini yo‘qotmasin, shuning bilan birga, yozuvchining ko‘zda tutgan maqsadiga qarama – qarshi bo‘lmasin. Agar ijrochi rolda o‘z insoniy tabiatini nomoyish qilmas ekan, uning yaratgan qaxramoni jonsiz bo‘lib qoladi. Rolning ar bir ijrochisini ayajonga soluvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan jozibani oliy maqsad qayerdan oladi? Ko‘p ollarda oliy maqsadga bunday aloida xususiyatni muloazasiz sezgan narsamiz, beixtiyorlik soasida yashirinib yotuvchi jiatlar beradi.

**Oliy maqsad bu soa bilan juda yaqin aloqada bo‘lishi lozim. Katta, to‘lqinlantiruvchi, chuqur ma’noli oliy maqsadni qanchalar uzoq vaqt va g‘ayrat bilan qidirib topish kerak ekanligini o‘zingiz am endi ko‘rib turibsiz.**

**Oliy maqsadni yozuvchining asaridan qidirib topishni va o‘z qalbimizda unga javob berishning qanchalik muim ekanligini ko‘rib turibmiz. Oliy maqsadni qidirib topish va tasdiqlashning qiyin protsessida uning nomini qo‘yish katta rol o‘ynaydi. Misol qilib K.Galdonining «Mexmonxona bekasi» pesasini olaylik:**

Goldonining «Memonxona bekasi»da, biz avvaliga oliy maqsadni «Xotinlardan nariroq bo‘lishni istayman» (xotinlarni yomon ko‘rishlik) deb atadik. Ammo bunday belgilashda pesadagi yumor va xatti-arakatchanlik ochilmadi. Pesaning qaramoni xotinlarni yaxshi ko‘rishini, u xotinlarni yomon ko‘ruvchi emas, balki shunday bo‘lib ko‘rinishni istaganini tushunganimizdan so‘ng, oliy maqsad quyidagicha belgilandi: «Ko‘nglini zimdan ovlayman» (o‘zimni xotinlarni yomon ko‘rgan qilib ko‘rsataman). Pesa shu ondayoq jonlanib ketadi.

Biroq bunday vazifa butun pesaga emas, balki ko‘proq bitta rolga taalluqli bo‘ladi. Pesa ustida ancha ishlaganimizdan keyin, ayol kishi (Mirandolina) «Memonxona bekasi» yoki boshqacha aytganda, «ayotimiz bekasi» ekanligini tushunganimizdan keyin va shunga yarasha oliy maqsadni belgilaganimizdan keyin butun ichki moiyat o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi.

Bizning ijodimizda va uning texnikasida oliy maqsadning nomini tanlash g‘oyatda muim moment isoblanadi, u butun ishga ma’no va yo‘nalish baxsh etadi. Faraz qilingki, pesaga begona, unga aloqador bo‘lmagan maqsadni, yoxud tendensiyani kiritmoqchilar.

U olda pesa bilan organik ravishda bog‘liq bo‘lgan oliy-maqsad va tabiiy osil bo‘ladigan yetakchi xatti-arakat qisman qoladi, lekin ular minut sayin pesaga kiritilgan tendensiya tomonga qarab og‘ib turadi.




Bu xildagi umurtqa pog‘onasi singan pesa yashay olmaydi. Zamonaviy asar bordi-yu, u o‘zida ulkan masalalarni va chuqur g‘oyalarni jamlagan bo‘lsa, abadiy bo‘lib qolishi mumkin. Bunday zamonaviylikka, agarda u shoirning asari uchun lozim ekan, qarshilik qilmaymiz.

Unga to‘la qarama-qarshi turgan, tor, kundalik aamiyatga ega bo‘lgan asar yech qachon abadiy bo‘lolmaydi, u faqat bugungina ayot, ertaga esa unutilishi turgan gap. Mana shunga ko‘ra san’atning abadiy asari, rejissyorlar, aktyorlar,

shaxsan olganimizda, siz asarga qanchalik turli-tuman narsalar kiritmang, baribir oddiy kundalik bilan organik ravishda qovushib ketmaydi.

Qadimiy, monolit, klassik asarga majburiy ravishda kundalik aamiyat yoki pesaga yot bo‘lgan maqsad kiritsalar, u go‘zal tanaga yopishtirilgan begona etga o‘xshab qoladi va tanib bo‘lmas darajada xunuk qilib yuboradi. Asarning shikastlangan oliy maqsadi o‘ziga tortmaydi va qiziqtirmaydi, aksincha jalini chiqarib yo‘ldan ozdiradi.

Zo‘ravonlik – ijod uchun yomon vositadir, binobarin, kundalik aamiyat tendensiyasi yordami bilan «yangilangan» oliy maqsad pesa va rollar uchun o‘limdir.

To‘g‘ri, shunday ollarda am yuz beradiki, tendensiya oliy maqsad bilan qovushib ketadi. Apelsin daraxtiga limon kurtagini payvand qilsa, undan yangi meva yetiladi, uni Amerikada «greypfrut» deb ataydilar.

Bunday ishni pesada am qilishga muvaffaq bo‘linadi. Ba’zan eski, klassik asarga tabiiy ravishda zamonaviy g‘oya payvand qilinadi, u butun pesani yashartirib yuboradi. Bu olda tendensiya mustaqil ravishda yashashdan to‘xtaydi va oliy maqsadga aylanib qoladi.

Grafikada bu quyidagicha chiziqda o‘z ifodasini topadi: u oliy maqsadga va tendensiyaga qarab ketuvchi yetakchi xatti-arakat yo‘lidir.




.

Bu olda ijodiy protsess normal davom etgan bo‘ladi va asarning organik tabiati mayib bo‘lmaydi. Hamma aytilgan gaplardan shunday xulosa chiqadi: ammadan am oliy maqsadni va yetakchi xatti-arakatni etiyot qilinglar; zo‘rlik bilan kiritilgan tendensiyaga amda pesaga yot bo‘lgan intilishlarga va maqsadlarga etiyot bo‘linglar.

Har qanday xatti-arakat qarshi xatti-arakat bilan to‘qnashadi, shuning bilan birga, ikkinchisi birinchisini arakatga undaydi va kuchaytirib yuboradi. Shuning uchun ar bir pesada yetakchi xatti-arakat bilan bir qatorda, teskari yo‘nalishda bo‘lgan, unga ro‘paradan keluvchi, dushman bo‘lgan qarama-qarshi xatti-arakat bo‘ladi.

Bordi-yu, pesada yech qanaqa qarama-qarshi xatti-arakat bo‘lmasa va amma narsa o‘z-o‘zidan tartibga tushib ketadigan bo‘lsa, u olda ijrochilarning va ular gavdalantirayotgan shaxslarning sanada qiladigan ishlari qolmagan bo‘lardi,

pesaning o‘zi esa xatti-arakatsiz bo‘lib qolardi, binobarin sana asarligidan chiqib qolardi.

**Nazorat savol va topshiriqlari.**

1.Yozuvchi asarining oliy maqsadi.

2.Asarda oliy maqsadni aniqlashdagi qoidalar.

**Tavsiya etildigan qo‘shimcha adabiyotlar.**


1. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora v shkole Stanislavskogo ». Z.Axmedova tarjimasi.
2. K.S. Stanislavskiy «Aktyor o‘z ustida ishlashi».


## 7– ma’ruza

## Mavzu: Artist rolining yetakchi xatti – xarakati.

**Asosiy savollar:**

1.Artist rolining yetakchi xatti-arakati deb nimaga aytamiz?

2.Yetakchi xatti-xarakatni aniqlashda, oliy maqsad qanday axamiyatga ega?

Ijodiy intilishning asl maqsadini tushungandan so‘ng, arakatga keltiruvchilar va elementlarning ammasi avtor ko‘rsatgan yo‘lga qarab, umumiy, eng asosiy maqsadga-ya’ni oliy maqsadga qarab intiladilar.

Artist-rolning psixik xayotini xarakatlantiruvchilarning butun pesa bo‘yicha o‘tadigan bu xatti-xarakatini, ichki intilishini biz o‘z tilimizda...

***ARTIST-ROLNING YETAKCHI XATTI-XARAKATI,***

**DEB ATAYMIZ**

Shunday qilib, yetakchi xatti-arakat artist uchun psixik xayotni xarakatlantiruvchilar intilish yo‘lining to‘g‘ri davomidir, ular ijod qiluvchi artistnig aqlidan, irodasidan va tuyg‘usidan kelib chiqadi.

Mabodo yetakchi xatti-arakat bo‘lmaganda, pesaning barcha bo‘laklari va vazifalari, berilgan shart-sharoitlari, munosabat, aqiqat, amda ishonch momentlari va akazolar o‘zlaricha ajralgan olda jonsiz bo‘lib qolardilar va ularning jonlanishiga yech qanday umid qolmasdi.

Biroq yetakchi xatti-arakat yo‘li bularning ammasini birlashtiradi, barcha elimentlarni xuddi marjonni bitta ipga tizgani singari tizib va ularni umumiy oliy maqsadga yo‘naltiradi.Shu paytdan boshlab amma narsa oliy maqsadga xizmat qiladi.

«Agar» siz yetakchi xatti-arakatsiz o‘ynar ekansiz, demak siz sanada berilgan shart-sharoit va serli «agarda» asosida xatti-arakat qilmaysiz; demak, siz

ijodga tabiatning o‘zini va uning beixtiyorligini jalb qilmagansiz, bizning asosiy maqsadimiz va san’atimiz talabi bo‘lmish – «roldagi» insonning ruxiy ayotini «yaratmagansiz». Ularsiz sistema yo‘q.

Ko‘z oldingizda ideal odam-artistni keltiring; u birgina ayotiy maqsadga: «o‘z yuksak san’ati bilan insonlarni yuksaltirishga va xursand qilishga, geniylarning asarlaridagi yashirin ruiy go‘zalliklarni ochib berishga» bag‘ishlaydi, deylik. Bunday odam-artist teatrga to‘plangan tomoshabinlar uchun genial pesa va rolni o‘zi qanday talqin qilishini ko‘rsatish va tushuntirib berish uchun saxnaga chiqadi va ijodkorning fikri bo‘yicha, asarning moiyatini yaxshiroq ochib beradi. Bunday odam-artist butun umrini o‘z zamondoshlarini ma’rifatli qilishdek yuksak va madaniy maqsadga sarflamog‘i mumkin. U o‘zining shaxsiy muvoffaqiyati yordami bilan ongi, qalbi va akazolariga yaqin bo‘lgan g‘oya va tuyg‘ularni ko‘pchilikka yetkazmog‘i mumkin. Hamma vazifalar va ulardagi rol ayotining qisqa yo‘llari muayyan, barchasi bir tomonga, ya’ni oliy maqsadga qarab yo‘nalsalar normal ol paydo bo‘ladi. Mana bunday:




Rol ayotining kichkina, o‘rtacha,  katta yo‘llarning uzun qatori bir tomonga –oliy maqsad tomon yo‘nalgan.Rol ayotining qisqa yo‘llari o‘z vazifalari bilan, mantiqan izchillik bilan birin-ketin borib,biri ikkinchisiga ulanadi.Shunga ko‘ra ulardan bitta- pesaning boshidan oxirigacha o‘tadigan yo‘l xosil bo‘ladi.Endi bir laxza ko‘z oldingizga keltiring..artist oliy maqsadga ega emas,u gavdalantirayotgan rol ayotining ar bitta kalta yo‘li ar tomonga qarab ketgan. Yetakchi xatti-arakatning uzuq-yuluq yo‘lini tasvirlaymiz.



Mana bular ar tomonga yo‘nalgan rol ayotining kichik bo‘laklari katta, o‘rtacha va mayda vazifalar qatoridir. Ular to‘ppa-to‘g‘ri uzluksiz yo‘lni osil qila oladilarmi? Bunday sharoitlarda yetakchi xatti-arakat barbod qilinadi, pesa bo‘laklarga bo‘linib ketgan,  bo‘laklar esa, ar tomonga sochilib ketgan bo‘ladi va uning ar bir qismi o‘z-o‘zicha, butunlikdan tashqarida kun ko‘rishga majbur etiladi. Bunday olda ayrim qismlar, ular o‘zlaricha qanchalik ajoyib bo‘lmasinlar, o‘z olicha pesaga kerak emas.

Har bir yaxshi pesada uning oliy maqsadi va yetakchi xatti-arakati asarning organik tabiatidan kelib chiqadi. Bu ol buzilar ekan, asar am yo‘q bo‘ladi.

**Nazorat savol va topshiriqlari.**

1.Spektakldda yetakchi xatti-xarakatni axamiyati.

**Tavsiya etildigan qo‘shimcha adabiyotlar.**

1. K. S. Stanislavskiy «Aktyorning o‘z ustida ishlashi»

## 8-ma’ruza

## So‘z ustida ishlash.

**Asosiy savollar;**

1.Muallif matniga qachon o‘tish mumkin?

2.Poetik janr matni ustida ishlash jarayoni xaqida gapirib bering.

Barcha diqqatimizni so‘z bilan o‘zaro munosabat qilish vaqti keladi. Muallif matnidan bir oz yiroqlashib, rol ustida ishlash jarayonidan o‘tib, aktyor yana so‘zga murojat qiladi. Bu aktyor uchun juda muimdir. Rol tekstini asta – sekinlik bilan o‘zlashtirish va muallif so‘zini o‘ziniki qilish jarayoni juda katta mexnattalabqiladi.
Spektakl ishlashda eng avvalo voqealar, fabula, shart – sharoitlar so‘z ustida ishlash uchun imkon yaratamiz. Aktyor qachon impravizatsiyadan aniq, avtor tomonidan berilgan so‘zga o‘tish kerak? Stanislavskiy shunday degan: qachonki avtor so‘zi aktyorga zarurat tug‘dirsa, qachonki bu so‘zlarni 1 – shaxs nomidan gapirsa – shundagina avtor tekstiga o‘tish mumkin. Bu masalada bir jadval tuzib bo‘lmaydi.

Agar tekst she’riy, klassik janrda bo‘lsa – albatta ish jarayoni biroz qiyinroq bo‘ladi. Ammo asar aktyor uchun yaqin, tanish, zamonaviy bo‘lsa tekst ustida ishlash osonroq kechadi.

Xaqiqat xis – tuyg‘ulari aktyorni mexanik tarzda gapirishga majbur qilmasligi kerak – aktyor uchun so‘z o‘ziniki bo‘lishiga qadar. Agar aktyor repititsiyaning 1 – kunidayoq yengillik bilan avtor teksti bilan ishlasa – demak u osongina rol ma’ruzachisi bo‘lib qoladi. Albatta ayrim aktyorlar bu ishni shunday nozik maxorat bilan bajaradilarki – ko‘pchilik unga ishonadi am. Lekin ochig‘ini aytish kerakki – bu aktyor baribir rol ma’ruzachisi bo‘lib qoladi. Xaqiqiy so‘zli o‘zaro ta’sirkuchi yo‘qotib, tekst o‘yini, so‘z intonatsiyasini bo‘yash boshlanadi.

Tekst quruq bo‘lib qolmasligi uchun – ishni tekstdan emas, tekstni aytishga nima majbur qiladi, nima qo‘zg‘otdi – shundan shuni boshlash kerak. YA’ni ijrochi shasining fikri, fikrlar mantig‘i va ketma – ketligi, shart – sharoitni aniqlash ishdan boshlash kerak. Shuning uchun 1 – bor pesani o‘qib bo‘lgandan faktlarini aniqlash kerak va inson tanasini xayotiylikga olib kelmaguncha pesani tegmaslik kerak. Ayrim xollardan tashqari aktyor pesa bilan birinchi bor tanishgandan keyin

– darro muallif xis qilgan tuyg‘ularni aktyor xis etolmaydi. Avtor qaxramoniga nisbatan - o‘z nuqtai nazari, xatti – xarakatlar mantig‘i, emotsional xotiralari bor. Shuning uchun aktyorlar klassik asar qaxramonlari obrazi ustida ishlaganda o‘sha zamon qonun qoidalarni tushunib yetishga asl faollik topishlarida qiynaladilar.

Rol bilan yaqindan tanishish, uni tushunish uchun aktyor o‘z boshidankechirgan real, xaqiqiy xodisalar bilan ishlashni o‘rganish kerak.

Zamonaviy xayotda xam karerizi, qog‘ozbozlik, laganbardorlik, kabi illatlarga duch kelish mumkin.

Avvaliga aktyor, shu illatlarga mukkasidan ketib bo‘ysunuvchi real insonlarni ko‘z oldiga keltirib, xotirasida tiklab, eslashi

mumkin. Eng muxim aktyor qaramoni dildagi dardlarini tushunib, u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lish kerak.

Avtor tekstidan foydalanmasdan, qaramon monologi ustida qanday ishlash mumkin. Eng avvalo – nima uchun bu monolog aytilishi kerak. – shuni tushunishi va is eta bilishi kerak. Agar qaxramonni eng yaqin do‘sti unga nisbatan xiyonat qilgan bo‘lsa aktyor nima qilishi kerak, uning shart – sharoitida bo‘lib qolsa, o‘zini qanday tushishi kerak? Balki avvaliga do‘stini yaxshilik bilan bu yo‘ldan qaytarmoqchi, yoki bu xaqda bilishmagan kishiday o‘zini tutar, balki qilmishini yuziga solar; do‘sti pushaymon bo‘lgan bo‘lsa, uni avtor. Va. x.k.o . Ammo aktyor – rol sharoitida, xayotiy yo‘llardan borib, o‘zini xulq atvorini o‘zi aniqlasin. Uning xatti – xarakati, tug‘iladigan so‘zlari faqat o‘ziga bog‘liq emas – oldida turgan partnyorning xulq - atvoriga am bog‘liq. Aktyorlar xayotdan kelib chiqqan xolda, rol sharoitidagi o‘zlarining xulqatvorlari chinligiga va bir biri bilan jonli o‘zaro munosabat bo‘layotganligiga ishonishsin. Shundan so‘ng, xatti – xarakatlar tartibini, fikrlar yo‘nalishini aniqlab olish mumkin xatti – xarakatlar mantig‘ini egallash jarayonida aktyor partneri bilan munosabatda o‘ziga kerak so‘zlarni topishga majbur bo‘ladi. Xatti – xarakatlarni aniqlash bilan birga, personajning fikrlash yo‘li am aniqlanadi.

O‘zidan tug‘ilayotgan so‘zlar bilan foydalangan aktyor, bora – bora avtor fikri mantig‘ini anglab yetadi. Xatti – xarakat va fikr mantig‘ini puxta egallagach, shundagina rolning tekstti ustida ishlashga kirishish mumkin.

«Mana shunday tayorgarlikdan so‘ng, tantanali ravishda biz sizlarga pesa matnini va rolni topshirdik. Siz pesadagi so‘zlarni yodlashga uringaningiz xam yo‘q. Sizlar zudlik avtor matnini olib ishlashga kirishasizlar. Xudi avtor matnidagi fikrlar, sizlardan tug‘ilgan fikr yoki, xatti – arakatlaridan avzaldek. Natijada nima bo‘ldi? Endi birovning begona so‘zlari, shaxsan sizniki bo‘lib qoldi. Tabiiy xolda bu so‘zlar sizning ongingizga singdi, majburiy emas albatta. Shuning uchun eng muxim bo‘lgan xolatni yo‘qotmadingiz, ya’ni nutq faolligini. Endi siz pesadagi asosiy vazifalarni bajarish uchun, quraq so‘zlarni aytmay so‘z orqali ta’sir kuchini

o‘tkazish uchun arakat qilyamsiz. Avtor tekstini sizga berish maqsadsiz shundan iborat».

Saxnaviy nutqni ifodali bo‘lishi, faqat xatti – arakatini to‘g‘ri xis etishgina bog‘liq emas. Matnga o‘tish jarayoni yana yangi

talabalarga bog‘liq. Bu eng avvalo – xayolotda ichki ko‘rish qobiliyatining yorqin va aniq bo‘lishiga g‘amxo‘rlik qilish. Qaysi saxna amalga oshmayotgan bo‘lsa, anashunga ko‘proq diqqsatni qaratmoq lozim. Siz partnyorni eshiting va ichki ko‘rish bilan uning so‘zlaridan o‘zingizni chamalagan taxminingizni ishlating. Albatta bu taxminlar tekstda yo‘q, ammo tekstning natijasi bu.

Xayolotda ichki ko‘rish bilan, intonatsiya am o‘zgaradi. So‘zlarni gapiriganda diologda paydo bo‘ladi.

So‘zli o‘zaro ta’sir va saxnaviy nutq ifodaviyligi sirlari mana shundan iborat. Ammo nutq ifodaviyligining boshqa tomoni am bor – bu tashqi texnika. Buning ustida faqatgina saxna nutqi darsida shug‘ullanibgina qolmay, «Aktyorlik maxorati» darsida, etyudlarda, parcha va pesalar ustida ishlaganda mashq qilish kerak.

Sanada soxta emas,jonli,aktiv partnyorlararo so‘zli kurash ketayotganda nutq am tushunarli, intonatsiyalar rangli, jarangdor, go‘zal bo‘ladi. Ammo buning aksi am bo‘lishi mumkin; avval xayolotdagi ichki ko‘rish bilan toza nutq, diksiya, to‘g‘ri topilgan intonatsiya bo‘lgan bo‘lsa, uning «aksi»-aniq ifodalangan fikr, to‘g‘ri intonatsiya natijasida faol ichki xatti-arakat, ichki ko‘rish paydo bo‘ladi.

Dialoglarda intonatsiya o‘zgarishlari muximdir.Dialog-navbat bilan so‘zni aytishdan iborat emas, bu so‘zli kurash demakdir.Bunda faqat fikr to‘qnashigina qolmay, intonatsiyalar to‘qnashuvi xam bor.Agar intonatsiyalar kurashi aniq xatti-arakatlardan va to‘g‘ri ichki ko‘rishdan o‘z-o‘zidan kelib chiqmagan bo‘lsa, u xolda intonatsiya nutqning to‘g‘ri mantiqli qurilishidan iborat bo‘lgan «aksi» xisoblanadi. Ammo faqat intonatsiyaga e’tibor berib ishlash- etiyotkorlikni va bilmdonlikni talab etadi.Agar intonatsiya ichki tomondan pishmagan bo‘lsa, osonlikcha yuzaki bo‘lib qolishi mumkin va «nutq shtampi»ga olib keladi. Bu ayniqsa poeziya tilida ishlayotganda xavfli bo‘lishi mumkin.Shekspir asarlari ustida ishlaganda yosh aktyorlar xali matnni mantiqli arakatini egallamay turib, **ularni bo‘rttirish, yolg‘on, pafos, diklomatsiya orqali ishlay** boshlaydi. Keyinchalik bu narsadan qutilish oson emas. Vokeani aniq belgilash, jismoniy xatti-arakat mantig‘i xaqiqatini qidirish va shaxsiy emotsional ta’surotni eslash - fikr va ichki ko‘rishni tug‘diradi.

Inson o‘zining ongidagi bo‘layotgan voqelikni o‘n foizinigina ifoda etadi, to‘qson foizi esa,ongda (miyada) qoladi. Sanada esa bu xaqda unutiladi; aksariyat xolda quruq so‘zga kuch beradi va ayotiy xaqiqat buziladi. U yoki bu sanani ishlaganda sizga aytilgan replikaning moiyatini fikrlash orqali yuzaga keltirish kerak. Repititsiyalarda «aytilmas» replikalarni «tovushlik» replikalarga

aylantirib, fikrlar almashuvi ishtirokchilararo almashib turilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday «illyustrativ obraz» yaratib, partnyorni ishontirish uchun, ichki ko‘rish va fikrlarni tanlab olish qiyin bo‘lmaydi. Ularning mazmuni va ketma-ketligi muallif tomonidan aniqlangan. Qachonki aktyor jismoniy xatti-arakatining ketma-ketligi bilan ular qo‘shilib ketsa, fikrning poetik formadagi bayonnomasiga o‘tish mumkin bo‘ladi. Ular yaxshi tayyorlangan roldagi aktyor ayotiy organikasi bilan qo‘shilib ketadi. Aktyorning diqqatini so‘zga qaratish uchun, aktyorning barcha arakatlaridan, jestikulyatsiyadan(qo‘l arakatlaridan) xolis etish kerak.Undan to‘la mushaklar osoishtaligini talab qilib qilish kerak. Rol matni ustida ishlash jarayonida quyidagi ishlarga ko‘proq e’tibor berish kerak: podtekstga (matn ostidagi tub ma’no) chuqurroq tushunib ishlash, ichki ko‘rishlarni aniqlashtirish, mantiq - izchilligini tushunish, tovush, nutq ritm iva boshqalarga e’tibor berish kerak.

**Nazorat savol va topshiriqlari.**

1. Muallif matnga o‘tish jarayoni.
2. Fikriy matn uslubida ishlash.
3. Spektaklda yetakchi xatti-xarakatni axamiyati.

**Tavsiya etildigan qo‘shimcha adabiyotlar.**

**1.** K. S. Stanislavskiy «Aktyorning o‘z ustida ishlashi»

2. G.Kristi. «Vospmtaniye aktyora v shkole Stanislavskogo» Z.Axmedova tarjimasi.

## 9-ma’ruza

## Voqea va berilgan shart-sharoit.

Asosiy savollar:

1.Pesada berilgan shart-sharoit bilan voqeaning qanday bog‘likligi bor?2.Asardagi asosiy voqeani qanday aniqlash mumkin?

Biror bir buyum yoki ko‘rinish,ya’ni xodisani taxlil qilishdan avval, o‘sha buyum yoki xodisa o‘zi qanaqa- deb kelishib olish kerak. «Voqea»-aniqligi deganda nimani anglashimiz kerak? Dramada «Voqea»ni qanday aniqlash mumkin? «Voqea»- bu bo‘lgan ish, katta aamiyatga ega bo‘lgan bir ko‘rinish, jamoa yoki shaxs ayotidan olingan fakt. Bizni o‘rab turgan borliqning ichidagi faktdan voqeani ajratib olish uchun, shaxsiy ayotimizning biron bir o‘tmishiga qaytib, qaysi voqea shu kichik bir davrda asosiy bo‘lganligini eslashimiz kerak. Shunda odamlar ayotida u qanday aks etganligini anglab yetishimiz mumkin. Inson o‘z ayotida bo‘lgan u, yoki bu faktlarni eslashi va aniqlashi oson. Ammo boshqa insonlar ayotiy

faktlarini aniqlaganimizda xato qilishimiz mumkin. Bularni aniqlab olish uchun, shu insonni mana shu ishga undovchi sharoitlarni, sabab- oqibatlarni (motivlarni) o‘rganish zarur. Buning uchun o‘sha insonni dilidagi so‘zlarni eshitib, o‘rganib chiqish kerak. Qanday qilib pesa materialida berilgan shart – sharoit voqea bilan bog‘liq bo‘ladi? Qaxramon ayotidagi barcha ikir-chikirlar, ya’ni ularning o‘tmishi, ular yashayotgan yoki yashagan sharoit, ichki dunyosi, ar bir qilig‘i, intizomi, fikr va is – tuyg‘ulari, xullas uni shaxs sifatida shakllantiruvchi islatlari – bu qaxramon shart-sharoitidir. Mana shunday qilib, ayotda nimadir sodir bo‘ladi-ki,barcha narsani o‘zgarttirib yuboradi. Yangi fikr va is-tuyg‘ular kelib chiqadi, ayotga boshqacha ko‘z bilan qarashga majbur etadi va bu sodir bo‘lgan xodisani – **voqea** deb aytamiz. Real ayotda bizni ko‘p ar – xil sharoitlar o‘rab turadi. Shunday vaqtlar bo‘ladi-ki, bularning ichida biz uchun bitta-ikkita emas, bir nechtasi ayotimizda eng muximday tuyuladi. Ammo tabiat qonuni bo‘yicha biz – xal etuvchi, yagona bir sharoit ta’siridan so‘ng biron ish qilamiz-ki,u butun ayotimizni charxpalakday o‘zgarttirib yuboradi. Xuddi shunday yo‘l bilan pesa qaxramonlari am ishlashi kerak. Shunday bir nuqtai nazar bor-ki, «voqea» bu - xozir, shu daqiqada sodir bo‘lish kerak. Agar «voqea» xozir sodir bo‘lmasa, unda u «voqea» emas – shart-sharoitdir. «Vaqt taqozasiga qarab, o‘tib ketgan voqea - shart –sharoitga aylanadi.» Chexov asarlarida berilgan shart-sharoitdan voqeani ajratib olish mushkul ish. Sodir bo‘lgan xodisa faktori ayrim paytlarda, voqea ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ammo bu ko‘rinish shartsiz ravishda bo‘ladi.

Berilgan shart–sharoitga ishonch-aktyor qobiliyatining improvizatsiyasiga , ya’ni badiiya qilishiga yordam beradi, amda jonli fikrlashga, berilgan shart-sharoitda xatti-arakat qilish va is- qilishga, bir so‘z bilan aytganda sanaviy badiiy obrazda ayotdagidek yashashga undaydi. Qisqa qilib aytganda – voqea bu spektakl yetakchi xatti-arakatidagi xodisa. Voqea – personajning kelgusidagi kurash va maqsad mantig‘ini o‘zgarttirish bilan birga, aniqlashtiradi am. Voqea – bu voqea, uning oldida xozir bo‘lish sanaviy ifodaviylik, istaralik va tomoshaviylik birligi. Sana ortidagi voqea berilgan shart-sharoit xisoblanadi. Sanada bo‘lib o‘tgan (o‘tib ketgan) voqea esa, shart – sharoitga aylanadi.

### Nazorat savol va topshiriqlari.

1.Voqea va qaramon shart-sharoiti xaqida gapirib bering..

### Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar.

1.Polamishev A.M «Masterstvo rejissyora». «Deystvenniy analiz pesi». Z.Axmedova tarjimasi.

## 10-ma’ruza

## Atmosfera. (Muxit)

Asosiy savollar:

2.Bir vaqtning o‘zida ikki xil muxit saxnada yashashi mumkinmi?

3Aktyor ijodida muxit qanday axamiyatga ega?

**G‘oya –** noyob badiiy asar ruxiyatidir. Muxit – uning qalbi. Undagi barcha ko‘rinayotgan va eshitilayotganlar esa, uning jismi. Aktyorlar orasida saxna xaqida ikki xil fikr yurituvchi va umrining ko‘p qismi shu teatrda o‘tadigan aktyorlar bor – desam yanglishmayman. Ularning ayrimlari uchun - bu mufassal bir kenglik. Vaqti – vaqti bilan aktyorlar, ishchilar, dekoratsiya va butaforiyaga to‘lib turadigan joy. Saxnada nimaiki paydo bo‘lsa, ular uchun ko‘rinadi, eshitiladi. Ular saxnani o‘zgacha qabul qiladilar. Bu kichik mufassal kenglik, ular uchun muxit (atmosfera) bilan to‘la bir katta jaxon.

U shunaqangi katta ta’sir kuchiga egaki, u bilan vidolashish mushkul ish, shuning uchun aktyorlar ko‘p vaqtini teatrda o‘tkazadi. Mana shu teatr muxiti (atmosfera) ular uchun juda kerak. Bu atmosfera kelajakda ijodkorga kuch va ilxom bag‘ishlaydi. Tomosho zali bo‘sh bo‘lsa xam, saxnada tungi sukut xukm sursa xam, inson bu atmosferada o‘zini artist deb xis etadi.

**2. Muxit va ijro.** O‘ziga qattiq jalb qiluvchi muxitda o‘z xatti – xarakatingiz, fikr, nutqingiz, o‘zingizni tutishingiz, xis – tuyg‘u va kayfiyatingiz beixtiyor o‘zgarib ketganini sezganmisiz? Bu muxitga qarshlik ko‘rsatmasangiz uning sizga nisbatan bo‘lgan ta’siri kuchaya boshlaydi. Hayotda xam, saxnada xam xuddi shunday.

Biror bir tarixiy yoki badiiy asardan bir saxnani ko‘z oldingizga keltiring. Misol uchun katta bir omma qamoqonaga otilib kirib, xibsga olingan bir kimsani ozod etdilar. Erkak va ayollar xarakteriga diqqat bilan qarang. O‘z tasavvuringizda uyg‘ongan kichik bir bu saxna, ko‘z oldingizda yorqinlashsin. So‘ng o‘zimizga aytamiz – « xokimlik va kuch» ni o‘zida sezgan omma o‘ta xayojonli muxit ta’sirida, xatti - xarakat qilayapti – deb. Shu saxnadagi xar bir insonni xatti - xarakatiga, yuziga, figuralar gruppirovkasiga, xodisa tempiga, ayqiriq yoki ovoz tembrlariga diqqat bilan qarang. Mana shunda siz xodisada shu muxit qoldirgan izlar borligini va u, omma xatti - xarakatiga ta’sir etayotganligini sezasiz. Tasavvuringizdagi ko‘rinishni bir oz o‘zgartiring. Ilgarigi muxit endi – «qasoskor va yovuzlik» - xarakteriga ega bo‘lsin, shunda ko‘rasizki, - saxnangizdagi qichqiriqlar, nigox va qarashlar, ommaning xatti - xarakati umuman o‘zgaradi. Mana shunday qilib, o‘z tasavvuringizda qilgan ishingizni aktyorlik vazifangizda, muxitni ilxom manbaasi sifatida saxnada ishlatsangiz xam bo‘ladi.

**3. Ikki xil muxit.** Bir paytning o‘zida ikki xil muxit bo‘lishi mumkin emas. Bittasi (kuchli muxit) g‘alaba qozonadi, yoki ikkinchisini tusini o‘zgartiradi. Misol uchun tarixiy bir qasrni olaylik. Bu tashlandiq qasr o‘z ichida sirli o‘tgan kunlar ishlarini saqlab keladi. Shu yerda bir vaqtlar yashagan insonlar xayoli va unutilib ketgan xayoti og‘ushida bu qasr yanada sirli ko‘rinadi. Sirli muxit qasrning xar bir xonasida xukm suradi: zalda, koridorda, yerto‘lada. Qasrga bir

gurux odamlar, (sayyoxlar) kirib keladi. Ular o‘zlari bilan quvnoq, sho‘x bir oz yengiltaklik muxitini bu yerga olib keldilar. Shu zaxotiyoq qasr muxiti, bu quvnoq muxit bilan kurashadi . Shunda qasr muxiti yo g‘olib chiqadi, yoki taslim bo‘lib yo‘qoladi. Bir gurux odamlar bu muxit kurashida qatnashishlari mumkin. O‘z qiliq va fe’l – atvor xatti - xarakatlari bilan ular bir muxitni kuchayttirib, ikkinchisini xolsizlantirishi mumkin, ammo ikkovini xam bir paytning o‘zida ushlab qololmaydilar. Muxitlar kurashi va ularning bittasi g‘alaba qilganligini, biz saxnada kuchli badiiy ifodaviylik topilgan deb ayta olamiz..

4. **Obektiv muxit va subektiv xis – tuyg‘u.** Aktyorning saxnadagi shaxsiy xis – tuyg‘ulari bilan uni o‘rab turgan muxit o‘rtasida katta farq mavjud. Shasiy xis – tuyg‘ular subektiv xisoblansa, muxitni –obektiv ko‘rinish deb bilamiz. Yuqorida qayd etilgan ko‘rinishni yana misol qilib olamiz.

Qasrga kirib kelgan insonlar o‘zlari bilan quvnoq muxitni olib kelibgina qolmay, ularning xar biri o‘zi bilan shaxsiy xis – tuyg‘ularini xam olib kiradilar. Ammo, qasr muxiti, bu insonlarning shaxsiy xis – tuyg‘ulariga bog‘liq bo‘lmagan xolda - o‘zicha mustaqil mavjud bo‘lishini, bu yerga kelgan odamlarning xar biri biladi. Bu muxit «xis tuyg‘ular» shu yerga kirib kelishidan oldin xam bor edi, undan keyin xam bo‘ladi. Ikkita, xar – xil, bir – biri bilan qarama - qarshi muxit bir vaqtning o‘zida «yashay» olmagan bo‘lsa, shaxsiy xis – tuyg‘u va unga qarshi bo‘lgan muxit, bir vaqtning o‘zida «yashashi» mumkin, shu bilan birga, kuchli ta’sirchan saxnaviy ko‘rinishlarni xam yaratadi. Natijada tomoshobinda estetik qoniqish xosil qiladi.

Agar shaxsiy xis – tuyg‘u bilan muxit o‘rtasida qarama - qarshilik bo‘lsa, kuchli kurash paydo bo‘ladi. Bu kurash xarakatli saxnaviy ko‘rinishlarni taranglashtirib quvvat beradi va tomoshabinda katta ta’ssurot qoldiradi.

Saxnada xatti-xarakat qiluvchi shaxsning xususiy xis – tuyg‘ulari, umumiy muxit bilan qarama - qarshi bo‘lsa xam, aktyor rol ijrochisi sifatida, o‘z - o‘zidan bu muxitni to‘la qonli, ongli ravishda kechinadi. Aktyor bunga to‘liq kirishib ketadi. Agar shunday bo‘lganda, aktyor badiiy xaqiqat bilan, ishontirib, ijrochi shaxs nomidan saxnada xukm suruvchi muxit bilan to‘qnashuvini yetkazib berolmasdi.

**5.Muxit va mazmun.** Spektaklning muxim bo‘lgan qismini ifodaviy vosita sifatida faqat muxitgina tomoshabinga ta’sir kuchini o‘tkazish mumkinligini, saxnaviy muxitni sevuvchi aktyorlar yaxshi biladilar. Muxitda yashovchi g‘ayri tabiiy bir narsani, aktyorning

xatti - xarakati xam so‘z xam, muxitning o‘ziday ifoda etib beraolmaydi.

O‘zingizdan so‘rang, tomosha zalida o‘tirib, bir xil ko‘rinish mazmunini siz qanday qabul qilar edingiz. Agar bu ko‘rinish birinchi bor muxitsiz, ikkinchi bor muxit bilan ijro etilsa?

Ongli ravishda birinchi bor ijro etilganda siz ko‘rgan saxnangiz ma’nosini tushunasiz, lekin uning chuqur psixologik ma’zmuniga berilib ketishingiz amrimaxol. Ikkinchisida – sizning qabul qilishingiz o‘z psixologik axamiyati bo‘yicha ancha chuqurroq bo‘ladi. Siz nafaqat saxnaviy ko‘rinish mazmunini tushunasiz, sizx atto uni xis eta boshlaysiz.

**6. Muxitning ichki dinamikasi (xarakati).** Muxit xolat emas – u xarakat va jarayondir. Ichki tomondan muxit doim yashaydi va tinimsiz xatti - xarakatda bo‘ladi. Xatti - xarakat qilib quvnoq bir muxitni boshdan kechirib ko‘ring. Bu muxitda xarakatlar ochilishi, tarqalishi, kengayishi borligiga ishonasiz. Tushkunlik muxitida bu narsani aksini qabul qilasiz, ya’ni xarakatlar siqiqligi, yopiqligi, kuchli bosim borligi. Bu muitning irodasi, kuchi. Muxit sizning irodangizni xatti – xarakat qilishga undaydi. Kaxramonlik, nafrat, falokat, vaxima, shodlik kabi muxitlarda albatta ichki dinamika va kuch mavjud. Ammo, qabristonning sokinligi, yozgi kecha tinchligi, sirli o‘rmon sukut saqlashi kabi muxitlarni qanday ochib berish mumkin?

Bunday vaqtlarda dinamika unchalik ravshan emas. Ammo nozik xis-tuyg‘ularga ega bo‘lgan aktyor uchun, dinamika bu yerda xam bor. Sokinlik tufayli kelib chiqqan obrazlar uning ko‘z o‘ngida ketma – ket o‘taveradi. Aktyor ularni faol kuzatishi orqali, bu obrazlar xayotida o‘zi xam qatnashadi. Nurli kecha dinamikasini aktyor voqeaga, jonzotga , so‘z va xarakatga aylantiradi.

**5.Muxit burchi.** Muit- badiiy asar qalbi va spektakl yuragi.

Inson zotini 3 xil xislati bor, va ular bir - biri bilan uyg‘unlshib ketadi: Bir – biriga ta’sir etish, fikr (obrazlar), xis- tuyg‘u va irodali impulslar. Shunday bir insonni tasavvur qiling; xis – tuyg‘ular faoliyati ishlamaydi, faqat fikr va irodasi bor. Bunday jonzot xakida nima deysiz? Ko‘z oldingizga ongli, ajoyib nozik va murakkab mashina namoyon bo‘ladi. Ammo bu inson emas.

Fikr va iroda bir – biri bilan o‘zaro ta’siri bevosita bo‘lsayu, ammo ularni xis – tuyg‘ular bilan bog‘lamasa, insoniylik pog‘onasidan pastga qarab ketaveradi. Rivojlanish o‘rniga yemiriladi. Muxiti yo‘q spektaklda albatta mexanika paydo bo‘ladi.

Tomoshabin bunday spektaklni tomosha qiladi, texnik tomonidan oliy darajada ekanligiga baxo beradi, ammo spektakl sovuq, «bag‘ri qattiq» va tomoshabinni o‘ziga to‘liq jalb etmaydigan bo‘ladi.

Ayrim vaqtlarda aktyor xis – tuyg‘usi shunday kuchli, ta’sirli bo‘ladi va bu bilan saxnaga muxitni olib kiradi. Bu faqat baxtli tasoddif bo‘lishi mumkin. Mana shu tasoddifga ishonib saxnaviy ko‘rinishlarni qurib bo‘lmaydi. Aktyorlar o‘z xis – tuyg‘ulari bilan bir butunning kichik bir qismi xolos. Aktyor, uning xis- tuyg‘usi, xamda boshqa narsalar xamoxang bo‘lib qo‘shilishi kerak va bularni umumlashtiruvchi – spektakl muxiti bo‘ladi. Insonlar xis – tuyg‘usi borligidan va uni ko‘rsatishga uyalmasliklari kerak. Muxitning o‘zi xam aloxida xis –

tuyg‘ularga ega. Hayot xis – tuyg‘usizlikdan iborat bo‘lsa, bu xis – tuyg‘ular san’atda o‘z aksini namoyon etmasa - san’at o‘ladi. San’at asari o‘z qalbiga ega bo‘lishi kerak va bu qalb muxitdir. Aktyorning buyuk farzi, burchi - teatr qalbini saqlab qolish va bu bilan bo‘lajak teatrni « mexanizatsiyadan» xalos etishdir.

**Nazorat savollari:**

**1**. Muxit aktyor uchun qanday omil bo‘lib xizmat qiladi?.

**2.** Muxit o‘zgarishlari xaqida gapirib bering.

**Tavsiya qilingan qo‘shimcha adabiyotlar:**

1.M. Chexov. 2 – tom. «Ob iskusstve aktyora»Z.Axmedova tarjimasi.

## 4 –KURS UCHUN MA’RUZA MATN

### 1-ma’ruza Saxnaviy xatti xarakat

**Darsning o‘quv maqsadi:**

aktyorlik kasbiga layoqati bor talabani saxnada uslubiy jixatdan to‘g‘ri xatti-xarakat qilishga o‘rgatishdan iborat.

**Asosiy savollar:**

1.Harakat deganda nimalarni tushinasiz?
2.To‘g‘ri harakat qanday tug‘iladi**?**

Mazkur bosqichda talaba-aktyorlar professional teatr talablaridan kelib chiqadigan, yaxlit spektakl ustida ijodiy izlanishlar olib boradilar.

Aktyor o‘z san’atini xatti-harakat orqali namoyish etadi. Shu xatti-harakatlar vositasida, goh jismoniy, goh tasavvuriy, goh sezgi tarzida o‘zi yaratayotgan obraz — siymo oldiga qo‘ygan maqsad sari intiladi. Demak, aktyorning xatti-harakati uning sahnadagi birdan-bir quroli ekan. Aynan shu xatti-harakat orqali obrazning sahnaviy hayoti tomoshabinga yetib boradi. O‘z navbatida, xatti-harakatni ichki sezgilar qo‘zg‘atadi. Har qanday harakat esa, o‘z navbatida, ichki sezgi uchun qopqon vazifasini o‘taydi. Demak, harakat aktyor san’ati texnikasining asosiy tamoyili hisoblanadi. Xo‘sh, nimani **harakat** deb atash mumkin?

1. Harakat iroda tufayli kelib chiqadi.
2. Harakat biron-bir maqsadni amalga oshirish yo‘lida qilinadi.

Maqsadli harakatning vazifasi, o‘zi mo‘ljalga olgan obektni, partnyorni, buyum, narsa, manzarani **o‘zgartirish,** yoki unga **ta’sir o‘tazishdan** iborat.

Biz qayd qilib o‘tgan ikkala ko‘rinishdagi harakat hissiyotdan mutlaqo farq qiladi. Hissiyot ham, harakat ham, **fe’l bilan** belgiladi. Shuning uchun avval boshdan **harakat fe’li** bilan **hissiyot fe’li** o‘rtasidagi farqni ajratib olish kerak. Chunki aktyorlar, ko‘pincha, bu ikki tushunchani bir-biri bilan almashtirib

qo‘yadilar. Agar aktyordan, «**Hozir sahnada nima qilyapsiz?**», deb so‘rasangiz, u hech ikkilanmay, «**azoblanayapman», «suyinayapman», «nafratlanayapman»,** deb javob beradi. Vaholanki, **achinish, azobanish, suyunish, nafratlanish** harakat emas, hissiyot sezgidir. Aktyordan shunday javob olganingizdan keyin unga tushuntirmoqchi bo‘lib, sizdan «**Nimani sezyapsan?»,** deb so‘ralayotgani yo‘q, aksincha «**Nima qilyapsan?»,** deb so‘ralyapti, deysiz. Shunda ham ko‘pchilik aktyorlar bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqni yaxshi tushunib yetmaydilar.

Ma’lum maqsadni ko‘zlab bajariladigan barcha ishlar harakatni bildiruvchi fe’llar deyiladi. (Misol uchun: iltimos qilish, birovni quvlash, taklif etish, rad qilish, tushuntirish va h.k.). Sahnaga chiqqan aktyor shu fe’llar yordamida o‘z oldiga qo‘ygan vazifani amalga oshiradi. Biron-bir harakatni boshlamasdan oldin, his eta boshlasak, harakat boshlashga undamaydigan fe’llar (inson sezgisi bilan bog‘liq- rahm qilish, qahr qilish, nafratlanish, achchiqlanish) aktyorni aniq ijodiy harakat sari boshlamaydi. Chunki bu holatdir. Bu boradagi qonunlar esa inson tabiatidan kelib chiqadigan qonunlardir. Mazkur qonundan kelib chiqilsa, har qanday harakatni boshlashga undovchi kuch-xohish ekanligini ko‘ramiz. (Men birovni ishontirmoqchimanmi — ishontiraman! Birovga ta’na qilmoqchimanmi — ta’na qilaman!)

Ammo, u yoki bu vazifani bajarish jarayonida hamisha ham kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun **ishontirish** deganda — **ishontirdim**, **ovutish** deganda — **ovutdim,** deb tushunmaslik kerak. Agarda biz shu ishni astoydil xohlasak, albatta, **ishontirishimiz** ham, **ovutishimi**z ham mumkin. Buning uchun har bir harakatning boshida — qat’iy iroda, xohish va ishonch bo‘lishi muhimdir.

Inson sezgilari, hissiyotlari esa tamoman qarama-qarshi sifatlarga ega. Chunki bu sezgilarning aksariyati **beixtiyoriy** ravishda bo‘lib, xohishimizdan qat’iy nazar, o‘z-o‘zidan uyg‘onishi mumkin. Misol uchun: birovga qanchalik rahm qilmay desangiz ham — rahmingiz keladi. Bir odamni yaxshi ko‘rib qolmay deganingiz bilan yaxshi ko‘rib qolasiz. Qanchalik o‘zingizni bosishga urinmang, o‘z-o‘zidan jahlingiz chiqib ketganini sezmay qolasiz. Shu bilan birga **ayrim** vaqtlarda, kishi o‘zini achinayotgan, haddan tashqari iztirob chekayotgan qilib ko‘rsatishi ham mumkin. Aslida u achinmaydi ham, iztirob ham chekmaydi. Bunday odamni tashqaridan kuzatib turgan kishi uning yolg‘ondan qilayotgan sa’iy harakatini darhol sezishi mumkin. Bunday holatlarni ko‘pincha o‘zimiz ham ko‘rganmiz, turli marosimlar (to‘y, aza)da guvohi bo‘lganmiz.

Sahnadagi aktyor ham xuddi shunga o‘xshab, o‘zini qanchalik achinayotgan, iztirob chekayotgan qilib ko‘rsatmasin, tomoshabin buni darhol payqab oladi. Negaki, uning barcha urinishlari inson tabiatidagi qonunlarga zid bo‘lib, tabiiy ravishda tug‘ilmaydi. Aslida, boshiga falokat tushgan kishi o‘z xohishi bilan iztirobga tushmaydi. Bunday kezlarda havaskor aktyor — o‘zini iztirob chekishga majbur qiladi. Zo‘rlab ko‘z yosh chiqazmoqchi bo‘ladi. Aslida-chi? Xoholab kulayotgan odam, juda ham kulishni istagani uchun kuladimi? Aksincha, u

qanchalik qattiq kulmasin, shunchalik kulgisini tiyishga harakat qiladi. Havaskor aktyor esa o‘zini zo‘rlab kuldirmoqchi bo‘ladi. Sohta kulgi hamisha nosamimiy va sun’iy ko‘rinadi.

Kundalik turmushimizdan ma’lumki, kulish mumkin bo‘lmagan joylarda qanchalik o‘zimizni tiyishga urinmaylik, biron manzara yoki xodisa sabab, ich-ichimizdan kulgi otilib chiqib kelaveradi. Qanchalik yig‘ini bosishga urinmaylik, ich ichimizdan o‘kirik chiqib kelayotganini sezamiz. Demak, ro‘y bergan yoki berayotgan voqea, hodisaga o‘z munosabatimizni to‘g‘ri belgilab, hatti-harakatni aniq yo‘nalishga burib yubora olsak, hissiyot va sezgilar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lar ekan.

**Jismoniy va ruhiy (psixofizik) harakat, berilgan shart-sharoit hamda sahnadagi timsol — obraz.**

Har bir xatti-harakatning ikki boshlang‘ich nuqtasi mavjud bo‘lib, ularning biri-jismoniy, ikkinchisi ruhiy ko‘rinishga egadir. Ularning bir-biriga bog‘liqligi esa «psixofizik » (ruhiy-jismoniy yoki ichki-tashqi) deb ataladi. Ular bilan chuqurroq tanishib chiqish maqsadida har birini alohida- alohida ko‘rib chiqamiz.

***Jismoniy harakat.***

Har bir jismoniy harakatning **ruhiy** tomoni bo‘lganidek, ruhiy harakatning ham **jismoniy** tomoni bo‘ladi. «Agar shunday bo‘lsa, ular o‘rtasidagi farqni aniqlashning nima hojati bor?» degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Ma’lum miqdordagi **kuch ta’siri** ostida o‘zimizni qurshab turgan moddiy olamga, buyum, narsaning holatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘zgartirishga kirishilsa, buni **jismoniy xatti-harakat** deymiz. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, barcha jismoniy ishlar jismoniy harakat deb atalar ekan (arralash, chopish, kavlash, o‘rish va h.k.) Sport bilan aloqador bo‘lgan barcha harakatlar (suzish, tepish, ko‘tarish, urish va h.k.) ham shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, kundalik turmushda ro‘para keladigan harakatlar (kiyinish, yuvinish, soch tarash, choy quyish, xonani yig‘ishtirish va h.k.) ham yuqoridagi ro‘yxatga kiradi. Va nihoyat, sahnada o‘z sherigimizga nisbatan bajaradigan barcha harakatlarimiz (quchoqlash, o‘tqazib qo‘yish, kuzatib qo‘yish, erkalash, yashirinish, kutib olish va h.k.lar) ham shular jumlasidandir.

***Ruhiy xarakat.***

Inson sezgisiga, ongiga, irodasiga, xohishiga nisbatan ko‘rsatilgan ta’sirni ruhiy harakatlar deymiz.

Bunday holatda inson ta’sir ko‘rsatadigan obektdan tashqari o‘z ongiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Demak, aktyorning har qanday harakati, mana shu ruhiy ta’sir natijasida amalga oshirilib, uning ijodiy jarayonida asosiy o‘rinni egallaydi.

Agar kundalik hayotimizni olib ko‘radigan bo‘lsak, bir kunning o‘zida qancha odam bilan uchrashamiz. Kimdandir nimadir so‘raymiz, kimgadir nimadir tushuntiramiz, kimnidir biron-bir narsaga ishontiramiz, biron narsaga iqror bo‘lamiz, kimnidir maqtaymiz, kimdandir xafa bo‘lamiz, kimdandir xursand bo‘lamiz va h.k. Xissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lgan hamma harakatlar **ruhiy**

**harakat** hisoblanadi. Aktyorning sahnadagi barcha harakatlari xuddi mana shu ruhiy **holatdan** kelib chiqadigan natijaning o‘zidir.Turli tovushlardan musiqa hosil bo‘lganidek, ruhiy holatlardan xatti-harakat kelib chiqadi. Garchand bularning hammasi bizga yaxshi tanish bo‘lsada, har kim ham bu harakatlarni berilgan sharoitda bir hilda bajarmaydi. Nega deganda, urishishi kerak bo‘lgan joyda bir odam ovutsa, boshqasi urishadi, kimdir do‘q- po‘pisa qilsa, boshqasi iltimos qiladi. Garchi kundalik turmushimizda uchraydigan bu holatlar bir ko‘rinishda mayda-chuyda, ikir-chikir hisoblansada, aslida, sahnadagi barcha muammolar mana shu mayda-chuyda, ikir-chikirlar yordamda vujudga keladi, bartaraf etiladi. Shu ruhiy yoki jismoniy holatlarni tartib bilan amalga oshirish natijasida aktyor piyesadagi obrazning berilgan shart-sharoitdagi vazifasini bajaradi. Ruhiy holat bilan jismoniy harakat bir biriga uzluksiz ta’sir o‘tkazadi. Misol uchun, o‘sha eshikni yopib, ichkaridagi odam bilan xoliroq gaplashmoqchimiz. Ammo eshik qurg‘ur ochilib ketaveradi. Biz uni yopmoqchi bo‘lamiz, eshik esa yana ochiladi. Mana shu jismoniy harakatimiz davomida bizda ruhiy o‘zgarish ro‘y beradi. YA’ni asabiylashamiz, jahlimiz chiqadi va h.k. va bu jismoniy harakatimiz bizning ixtiyorimizdan tashqari, ruhiy harakatimizga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Endi jismoniy va ruhiy harakatlarning ikkinchi ko‘rinishini ko‘rib chiqaylik.Ko‘pincha ular uzviy bog‘langan holda bir-biriga ta’sir o‘tkazishini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, biz ikki kishi bo‘lib yer kavlayapmiz, deylik. Yer kavlashni to‘xtatmagan holda bir-birimizga nimanidir tushuntirishga, ishontirishga, da’vat etishga harakat qilamiz. Aniqroq, qilib aytganda, bir vaqtning o‘zida ham jismoniy, ham ruhiy harakatni bajarayapmiz. Lekin, yer kavlar ekanmiz, bizda turli holatlar ro‘y bermaydimi? «Asabiylashish», «Hursand bo‘lish», «xafa bo‘lish» kabi ruhiy holatlarni boshdan kechirmaymizmi? Bu holatlar bajarilayotgan ishning sifatiga ta’sir ko‘rsatmaydimi? Albatta, ta’sir ko‘rsatadi. Bajarayotgan jismoniy harakatimiz bir muddat to‘xtab qolishi, ketmonni zarb bilan yerga urish kabi asabiy holat sheriklarimiznizning ishiga ta’sir ko‘rsatishi natijasida, u yer chopishni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin. Bahslashayotgan odamning ketmoni bir narsaga qadalib qoldi, deylik. Baxs to‘xtaydi. Ketmon urilgan to‘nkami, toshmi olib tashlanganidan keyin bahs yana davom etadi. Ammo endi bahsning shijoati so‘ngan, bir narsani isbotlashga urinayotgan odam o‘zini ancha bosib olgan bo‘ladi. Agar bahslashayotganlarning biri juda ham nozik ishni bajarayotgan bo‘lsa, bahs ham bosiqlik bilan olib boriladi.

Demak, jismoniy harakat birinchidan biron-bir ruhiy vazifaga bo‘ysindirilsa, ikkinchidan, ruhiy holat ham jismoniy harakat ta’sirida o‘zgarib borishi mumkin. Har ikkala ko‘rinishda ham bu harakatlar bir birini to‘ldiradi. Lekin bir vaziyatda ruhiy holat boshlovchi bo‘lsa, boshqa vaziyatda har ikkisining o‘rni almashinib turishi mumkin.

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

1.Harakat deganda nimalarni tushinasiz?

2.To‘g‘ri harakat qanday tug‘iladi?
3.Ruxiy va jismoniy xatti-xarakatlarga mashqlar o‘ylab toping.
**4. Xarakat fe’li** bilan **hissiyot fe’li** o‘rtasidagi farqini mashqlar misolida keltiring.
**Tavsiya etadigan qo‘shimcha adabiyotlar:**
Tursunov T.T. XX asr O‘zbek teatri tarixi. Toshkent 2010 y. J.Maxmudov Aktyorlik maxorati Toshkent 2010 y

## 2-ma’ruza
## Ruhiy-jismoniy hatti- harakat.
## Aktyor ijodida sodda jismoniy harakatlarning ahamiyati.
**Darsning o‘quv maqsadi:**
aktyor ruxiy-jismoniy xatti –xarakati orqali, saxnada xaqiqiy ijod yaratishi va xayotiylikni aks ettirishi.
**Asosiy savollar**
**1**. Ruhiy hatti- harakat turlari qanday?
2.Ularni shartli ravishda bir- biridan farqlash qanday kechadi?

Ruhiy harakatni amalga oshirish, ikki ko‘rinishda bo‘ladi. YA’ni:

***1.Imo- ishora vositasida.***

Ba’zan bajarilayotgan ishning ma’qul yoki noma’qul ekanligini bildirish uchun boshimizni qimirlatib, yoki aftimizni burishtirib, qaraymiz. Demak, bu imo-ishorali harakatdir. Ammo hissiyot va sezgilar orqali paydo bo‘ladigan imo-ishora bilan ruhiy hatti-harakat natijasida paydo bo‘ladigan imo-ishora bir biridan farq qiladi. Bularning birinchisi **beixtiyoriy**, ikkinchisi **ixtiyoriy** ravishda paydo bo‘ladi. Shuning uchun har bir aktyor, bu holatlarni o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak.

Masalan, bir odamga so‘z bilan dakki berish o‘rniga ko‘z qirimizni tashlash, ya’ni imo-ishora bilan, kifoyalanamiz. Natijada o‘sha odam o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishga intiladi. Bu sharoitda, imo-ishoradan o‘rinli foydalanilgan bo‘ladi. Shuningdek, imo-ishora orqali buyurish, iltimos qilish,koyish,ko‘rsatish mumkin. Shu yo‘sinda bajarilgan vazifa ixtiyoriy ravishda bajariladi va hayotiylik kasb etadi. Lekin imo-ishora orqali **afsuslanish, azoblanish, iztirob** chekishni ifoda etib bo‘lmaydi. Bu hamisha soxta bo‘lib ko‘rinadi.

Demak, aktyor sahnadagi xatti-harakatni amalga oshirish uchun imo- ishora shaklini o‘zi tanlashi mumkin. Ammo **sezgilarni** ifoda etish uchun imo-ishora shaklini tanlab bo‘lmaydi. Bu aktyorni bir qolipga tushib qolgan hunarmandga o‘xshatib qo‘yadi. Sezgilarni ifodalaydigan imo-ishoralar harakat davomida o‘zi paydo bo‘lishi kerak. Garchi, sharq muomola madaniyatida imo-ishoralar bilan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar ustuvor ko‘rinishga ega bo‘lsada, sahnada hissiyotni ixtiyoriy ravishda ifodalovchi imo-ishoralarga yo‘l qo‘ymaslik kerak**.**

***2.So‘z vositasida***.

So‘z orqali bajariladigan harakat, inson tomonidan amalga oshiraladigan barcha harakatlar ichida eng kuchli va ta’sirli sanaladi.

Chunki **so'z — fikr** ifodasidir. So'z inson sezgilarini uyg'otadigan, jasoratga chorlaydigan, insonga kuch bag'ishlaydigan, eng ta'sirchan o'tkir vosita hisoblanadi. Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganlaridek:

***Bitta so'z olamni vayron qiladi,***
***Bitta so'z qo'rqoqni polvon qiladi***

Bu holat ayniqsa, teatr san'atida yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin. Ruhiy harakatni qaysi narsa, buyum yoki odamga nisbatan qaratilganidan kelib chiqib, uni ikkiga bo'lish mumkin:

**a/ tashqi**
**b/ ichki**

Sahnadagi sherigining tashqi holatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida bajarilgan harakat **tashqi ta'sir**, o'sha shaxsning ichki xolatiga, **ongiga** ta'sir ko'rsatish maqsadida bajarilgan harakat esa **ichki ta'sir** deyiladi.

Tashqi ta'sir xususida biz to'liq ma'lumotlarni yuqorida ko'rib chiqdik. Ichki ta'sir masalasiga kelsak, ular quyidagilardan iboratdir: fikrlash, hal qilish, o'rganish, tushunish, muqoyasa qilmoq, kuzatmoq, hissiyotini bosish va h.k.ga qaratilgan hatti-harakat.

Inson o'zining ichki fikrlash qobiliyatini, ongini o'zgartirish uchun qilgan barcha hatti-harakatlarini ichki ta'sir va hatti-harakat deyish mumkin. Aktyorlik san'atida ichki harakatlarning ta'siri nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

**«Hatti-harakat»** so'zini bejiz ajratganimiz yo'q. Chunki havaskor aktyorning sahnada qilayotgan ishini mutlaqo sahnaviy hatti-harakat deb atab bo'lmaydi. U sahnada gapirishi, qo'lini siltashi,yurishi, o'tirishi mumkin.Ammo u bu ishlarni o'ylamasdan bajaradi. O'ylamay bajarilgan ishni hatti- harakat deyish mumkin emas.

Inson harakatini turlarga bo'lishdan maqsad, ulardagi sifatlarini shartli bir-biridan ajratib turishini qayd qilib o'tish edi. Haqiqiy hayotda ularni bir-biridan ayri holda uchratish juda mushkuldir. Amalda ko'pincha ular murakkab ko'rinishga ega bo'lib, uzviy bog'langan xolda harakat qiladilar. Chunonchi, jismoniy harakat bilan ruhiy harakat, so'z harakati bilan imo-ishora, ichki bilan tashqi, ixtiyoriy va beixtiyoriy paydo bo'ladigan harakatlar tarzida. Shu jumladan, yana aktyorning sahnadagi harakatlari bir qator qo'shimcha — xohish,fikrni bir joyga jamlash, tasavvur kabi har bir odamning o'zigagina xos bo'lgan yo'nalishlarga ham egadir. Va nihoyat, ichki monolog hamda dialoglardan iborat xayoliy harakat ham shular qatoriga kiradi.Yuqorida sanab o'tganlarimiz aktyorlik mahoratining **ichki texnikasini** puxta egallagan san'atkorgina o'zining ichki harakatlarini bir tizimga terib, uchini mahkam tutish orqali o'zi yaratayotgan siymoning sahnadagi uzluksiz hayot davomiyligini aks etdiraoladi.

Aktyor, sahnada juda oddiy bo'lib ko'ringan vazifani bajarishga kirishar ekan, bir qancha — ruhiy, ma'naviy holatlarni ham harakatga keltiradi.

Oddiy bo‘lib tuyulgan jismoniy harakat orqali bir qancha ichki holatlarni uyg‘otib (ichki harakatlar — fikrlash, sezish, his qilish, tasavvur qilish), xayolan ularni qizil ipga terib, bir boshidan fikr g‘altagiga o‘raymiz.

Shuning uchun, aktyor, jismonan oddiy ko‘ringan bir qator sharoitlarni hisobga olmasdan, sahnaga chiqishi mumkin emas.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oddiy bo‘lib ko‘ringan jismoniy harakatlar bizni **tasavvur** qilishga, **tafakkur** yurg‘izishga, oqlashga, bajarayotgan jismoniy ishni ichki ruhiy holat bilan to‘ldirishga majbur etadi. Jismoniy harakat boshqa harakatlarni yetaklab chiqaruvchi qarmoqqa o‘xshaydi. Stanislavskiy iborasi bilan aytadigan bo‘lsak, **«insonning tashqi a’zolari yordamida ichki olamiga kirib boriladi».**

**Ruhiy vazifani jismoniy harakatga aylantirish.**

Deylik, aktyor birovni ovutishdek oddiy vazifani bajarishi kerak. Bu holda, o‘z o‘zidan savol tug‘iladi. Bu vazifani men qanday bajarishim mumkin? Ichki sezgilar orqali qanday ifoda etishim mumkin ?

Har qanday ruhiy harakatning bevosita vazifasi o‘z qarshisida turgan hamrohining ongida o‘zgarish yasashdan iboratdir. Demak, oddiy ruhiy harakat orqali hamrohimizning ichki va tashqi qiyofasida o‘zgarish ro‘y berishiga erishishimiz kerak.

Misol uchun birovni ovutish uchun sahnaga chiqqan aktyor o‘sha odamni kuldirishi kerak. Aktyor, o‘z maqsadi sari harakat boshlashidan oldin hamrohi qanday kulishini tasavvurida gavdalantirishi, shundan so‘ng ko‘zlagan maqsadi sari harakat boshlashi va nihoyat, hamrohi kulmagunicha tasavvurida uning kulgisini saqlab turishi kerak.

Tasavvurimizda paydo bo‘ladigan natija bizni harakat qilishga undab, g‘ayratimizni rag‘batlantiradi. Kundalik hayotimizda ham aynan huddi shunday bo‘lishi tabiiydir. Axir birov bilan uchrashuvga borar ekanmiz, uning qanday o‘tishi, nima bilan tugashini ko‘z oldimizga keltirmaymizmi? Agar zimmamizga bir odamni ma’lum ishni bajarishga ko‘ndirish vazifasi yuklatilgan bo‘lsachi? O‘sha odam shartimizni qabul qilgan vaqtdagi holati ko‘z o‘ngimizda gavdalanmaydimi?

Uzoq safardan uyiga oshiqayotgan yigit yo‘lda borarkan, eshikdan «Salom, oyijon, mana, men keldim» deb aytgan so‘zlarini eshitgan onasi uni qay ahvolda quchoq ochib kutib olishini ko‘z oldiga keltirmaydimi?

Garchi, hayotda bizning orzu va armonlarimiz armonligicha qolib ketadigan vaqtlar ko‘proq bo‘lsada, har safar biron bir niyatni ko‘nglimizga tugib qo‘yar ekanmiz, shu niyat amalga oshib qolguday bo‘lsa, qay darajada hursand bo‘lishimizni hamisha ko‘z oldimizga keltirishdan charchamaymiz.

Aktyor ham xuddi shunday yo‘l tutishi kerak. Agar aktyor sahnada birovni ovutmoqchi bo‘lsa, ovungan kishining xursandlikdan chaqnagan ko‘zlarini aniq tasavvur qilishi kerak.

**K. S. Stanislavskiyning «jismoniy harakat» usuli bilan Meyerxoldning «biomexanika» usuli.**

Meyerxold o‘zining mashhur «Biomexanika» usulini amerikalik ruhshunos olim Djeyms ta’limotiga tayangan holda yaratgan.

Bu usulning mohiyatini anglash uchun Meyerxold tomonidan tatbiq etilgan shaklga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Bu shakl «Men chopdim va qo‘rqdim» degan ifodani bildiradi. Mazkur iboraning izohi quyidagicha**. *Men qo‘rqib ketganimdan keyin chopganim yo‘q, qo‘rquv chopishimimning natijasidir. YA’ni chopish orqali qo‘rquvni anglatdim.***

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, Djeyms fikriga ko‘ra refleks bo‘yicha (lotincha so‘z bo‘lib, organizmning tashqi ta’sirga javoban oliy nerv sistemasi ishtirokida ko‘rsatadigan reaksiyasi) sezgidan oldin harakat boshlanar ekan. Demak, oldin refleks paydo bo‘ladi, so‘ngra sezgi ishga tushadi. Boshqacha qilib tushuntiradigan bo‘lsak, sezgi natijasida refleks hosil bo‘lmay, refleks natijasida sezgi vujudga kelib, refleks harakatga turtki beradi.

Ushbu tartibdan kelib chiqadigan bo‘lsak, aktyor, birinchi navbatda o‘zining harakatlarini charxlashi, harakatga keltiruvchi asab tomirlar apparatini mashq qildirishi kerak. Meyerxold o‘z talabalari bilan aynan ana shunday mashqlar o‘tqazish orqali talabalardagi mahorat darajasini oshirishga erishgan. Bu usulda ijrochining ichki holatidan ko‘ra tashqi ifoda va ta’sir vositalarini ishga solish ko‘proq ahamiyatga ega hisoblangan. Bunday ijroni plastik janrida, estrada va sirk san’atida ko‘proq ishlatish sezilarli natijaga olib keladi.

**Stanislavskiy** esa bu masalaga boshqa tomondan yondashadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, **mexanik qo‘zg‘alish** yoki siljish emas, **jismoniy xatti-harakat** asos qilib olinadi**. Mana shu qo‘zg‘alish — siljish tushunchasi bilan jismoniy xatti-harakat Meyerxold bilan Stanislavskiy usuli o‘rtasidagi farqni tashkil etadi.**

**Chopish** — bu **mexanik** tarzdagi faoliyatni bildiradi.

**Qochish** esa — **jismoniy xatti-harakatni** anglatadi.

Biz **«chopish**» so‘zini aytish bilan ma’lum maqsad yoki sabab va sharoitni nazarda tutmaymiz. Faqat jismonan amalga oshiriladigan yugurishni ko‘z oldimizga keltiramiz, xolos. Chunki chopishdan maqsad **qochish** ham bo‘lishi mumkin, kimnidir **qutqarish** uchun ham bo‘lishi mumkin. Yoki **mashq** qilish uchun ham chopish mumkin.

Qachonki **«qochish»** so‘zini ishlatadigan bo‘lsak, o‘z o‘zidan qator savollar ko‘ndalang bo‘ladi. YA’ni «**kimdan qochish», «nimadan qochish», «qayoqqa qochish».** Bu holatda ma’lum **maqsadni** ko‘zlab bajariladigan ish nazarda tutiladi. Demak, «**qochish»** so‘zini eshitish bilan, tasavvurimizda biron bir **havf, falokat** paydo bo‘ladiki, qochishdan ko‘zlangan maqsad tushunarli bo‘ladi.

Agar sahnadagi aktyorga **«chop»,** desangiz, sizga savol bermasdan chopa boshlaydi. Agar unga, «**qoch»,** desangiz, darhol «**qayoqqa», «kimdan», «nima sababdan»** qochishim kerak, degan savollar tug‘ilishi tabiiydir. Yoki rejissyor

bergan vazifani bajarishdan avval yuqoridagi savollarga o‘zi javob topishi kerak. Demak, uning ichki a’zolari ishga tushadi. Uni **o‘ylashga**, tasavvur qilishga, **tafakkur** yurg‘izishga undaydi. Natijada berilgan vazifa nima maqsadni ko‘zlab bajarilayotganini oqlashga harakat qilinadi. Agar shunday qilinsa, zaruriy sezgilar ham paydo bo‘ladi.

Demak, Stanislavskiy o‘zining mashhur ta’limotini yaratar ekan, eng avvalo, insonning jismoniy va ruhiy harakatlarini nazarda tutgan. Inson jismonan va ruxan tabiiy bir butunlikda harakat qilishini e’tiborga olgan edi.

**Nazorat savollari:**

**3**.Jismoniy va ruhiy(psixofizik)harakat deganda nimalar nazarda tutiladi?
4.Jismoniy va ruhiy harakatlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
5.”Biomexanika” nima?

Topshiriqlar:

1.Oddiy vazifani avval ruhiy so‘ngra jismonan bajarib ko‘ring va tahlil qiling.
2.Bir harakatni turli maqsadlarni amalga oshirish uchun bajarib ko‘ring.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1.K.S.Stanislavskiy “Aktyor o‘z ustida ishlashi.”
2.J.Maxmudov “Aktyorlik maxorati”

## 3-ma’ruza So‘z harakati va uning mantiqiyligi

**Darsning o‘quv maqsadi:**

**so‘z — fikr** ifodachisidir **So‘z — fikr** ifodachisidir va so‘z orqali partnyorning ongiga ta’sir qilish.

**Asosiy savollar:**

**So‘z ifodalovchi vositami?**

**Saxnaada aktyor uchun so‘z nimaning omili bo‘lib xizmat qiladi?**

Endi so‘zlar harakatining qaysi qonunlarga asoslanganligini ko‘rib chiqamiz.

Bizga ma’lumki, **so‘z — fikr** ifodachisidir. Kundalik hayotimizda shunchaki, gapirish kerak bo‘lgani uchungina gapirmaymiz. Hatto bekorchilikdan gaplashib turgan bo‘lsak ham ma’lum maqsad ko‘zda tutiladi. Masalan: vaqtni o‘tqazish, o‘z o‘zini ovutish, birovni masxara qilish, kimningdir e’tiborini tortish va h.k.

Demak, biz so‘z orqali sherigimizning ongiga ta’sir qilishga harakat qilamiz. Teatrda esa ko‘pincha aktyorlar, shu so‘zni gapirish kerak bo‘lgani uchungina gapirishadi. Agar o‘zlari gapirayotgan gapning mazmunli, ta’sirli, ma’noli bo‘lishini istasalar (o‘zlari uchun ham, hamrohlari uchun ham, tomoshabin uchun ham), so‘z orqali harakat qilishni o‘rganishlari kerak.

Sahnadagi so‘zga, ma’lum maqsadga erishish yo‘lidagi harakat sifatida qarash talab qilinadi. Agar so‘z harakatga bo‘ysundirilgan bo‘lsa, ma’noli va ta’sirchan bo‘ladi. U, o‘zining hisobsiz qirralari bilan inson ruhiyatining turli tomonlariga: ma’naviyati, tasavvuri, sezgisiga ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun sahnadan gapirayotgan aktyor o‘z so‘zini sherigining qaysi jihatiga qaratishni

avvaldan aniqlab olishi shart. YA’ni, ongiga ta’sir ko‘rsatmoqchimi, tasavvurini qo‘zg‘atmoqchimi, ma’lum jismoniy harakatga undamoqchimi? Agar u, hamrohining ongiga ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘lsa, gapiriladigan so‘zlarni saralab olishi kerak.

**«Birov topib gapiradi,**
**Birov qopib gapiradi»**

degan maqol bejiz aytilmagan.

Obrazning ichki dunyosi — ruhiy holati va kayfiyati so‘z orqali ifodalanadi. Shu so‘z vositasi bilan aktyor sherigining **ongiga** ta’sir etib, uning avvalgi holatini o‘zgartiradi. Bunday ta’sir o‘tkazish o‘zaro davom etadi va uzluksiz harakatni yuzaga keltiradi. Shunday qilinganida, muallif tomonidan berilgan ishtirokchilarning muayyan fikri, nutqni ifodalash usullari va shundan kelib chiqadigan ijrochilik mahorati katta ahamiyatga egadir. Mannon Uyg‘ur har bir dialogdagi mantiqiy so‘z harakatiga alohida e’tibor bergan, natijada qahramonni oliy maqsad sari harakat qilishiga olib kelgan.

Sahnada sherigimizga biror so‘zni aytar ekanmiz, bu bilan nafaqat uning idrokiga, shu bilan birga tafakkuriga ham ta’sir o‘tkazamiz. Hayotda biron voqea haqida gapirilganida, biz shunchaki so‘zning o‘zinigina gapirib qolmay, gapirilayotgan voqea xayolan ko‘z o‘ngimizda bo‘y basti bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Sahna tili bilan aytganda, uni tasavvurimiz orqali ko‘rib turamiz. Misol uchun: mening gaplarimdan ta’sirlangan sherigimni, biron-bir nojo‘ya harakatdan to‘xtatish uchun, agar u shunday qilaversa, boshiga ko‘plab ko‘ngilsizliklar yog‘ilishini dalil sifatida keltiramiz. Shu bilan birga, o‘sha ko‘ngilsizliklarni uning ko‘z o‘ngida gavdalantirish uchun intilamiz. Bu narsalarni sherigim ko‘z o‘ngida namoyon qilishdan avval ularni o‘zim ko‘rishim kerak.

Biror odamga ma’lum fikrni uqtirishdan avval, uqtirishimiz kerak bo‘lgan fikrni o‘zimiz, ichki ko‘z bilan ko‘rishga intilamiz. Agar biron xabarni eshitayotgan bo‘lsak, avval eshitib, so‘ngra eshitganlarimizni ichki ko‘z bilan ko‘ramiz. Sahna tili bilan aytganda, eshitmoqlik -ko‘rmoqlikni bildiradi. Shuning uchun sahnadagi aktyor uchun so‘z quruq ovozdangina iborat bo‘lmay, ongimizda o‘sha timsolni qo‘zg‘atuvchi hamdir.

**Matn va uning ostiga yashiringan tub ma’no.**

«Tub ma’noning ochilishi orqali xohishi, maqsad va vazifasi, intilishi va harakati, nihoyat, muddao va partnyorlarning o‘zaro munosabati, siymoning ichki kechinmasi, fikr va oliy maqsad muammolarining ochilishi ma’lum bo‘ladi».

Har qanday badiiy sahna asarida, so‘z ostiga yashiringan ma’nolar, so‘zning mantiqiga nisbatan bir necha xissa ko‘proq va boyroq ma’nolarni anglatadi. Demak, har bir aktyor ohanglar, so‘z harakatlari, yuz ifodalari (tashqi ifoda vositalari) orqali ana shu so‘z ostiga yashiringan ma’noni ochishi va o‘z sahnaviy xatti-harakati orqali hamrohiga va tomoshabinga yetkaza bilishi kerak. Bu yo‘ldagi birinchi vazifa, o‘zining nima haqida gapirayotganini anglab olishdan iborat. Misol uchun bir yigit do‘stiga o‘zi ishtirok etgan to‘y haqidagi ta’surotlarini gapirib

beryapti. Do‘sti, o‘sha to‘yda kimlar bo‘ldi, deb so‘raydi. Yigit to‘yda ishtirok etgan odamlarni bir-bir sanab o‘tar ekan, garchi ularga tavsif bermasada uning gapirish ohangidan to‘yda qatnashgan odamlar, ularga bo‘lgan munosabatini bilib olish mumkin. Demak, insonning gapirish ohangiga qarab, so‘z tagiga yashiringan ma’noni uqib olish mumkin ekan.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

**1.Bitta jumlani turli ma’no va maqsadlarda ovoz chiqarib ifoda etib ko‘ring.**
**2.So‘z bilan harakatning bog‘liqligi qanday kechadi?**
**7.Tub ma’no nima?**

**Topshiriqlar:**

**1.Oddiy vazifani avval ruhiy so‘ngra jismonan bajarib ko‘ring va tahlil qiling.**
**2.Bir harakatni turli maqsadlarni amalga oshirish uchun bajarib ko‘ring.**

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1.K.S.Stanislavskiy “Aktyor o‘z ustida ishlashi.”
2.J.Maxmudov “Aktyorlik maxorati”
3. Po‘latov I. Sahna nutqi. Toshkent, “ O‘qituvchi”,1994 y.

## 4-**ma’ruza**

## Rolning tashqi tavsifi.

**Darsning o‘quv maqsadi:**

Rol ustida uyda ishlash jarayonida yaratilajak siymoning tashqi ko‘rinishi, yurish turishi repetitsiya vaqtida uning ichki holati, vazifa va maqsadidan kelib chiqib, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham «**Ichki holatdan — tashqi harakatga**» degan edi K. S. Stanislavskiy.

**Asosiy savollar:**

1. Aktyor, o‘z qahramonining tashqi qiyofasi ustidagi ishlarini qachon, qayerda, (uydami, repetitsiyadami) olib boirishi kerak?

Insonning bu qonunga bo‘ysunmaydigan bir qancha tashqi tavsiflari ham borki, bular insonning ichki ruhiyatiga bog‘liq emas. Ammo, uning ichki holati, ruhiyatiga so‘zsiz o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunday tavsiflar qatoriga insonning tashqi jismoniy ko‘rinishi hamda uning anatomik tuzilishi kiradi. Misol uchun semiz, bukri, cho‘loq, qiyshiq, ko‘r, baquvvat, nimjon, kasalmand va h.k.

Hamzaning «Maysaraning ishi» piyesasidagi Hidoyatxon — xezalaknamo, Qozi — semiz, Shekspirning «Richard 111» piyesasidagi Richard — bukri va h.k.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, insonning tashqi qiyofasiga oid semizlik, nogironlik, ko‘rlik, qarilik kabi sifatlarini birdaniga yoki tez kunda o‘zlashtirish juda ham qiyin masala. Bu yerda, tashqi qiyofani bir amallab namoyish etishning o‘zi kamlik qiladi. Qari yoki semiz odamning o‘tirib turishini o‘xshatish uchun ter to‘kish, mashq qilish kerak bo‘ladi. Oddiy odam uchun o‘tirib turish ko‘p ham qiyin ish emas. Ammo semiz odamning chordona qurib o‘tirishi, o‘rnidan qo‘zg‘alishi va nihoyat, tik turib olishi oson ish emas. Bu holatni kundalik hayotimizda ko‘p kuzatganmiz. Bunday rollarni ijro etish jarayonida semiz odam

o‘tirib turganida uning mushaklari qanday ahvolda bo‘ladi-yu, nimalarni sezadi? Uning yuragi qanday ishlaydi? Qanday nafas oladi? Aktyor shu narsalarni to‘g‘ri seza bilsagina, uning ichki va tashqi a’zolari o‘z-o‘zidan to‘g‘ri harakat qila boshlaydi. Ba’zi aktyorlar, agar semiz odam rolini o‘ynashlari kerak bo‘lsa, qorniga yostiq bog‘lab sahnaga chiqib ketadi. Bu o‘ta hatodir. Chunki zalda o‘tirgan tomoshabin aktyor qorniga bog‘langan narsa yostiq ekanligini bir ko‘rishdayoq payqab oladi. Semiz odamning rolini o‘ynash uchun avval-boshdan, qoringa hech narsa bog‘lamasdan, o‘zini semiz, deya his qilishi, semiz odam qanday yurishini ko‘cha-ko‘yda kuzatib, o‘zi ko‘rganlarini uyda mashq qilishi kerak. Odatda, semiz odam darhol o‘rnidan turib keta olmaydi. Oldin ikki qo‘lini yerga tirab, oyoqlarini joyidan qo‘zg‘atib, to‘g‘rilaydi. Undan keyin bir amallab qo‘lini yerdan olib, qaddini rostlaydi. Nihoyat, o‘rnidan turib olganidan keyin, darhol yurib ketmay, bir muddat nafasini rostlab olib, ana undan keyin harakat boshlaydi. Mana shularni sira erinmay mustaqil ravishda mashq qilib ko‘rish o‘ta zarurdir.

Berilgan rolning tashqi qiyofasini yaratish sohasida ustki kiyimlarni kiyib yurishni o‘rganish ham katta ahamiyatga egadir. Masalan, «Alisher Navoiy» spektaklidagi Navoiy rolini ijro etuvchi aktyor yoqasiz ichki ko‘ylak, ichki yalang xalat, uning ustidan yengi kalta qabo — chopon kiyib, boshda salla, belida bir necha qavat belbog‘, qaddini g‘oz tutib yurishni o‘rganishi muhim ahamiyatga ega. «Gamlet» spektaklidagi Gamlet rolini ijro etuvchi aktyor tizzagacha bo‘lgan kalta ishtonda yurishni bilishi kerak. «**Agar, kostyum kiysam, o‘z-o‘zidan unda yurishni o‘rganib olaman**», degan aktyor qattiq yanglishgan bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir millat har bir elatning o‘z milliy kiyim boshi, gaplashish usuli, imo ishorasi-yu, xatti-harakatida o‘ziga xos tomonlari bor. Uning ustiga har bir kasb egasining o‘ziga xos xatti-harakati, yurish-turishi bor. Yozin-qishin qo‘lidan ketmon tushmaydigan odam bilan, erta-yu kech traktor yoki mashina haydaydigan, yoki sozanda, olim odam bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, harbiy kishi bilan yog‘ochsoz usta, temirchi bilan zargar, soatsoz o‘rtasida ham farq borligini aktyor yaxshi tushunib olgan bo‘lishi kerak. Bunday mashqlar 1-kursdan boshlab qilinadi va dasturda alohida “Kuzatuvlar”deb, belgilangan. Bu mashqlar bilan parchadan boshlab, spektakl tayyor bo‘lgunicha, tinmay shug‘ullanish foydadan xoli bo‘lmaydi. Shundagina siz yaratgan obraz ham ma’naviy, ham ijtimoiy jihatdan to‘laqonli chiqishiga ishonsa bo‘ladi.

***Nazorat savollar va topshiriqlar:***

***1.Rolning tashqi tafsifi nimalardan iborat?***

***2.Rolning mohiyati nima orqali o‘z aksini topadi?***

***3.Kuzatuvlar jarayonida tug‘ilgan xarakterlarni iprovizatsiya orqali ko‘rsating.***

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” Toshkent 200y.
2.Stanislavskiy K.S. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. Toshkent , 1965 y.
3.Tursunov T.T. “ Turg‘un Azizov”, Toshkent 2004 y.

**5-ma’ruza**

**Badiiy saviyani tarbiyalash**

**Darsning o‘quv maqsadi:**

ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashi mavjud davrdagi jamiyatning badiiy saviyasidan ajralmagan holda aktyor ongini xam shakllanishi.

**Asosiy savollar:**

1.**“Badiiy saviya**” deganimizda nimalar nazarda tutiladi?

**Badiiy saviya -** ***ijodkorni o‘zini qurshab turgan muhitga nisbatan munosabatlar yig‘indisidir***. Bu munosabatlar shahsiy hususiyatga ega bo‘lib, u tabiat, jamiyat va inson, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy, etik va estetik qarashlardan iboratdir.

Shuning uchun ham “insoniyat taraqqiyoti davri”degan ibora ishlatiladi. Badiiy saviya ijodkor yashagan davrda jamiyatda xukm surgan xissiyot va sezgilar: oliyjanobliylik va tubanlik, go‘zallik va badhulqlik, fojeaviy va kulgili vaziyatlarning qaysi biri ustivor ekanligiga ham bog‘liqdir.

Ijodkorning badiiy saviyasi ham jamiyatda go‘zallik, nafosat, estetik did, ahloq va odob tushunchalarining qay darajada shakllanganiga ham bog‘liqdir.

Ma’naviy tizginlarning o‘rtadan ko‘tarilib tashlanishi,”*hammaga hamma narsa mumkin*” degan mentalitetimizga yot g‘oyani kirib kelishi, teleekranlar, jurnal sahifalari, video-kassetalardan sharm-hayosiz, yarim yalang‘och rasmlar, ma’naviy buzuqlik, andishasizlik, bezbetlik, xudbinlik, mol va pulning quliga aylanib, iste’molchilik kayfiyati, boqimandachilik, jamiyatga hech narsa bermasdan faqat undan talab qilish kabi illatlar, ba’zi bir yoshlar ongi va qalbini zaharlab, ma’naviy nogiron qilib qo‘yayotgani hech kimga sir emas.Shu boisdan ham insonlar ongi, badiiy saviyasiga kuchli ta’sir o‘tqazuvchi teatr san’ati maktabining asosiy va bosh vazifalaridan biri — talaba yoshlarning ma’naviy dunyosini, badiiy saviyasini shakllantirishdan iboratdir.Har bir insonning badiiy saviyasi, axloq-odobi, ma’naviy qiyofasi g‘oyaviy tamoyillardan hosil bo‘ladi. Ammo birgina axloq-odobning o‘zi shaxsning «badiiy saviyasi» yuksakligidan dalolat bermaydi. Ayrim hollarda badiiy saviya ahloq-odob mezonlaridan ortda qolgan bo‘lishi ham mumkin. Ba’zan teatrshunoslar badiiy asarni a’lo darajada tahlil etganlari holda, shu asarda tasvirlangan qahramonlarning g‘oyaviy saviyasini tahlil etishga ojizlik qiladilar.

Goho pesa bilan dastlabki tanishuv chog‘ida, ijobiy ta’surot hosil bo‘lishi mumkin. Lekin uni sahnalashtirish jarayonida asarning g‘oyaviy bo‘shligi ayon bo‘lib, badiiy to‘qimalar chok-chokidan so‘kilib ketadi. Natijada, ijodkorlar shunday bo‘sh asarga qanday qo‘l urganlariga o‘zlari ham hayron bo‘lishadi. Yoki buning aksini ko‘rish mumkin. Dastlabki tanishuvda bo‘sh bo‘lib ko‘ringan piyesa,

sahnalashtirish jarayonida ijodiy jamoani o‘z sahnaviyligi bilan maftun etadi va bu asar mavsumning eng yaxshi spektakli sifatida e’tirof etiladi.

Bundan chiqadiki, har bir ijodkor badiiy sezgiga ega bo‘lishi kerak. Bu hissiyotlarni tarbiyalash esa o‘ta murakkab jarayon.

***Nazorat savollar va topshiriqlar:***

1.Badiiy saviya ijodiy, g‘oyaviy dunyoqarash bilan hamohang qadam tashlash uchun nima qilmoq kerak? 2. Badiiy saviyani tarbiyalashda nimalarga ko‘proq e’tiborni qaratmoq lozim?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar**:

1.Stanislavskiy K.S. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. Toshkent , 1965 y.
2.J.Maxmudov “Aktyorlik maxoratit”

3.Tursunov T.T. XX asr O‘zbek teatri tarixi. Toshkent 2010
4.Po‘latov I. Sahna nutqi. Toshkent, “ O‘qituvchi”,1994 y.

## 6 -**ma’ruza**

## T**abiiy ijod** orqali berilgan **siymo-timsol**(obraz)

**Darsning o‘quv maqsadi:**

aktyorlik san’atida uning timsol qiyofasiga kira olishi, ishonarli aks ettira bilishi mahorat mezoni hisoblanadi.

**Asosiy savollar:**

1 .Timsol yaratishda asosan nimalarga e’tibor berish lozim?
**2.**Aktyor timsol qiyofasida yashay olish mahoratiga erishish yo‘llari qanday?

Aktyorlik san’atining oxir oqibat erishishi lozim bo‘lgan natijasi — **tabiiy ijod** orqali berilgan **siymo-timsol**(obraz) qiyofasini aks etdirishdan iboratdir.

Qayerdaki badiiy timsol yaratilmas ekan, u yerda san’at haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Biroq aktyorning ijodi ikkilamchi. YA’ni u ijrochi, xolos. Shuning uchun aktyor, avvalo, birlamchi manb’a bo‘lmish san’at — dramaturg asariga murojaat qiladi. Dramaturg asarida timsol(obraz)lar tavsiya etiladi. To‘g‘ri, ular hozircha so‘zda deylik. YA’ni bu timsollar qog‘ozdagina mavjud.

Agar aktyorni timsolga xos kiyintirib, soqol mo‘ylov yopishtirib, qo‘liga kitob berilsa-yu, u bu kitobdagi so‘zlarni ifodali o‘qib bersa, buni timsol yaratildi deyish mumkinmi? Yo‘q, timsolga yaqinroq deyish mumkin. Bu timsol aktyor tomonidan emas, dramaturg tomonidan yaratilgan qahramon bo‘lib qoladi. Bunday timsol yaratuvchi — dramaturgdir. Ammo bunday ifodali o‘qishni ko‘rgan eshitgan sodda tomoshabin, bu qahramonni aktyor yaratdi, deya hayol qilishi mumkin. Chunki u, shu qahramon orqali ifodalangan badiiylik ta’sirida bo‘ladi.

Bordi-yu aktyor, o‘sha dramaturg yozgan matnni his-hayajon bilan, jarangli ovozda, yana ham ifodaliroq qilib o‘qisa va sodda tomoshabin bundan ko‘ngli to‘lib, uni olqishlasa, bunday havaskor, taqlidchi o‘zini «haqiqiy san’atkorman» deb his qilib, hatto «haqiqiy san’atkor o‘zimman» deya ko‘kragiga urib, atrofga jar solishdan ham toyimaydi.

— Shunday aktyor va aktrisalar ham borki, — deb yozadi Stanislavskiy, — ular uchun xususiyat, hislat, timsol qiyofasiga kirish degan tushunchalar begona. Bundaylar har qanday rolni o‘zlariga moslashtirib, tashqi ko‘rinishi, yoqimli ovozini ko‘z-ko‘z qilishni o‘zlari uchun «oliy maqsad» qilib olganlar. Ular, sahnaga olqish uchun chiqadilar. Ularning hayot mazmuni shundangina iboratdir. Bundaylar maydonda koptoksiz yugurayotgan futbolchiga o‘xshaydi.

Aktyorning tashqi qiyofasi ikki tig‘li xanjarga o‘xshaydi. Undan unumli va oqilona foydalanishni o‘rganish kerak, aks holda uning tashqi jozibasi o‘z san’atining kushandasiga aylanishi ham mumkin.

Aktyor sahnada biron-bir timsolni yaratar ekan, avvalo, o‘sha timsolga xos bo‘lgan xususiyat va hislatlarni tomoshabin ko‘z o‘ngida, muayyan makon va zamonda yaratib uni ishontira olsagina, u yaratgan timsol haqiqiy ijod namunasi sifatida qiziqarli va ishonarli bo‘ladi. Demak aktyor **timsol yaratuvchisi-ixtirochisi** hisoblanar ekan.

Har qanday rol harakatiz bo‘lmaydi. Harakatiz rol boshsiz tanaga o‘xshaydi, xolos. Timsol qiyofasiga kira olish, unga o‘xshatish ko‘p qirrali qurol bo‘lmish sahna ijodining qator talablariga rioya etishlikni taqazo etadi.

Aktyor o‘zini berilgan shart-sharoitga qo‘yib, qahramon zimmasidagi vazifani o‘z hayoti, tabiatiga qiyoslashidan boshlashi kerak. YA’ni, xarakatda avvalo o‘zidan kelib chiqishi kerak. Ammo, bu talablaring dastlabkisi. Ta’limotning mana shu qismi noto‘g‘ri talqin etilishi oqibatida kutilgan natijaning teskarisini ko‘rish mumkin.

Stanislavskiy ta’limotiga ko‘ra, timsol ustida ishlar ekanmiz, «berilgan shart-sharoitga o‘zimizni qo‘yib ko‘raylik», degan iborani mushoxada qilib ko‘raylik. Aktyorlik san’atining dialektik tabiatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, qarama-qarshilik qonuniyatiga ko‘ra aktyorning — timsol, timsolning — aktyor shaklini ko‘ramiz.Chunki, aktyor sahnaga chiqar ekan, o‘zligini yo‘qotmagan holda timsol qiyofasida ko‘rinishi va yashashi kerak. Dialektik qarama-qarshilik deganimizda, shu holat nazarda tutilgan.

Shu ikki holatdan bittasi buzilsa, ijodiy san’at qonuniyati buziladi. Agar aktyor o‘zligini unutib, faqat timsol qiyofasida yashasa, bu uning ruxiy nosog‘ligi haqida dalolat beradi. Misol uchun, Otello Dezdemonani o‘ldirish sahnasida (V.Shekspir “Otello”) aktyor aktrisani xaqiqatdan o‘ldirmaydi, o‘ldirayotgan bo‘lib ko‘rinishi va ro‘y berayotgan voqeaga tomoshabinni ishontirishi kerak.

Faqat ikki holatni birgalikda olib borish, ya’ni o‘zligini yo‘qotmagan holda timsol qiyofasida ko‘rinib, timsol qiyofasida yashashayolishi teatr aktyorining haqiqiy ijodini, san’atkorlik mahoratini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, bunga erishish yo‘llari qanday?

Keling, misollarga murojaat qilaylik. Agar hozir qirq yoshda bo‘lsangiz, yigirma yoshingizda qanday edingiz? Nahotki yigirma yil ichida o‘zgarmagan bo‘lsangiz. So‘zsiz — o‘zgargansiz. Avvalo, jismonan o‘zgargansiz! Ruhiyatingiz, dunyoqarashingiz o‘zgargan. Ong va xotira o‘zgargan, yurish turish o‘zgargan. Lekin bu o‘zgarishlar tabiiy tarzda, asta-sekinlik bilan ro‘y berganligi sababli siz uni sezmagansiz. Lekin sizning xayolingizda hamon o‘sha-o‘sha, yigirma yoshdagideksiz. Chunki o‘tgan yigirma yil davomida hamisha, «anovi» deb emas, «men», «o‘zim» deb yashagansiz. Barcha o‘zgarishlar o‘zingizda ro‘y bergan. Shunday qilib, o‘zligingizni tark etmagan holda to‘xtovsiz o‘zgarib borgansiz. Aktyor ham timsol qiyofasiga kirib borar ekan, biron soniya bo‘lsin, o‘zligidan chetga chiqib ketmaydi. Farqi bitta. Hayotda yigirma yil davomida ro‘y bergan o‘zgarishlar repetitsiya jarayonida ikki uch hafta ichida ro‘y beradi. Demak, aktyor rol ustida ishlar ekan, o‘zini pesada berilgan uchinchi shaxs emas, bu «mening o‘zim», deya faraz qilishi kerak. Aktyor hech qachon o‘zligini unutmasligi lozim. Bu odam menman, degan sezgini saqlab turishi kerak bo‘ladi. Nega shunday? Chunki timsol yaratadigan barcha qurollar aktyorning o‘zidadir. Hissiyot, ovoz, sezgi, imo ishora, fikrlash va h. k. Harakatga keltiruvchi bunday qurollar manbai — aktyorning o‘zida mujassam. Sahnadagi quruq taqlidning o‘zi, shu qog‘oz guldan farq qilmaydi. Demak, aktyor rol ustida ishlar ekan, timsolga xos bo‘lgan ichki va tashqi xislat va xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtira boshlaydi. Shu yo‘l bilan u boshqa shahs qiyofasiga kirib boradi, lekin u o‘zligini bir daqiqa bo‘lsada unutmaydi. Stanislavskiy ta’limotining qiymati ana shunda.

O‘zligini unutmaslik nimalarda aks etadi? Birinchi navbatda, ichki nigoh orqali o‘zligini nazorat qilib borishda. YA’ni timsolning tashqi qiyofasiga zo‘r berib, qalbini esdan chiqarib qo‘yish, yoki timsolning tashqi qiyofasini unutib, bu mana menman deb, o‘z o‘zini ko‘rsatishga o‘tib ketish yaramaydi. Stanislavskiy ta’limotining «o‘zidan kelib chiqib» degan shiorining asl mohiyati aktyor tabiiy ravishda timsol qiyofasiga kirib borishi uchun yaqin yo‘l ekanligini ko‘rsatib berishda. Shunday qilib, Stanislavskiy ta’limotining asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

***1.Hayotiylik tamoyili.***

***2.San’atda g‘oyaviy fikrning «Oliy maqsad» orqali amalga oshirilishi tamoyili.***

***3.Sahnadagi maqsad sari intilish jarayonida sezgi va hissiyotlarni qo‘zg‘atuvchi yagona kuch xatti-harakat ekanligi to‘g‘risidagi tamoyil.***

***4.Aktyorning tabiiy tarzda paydo bo‘ladigan ijod tamoyili.***

***5.Siymo qiyofasiga kirishish chog‘ida aktyorning o‘zligini yo‘qotmay, ijodiy yondashuvi tamoyili.***

Stanislavskiyning shogirdi YE. B.Vaxtangov sahnalashtirgan spektakllarni tahlil qilar ekanmiz, garchand ular realistik poydevorga qurilgan bo‘lsada, shakl jihatdan Stanislavskiy sahnalashtirgan spektakllardan farq qiladi. Vaholanki, har

ikkala teatr aktyorlari ham Stanislavskiy ta'limotiga tayangan holda ijod qilganlar. Natijada ular sahnalashtirgan spektakllardan Stanislavskiy xursand bo'lgan. Hozirgi kunimizda ham «Ilhom» studiyasining ayrim spektakllari, O'zbek Davlat drama teatrning «Otello» spektakli talqini, Milliy teatrdagi bir qator spektakllar va viloyat teatrlarining ko'pgina spektakllari, janr va shakl jihatdan bir-biridan farq qilsada, realistik talqin jihatidan Stanislavskiy ta'limoti asosiga qurilgan asarlardir.

Lekin Milliy teatrda sahnalashtirilgan ayrim spektakllarni shu holicha boshqa teatrlarga ko'chirib qo'yish taqlidiy san'atdan boshqa narsa emas. Har qanday ko'chirmachilik, bir aktyor tomonidan yaratilgan rolni boshqa aktyor unga o'xshab o'ynashi xuddi birovning kiyimini o'g'irlab kiyib olishdek gap. Lekin bitta rolni ikki aktyor ijro etishiga to'g'ri kelib qolsachi?

Nazira Aliyeva o'zining «San'at mening hayotim» kitobida «Alisher Navoiy» spektaklidagi Navoiy rolini ikki buyuk aktyor — Abror Hidoyatov va Olim Xo'jayevlar gavdalantirganligi xususida to'xtalib, shunday deb yozadi:

***«Olim Xo'jayev yaratgan Alisher Navoiy obrazining mukammal talqinini ko'rgan va eshitgan kishiga Abror aka gavdalantirgan Alisher Navoiy obrazi bundan ham yuksakroq, teranroq, mukammalroq ekanligini tushuntirib berish qiyin... Bu ikki ulkan aktyor yaratgan Alisher Navoiy obrazi san'at bo'stonida mangu viqor to'kib turuvchi ikki buyuk chinorga o'xshaydi»...***

Demak, har ikkala aktyor yaratgan ulug' siymo qiyofasida ikki buyuk aktyorning o'zigagina xos bo'lgan ehtiros, his hayajon va shijoat aks etgan.

Bu mavzudagi so'zni muxtasar qilar ekanmiz, Stanislavskiyning: ***«Olg'a intilmaydigan san'at va aktyor bamisoli orqaga ketayotgan san'at va aktyordir»,*** — degan so'zlarini ta'kidlab o'tamiz.

**Nazorat savollar va topshiriqlar:**

1. Zamonaviy teatr va kino san'atida timsol yaratish ishlari qanday olib borilmoqda?

2.Stanislavskiy ta'limotining asosiy tamoyillari nechta?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent 200y.
2.Nazira Aliyeva " San'at mening hayotim", Toshkent 1975 y.
3.Zoxidova N. "Tashxodja Xodjayev", Toshkent 1980 y.
4.Raxmonov M., Silmilshteyn T. "Shukur Burxonov", Toshkent 1974 y.
5.Tursunov T.T. " Turg'un Azizov", Toshkent 2004 y.
6.Tursunboyev S .T. O'zbek teatri sarhadlari, Toshkent, 2010 y.
7.Ikromov H .I. Davr va teatr Toshkent 2009 y.

## KURS ISHLARI MAVZULARI

“Aktyorlik mahorati” fanida kurs ishlari asosan amaliy mashg‘ulotlar, ya’ni etyudlar, adabiy asar va pesalardan olingan parchalar, diplom spektakllarda turli xarakterga ega bo‘lgan rollar ijro etiladi.

Talabalar turli janr va uslubiyatlarni o‘zlashtirishidan kelib chiqib, diplom spektakllar ikkita qilib belgilangan. Birinchi diplom spektakl uchinchi bosqichda, ikkinchi diplom spektakl to‘rtinchi bosqichda topshiriladi. Aktyorlik mahorati bo‘yicha diplom spektakllar ustida ishlash jarayonida quyidagi tartib bo‘yicha ish olib boriladi:

- Yaxlit dramatik asar taxlili.
- Muallif tomonidan berilgan shart-sharoit doiralarini xatti-xarakatlar orqali o‘zlashtirish.
- Ichki monolog, ruhiy va jismoniy harakatlar tizimini topish.
- Qaxramonning munosabatlari, xatti–harakati, qarama-qarshiliklarini aniqlash.
- Pesaning matni ustida ishlash.
- Uslub, janr, davrni o‘zlashtirish
- Avtor so‘zining tub ma’nosiga yetib borib, ta’sirchanligi ustida ishlash.
- Obraz ustida ishlash jarayoni.

Diplom spektakllar professional talablardan kelib chiqib, katta sahnada ishlashni nazarda tutgan va unda aktyorning ifodaviy vositalarni katta sahna qonun-qoidalariga bo‘ysindirish bo‘yicha ish olib boriladi va quyidagi talablarga rioya etishlik talab qilinadi.

- Plastika, nutq, ichki hissiyotlar ifodaviyligi.
- Berilgan maydon va makon kompozitsiyasini his qilish.
- Janr,uslub, spektakl va qaxramonning maromi (tempo-ritm).
- Spektakl davomida uzliksiz xatti –harakatga erishish.
- Spektaklda sahnaviy muhit va rol ijrosi.
- Timsoliy (obrazli) fikrlash, timsolning ildizini (zerno obraza) topish.

Kurs va diplom ishlari yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan adabiy va dramatik asarlar asosida olib borilishi tavsiya etiladi. Spektakllar umuminsoniy qadriyatlar, halqimizning ma’naviy – ma’rifiy boyligini tarannum etuvchi, umumbashariy muammolarni aks ettiruvchi mavzularga bag‘ishlanishi kerak.

## 1-KURS ISHLARI MAVZULARI
## Mashq va etyudlar ustida ishlash

Mashqlar ustida ishlash.
Diqqat
Tasavvur va fantaziyalarni rivojlantirish mashqlar
Sahnaviy ishonch- mashqlar
Sahnada buyumlar bilan muomila qila olish
Sahnaviy xatti-harakatni mantiq izchilligida bajarish mashqlar
Qabul (idrok) qilish va kuzatuvchanlik.
Sur’at va marom
Hissiyot va marom haqidagi tushunchalar
Sezish va his qilish xotirasi
Sahnaviy munosabatlarni baholash
Sahnada vaqt va makonni o‘zlashtirish.
Hayotda to‘qnash keladigan voqea va hodisalarni kuzatish.
Ijodiy siqiqlik hamda aktyor va aktyor ijodida fikr jamlash.
Plastik harakat
Ichki va tashqi erkinlik.
Mushaklar erkinligi
Sahnaviy diqqat.
Shakl va xissiyotlarni bir-biriga bog‘likligi
Ruhiy va jismoniy harakat
Xayvonot olami-kuzatuvlar
Etyud ustida ishlash
Etyudda berilgan shart-sharoit, maqsad, vazifa.
Improvizatsiyaga asoslangan mashqlar.
Xatti-harakat. “Agarda?” berilgan shart sharoit.
Bo‘laklar va vazifalar
Elementar- psixologik vazifalar
Oliy maqsad.
Yetakchi xatti-harakat
Fantaziya va tasavvur elementi.
Etyudlarda ikkinchi plan.
So‘zsiz xatti-harakat.
Xatti-harakat
Psixofizik jarayon
Aktyor ijodida sodda jismoniy harakatlar
Ruhiy xatti- harakat.
Imo- ishora vositasi.
So‘z-aktyor ifodaviy vositasi.
So‘z harakati va uning mantiqiyligi
Rekvizit sahna elementlari, chiroq, musiqa, tovushdan foydalanib etyud yaratish.

Sahnada vaqt va makonni, o‘zlashtirish, barcha ifodaviy vositalar orqali sahnaviy muhit yaratish
Etyud – dramaturgiya qonunniyatlarga-bo‘ysungan hayotiy lavha.
Sahna bezagi, rekvizit orqali muhit yaratish usullari.
Sifat va ma’rom mashqlari
Mizansahna yaratish bo‘yicha dastlabki mashqlar.
Etyud kompozitsiyasi. Voqealar tizimi.
Etyud jarayonida tabiiylikka erishish. IprovizitsiY.
Musiqa asosida etyud yaratish.
Tasviriy san’at asari asosida etyud yaratish
Etyudan parchaga o‘tish jarayoni

**2-KURS ISHLARI MAVZULARI**
**Adabiy asarga o‘tish jarayoni.**
**Klassik asarlardan parchalar ustida ishlash.**

Adabiy asar tanlash.
Etyutdan parchaga o‘tish jarayoni.
Muallif tomonidan berilgan shart-sharoit doiralarni xatti-xarakatlar orqali o‘zlashtirish.
Avtor so‘zini o‘zlashtirish, tub ma’nosiga yetib borish.
Jonli va ta’sirchan ijro .
Parchaning yaxlit asar g‘oyasiga bo‘ysindirish.
Klassik asarlarning taxlili. G‘oya, oliy maqsad, shart-sharoit, voqealar tizimi, yetakchi xatti-xarakat va xk.
Etyudlar orqali avtor bergan shart-sharoitlarni o‘zlashtirish.
Asardagi davrni o‘rganish plastik ifodaviyligini topish.
Janr va muallif uslubiyatini o‘zlashtirish
Avtor so‘zining o‘zlashtirish jarayoni
Rol ustida mustaqil ishlash uslubiyati
Parchaning yaxlitligiga erishish

**3-KURS ISHLARI MAVZULARI**
**Diplom oldi kurs ishi ustida ishlash**
**Katta sahnada spektakl ustida ishlash.**

Yaxlit dramatik asar
Obraz ustida ishlash jarayoni taxlili
Ichki monolog,
Qaxramonning munosabatlari, xatti – xarakati, qarama -qarshiliklarini aniqlash.va jismoniy xarakatlar tizimini topish

Pesaning matni ustida ishlash
Uslub, janr, davr va so‘z ustida ishlash.
Plastika, nutq, ichki hissiyotlar ifodaviyligi.
Timsoliy (obrazli) fikrlash, timsol negizini (zerno obraza) topish.
Berilgan maydon va makon kompozitsiyasini his qilish.
Janr, uslub, spektakl va qaxramonning maromi (tempo-ritm).
Spektaklda sahnaviy muhit va rol ijrosi.
Spektakl davomida uzliksiz xatti –harakatga erishish.

**4-KURS ISHLARI MAVZULARI**
**Diplom spektakl ustida ishlash**
**Diplom spektaklni katta sahnaga olib chiqish.**

Janr va unga bog‘liq aktyorning sahnadagi yashash tarzi.
Yangi janrdagi pesaning har tomonlama tahlili.
Muallif tomonidan berilgan timsolni sahnada gavdalantirish.
Maqsad sayin yetakchi xatti- harakat.
Rol ijrosida badiiylikka erishish.
Diplom spektaklni katta sahnaga ko‘chirishda mizansahnalar ustida ishlash.
Berilgan makonda nutq, plastika ifodaviyligi ustida ishlash.
Ijroni spektakl muxitiga bo‘ysindirish.
Oxang va so‘z osti ma’nolarining uzviy bog‘liqligi.
Timsolning (obrazning) badiiyligiga erishish.

**BAHOLASH MEZONI**

**I-kurs I semestr.**
**Joriy nazorat.**
1. Teatr san’atining jamiyatdagi o‘rni. Kasb etikasi. Oliy-oliy maqsad to‘g‘risida tushunchalarni o‘zlashtirish darajasi. **10 ball**
2. Diqqat, tasavvur, ritm, sahnaviy ko‘rish, eshitish haqidagi tushuncha va o‘zlashtirish. **10 ball**
3. Buyumsiz hatti harakat mashqlari sifati. **10 ball**
4. Hayvonot olamini jonlantirish sifati. **10 ball**

**Oraliq nazorat.**
1. Diqqat, ritm, tasavvurni rivojlantirish uchun mashqlar bo‘ycha etyudlar. **15 ball**

2. Buyumsiz mashq-etyud, xayvon va buyumlarni jonlantirishga oid etyudlar. Bir yoki ikki kishilik etyudlar.
   **15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

1.Mustaqil ish ko‘riklari. Sahnada mashq, etyudlarni organik (tabiiy) ravishda ijro etish «To‘rtinchi devorni» barpo etish.

**30 ball**

**Jami: 100 ball**

**I-kurs II semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Etyud tahlili. Shart-sharoit, maqsad, xatti-xarakat, voqea aniqlashidagi zehn. **10 ball**
2. Sahnada muloqot. Partnyorlarning mumkin qadar so‘zsiz bir-biriga ta’sir etishi. **10 ball**
3. Etyud yaratilishida mavzu tanlash qobiliyati. **10 ball**
4. So‘zning tabiiy tug‘ilishi. **10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Etyud yaratilishi. Mavzu tanlash. **15 ball**
2. Etyudni aktyorlik mahorati unsurlariga bo‘ysindirgan holda jonli ijro etish.

**15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

1. Mustaqil ish ko‘riklari Sahnada o‘zaro munosabatlar, fikrlash jarayoninng tabiiyligi. Ta’sir etish va ta’sirlanish kuchi. Sahnaviy ifodaviylik. Ichki ritm va hissiyotlar.

3**0 ball**

**Jami: 100 ball**

**II-kurs 3- semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Muallif tomonidan berilgan shart sharoitni o‘zlashtirish jarayoni.Taxlil.

**10 ball**

2. Tanlangan asarlar va talabaning badiiy didi. **10**

**ball**

3. Avtor bergan voqeylik bo‘yicha etyud jarayonida improvizatsion xatti-xarakat.

**10 ball**

4. Fikrlash jarayoni, partnyorni his va qabul qilish, unga o‘z maqsad sayin ta’sir etish.
**10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Repertuar tanlash bo‘yicha bilim doirasi. **15 ball**
2. Partnyorlarning o‘zaro munosabatlarida jonli va ta’sirchan xarakat darajasi.

**15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

Mustaqil ish ko‘riklari Adabiy asarlardan parchalarda jonli va ta’sirchan ijro.

3**0 ball**

**Jami: 100 ball**

**II-kurs 4- semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Klassik asarlari bo‘yicha bilim doirasi. **10 ball**
2. Klassik asarlarning taxlili: g‘oya, oliy maqsad, voqealar tizimi, shart-sharoit, maqsad va vazifalar, yetakchi hatti-harakatni topish va drama asarini tahlilini o‘zlashtirish.
**10 ball**
3. Etyudlar orqali avtor bergan shart-sharoitni o‘zlashtirish. **10 ball**
4. Avtor so‘zini o‘zlashtirish jarayoni.
**10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Nazariy va amaliy bilimlarni ijroga tadbiq etish. **15 ball**
2. Nutq, plastika hamda tashqi va ichki hatti-harakatning ifodaviyligi.

**15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

1. Mustaqil ish ko‘riklari Klassik asarda talabaning original, o‘zigagina hos

uslubiyat bilan ijro etish darajasi. **30 ball**

**Jami: 100 ball**

**III-kurs 5- semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Yahlit dramatik asar tahlili. Fikrlash qobiliyati va bilim doirasi.

**10 ball**

2. Rol ustida ishlash jarayoni. **10 ball**
3. Talaba aktyorning ifodaviy vositalaridan foydalanish. **10 ball**
4. Rol ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi. **10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Rol ustida ishlash jarayoning o‘zlashtirilishi darajasi. **15 ball**
2. Rol ustida mustaqil ishlash jarayonida topilmalar. **15 ball**

**Yakuniy nazorat** . Mustaqil ish ko‘riklari**.**Rol ijrosida aktyor o‘ziga hosligini topish,barcha ifodaviy vositalardan (nutq, plastika, hatti-harakatdan) to‘laqonli foydalanish.

**30-ball**

**Jami: 100 ball**

**III-kurs 6- semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Obraz (timsol) tushunchasi, uni yaratish uslubiyatini o‘zlashtirish.
**10 ball**
2. Asar g‘oyasi va aktyor-rol-personaj-obrazning shu g‘oyani olib chiqishdagi hizmati.

**10 ball**

3. Ijroni janr qonuniyatlariga bo‘ysindirish, badiiylik tomon yo‘naltirish.

**10 ball**

4. Yahlit asarda, yaxlit obraz yaratish darajasi. **10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Asarni to‘g‘ri tahlil qilib, sahnaviy ifodasini topish darajasi. **15 ball**
2. Ma’lum bir janrda yashash uslubiyatini topish. **15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

1. Mustaqil ish ko‘riklari Ma’lum bir janrda rol ijro etishda badiiylikka erishish. **30 ball**

**Jami: 100 ball**

**IY-kurs 7- semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Spektakl va spektakladagi rollar tahlili. **10 ball**
2. Oliy maqsad, yetakchi hatti-harakat sayin qahramonning ruhiy holatini o‘zgarishini amalda tadbiq etish. **10 ball**
3. Qahramon hatti-harakatining badiiy ifodasini topish. **10 ball**
4. Obrazning badiiy yahlitligiga erishish darajasi. **10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Rol va pesa tahlili. Obraz talqini. 15 ball
2. Tahlil, talqin va sahnada rolni amaliy o‘zlashtirish jarayoni. **15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

1. Mustaqil ish ko‘riklari Aktyorlik mahoratining barcha unsurlarini o‘zlashtirish natijasi. **30 ball**

**Jami: 100 ball**

**IY-kurs 8- semestr.**

**Joriy nazorat.**

1. Rol ijro etish jarayonida erkinlikka erishish darajasi. **10 ball**
2. Spektakl yahlitligini sezish, oliy-oliy maqsad sayin qaxramonning hatti-harakatini aniqlash darajasi. **10 ball**
3. Chiroq, musiqa, libos, sahnaviy muhitni sezish darajasi. **10 ball**
4. Spektakl ma’rom va sur’atiga (tempo-ritm), muhitiga mos obraz hatti-

harakatini moslash. **10 ball**

**Oraliq nazorat.**

1. Rol ijro etish jarayonida spektakl yahlitligiga bo‘ysindirish darajasi.

**15 ball**

2. Dekoratsiya,chiroq, musiqa, libosdan foydalanish va o‘z mahorati bilan sahnaviy muhit yaratish.
**15 ball**

**Yakuniy nazorat.**

1. Mustaqil ish ko‘riklari .Yaxlit spektaklda, yaxlit badiiy obraz yaratish.

**30 ball**

**Jami: 100 ball**

**I SEMESTR**
**1-4 KURSLAR BO‘YICHA**

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 40 ball** | | | |
| **1** | Sentabr | Ijodiy | 10 ball |
| **2** | Oktabr | Ijodiy | 10 ball |
| **3** | Noyabr | Ijodiy | 10 ball |
| **4** | Dekabr | Ijodiy | 10 ball |
| **Oraliq nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Noyabr | Ijodiy | 15 ball |
| **2** | Yanvar | Ijodiy | 15 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Yanvar | Ijodiy | 30 ball |

**II SEMESTR**
**1-2 KURSLAR BO‘YICHA**

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 40 ball** | | | |
| **1** | Fevral | Ijodiy | 10 ball |
| **2** | Fevral | Ijodiy | 10 ball |
| **3** | Aprel | Ijodiy | 10 ball |
| **4** | May | Ijodiy | 10 ball |
| **Oraliq nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Aprel | Ijodiy | 15 ball |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2** | Iyun | Ijodiy | 15 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Iyun | Ijodiy | 30 ball |

**3-KURSLAR UCHUN**

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 40 ball** | | | |
| **1** | Fevral | Ijodiy | 10 ball |
| **2** | Fevral | Ijodiy | 10 ball |
| **3** | Mart | Ijodiy | 10 ball |
| **4** | Aprel | Ijodiy | 10 ball |
| **Oraliq nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Mart | Ijodiy | 15 ball |
| **2** | May | Ijodiy | 15 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | May | Ijodiy | 30 ball |

**4-KURSLAR UCHUN**

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 40 ball** | | | |
| **1** | Fevral | Ijodiy | 10 ball |
| **2** | Fevral | Ijodiy | 10 ball |
| **3** | Mart | Ijodiy | 10 ball |
| **4** | Mart | Ijodiy | 10 ball |
| **Oraliq nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Fevral | Ijodiy | 15 ball |
| **2** | Mart | Ijodiy | 15 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| **1** | Mart | Ijodiy | 30 ball |

## NORMATIV XUJJATLAR


ОЛИЙ ТАЪЛИМ
МЕЪЁРИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТЎПЛАМИ

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

У3
378
О-49

# ОЛИЙ ТАЪЛИМ

*Меъёрий ҳужжатлар тўплами*

Ташкентский текстильный и легкой промышленности институт
БИБЛИОТЕКА
Инв. № 148830

«ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА
АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ
БОШ ТАҲРИРИЯТИ
ТОШКЕНТ — 2001